

Yunus O'g'uz

SO'QMOQ

(tarixiy roman)

**Ozarbayjon Respublikasi Shusha shahrining
270 yilligi va 44 kunlik Vatan muhobarasiga
bag'ishlanadi**

**«Renessans press»
Toshkent
2023**

UO'K:821.512.133-1

KBK:84(5Ў)7

O'49

Yunus O'g'uz

Yunus O'g'uz, So'qmoq [Matn] – Toshkent «Renessans press» nashriyoti, 2023. / – 268 6.

***Ozarbajjon tilidan
Gulbahar Ashurova tarjimasi***

Muharrir: To'lg'in Tog'ayev

Tarixiy romanlari bilan o'zbek kitobxonlari qalbidan joy egallagan mashhur Ozarbajjon yozuvchisi Yunus O'g'uzning "So'qmoq" romani Shusha shahrining ishg'oldan ozod etilganligi va 270 yilligiga bag'ishlangan. "So'qmoq" romani hayot haqiqatining badiiy talqinidir. Ozarbajjon askarining bu romandagi obrazi adabiyot uchun yangilikdir. Romanda yozuvchi taxayyulining mahsuli – Nasriddin Murod, Shushaga olib borgan sirli so'qmoq va Ozarbajjon askarining favqulodda qahramonligi ramzi bo'lgan "soya" askarlar obrazini ishonarli va haqqoniy tasvirlagan. Yunus O'g'uz bu romanini Shushada yozgan, romanda shaharning tarixiy va kelajakdagi porloq yo'li ramzlar orqali jonlantirilgan. Siyosiy va badiiy tafakkurning sintezi orqali yuksak vatanparvarlik tuyg'usi bilan yo'g'rilgan roman kitobxonni befarq qoldirmaydi. Marhamat o'qing, bahramand bo'ling!

Mazkur kitob O'zbekistondagi Haydar Aliyev nomidagi Ozarbajjon Madaniyat markazi loyihasi asosida chop etildi.

ISBN 978-9943-7868-4-4

© «Renessans press», 2023.
© O'zbekistondagi Haydar Aliyev nomidagi
Ozarbayjon Madaniyat markazi

MUQADDIMA

Shusha shunday bir makonki, uning ajoyibotlari hech tuganmas. Shahar atrofi go'yo ko'kdan fazo kemasi tushib, o'sha yerda qo'nim topgandek. Tog'-u toshlari ham go'yo osmondan keltirilib, bu joyga qo'yilganday. Bunda boshqa bir dunyoga tushgandek bo'lasan. Bu shaharda shul zaminda tug'ilgan mutafakkir zotlarning ruhlarini ko'rarsan. Bu ruhlar sening yoningdadir, ular qo'lingdan tutib Shushaning har qarichini kezdirurlar...

Har bir so'qmoqning o'z nomi bor. Har so'qmoq bir ma'no tashiydi. Inson ham yo umr bo'yi solingan biror so'qmoqdan yuradi, bunda u boshqalardan farq qilmaydi, yoki ilk daf'a o'z so'qmog'ini, o'z yo'lini solib, boshqalarni ham ortidan ergashtiradi. Ular hayotda yetakchi, liderga aylanadilar. Har bir so'qmoqning boshlanishi bo'lganidek, so'nggi ham bor. Inson tug'ilgandan to o'limiga qadar bu so'qmog bilan borar. Odam borki, bu so'qmoqni yo'lga do'ndirar, uni kengaytirib, kelajakka bir yo'l qo'yar. Odam borki, faqat unga chekilgan chiziq ichida shu so'qmoqdan ilgari bosadi, ammo so'ngiga yeta olmaydi...

Tog'ga to'g'ri bir so'qmoq olib borardi. Bir tomoni jarlik, boshqa tomoni tik qoyalar bo'lgan so'qmoq. Olisdan bu so'qmoqni ko'rib bo'lmaydi. Faqat yaqin kelib, diqqat bilan boqqanda, qoyalarning orasidan, ustidan solingan bir so'qmoq – tog' echkilarini bir ming to'rt yuz metr balandlikka va keng tekislikka chiqargan tor yo'l ko'zga tashlanadi.

Odam o'tishi imkonsiz bo'lgan bu so'qmoq, ko'pincha shu tog' echkilarining najot yo'li sanalanardi. Agar uloqlardan biri onasidan ortda qolsa, shoqollarga em bo'lishi hech gap emasdi. Bu chog'da echki bolasi tik qoya o'rtasidagi turish mumkin bo'lmagan so'qmoqda jon saqlab, xavf yo'qolishini kutar edi. Shoqol, bo'ri esa u turgan yerga borolmasdi.

Yunus O'g'uz

Bir qancha kutishdan so'ng, oviga etolmasligini sezgan yirtqichlar jo'nab qolishardi. Shundan so'ng uliq onasining yoniga qaytar edi...

QORABOGʻ, XVIII ASRNING OʻRTALARI

...Keksa choʻpon togʻ yonbagʻrida, katta yassi tosh ustida oʻtirib, nayini chalar, suruv esa qiyalikda bexavotir oʻtlab yurardi.

Chetdan qaragan odamga shunday tuyulardiki, qoʻy-qoʻzilar musiqaga hamohang quyruqlarini qimirlatgan koʻyi nozlanib togʻ yonbagriga tarqalardilar. Suruvning har tarafida bittadan qoʻriqchi it bolib, ular har qanday xavfdan ogoh edi.

Yozning oʻrtasi boʻlsa ham choʻpon yopinchiʻgʻini (kapanakini) tashlamagan edi. U bu vaqtda havolar aldamchi boʻlishini bilardi. Quyosh chiqib tursa ham, havoning sovugʻi yer ustidan chekinmagandi. Choʻponning papagʻi (boʻrki) koʻzlarini deyarli qoplab olgan edi. Boshini egib, nay chalayotgan bu choʻpon odamga tosh kabi tuyulardi. Qora kapanagi, qora moʻynali papagʻi uni tosh odamga oʻxshatardi. Ammo bunday emasdi. U koʻzlari, quloqlari bilan har bir harakatni, tovushni diqqat bilan taʻqib etardi. Hatto bu taʻqibni nayning oʻtli sasi ham toʻxtata olmasdi. Shunga qaramay, uning barmoqlari, nafasi “Choʻpon bayoti”ni chalayotgan edi.

Xoʻjali tomondan ikki otliq paydo boʻlganda, itlar qattiq hurishdi. Choʻpon nayini ogʻzidan oldi. Endi faqat itlarning ovozi eshitilardi. U koʻzlari ustiga qadar bosib tushgan papagʻini biroz orqaga surdi. Qoʻlini qoshlari ustiga qoʻyib, diqqat bilan otda kelayotganlar tomon qaradi. Otliqlar tobora yaqinlashib kelardi. Ular koʻrinishdan boyzodalarga oʻxshamasdi, ularni hatto kambagʻal odamlar deb ham boʻlmasdi. Kambagʻalda boʻlsa, toʻqimsiz eshak boʻlardi-da. U ham boʻlsa, yuk tashish uchun. Bular esa oʻrta tabaqadagi odamlarga, yaʼni savdogar yoki xon kishilariga oʻxshaydi. Egnilarida zoʻxa, ostida qirmizi koʻylak, oyoqlarida uzun

qo'njli etik, birining boshida qorako'l teridan buxorocha bor'k, ikkinchisining sallasi bor edi. Sallasining uchini chap tomondan ko'ksiga qadar tushirib qo'ygan edi. Har ikkisi kamariga xanjar taqqan edi.

Cho'pon o'rnidan turib, itlarga qarab jahl qildi:

– Ovozingizni o'chiring, boring nariga. Bir xabar bering, meni ko'rgani kelganlar kimlar? Itlar egasining jahldor ovozi eshitishlari bilan sal nariga ketdilar, lekin juda uzoqqa ketmadilar. Uchtasi o'ngda, chapda, biri esa to'g'ri cho'ponning yonida sho'ngidi, go'yo kelguvchilar cho'ponga hujum qilishmoqchiday edilar. Otliqlar yaqinlashganda, u ikkalasining yuziga diqqat bilan qaradi. Ko'zlariga ishonmadi.

– Bular..., – yuragi tez ura boshladi, uning tomog'i quridi, tili kalimaga kelmadi, so'zlarni unutdi. Negadir o'zini qo'lga olib, zo'rg'a gapira oldi: – Siz bizning Panohali xonimiz, yoningizdagi esa Tug'ning egasi Yegandir.

IZOH: Qorabog'dagi nasroniy turklar o'zlarini albanlar deb atashgan. Garchi diniy tafovutlari bo'lsa-da, boshqa masalalarda musulmonlardan farq qilmas edilar. Bu hududlarda xristian turklarining besh hokimi bo'lib, ularning beshalasini "Xamsa" deb atashgan. Ular Qorabog' xoniga tobe edilar. Tillari ham bir xil edi. Hamma turkcha so'zlashar edi, chunki ular boshqa dinga mansub bo'lsalar-da, boshqa tillari yo'q edi. 1828-yilda rus-qajar urushida mag'lubiyatga uchragan qajarlar Turkmanchoy bilan sharmandali sulh tuzishga majbur bo'ldilar. Bu kelishuvga ko'ra Araz daryosining so'l sohili, shuningdek, Irevan, Lankaron, Qorabog', Naxchivon, Shamaxi, Guba, Shaki, Ganja, Boku xonliklari Rossiyaning tobeligiga o'tdi. Shartnomada Usmonli va Qajar hududlarida yashovchi armanlar bu hududlarga, asosan, Qorabog'ga joylashtirilishi ko'rsatilgan edi. Ushbu kelishuvdan sakkiz yil o'tgach, ya'ni 1836-yilda bu hududlarda rus podshosi amri bilan bunda mavjud bo'lgan alban cherkovlari arman cherkovlariga bo'ysundirildi. Shundan keyingina albanlarni armanlashtirish va assimilyatsiya qilish boshlandi. Ammo hali 19-asrga ancha bor edi...

Cho‘pon qo‘lidagi nayini belbog‘iga qistirib, o‘ng qo‘lini yuragiga qo‘yar ekan, ta‘zim qilib dedi:

– Qurboningiz bo‘lay, xon, qadamlaringizga hasanot! – Malik Yeganga ham yuzini burdi. – Siz ham xush kelibsiz, Tug‘ hokimi!

Panohalixon bir zum tek qoldi. Kiyim, qiyofalarini o‘zgartirgan bo‘lsalar ham, cho‘pon ularni tanigan edi. Shuning uchun xon bilmaganga solib o‘tirmadi. Salomlashdi: – Sen ham hushvaqt bo‘lgaysan... Bizlarni qanday taniding? Yonimizda lashkarimiz yoq, askarlarimiz yo‘q, qiyofamiz ham boshqacha... Ikki otga minib, hamrohsiz bu yerga kelaverdik. Vazir-u noiblar, a‘yon-u ashraflar ham biz bilan emas.

Cho‘pon kulimsirab javob berdi:

– Nega tanimay, xonim, qurboningiz bo‘lay? Shaki xoni Hoji G‘abi bilan Bayat qal‘asidagi jangdan keyin mashhur bo‘ldingiz. Endi hamma sizni gapirayapti. Unga shunday saboq berdingizki, “Kelarsiz-ko‘rarsiz” qal‘asiga qaytib chekindi. Yashirib nima qildim, to‘ng‘ich o‘g‘lim muhtaram xon xizmatidadir. Ba‘zida uyga kelganida, siz haqingizda xo‘p gapiradi, sizni shu qadar ta‘riflaydiki, shundan keyin ham tanimaslik mumkinmi? Sizga qurbon bo‘lishni undan o‘rgandim...

Ular otdan tushib, cho‘pon qarshisida to‘xtadilar. “Mana shunday og‘ir vaqtda xalqning meni tanigani yaxshi holdir, – yuragidan otkazdi xon. – Ammo ertaga Muhammad Hasan Xon Qojar mening ortimdan ayg‘oqchi yoki qotil yuborsachi? Hushyor bo‘lmoq lozim. Endi bu ikki kishilik yurishlarga chek qo‘yishim kerak. Qarshimdan bu cho‘pon emas, yuz nafarlik dushman guruhi chiqib qolsa, nima qilardim? Agar g‘ayurlar bu yerlarga kelib yurgan bo‘lsa, mahalliy aholidan kimdir ularga yo‘l ko‘rsatishi mumkin. U ham meni tanirdi”.

Xon jilmayib, cho‘ponga dedi:

– Avval o‘zingning, keyin esa o‘g‘lingning ismini ayt.

Cho‘pon unga maqol bilan javob berdi:

Yunus O'g'uz

– Yaxshi ot – davlat! Bizning ismimizdan boshqa hech narsamiz yo'q, qurboningiz bo'lay! Mening ismim Nasriddin, lekin – kulimsib qo'ydi, – u mulla Nasriddinga hech bir aloqam yo'q. To'ng'ich o'g'limning ismi Murod. U shundayki, yel esganda yellanar, yo'l ko'rganda yo'llanar.

Qarshisidagi cho'pon bo'lsa ham donishmandona gapirardi. Shuning uchun xon suhbatni otalar hikmati bilan davom ettirdi:

– Yozilmagan kitobni varaqlamaydilar. – Uning o'g'lini eslashga urindi. Darhol xotirladi. Bayat qal'asi mudofaasida o'zining farosati va jasorati bilan boshqalardan ajralib turgan yigit bor edi. Keyinroq ismini so'raganda, Murod degandi. – Nasriddin birodar, bilasanmi, sening o'g'ling hozir tarix yozayotir. Uni esladim. Farosatli yigit. Demak, o'g'ling ham senga o'xshaydi. Chiroyli qochiriqlari bor.

O'g'lining xon tarafidan maqtalganidan ko'ngli o'sgan cho'ponning chehrasi yorishdi:

– Yo'l bilgan qoqilmaydi, xon! Boshingizga ish tushganda, Murodga dedimki: “Sen bu yerlarning har puchmog'ini yaxshi bilasan. Tur, xonning xizmatiga bor. Balki, unga kerakdirsan”. Uning yaxshi chavandozligi va qilichbozligi bor. U ketdi va qaytib kelishni istamadi.

Panohalixon minnatdorlik bildirdi:

– Sog' bo'l, Nasriddin, birodar! Biz katta yo'lga chiqdik. Endi Qorabog' xonligimizni mustahkamlamoq niyatidamiz. Demishlarki, yurgan odam yiqilishiga boqmas, biz yiqilsak ham, oyoqqa qalqib, yo'limizda davom etamiz. – U hokim Yeganga qaradi, so'ng to'rtburchak qoyadek turgan tog' tomon qo'lini cho'zdi. – Nasriddin birodar, sen bu yerlarning past-balandini yaxshi bilganing bous maslahatingga muhtojmiz.

Malik Yegan uning so'zlarini tasdiqladi:

– Men ham Nasriddinni Tug'dan turib bilaman. Qay yerlardan biz taraflarga sotmoqqa mol keltiradi, bozorlik ham qiladi. Aqlli suhbatlari bilan biz taraflarda ham nom

So'qmoq

qozongan, dono maslahatlari uchun har uyda hurmat qilishadi, qo'noqqa chorlab, bunda tunab qolishini istaydilar. To'g'ri aytdingiz, Nasriddin birodarning bizga ko'p yordami tekkey.

Cho'pon yana hikmat keltirishini qo'ymadi:

– O'zga yurtning qadri o'zga yurtda bilinar, – dedi. Qurboning bo'lay, ko'nglingizga yangi yurt topish ishqini tushganga o'xshaydi.

Xon Nasriddin uning fikrlarini o'qiyotganini ko'rdi. U tik qoyalarga, osmonning moviy kengliklariga qarab shunday dedi:

– Qarasam, yuragimni o'qiyapsiz. Ha, lekin men yangi yurt qidirmayapman.

Men yangi poytaxt qurmoqchiman. Yurtga kelsak, butun Ozarbayjon mening yurtimdir. Hukmim yetgan yerlar Qorabog'dir. – U xo'rsindi. – Nodirshohdan keyin mamlakat boshboshdoqlikka yuz tutdi. Eng avval, shohning yaqinlari toj-taxt uchun urush boshladi. Shohni ag'dargan jiyan bo'lmish Odilshohni ham o'z ukasi taxtdan tushirib, unga qarshi chiqdi. Hozir mamlakatda notinchlik hukm surmoqda. Xurosonda Odilshoh tomonidan ko'zi oyib olingan Nodirshohning nabirasi Shohrux, Sherozda Karimxon Zand, Astrabodda Muhammad Hasanson Qojor, Urmiyada Fatalixon Avshar podshohlik da'vosiga tushmishlar. Ularning hammasi menga xat yozib, o'zlariga qo'shilmog'imni taklif qilishmoqda. Hatto tahdid ham qilishadi. Bilmadim, qaysi biri ustun kelarkin.

Kelayotgan xabarlar shunchalik chalkashki, odamni sarosimaga solardi. Bir marta vohimali xabar ortda qolsa, keyingi safar yangisi undan oshib tushardi. – U ovozi ko'tarib davom etdi. – Men ham hayajondaman. Shohbuloq qal'asida uzoq muddatli urush olib borishning o'zi yetarli emas. Agar ular o'sha qo'rg'onni uzoq qamal qilishsa, biz uch oyga ham chiday olmaymiz. – U qo'li bilan to'rtburchak tik qoyalar tomon ishora qildi. – Menga aytishdiki, yangi

Yunus O'g'uz

poytaxtni shu yerda qurish juda o'rinli ekan. Ko'zni yumsangiz, fursatni qo'ldan boy berish mumkin. Endi men bu imkoniyatni boy bermayman. Ko'rib turganingizdek, vaziyat shuni taqozo etadi.

Cho'pon diqqat bilan Xonga, so'ng esa xizmatkoriga qarab dedi:

– Jazirama kun tig'ida kuymagan soyaning qadriga etmaydi. Xalqing kelajagini, dardini o'ylamasang, xonning cho'pondan nima farqi bor? To'g'ri gapni aytasan, qurboning bo'lay. – Boshini ko'tarib, endigina to'rtburchak qoya ustiga to'plangan oppoq bulutlarga qaradi va qo'shib qo'ydi. – Echiming haqiqatan ham juda to'g'ri. Bu erga bulut kelsa - yomg'ir, qush kelsa - qanotlarini yoyadi, dushman kelsa pushaymon bo'ladi.

Malik Yegan uyoq-buyoqqa yurib, cho'ponning gapini tasdiqladi:

– Nasreddin juda to'g'ri aytadi, Xon hazratlari! Aytganlarida ortiqcha so'z, kamchilik ham yo'q.

– Ha, u bir maqol aytishni istadi, lekin esiga kelmadi. Ichida xotirasini la'natladi.

Panahalixon cho'ponning gapidan mamnun bo'ldi.

U nihoyat o'zi xohlagan yerni topdi. U kuchli qal'a-shahar deganda kuchli hukumat va markazdan boshqaruv demakdir.

Shu payt ularning boshi uzra uchib o'tgan burgut qiylab pastladi. Xon boshini ko'tarib burgutga qaradi. U bilardiki, burgut qiy ura, ovga chiqmaydi, qorni to'q bo'ladi. Ov paytida qiylasa, demak o'ljasini qochirgan bo'lishi mumkin. Qanotlari to'liq yoyilgan qushga qarab, cho'pondan so'radi: Bu yerlarda biror inshoot yoki suv manbai bormi

Nasreddin ham xon ortidan boshini ko'tarib, osmonda uchayotgan burgutga qaradi, lekin javob berishda davom etti:

– Ha, bor qurboning boʻlay! Qozonxon¹dan bir qoʻriq minorasi qolgan edi, uni “Shusha” deb atagan, hozir esa vayron boʻlgan.

Oʻsha minoradan toʻrt-besh ogʻoch² yoʻl, kelib-ketganni kuzatish, koʻrib turish mumkin edi. Suv manbai ham oʻsha yerda. Toʻrt-beshta bulogʻi bor.

Panahalixon uning javobidan mamnun boʻldi. U yana bir savol berdi: — Nasreddin, deylilik, shaharni qurib, mustahkam qoʻrgʻonga aylantirdik.

“Shusha” soʻzi menga ham yoqdi, shuning uchun uni “Shusha” deb nomlasak. Ammo toʻsatdan yogʻiy shaharni oʻrab olsa? Dushmanga kutilmaganda hujum qilish yoki aholini xavfsiz joyga olib chiqish uchun yuqoridan yer osti lahm yoʻli kovlash mumkinmi?

Choʻpon Malik Yeganga qaradi:

– Qoʻy bu savolga malik javob bersin.

Bilishimcha, u bu erga bir necha marta kelgan, chodir tikgan, u oʻzi bilan mutaxasislarni olib kelgan. U yerdan tushib, Iso bulogʻida yigʻilish oʻtkazgan edilar.

Choponing Malik Yegan haqidagi batafsil maʼlumotlaridan uni oʻzi ham hayratda qoldi. Xalqning koʻzi haqiqatdan ham tarozidir. U hamma narsani koʻradi, eshitadi va oʻlchaydi. Shu fikrlarni boshidan kechirib, oʻylanib-oʻylanib, javob berdi:

– Nasreddin haq gapni aytdi, xon hazratlari! Men bu joylarda bir necha bor kelganman. Men sizga bir marta yuqoridagi joylarni tasvirlab bergan edim. Bu yerlarda jayron

¹ Qozonxon – Hulaki elxoni (hukmdori) (1295–1304) Argʻunxonning oʻgʻlidir. 1295-yilda Qorabogʻda elxon boʻlib saylangan va hulakiylar ichida islomni qabul qilgan birinchi hukmdor hisoblanadi. Musulmon boʻlgandan keyin Mahmud Qozonxon ismini oldi. Qozonxon bir chekkasi sharq, bir burchagi gʻarb bilan tutashgan buyuk davlatda islohotchi hukmdor sifatida ham tanilgan. Xullas, elxon etib saylangach, yer, soliq, sud, aloqa, pul islohotlarini amalga oshirdi.

² bir ogʻoch – yetti kilometrni tashkil etgan.

Yunus O'g'uz

va bug'u tuyog'ining izlari bor. Bu qoyalikda lahm kovlab bo'lmaydi. Bir tomondan, bu yaxshi, boshqa tomondan esa, yaxshi.

Xon qiziqish bilan Malikka qaradi: – Nima yaxshi? – deb so'radi u. Bilardiki, Yegan nimadir desa, yuz marta o'lchab, bir marta bichadi, demak, – Nimasi yomon? Malik Yegan qo'li bilan qoyaliklarni ko'rsatib javob berdi: – Xon hazratlari dushman Shushani qamal qilsa, ma'qul tomoni - quriladigan shaharning nomi o'zi bilmagan holda uning og'zidan chiqdi — u lahm kovlab, qal'aning poydevorini porox bilan portlatib, olov bilan yoqib yubora olmaydi.

Shunday qilib, agar qal'ada oziq-ovqat va suv ko'p bo'lsa, dushman bundan sarosimaga tushadi va qamal davom etar ekan, ularning askarlari tushkunlikka tushadi. Songra chekinishga majbur bo'ladilar. Yomon tomoni shundaki, biz o'zimiz dushman ketguncha hech qaerga chiqolmaymiz. Biz na birdaniga dushmanga hujum qila olmaymiz va na aholini boshqa joyga ko'chira olmaymiz. Vaziyatimiz, ahvolimiz ana shunday bo'lishi mumkin.

Xon cho'ponga qaradi: – Bundan chiqishning yo'li bormi? – umidsiz savol berdi. Malikning aytganlariga qoniqmasdan. Agar ular uzoq vaqt qamalda qo'lsalar, na qo'llarini birlashtira olmaydilar va to'satdan hujumlar ham qila olmaydilar.

Cho'pon uni bu umidsizlikdan olib chiqdi: - O'zingizni har tarafga urmang, qurboningiz bo'layman! Temir namlikdan, odam g'amdan chirydi. Har bir dardning bir darmoni bor.

Panahalixonning ko'zlari charaqlab ketgandek bo'ldi. Ko'rdiki, bu cho'pon u bilmagan narsalarni ham biladi. Uning ovozi umidvorlik bor edi:

– Men nimani aytishim mumkin? Bilasizmi, ochlik qurtni o'rmondan chiqishga majbur qiladi. – Cho'pon rozilik belgisi sifatida bosh irg'adi. - Ochlik bo'lsa, qo'rzoqlar ko'payadi. Bir qo'rzoq ham butun qo'shinning tartibini buzadi. Nasreddin, sen bir narsani bilganga o'xshaysan?

– Ha, bilaman...

Unga itlarning hurishi xalaqit berdi. Xoʻjayli tarafdan bir toʻda otliq kelayotgan edi. Choʻpon itlarni yana tergadi:

He sanlarnimi, tinchlaning, koʻramiz kimlar keldi va nima uchun kelishdi? - U oʻgʻirilib, xonga qaradi. - Kelganlar siznikilarga oʻxshaydi, qurboningiz boʻlay!

Togʻridan kelganlar xonning askarlari, oldinda esa kenja oʻgʻli Mehrali edi. Itlar tinchlanib, oʻz joylariga qaytishdi, lekin ular kelganlardan koʻzlarini uzishmadi. Kelganlar yetib borishi bilan otdan tushib, saf tortdilar. Mehrali shoshapisha xonga yaqinlashdi:

– Sizni topganimizga Allohga shukur, xon, — dedi u, — erta tongda sizni Shohbuloqda koʻrmaganimizda ming xil oʻylar xayolimizga keldi.

Xizmatkordan soʻraymiz, xon qayerga ketdi deb? U bilmayman, deydi. Malik Yegan bilan kiyimini almashtirib, chiqib ketdi deyishdi. Bayat qalʼasiga bir guruh askar ham yubordim. U ortiga oʻgʻirilib, askarlardan birini chaqirdi: – Murod.

Bu choʻponning oʻgʻli Murod edi. Murod otasining ham shu yerda ekanligini koʻrdi. Ularga yaqinlashganda xonning haybatidan hamma bilan, hatto otasi bilan ham quruq salomlashdi.

Salom aleykum! Labbay beyim!

Xon uzun boʻyli Murodga bir oz hazil qildi: "Yaxshi. Agar buyursam, boʻrilar ham ustingga otilib hujum qiladilar. Uning quruq salami ham xonga yoqdi. Otasini anchadan beri koʻrmagan boʻlsa-da, uning oldiga yugurib, quchoqlab oʻtirmadi. U mendan hayo qildi. Askarni aynan shunday tarbiyalash kerak". Ammo xon gapirmadi, agar oʻgʻli uni chaqirsa, u qandaydir topshiriq beradi. Mehrali Murodning choʻponning oʻgʻli ekanligini bilmas edi. U baland ovoz bilan buyurdi:

– Otingga minib, Bayat qalʼasi tarafga chop. Haziquluga ayt, bezovta boʻlmasin, Xon shu yerda!

Yunus O'g'uz

– Otasidan so'radi. – Qal'agan xabaringiz bormi, xon? Sizni biror buyrug'ingiz bo'lsa, borganda yetkazsin. O'g'lining fikri o'tkirligidan, darrov to'g'ri qaror qabul qilganidan xursand bo'ldi.

– Yo'q, – dedi u, – xabar, buyrug'imni kecha yubordim. Ketishingiz mumkin. Murod otasiga ko'zining qiri bilan qaradi. Otasi biroz bosh chayqadi. U “bosh ustiga” dedi-da, ravona bo'ldi, otiga yetgan zahoti uzangiga oyog'ini qo'ymay sakrab, egarga o'tirdi. U yuganning chap tarafini qo'li bilan o'ziga tortdi va otni etigining tovonini bilan turtirdi.

– Ha, uchib boraman, – deb hayqirdi.

Ot oldinga tashlandi. Murodning egarga o'tirib ot minishi xonga yoqdi, hamma ham otga bu kabi to'g'ri o'tiravermaydi. Uni negadir yoqtirdi. Balki otasining dono gapirgani uchundir, hali bilmasdi.

O'g'li uning fikrini bo'ldi: – Bu yerlarda xayirli bo'lsin, nima gaplar xon?

– Xayirlidir, Mehrali bey, xayirlidir. – Jilmayib cho'ponga ishora qildi. – Nasriddinbey bilan yangi poytaxtimizni joylashtirish masalasini muhokama qilmoqdamiz. Mehrali ularning yonida turgan cho'ponga boshdan-oyoq qaradi. negadir yuzida ishonchsizlik paydo bo'ldi. O'yladiki, ey ota, qachondan beri kambag'al kosib cho'pon sizga yangi poytaxt uchun joy ko'rsatadigan bo'ldi? Lekin nima o'ylayotganini tiliga chiqarmadi.

– Qanday yangi poytaxt, nega bundan bizning xabarimiz yo'q? Siz aytsangiz, men o'z navkarlarimni olib, tog'toshlarni kezardim. Etti kun o'tmasdan, sizga eng yaxshi xabarni keltirardim. Keyin birga borib bu maskanlarni ko'rardik. Xon o'g'lining cho'ponga e'tiborsiz qaraganini payqadi, buni cho'ponning o'zi ham sezdi. Shunday qilib, u o'g'lga yaqinlashdi va qo'lini yelkasiga qo'ydi.

– Bizga Nasreddinbeydek donishmandlar kerak. Bilasanmi, uning bu ko'kragi qancha aqlli kalomlarga to'la? O'rganing, Mehralibey, o'rganing.

Axir, aytishadiku: “Qozonda nima boʻlsa, yeyishadi-ketishadi, koʻkrakda nima boʻlsa, ustiga kelar”, – deyishgan. Buni senga shuning uchun aytmadikki, chunki sening asosiy ishing Shohbuloq qoʻrgʻonining sarkardaligini qilishdir. Poytaxtni tanlash xonning oʻziga oid ishdur.

Mehrali otasi uning fikrlarini oʻqib, tanqid qilayotganini angladi.

U xatosini tuzatish uchun shunday dedi: – Albatta, xonimizning dono maslahatlari bilan. U nima buyursa, muhokamasiz bajarish bizning farzimiz.

Panahalixon oʻgʻlining javobidan qanoatlandi. Mehraliga munosib tarbiya berganidan xursand edi.

Ishora va tashbehlarni joyida tushunadi. Shunday qilib, u chuqurroq bormadi.

Choʻpon bilan oldingi suhbatiga qaytdi: – Nasreddinbey, buning ham bir yoʻli bor dedingiz, yaʼni shaharni qamali haqidagi suhbatimizga qaytaman. Chiqish yoʻli bormi?

Oldindan hammasini kuzatib turgan choʻpon bir ogʻiz soʻz aytmedi. Oʻgʻli Murodni koʻrganida uni quchoqlab bagʻriga bosgisi keldi, sogʻinchini soʻndirsin. U bunday qilmadi. Xon huzurida oʻz odob-arkonini koʻrsatdi. Hatto Mehralining ham unga ishonmay qarab turganini sezdi. U jim turishni afzal koʻrdi. U bir oz oʻylanib, dedi.

– Chiqish yoʻli bor, qurboningiz boʻlay! Albatta bor. Nasihat bilan tashlangan tosh uzoqqa boradi, deganlaridek. Panahalixontushundiki, choʻpon Mehraliningunga ishonmay qarab turganini sezdi, balki u yuragida xafa boʻlgandir. Uning koʻnglini koʻtarishni istadi: – Nasreddinbey mix joyiga tushmasa, egilsa, uni sugʻurib, tekislab ishlatadilar. “Bunday narsalarni yuragingizga olmang”, dedi u. – Siz menga chiqish yoʻli bor dedingiz, meni xursand qildingiz. Ayting-chi, u qanaqa yoʻl, qayerda?

Mehrali ham, Malik Yegan ham ularning yashirin suhbatlaridan hech narsani tushunmadi. Ular bir-birlariga tikilib, nima demoqchi ekanligini tushunishga harakat

qilishdi, lekin ular jim turishni afzal ko'rdilar.

Cho'pon xon o'g'liga masal bilan gapirayotganini tushundi. U ham bunga chuqur e'tibor bermadi.

Ammo bu yo'lni Xonga qanday ko'rsatish kerak?

Boshqalar bilsa, odam xom sut emgan, yog'iy kelib bu yerlarni o'rab olsa, sir fosh bo'ladi. Bu sirni bir yoki bir necha kishi biladi. Agar hamma sirni bilsa, bu sir emas. U o'ylanib bo'lgach, shunday dedi:

– Bu og'iz qop emaski, buzib ochsang, qurboning bo'lay! Siz shunday qilingki, otliqlaringiz yurib yuqoriga chiqsin. – Ularga u yerda yaxshi sayr qilib aylanib kelishni aytib, faqat o'zingiz qoling. Shunda men ham o'zimni bilganimni sizga aytaman. Xon tushundiki, cho'pon hammaning ko'z o'ngida bu sirni oshkor qilishni istamaydi. Yuragida unga “ofarin” dedi va darhol buyurdi:

– Endi vaqtni yo'qotmaylik. Otlaning, yuqoriga chiqamiz.

Nasriddin otliqlar kamida uch-to'rt soat tepalikka chiqishlarini bilar edi.

So'qmoq orqali o'zi yuqoriga juda tez chiqardi.

Ildam yurganlardan Yegan bilan xon otlarini barobar surar, ularning ortidan Mehrali, eng oxirida esa suvorilar kelardi. Yuqoriga chiqilganda, uzoqdan Dashalti qishlog'i kaftda turgandek ko'rinardi. Panohalixon gapirmas, tevarakatrofni diqqat bilan kuzatardi. U orqasidagi tog'larga, o'rmonlarga boqar, balandlikda turib xayolan uzoqlarga sayr qilardi.

Tabiat bu joyni go'yo muhofaza ucun xandak kabi yaratgan edi. Bu uni juda mamnun qilardi. Xon solinadigan shahar ko'chalarini, qurilgan uylar, masjidlar, imoratlarni xayolan tasavvuriga keltirdi. Nihoyat otliqlar tepaga kelib to'xtashdi. Ularning qatshisida ta'riflab bo'lmaa bir go'zallik, lojuvard tekislik ochildi. Hamma hayratda edi. Xonning o'zi bu go'zallik asiriga aylandi, ta'riflashga so'z topa olmadi.

Yozning o'rtasi bo'lsa-da, havo salqin edi. U endi otda borishni istamadi, bu yerlarni endi u dam-baqadam kezib

oʻtsin, har toshi, har daraxt-butasini yodida tutsin, qurajak shahrining har qarichini bilsin. Yoshi ellikdan oshganiga qaramay, chaqqon harakat bilan yuganni ikki qoʻllab tortdi. Ot xuddi harakatsiz qolgandek yerga mixlanib qoldi. U oʻng oyogʻini uzangidan ayirib, yerga sakrab tushdi va bu goʻzallik va tekislikni katta odimlar bilan keza boshladi.

Otliqlar ham otlaridan tushib, xonning orqasidan ilgariladi. Bu tekislik shimolda joylashgan Shusha kentning yaylov va oʻtlogʻlari edi. Panohalixon bu yerda shahar qurishni oʻylagan boʻlsa, demakki shahar aholisiga yangi yaylov va oʻtloqlar ajratmogʻi lozim boʻladi. Bu joylarning sohibi oʻzi boʻlganligidan hech qanday muammo boʻlmaydi, deb oʻyladi.

Ular biroz yoʻl bosdilar. Qarshilarida bir sayxonlik paydo boʻldi. Xon koʻnglida “askarlarim va suvorilarim mashq qiladigan ajoyib joy ekan”, deb oʻyladi. Keyinchalik bu joy “Jidir duzu” (*“Poyga maydoni” – tarjimon*) nomini olgandi.

Ular yana biroz ilgari ketdilar. Tik qoyalarga yetib borib koʻrdilarki, pastda qoldirib ketganlari choʻpon bir tosh ustida oʻtirardi. Xon orqamdan hech kim kelmasin deb qoʻlini koʻtardi. Choʻponning bu yerda ularni kutib oʻtirgani xonni juda taajjubga soldi. Xon unga yaqinlashdi. Choʻpon xoʻrsinishni sezgan zahoti oʻrnidan turdi.

Panohalixon qiziqishi ortib, hayron boʻlib soʻradi:

– Nasriddin! Bizdan oldin bu yerga qanday chiqib kelding, yana yayov holda? Choʻpon uning hayratiga maqol bilan javob berdi: – Oyoq yurmasa, iz tushmas, qurboningiz boʻlay!

Hali aytdim-ku sizga, chiqish yoʻli bor. Bu yoʻlni togʻ echkilaridan boshqa hech kim bilmaydi. Ularning esa til-zabon yoʻq. Soʻng buyrugʻona gapirdi. – Ortimdan yuringiz, qurboning boʻlay! Bu sirni faqat bir necha odam bilishi kerak, aks holda kelajakda siz quradigan shahar tez orada vayron boʻladi.

Ikkovi yana yetmish odimcha soʻl tomonga yurdilar.

Yunus O'g'uz

Qoyatoshga yetib, to'xtadilar. Cho'pon uzoqdan pastga qarab ketga so'qmoq yo'lga ishora qildi, xonga yuzlanib dedi:

– Siz tepalikka yurganingizda, men shu so'qmoq bilan keldim. Shuning uchun sizdan chiqdim.

Xon egilib pastga qaraganda, ko'zlari tinib ketdi. Boshi aylangani uchun jarlikdan qulab tushishiga sal qoldi.

Cho'pon o'z vaqtida xon chuxasining etagidan tutib, orqaga tortmaganida, balki shunday bo'larmidi:

– Qurboning bo'lay, biroz ehtiyot bo'l! Bu senga Shohbulog' qal'asi emas. Birozdan so'ng xon o'ziga kelib, pastga qaradi va undan so'radi:

– Su yerdan tushish kerakmi?

– Chiqish ham kerak, qurboning bo'lay!

Xon yana bir savol berdi:

– Bu so'qmoq yo'lini sendan boshqa yana kim biladi?

Cho'pon xon nimani nazarda tutayotganini tushundi. U javob berdi:

– To'ng'ich o'g'lim Muroddan boshqa hech kim bilmaydi.

Xon bu javobdan qanoatlandi.

– Agar shunday bo'lsa, men bu so'qmoqni “Nasriddin so'qmog'i” deb atayman. Ertaga tong sahar meni quyida kuting. Bu yerga birga chiqishni xohlayman ...

Moskva, 2020-yil boshlari

Bu qish Moskvaga qor ko'p yog'di.

Qor tozalash mashinalari ko'chalarni tozalab ulgura olmasdi.

Qorni tozalashar ekan, qatorga tizilgan yuk mashinalari qorga to'lar, orqasidan kelgan mashinalar esa ko'chaga tuz sepishardi.

Ayoz bo'lishiga qaramay, ish shu qadar qizg'in ketayotgan ediki, go'yo boshliqlari ularning boshida turib hayhaylayotganday.

Ayoz va qor koʻpchilikni shu kunlarda dangasa qilib qoʻydi, odamlar uydan chiqishni ham istashmasdi.

Ayrimlar hovliga chiqib biroz aylanib yurar, yaqin atrofdagi doʻkonlardan bozor-oʻchar qilib, iliq uyalariga qaytish bilan kifoyalanishardi.

Bunday qorli-qirovli havoda Mercedes-Benz Rossiyadagi Armaniston elchixonasini kechasi tark etib, yangi ruslar, yaʼni boylar yashaydigan Barvixa tomon yoʻl oldi.

Mashinada 2018-yilda “Barqut inqilobi” orqali hokimiyatga kelgan Nikol Pashinyan tomonidan tayinlangan mudofaa vaziri Tonoyan oʻtirgan edi.

Bu odam oʻzidan koʻngli toʻq edi, chunki u lavozimiga tayinlangani uchun Pashinyandan koʻra xorijda yashayotgan armanlardan koʻproq minnatdor edi.

Boshqa tomondan, u ruslarning Bosh Razvedka Boshqarmasiga (xalq orasida GRU deb ataladi) yaqin boʻlgani uchun oʻz mavqeyini kuchli deb bilardi.

U Moskvani asosan kechki soat beshdan sakkizgacha boʻlgan vaqt oraligʻida tirband boʻlishini bilardi. Mashina ogʻir-ogʻir ketayotgan edi.

Bunday vaziyatda u vaqt oʻtkazish uchun har doim portfelida kitob olib yurardi.

Bu gal oʻzi bilmagan holda, V. L. Velichkonning yaqinda, 1904-yilda Peterburgda nashr etilgan kitobini (bu haqda koʻp eshitgandi) topib, olib kelishni buyurdi: “Koʻraylik, biz haqimizda nima yozgan ekan”, deya. Kitobning asl nashrini topib keltirdilar.

U portfelidan “Kavkaz: Rossiya ishi va qabilalararo masalalar” kitobini chiqarib varaqlay boshladi. Oʻqirkan, yuzi qizarib, asablari taranglashdi.

Oʻyladi: “Bu rus zobiti biz haqimizda ogʻziga kelgan narsani yozibdi.

Qanday qilib ruslarning poytaxtida bizda shunday kuch bor boʻlsa-da, ular bunday kitobni chop etishga ruxsat berishdi, qara bu itvachcha nima yozayotganiga: (Buni turk

tilida aytdi) "Armanlar tez assimilyatsiya bo'ladilar.

Bu ularni armanlashgan lo'lilar deyishga asos bo'ladi".

...Keyingi jumlani o'qidi: "Bunday sharoitda armanlarning tomirlarida har xil qon oqadi... shuning uchun ham Kavkazda ularni "Quyondan qo'rqadiganlar" deb atashgan, "Armanlar bu yerlarning (Kavkazning) asl tub aholisi emas.

Ular bu yerga XIX asrda kelishgan."

Ko'zlari qinidan chiqayozgan general kitobni shunday g'azab bilan yopdiki, haydovchi ham shovqin tovushidan orqaga o'grildi. Ammo u o'zini qo'ygani joy topa olmadi. U kitobni portfeliga joyladi-da, o'ylay boshladi. "Biz qayerdan keldik va qayerga ketyapmiz? Demak, bizning tariximiz ham yo'q. Ular so'nggi ikki yuz yillik tariximizni tartib etganlar. Go'yoki, Kavkazda qadimiy tariximiz bordek. Biz Armaniston davlatining mavjudligi uchun ruslardan qarzdormiz.

Agar ularning Kavkazga qiziqishi bo'lmaganida, biz bugun kim bo'lardik? Ammo hozir ahvol o'zgardi. Bu masxaraboz Nikol (Bosh vazirni nazarda tutadi) e'tiborimizni G'arbga qaratishimiz kerakligini aytadi. Endi bilmayman nima qilaman?".

Mashina katta yo'ldan Barvixaga burildi. Biroz yurgandan so'ng, katta villaning qarshisida to'xtadi. Xavfsizlik xodimi, ham oldindan ogohlantirilgani, ham kuzatuv kameralarini kuzatib turganidan mashinani ko'rish bilan oq darvozani avtomatik ochish tugmasini bosdi. Darvozalar sekin ochila boshladi.

Mersedes hovliga kirdi. Villa oldiga kelib to'xtaganida, fuqaro kiyimidagi qo'riqchi u o'tirgan tarafdin mashina eshigini ochdi. Tabassum bilan dedi:

– Xush kelibsiz! General sizni kutmoqda.

Mudofaa vaziri boshini qimirlatish bilan kifoyalandi. Mashinadan tushib, uning ortidan ergashdi. U uch qavatli villaning birinchi qavatiga kirganida, qotib qoldi. U o'zini qadimiy eksponatlarga to'la muzeyda his qildi.

Uch yuz kvadrat metrlik zalda dunyoning turli

burchaklaridan keltirilgan asarlar bor edi. Katta ehtimol bilan bu yerdagi barcha asarlar haqiqiy edi. Har holda, mudofaa vaziri kim bilan uchrashishini unutilib, koʻrganlariga hayrat bilan tikilardi. Zalning uzoq burchagidagi pechning oldiga uchta kreslo qoʻyilgandi. Qoʻriqchi yengilgina yoʻtalgach, kreslolarining biridan bir kishi oʻrnidan turdi va goʻyo vazirni sabrsizlik bilan kutayotgandek quloch ochib, tabassum bilan unga yaqinlashdi va salom berdi:

– Toʻrga oʻting, sizni kutib koʻzlarim toʻrt boʻlib ketdi, janob vazir!

General quchogʻini ochib, kulganicha uni qarshilagan kishiga javob berdi:

– Qarang-a, qancha fasllar oʻtibdi bir-birimizni koʻrmaganimizga, Vasiliy Viktorovich?

– Quchoqlashishdi. — Adashmasam, roppa-rosa yigirma yildan beri menga rahbarlik qilyapsiz.

Shu payt kresloda oʻtirgan yana biri qoʻzgʻaldi. Kurator General bilan quchoqlashib oʻpishgach, oʻrnidan turgan kishini tabassum bilan tanishtirdi:

– Ha, toʻgʻri aytdingiz, men sizga roppa-rosa yigirma yildan beri rahbarlik qilaman, lekin juda gʻalati, yigirma yildirki menga, — u tik turgan odamni ishora qilib, rahbarlik qilgan — Andrey Vasilyevichni tanishtirmadim, FXX (Federal Xavfsizlik Xizmati) generali.

Mudofaa vaziri darrov ilgari chiqib, unga qoʻlini choʻzdi:

– Salom, Andrey Vasilevich! Siz bilan tanishganimdan gʻoyat mamnunman.

Uy egasi ularni oʻtirishga taklif qildi:

– Marhamat, oʻtiring. Ichishga ul-bul narsa xohlaysizmi? - Ikkalasi ham suhbatni tezroq boshlashni istagan shekilli. Ular rad etishdi. – Juda yaxshi. Unda suhbatni boshlaylik, keyin - mezbon zalning narigi chetidagi stolga ishora qildi, - kechki ovqatga oʻtiramiz.

Yonayotgan pech qarshisidagi oʻrta oʻrindiqqa vazir, kuratorlar esa bir-biriga yuzma-yuz oʻtirdilar. Gapni Vasiliy

Viktorovich boshladi.

— Janob vazir, menga aytishdiki, — barmog'ini yuqori ko'tarib — norasmiy vaziyatda aytadigan gapingiz bor. O'ylaymanki, bundan Bosh vaziringizning ham xabari bo'lishi kerak. Marhamat, qulog'imiz sizda.

Tonoyan o'rnidan bir oz qo'zg'aldi-da, gapira boshladi:

— Ha, shunday, Vasiliy Viktorovich. Pashinyan Qorabog' masalasida oxirgi va bizning manfaatimiz uchun xizmat qiladigan nuqta qo'yilishini xohlaydi. Bosh vazir tinim bilmay, davlatni oyoqqa turg'izmoqchi. Bir necha marta Rossiya va janob Prezidentga nisbatan ijobiy munosabat bildirganidan xabaringiz bor.

FTX generalining ko'zlari ayyorona tus oldi, ichida kulib, "Kimni aldayapsan, nodon? Go'yo bilmaymiz bizga qanday munosabatda ekanligingizni?

Siz Putinga emas, Sorosga bosh egasiz. Hechqisi yo'q, Pashinyanning ham bo'yniga arqon solish payti keladi. Sizlarni ipakday muloyim qilib qo'yish qiyin bo'lmaydi." Soxta bir mehribonlik bilan dedi:

— Qanaqasiga? Janob vazirning bu borada rejalari borgan o'xshaydi. Yoki buni bizga qoldirmoqchimisiz.

Vazir yelka qisdi. Aftidan, suhbatning bunday boshlanishini kutmagandi. U masalani doim tarixdan boshlardi. Endi nima qilishni bilmay qoldi. Har holda yana jahd etdi:

— Ma'lumki, Arsaxda qadim zamonlardan beri armanlar yashaydi, lekin...

Andrey Vasilevich uning gapini bo'ldi:

— Janob vazir, tarix kim tarafda ekanini ikkimiz ham juda yaxshi bilamiz. Qorabog'ga kelganingizning bir yuz ellik yilligi munosabati bilan me'moriy yodgorlikni qayerga qo'yganingizni ham bilamiz.

Siz na tarix o'qituvchisisiz, biz na o'quvchi. Qorabog'ning yechimi juda murakkab masala. Bu xalqaro tashkilotlar tomonidan ham nazorat qilinadi. Bu muammoni yolg'iz hal

qilish juda qiyin.

Markaziy Razvedka Boshqarmasi generali suhbatga aralashdi:

– Andrey Vasilyevich haq. Qorabogʻ muammosi boshi berk koʻchaga kirib qoldi. Xudo haqqi, buni qanday hal qilish mumkin? Balki siz aytarsiz?

Vazir angladiki, ular buning tilidan takliflarni eshitishni istayotirlar. Ertaga biror narsa boʻlsa, oʻzlarini chetga oladi. Shunda ular bir ish qilmadik, taklif tushdi, eshitdik xolos deyishadi. Bu yerda barcha suhbatlar yozib olinayotganini ham bilardi. U toʻgʻridan-toʻgʻri masalaga koʻchishni xohladi:

– Qorabogʻ muammosini tinchlik yoʻli bilan hal qilish...

General yana uning gapini boʻldi:

– Janob vazir! Muammoni tinch yoʻl bilan hal qilish yoʻli boshi berk koʻchaga kirib boʻldi. Ozarbayjon Prezidenti qaysarlik qilyapti. Avval yettita tumanni qaytar, keyin gaplashamiz deyapti. Yettita tumanni qaytarib berishga tayyormisiz?

Tonoyan darhol javob berdi:

Zinhor. Biz tayyor emasmiz. Hatto bu talab stol ortida muhokamaga qoʻyilsa ham, Yerevanda bizni agʻdarib tashlashadi. Armanlar bu masalada juda sezgir.

Kurator oyoqlarini chalishtirgancha gapirdi:

– Koʻryapsizmi, masalani tinch yoʻl bilan hal qilib boʻlmasligini oʻzingiz ham tan olyapsiz. Orada ikkita yoʻl bor. Yo bu muammo hozirgidek muzlatib qoʻyiladi, yoki bu ishni yana oʻttiz yilga kechiktiramiz.

Biz biror narsa qilishni xohlayotgandek vaziyat yaratamiz. YXHTning Minsk guruhi kelib-ketadi, yigʻilishlar oʻtkazadi, goʻyoki nazorat qiladi, oʻrganish olib borayotgandek boʻlib vaqtni ichakdek choʻzadi. Lekin bilishimcha, Pashinyan masalani bu tarzda ushlab turishni oʻzi uchun xavf manbai deb biladi.

Vazir uning soʻzlarini tasdiqladi:

Yunus O'g'uz

– Mutlaqo haqiqat. Qorabog'dagi kichik to'qnashuv ham Yerevanda mitinglar bo'lishiga sababdir. Aprel voqealari Sarkisyaning intihosiga olib kelmadimi? Bosh vazirimiz buni birvarakayiga hal qilmoqchi, o'zi ham biz tomonda.

General o'z rahbarining yuziga diqqat bilan qaradi:

– Unda urush qol... – so'zini oxirigacha aytmadi. Aksincha, vazir olovga tikilib, generalning fikrini davom ettirdi:

– Unda urush qoldi xolos!

Ikki general bir-biriga qarashdi. Bu qarashlar "sen hayotingda hech haqiqiy urushni qanday bo'lishini ko'rganmisan?". Urush beyish oson, qilish juda mushkul. Bunga yillar davomida tayyorgarlik ko'rish kerak", derdi.

Andrey Vasilevich o'rnidan turib, pechka qarshisida to'xtadi. U hayron qiyofada so'radi:

– Bunga ishonchingiz komilmi? Haqiqatan ham urush boshlamoqchimisiz? Balki Bosh vaziringiz ham sizning fikringizga qo'shilar?

Tonoyan uning so'zlarini tasdiqladi:

– Ha, Pashinyan ham urush boshlash fikrida.

Rahbar qaytib kresloga o'tirdi:

– Urushni qanday boshlamoqchisiz? Axir, bu suv simirshdek oson ish emas. Bu urushga xalqaro tashkilotlar nima deydi, Ozarbayjonni qanday tortasiz?

Nihoyat, Tonoyan asosiy g'oyasini ochiqLAY boshladi:

– Janob generallar! Bu borada rejam bor. – Ikkalasi ham uni diqqat bilan tinglayotganini ko'rib, biroz hayajonlandi. – Bu rejaning asosiy nuqtasi: "Yangi urush – yangi hududlar". Shu qadar oddiy.

Shunda Vasiliiy Viktorovich savol berdi:

– Bu sizga nima beradi? Dunyo yangi urushni - yangi hududlarning bosib olinishini qabul qila oladimi?

Aftidan, vazir bu savolga javoblarni oldindan tayyorlab qo'ygandi. U darhol javob berdi:

– Ushbu rejaning amalga oshirilishi Qorabog' masalasini bir martada va butunlay hal qiladi. Qanday ekanligini

bilmochimisiz? – Ikkalasi ham boshlari bilan tasdiqladilar. – Unda eshiting. Bizning shonli arman armiyamiz yangi hududlarni egallab oladi. Qochqinlar yana Bokuga oqa boshlaydi. Ular oʻz uylariga qaytishni talab qiladi. Bir soʻz bilan aytganda, Ozarbayjonda vaziyat chigallashib ketadi, norozilik namoyishlari, mitinglar va hokazo. Ishga xalqaro tashkilotlar aralashadi.

Ular bizga murojaat qilishlari tabiiy. Biz ham bir shart qoʻyamiz. Qorabogʻning mustaqilligini tan olsinlar, yangi bosib olingan yerlarni qaytaramiz.

Oʻshanda Ilhom Aliyev Qorabogʻ mustaqilligini tan olishga majbur boʻladi. Endi ikkinchi savolingizga javob beraman.

Xalqaro tashkilotlar faqat bayonot berish bilan cheklanadi va Ozarbayjon prezidentini muzokaralarni stol atrofida davom ettirishga majbur qiladi. Biz esa xohlagan narsamizga erishamiz.

FFX generali ichida uning soddaligidan kuldi.

Shunday oʻyladi: “Sen galvars haligacha Ilhom Aliyev urush boshlanishini qanday xohlayotganini bilmayapsanmi? U oʻn besh yildan beri urushga tayyorgarlik koʻrib kelmoqda. Qoʻshinini eng zamonaviy qurollar bilan taʼminlagan. U Isroilning havo hujumida foydalaniladigan "Gumbaz" va Turkiyaning "Bayrogʻdor" raketalarini sotib olgan. Haliyam Turkiya uning armiyasini NATO standartlariga muvofiq shaklda tayyorlayotganini aytmayapman.

Bular yana toʻqsoninchi yillardagi urushi boʻladi, deb oʻylashyapti chogʻi. Agar shunday boʻlsa yanglishishadi. Oʻshanda biz armanlarga yordam bergan edik. Borib bir qishloqni olardikda, keyin egalik qiling derdik. Siz oʻzi jang qila olarmidingiz? Bizga minnatdorlik ham bildirmaysiz. Pashinyan yuzini gʻarbgaburib, Rus bazasini Armanistondan chiqarib yuboraman deydi. Uning qoʻl ostidagilari Rossiyaga qarshi namoyishlarni qoʻllab-quvvatlamogda. Qorabogʻ masalasi hal boʻlishi bilanoq, orqamizga pichoq sanchib,

Yunus O'g'uz

G'arb tarafida bo'lib olasizlar". Shu o'ylar bilan so'radi:

– Xo'sh, agar Ozarbayjon armiyasi hujum qilsa, nima qilasiz?

Bu yerga kelishidan oldin vazir uchrashuvga puxta tayyorgarlik ko'rgan edi.

– O'shanda o'n minglab turklarning jasadi jang maydonida qoladi. Bu nimani anglatishini bilasizmi?

Ikkalasi bir vaqtning o'zida so'rashdi:

– Nimani anglatadi?

Mudofaa vaziri o'ziga kelgandek bo'ldi. U o'zini hali bo'lmagan urushning muzaffar generali kabi tutdi:

– Armanistonga Ozarbayjonda kuchsiz hukumat kerak, shunda biz xohlagan narsamizga erisha olamiz. Aytganingizdek, Ilhom Aliyev juda qaysar. U bizni umuman mensimaydi. O'z bilganini qiladi, xalqaro tashkilotlar yig'ilishlarida bizga qarshi tashviqot olib boradi. Minglab askarlarning o'limi Bokuni alg'ov-dalg'ov qiladi, xalqini ko'taradi. Keyin uni ag'darish qiyin bo'lmaydi, xuddi to'qsoninchi yillarning boshlarida bo'lgani kabi. Bizda "Ohanyan to'g'oni" ham bor.

FXX generali unga qarab kuldi. Bu general uzoqqa bormasligini bilib, so'radi:

– Ya'ni Ozarbayjon armiyasi bu to'g'ondan o'ta olmaydi, demoqchimisiz?

Generalning qo'l telefoniga qo'ng'iroq bo'lib, gapi og'zida qolib ketdi. U pinjagining ko'krak cho'ntagidan telefonni chiqarib, oldiniga raqamga qaradi, so'ng tugmani bosdi:

– Alo, eshitaman.

Telefonning narigi tomonidan ovoz keldi:

– Janob general! Bir soatdan keyin uchrashuvingiz boshlanishini eslatmoqchiman.

General ikkalasiga qaradi va javob berdi:

– Ha, ha, bilaman. Bu yerda hozir jiddiy suhbat ketmoqda. Sen shunday qil. Uchrashuvni ikki soatga orqaga sur. Shunda yetib boraman deb umid qilaman. Tushunarlimi?

– Albatta, janob general.

– Yaxshi. – Telefonni oʻchirib, choʻntagiga soldi-da, vazirga yuzlandi. – Qayerda toʻxtagan edik? Ha, "Ohanyan toʻgʻoni"da.

Tonoyan FXX generali oʻrnidan turib ketadi, suhbat shu bilan tugaydi, deb oʻylagandi, ammo unday boʻlmadi.

– Tabiiyki, siz bundan xabardorsiz. Buni bilaman. Biz bunga roppa-rosa yigirma yil davomida Qorabogʻ janubida – Fuzuliyda ham, shimolida – Agʻdamda ham bunga tayyorgarlik koʻrganmiz. Beshta toʻgʻon, tunnellar, bunkerlar qurdik, xandaqlar qazdik, har qarich yerga minalar koʻmdik.

Bu yerlarda milliondan ortiq mina bor. Xohlasa zirhli texnikalari boʻlsin, xohlasa koʻp sonli askarlari. Toʻgʻondan oshmoqchi boʻlishsa, pashshadek qirilib ketishadi.

Bu toʻsiqdan oʻtish imkonsiz.

Men hali havo hujumidan mudofaa tizimlarimizning mukammalligi haqida, "S-300"lar haqida, sizlar bergan "Iskander" va boshqa raketalardan gapirmayapman. Ularning aksariyatini sizlardan olganmiz.

FXX generali kinoya aralash:

– Ha, ha, toʻgʻri. Bizdan kredit olib, oʻsha pulga oʻzimizdan qurol-yarogʻ olgansiz. Qarzni qaytarib berish niyatingiz ham yoʻq.

Mudofaa vaziri javob bermoqchi boʻldi. Yana nima istaysiz? - degisi keldi. – Butun Armanistonni sizga berdik. Gaz, temiryoʻl, energetika, chegara muhofazasi, yana nima qoldi, bilmayman, armiya, Ichki iShlar Vazirligining xavfsizlik xizmati generallari va zobitlari sizning qoʻlingizda boʻlsa. Nega kreditni qaytarishimiz kerak? Lekin bu soʻzlarni aytishdan oʻzini tiydi.

Hozir bu gaplarni payti emasdi. Pashinyan uni janjal qilish uchun xizmat safariga yubormagan edi. Bunday sharoitda bunaqa masalalarni koʻtarish uning vakolatiga kirmasdi. Shu sababli u avvalgi suhbatini davom ettirdi:

– Vasilii Viktorovich! Oʻylaymanki, urush boshlansa,

Kollektiv Xavfsizlik Shartnomasi Tashkiloti bizga har tomonlama yordam ko'rsatadi va Ozarbayjonning qo'lga erk berishiga yo'l qo'ymaydi.

Biz buni Moskvadan kutamiz, chunki biz Kreml va Prezident – janob Putinga sodiqligimizni doimo isbotlab kelganmiz. Shuningdek, Rossiya va Armaniston barcha sohalarda strategik ittifoqchidirlar.

Vasiliy Viktorovich mudofaa vazirining bu qadar ishonch bilan gapiryotganiga ichida kuldi: “Ha, qanchalik sadoqatli ekaningizni bilamiz... Tutqichsiz chamadonga o'xshaysiz. Quchoq'imizda olib yurishdan charchadik. Bularning dardikasali bor emish. Rus askarlari siz uchun jang qilmoqchi emas.

Armanistonda rus maktablarini yopishadi, Putinga qarshi shiorlar bilan ko'chaga chiqishadi, odamlarimizni lavozimlaridan ozod qiladilar, urushga kelganda, bizga murojaat qilishadi. Qolaversa, Putin va Ilhom Aliyev o'rtasida qanday do'stlik aloqalari borligini tasavvur ham qilolmaysiz...”.

Boshqa kurator Andrey Vasilevich suhbatga ko'p qo'shilmayotgan bo'lsa-da, ammo endi u generalning negadir hayolga tolganini yoki ortiq gaplashgisi kelmayotganini sezdi. Bunday muhim suhbatni bo'sh qoldirib bo'lmasdi. So'radi:

– Armaniston Kollektiv Xavfsizlik Kuchlarini bu urushga qanday jalb qiladi? Axir xalqaro normalar bor. KXShT (Kollektiv Xavfsizlik Shartnomasi Tashkiloti)ning ichki nizomi bor. Bu tashkilotning sizdan boshqa barcha a'zolari Ozarbayjon bilan ittifoqchilik qilishini hali aytganimcha yo'q.

Tonoyan kresloga cho'zilib, yana ko'zlarini pechda yonayotgan olovga tikdi.

U har gal olovni ko'rganida, urush yodiga tushar, unga ishtiyoqi ortardi. Olov uchiqunlari ko'zlarida aks etgandi, shunda u dedi:

– Bu safar biz urushni Qorabogʻda yoki unga yaqin hududlarda qilmaymiz. Ozarbayjonning gʻarbga chiqishini toʻxtatmoqchimiz. “Yangi urush, yangi hududlar” rejasi ham shundan kelib chiqqan. Bu gal biz Tovuz taraflardagi yangi hududlarni ishgʻol qilamiz. Shunda Ozarbayjon tomoni Qorabogʻning maqomi yuzasidan biz bilan kelishib oladi.

Bu safar FXX generalining jahli chiqdi shekilli, lekin yodiga nima tushgan boʻlsa ham, ohangini oʻzgartirmay, ohista dedi:

– Nima, siz jinni boʻldingizmi? Butun dunyoni ustimizga qulatishni xohlaysizmi? U yerdan Ozarbayjonning bir qancha strategik chiziqlari oʻtgan. Bu sizning chegarangizdan atigi oʻn toʻrt kilometr uzoqlikda. Bu yoʻnalishlardan dunyoning yetakchi davlatlari, jumladan, biz ham foyda koʻrmoqdamiz. Bunga kim ruxsat beradi ekan?

Tonoyan ishonch bilan javob berdi:

– Faoliyatimizda buni hisobga olganmiz. Ozarbayjon armiyasiga chegara postlarimizdan hujum qilamiz. Ular himoyaga oʻtadi, bizning hududimizga kirib boradi, xavfsizlik zonasi yaratiladi. Keyin biz Moskvaga murojaat qilamiz. KXShT armiyasi chegara hududiga joylashadi...

General nechanchi martadirki uning gapini boʻlishi edi.

– Bu oson boʻlmaydi. Balki Ozarbayjon tomoni hech qachon chegarani kesib oʻtmas? Bunday qaraganda, chegaralarni ajratish va demarkatsiya qilish boʻyicha kelishuvga ham ega emassiz. Shunda nima boʻladi? Bunday vaziyatda, KXShT sizga hech narsa bilan yordam bera olmaydi!

Tonoyan bu masalani nazardan chetda qoldirgan edi. Agar ular xalqaro tashkilotlarga, hatto Moskvaga murojaat qilsalar, masala ochiq qoladi deb oʻylamagandi.

Lekin chekingisi kelmasdi. Agar bu savolga javob bermasa, demak masala bitgan hisoblanardi. Bugun u bu oliy martabali shaxsning qarshisida oʻtirib, suhbatlashayotgan

va savollarga javob bergan ekan, demak, ular nimanidir tushungan edi.

Bu ikki general hamma narsani hal qila olmasa-da, ko'p narsaga tishlari o'tishini ham bilardi, bu kabi masalalarda ular bilan maslahatlashadilar, ularning fikrlarini, mantiqlarini diqqat bilan tinglaydilar. Endi jim turmaslik kerak, gapirish kerak. Shular xayolidan o'tarkan dedi:

– Janob generallar! Tovuz - bu aloqa yo'lagi emas. Buni ham inobatga olganmiz. 1994-yilda tuzilgan sulh bitimi shartlari buzilsin va Ozarbayjonni Qorabog'da urushga tortib, muammoga chek qo'yaylik.

Shu tariqa ma'lum vaqtdan so'ng Moskva rahnamoligida YXHTning Minsk guruhini ham muzokaraga jalb qila olasiz.

Ozarbayjonga va uning prezidentiga bosim bo'ladi, chekinishdan boshqa chorai qolmaydi, ya'ni bitimni imzolaydi. Bu safar oson bo'lmaydi.

Uning javobidan umuman qoniqmagan BRBning (Rossiya Mudofaa vazirligining Bosh Razvedka Boshqarmasi) generali:

– Bularning barchasini kelishib, ma'qullab, keyin esa necha oylab tayyorgarlik ko'rish lozim. Haliyam men siz xalqaro sub'ektlar va davlatlarni urushga tayyorlashingiz kerak, deb aytmayapman.

Esingizdan chiqmagan bo'lsa, 1993-yilda zabt etilgan (u "okkupatsiya" so'zini ishlatmadi) yetti tumandan arman qurolli kuchlarini zudlik bilan olib chiqib ketish to'g'risida BMTning to'rtta rezolyutsiyasi bor

Mudofaa vaziri qo'lini beparvolik bilan silkitdi:

– Janob generallar, go'yo bilmaysiz-ki, qachon siz xohlasangiz BMT qarorlari qog'ozda qolib ketadi yoki kuchga kiradi? Siz bu Tashkilotning Xavfsizlik kengashida qaror qabul qildingiz va Iroq armiyasini bir kunda Quvaytdan quvib chiqardingiz. Nahotki, bu sizning qo'lingizda bo'lmasa?

Har qanday masalaga Rossiyaning o'zi veto qo'ysa, har qanday qaror bekor bo'ladi. Agar yana qandaydir qaror

qabul qilsangiz ham, oʻsha toʻrtta qaror yigirma yetti yil davomida qogʻozda qolganidek, undan keyin qabul qilingan qarorlar ham shunday boʻladi. Axir siz dunyoni boshqarib turganingiz yoʻqmi?

FXX generali bunday beadabona va bamaylixotir javobdan qoniqmadi.

Oʻyladi: “Yoʻq, armanlar haqiqatdan ham aqldan ozganga oʻxshaydi. Ular har bir masalani xuddi hal qiladigandek ishonch bilan gapirishadi”. U birdan savol berdi:

– Janob vazir! Bu urushni boshlash bilan birga siz yangi jahon urushini ochishga zamin yaratishingiz mumkinligini anglayapsizmi? Sizning qoʻshnilaringiz kimlar?

Rossiya, Eron, Turkiya, Gruziya. Aytaylik, Gruziya bu urushda betaraf boʻlar, ammo ishonchim komilki, u yoki bu holatda rasmiy Tbilisi bu masalaga oʻz munosabatini bildiradi, katta ehtimol bilan sizning foydangizga emas. NATOning ikkinchi yirik armiyasi boʻlgan Turkiyani oʻylab koʻrdingizmi? Sizning ittifoqdoshingiz kim boʻladi?

Aftidan, Yerevanda ittifoq masalasi koʻp muhokama qilingan. Armaniston bir qancha davlatlarga katta umid bogʻlagan edi. Shunda, Tonoyan qiyinchiliksiz javob berdi:

– Rossiya, Eron, Fransiya, Amerika, barcha Yevropa va Amerika jamoatchiligi matbuoti. Bizning diasporamiz butun dunyoni oyoqqa turgʻizishga qodir. Lobbistlar, ayrim senatorlar, davlat arboblari, dunyoga mashhur ijtimoiy va siyosiy arboblari, aktyorlar, rassomlar, rejissyorlar, qoʻshiqchilar bizni qoʻllab-quvvatlaydi, biz bilan birga boʻladi.

General armanlar butun dunyoni bu urushga jalb qilmoqchi ekanligini tushundi. Oʻzi ham shunday boʻladigan koʻrinardi:

“Bu Pashinyan bizdan chekkada koʻp ishlarni qiladi. Uning shu qadar ishonch bilan gapirishidan, u sanab oʻtgan davlatlar va odamlar Armaniston bilan urush boshlash uchun kelishuvga erishgandek goʻyo. Ular gʻalabalariga bir

lahza bo'lsa ham shubha qilishmayotir". Vazirni osmondan yerga tushirishga to'g'ri keldi.

– Men siz kabi o'ylamayman, chunki bu yerda Rossiya nomidan gapira olmayman. Biz sizni yetarlicha qo'llab-quvvatlaymiz, lekin bu masalada faqat bir kishining qarori qabul bo'lishi mumkin, u ham bo'lsa, Prezident Putin. Eronga kelsak, ular sizga yordam beradi.

Lekin shuni ham inobatga olish kerakki, Eronda qirq million etnik ozarbayjonliklar istiqomat qiladi. Agar Tehron o'zining strategik manfaatlarini ko'zda tutib, Yerevanga ochiq yordam bersa, ular oyoqqa turishadi, yana, - u mudofaa vaziriga diqqat bilan qaradi va davom etdi, - shuni ham hisobga olish kerakki, Eron Turkiya va Pokiston bosimiga duch keladi.

Havo yo'llaridan mahrum bo'lishingizni aytmay qo'yaqolay, chunki urush boshlanganidan ma'lum vaqt o'tgach, men sanab o'tgan barcha davlatlar, jumladan, Gruziya ham havo yo'llarini siz uchun yopadi. Siz juda qiyin vazifa ostidasiz. Keyinchalik bu ish shunchalik murakkablashib ketadiki, oxir-oqibat undan chiqolmay qolasizmi, deb qo'rqaman.

– Soatiga qaradi. – Yana ikkita savolim bor, ularga javob olaman, so'ngra ketaman. Boya men yig'ilishda qatnashishim kerakligini eshitdingiz. – Shu mahal mudofaa vaziridan minnatdor bo'ldi. – Siz tufayli mashvaratni ikki soatga kechiktirdim.

Tonoyan unga minnatdorchilik bildirdi:

– Katta rahmat, janob general! Bemalol, men sizni qiziqtirgan barcha savollarga javob berishga tayyorman. Biz shu masalalarni muhokama qilish va bir xulosaga kelish uchun bu yerga yig'ildik.

General dangal gapirdi:

– Iltimos, bu savolga ochiq javob bersangiz. Chunki bu o'ta muhim narsa.

– Marhamat, men mutloq ochiq javob berishga harakat qilaman.

– Siz hozirgina bu yerda barcha davlatlarning nomlarini va sizga yordam beradigan muassasalarni, insonlarni sanab o'tdingiz. Lekin meni ko'proq qiziqtiradigan narsa Armanistonning ichki ahvoli. Arman xalqi va uning askarlari siz boshlamoqchi bo'lgan urushga tayyormi? Yoki bizga ishonib urushga kirmoqchimisiz?

Bu savol arman generalining og'riqli nuqtasi edi. Tonoyan to'xtadi, sarosimaga tushdi, bu savolga qanday javob berishni bilmay qoldi, bu ko'zlari qotib qolganidan sezilardi. Ochig'i u bunday savolni kutmagan edi.

Unga aytgan edilarki, borib rejalaridan gapir, gapning bo'larini ayt, xavotir olma, ular har masalani normal qabul qilishadi deb. Ammo endi FXX generali uni savoli bilan boshi berk ko'chaga olib kirib qo'ydi, u javob berishga tayyor emas edi. Javob berish uchun vaqtni cho'zish kerak deb o'yladi, chunki ularning, ya'ni harbiylarning fikriga ko'ra urushni boshlash uchun xalqning, hatto ofitser va askarlarning ham fikri muhim emas. Muhimi shuki, urushni boshlasin, xalqni qo'rqitib oyoqqa turg'iza olsin, xorijdagi millatdoshlardan katta pul undirsinlar.

Tonoyan o'z Bosh vazirining demokratiya va oshkoralikka taqlid qilayotganini va xalqni aldab, o'z hokimiyatini saqlab qolish bilan bandligini ham bilardi.

Mudofaa vaziri to'satdan o'rnidan turdi va shartta kuratoridan so'radi:

– Andrey Viktorovich, hojatxona qayerda? Tushlikda nimadir noto'g'ri yegan bo'lsam kerak. Oshqozonimda og'riq turdi.

Kuratorial vazirga ma'noli boqdi. U yuziga shunday tus berdiki, go'yo chindan ham qorni og'rib yotibdi, chiday olmaydi. Hatto bir zum unga rahmi ham keldi:

– Ha, bir daqiqa. - U qo'li ostidagi tugmani bosdi. Eshik

Yunus O'g'uz

oldida qo'riqchini ko'rishi bilanoq buyruq berdi. -Mehmonga hojatxonani ko'rsating.

Tonoyan uzrhollik bildirdi:

– Maroqli suhbatimizni buzganim uchun uzr so'rayman. Bir necha daqiqadan keyin qaytaman. Shunda savolingizga javob beraman.

Vazir ketgach, ikkala general ham o'rnidan turib, katta zalda yura boshladi.

Markaziy Razvedka Boshqarmasi generali kuratorining bunchalik ko'p savol berganiga hayron bo'ldi.

– Viktor Vasilevich, siz vazirni haddan tashqari ko'p burchakka qadadingiz. Bosh vaziriga borib “Kuratorimiz ittifoqchiligimizga xilof ish yuritishyapti, ishimizni sekinlashtiryapti”, deb bizdan shikoyat qiladimi, deb qo'rqaman, – kulimsirab qo'ydi, – hatto dabdurstdan shunday savol berdingizki, qorni og'rib qoldi. Rostini aytsam, bir zum achindim ham. Balki buning sababini menga aytarsiz?!

General Vasiliy Surikovning devorda ilingan mashhur “Sibir fathi” kartinasi qarshisiga kelib to'xtadi. Nigohi asarning haqiqiyiligini tekshirishga qaratilgan bo'lsa-da, javob berishni ham unutmadi:

– Viktor Vasilevich, - jilmayib qo'ydi u ham, - bularning og'ir vaziyatga tushganda qorni og'rib qolishi nayrangdan boshqa narsa emas. Sobiq prezident Sarkisyan ham Ozarbayjon bilan bir hujjatni imzolamaslik uchun avval hojatxonaga borgandi, hojatxonadan shunaqasi mehmonxonaga qaytdi.

– U ovoz chiqarib kuldi, keyin sekin qo'shib qo'ydi. - Endi sizning mehmoningiz ham hojatxonadan to'g'ri chiqib ketishi mumkin.

Mezbon ham kuldi va barmog'i bilan e'tiroz ishorasini ko'rsatdi:

– Oldimdan ketishi uchun mendan ruxsat olishi kerak,

aks holda soqchilar uni hech qayoqqa qo‘yib yubormaydi. Marhamat, sizni eshitmoqchiman.

General jiddiylashdi:

– Bu suhbat oramizda qolishi kerak, mehmon bu haqda hech narsa bilmasligi kerak. Bu suhbatni lentadan o‘chirib tashlash kerak. Usiz men uchrashuvimizning asosiy mazmunini hisobotga yozaman.

BRB generali uni ishontirdi:

– Xotirjam bo‘laving, janob general! Birinchi marta emas-ku. Biz necha yillardan beri birga ishlaymiz axir.

– Unday bo‘lsa, uchta asosiy masala bo‘yicha bir necha savol beraman. – Gapning indallosiga o‘tdi. – Birinchisi, Pashinyan hukumatining Kremlga o‘ta e‘tiborsizligi. Ular Sorosning pullari bilan ko‘chadan hokimiyatga kelishganini, kelishi bilan o‘z odamlarini lavozimlarga joylashtirganini yaxshi bilasiz.

– Suhbatdoshi uning so‘zlarni boshi bilan tasdiqladi. — Bizning odimlarimiz yo qamoqqa tashlanadi, yo bezdirib mamlakatdan quviladi. Agar shu tarzda ketadigan bo‘lsa, tez orada Armanistonni Yevropa va Amerikaga qo‘sh qo‘llab berib yuborgan bo‘lamiz. Har holda, bunday o‘zgarish geosiyosiy, geoiqtisodiy va eng muhimi, geostrategik manfaatlarimizga ziddir. Ikkinchidan, ular bizning qo‘llarimiz bilan urush olib bormoqchi bo‘ladilar, lekin o‘z manfaatlari asosiysidir.

Ular bizni armanlar uchun “Buyuk Armaniston” davlatini yaratish niyatida deb bilishadi. Bu bizning manfaatlarimizga uyg‘un kelmaydi. Yana ular yangi urush taktikasini o‘rganishni istamaydilar. To‘qsoninchi yillardagi vaziyat o‘tib ketdi, lekin armanlar hamon o‘sha davrda yuribdi. Ular hatto 2010-yil darajasida ham emas. Uchinchidan, urush qilmoqchi bo‘lgan tomon o‘z dushmaniga to‘g‘ri baho bera olishi kerak. Bular esa zamonaviy Ozarbayjon armiyasining kuch-qudratini mensimayapti.

O‘ylaydilarki, bizning Ozarbayjon armiyasidagi ayrim

zobitlarimiz koordinatorlarni, harakat va urush rejalarini siz orqali ularga yetkazarlar.

Hozir Ozarbayjon armiyasida ishlayotgan ofitserlarimizning ahvoli umuman yaxshi emas. Ozarbayjon prezidenti Ilhom Aliyev bu urushni hammadan ko'ra ko'proq istayotganini ham bilaman, lekin nima uchunligini hali tushunib yetmadim.

Uni qiziqish bilan tinglagan Markaziy Razvedka Boshqarmasi generali hushyorlik bilan so'radi:

– Biz o'zi qayerdamiz, janob general? Men shuni bilaman-ki, rasmiy Boku yillar davomida xalqaro institutlar, alohida shaxslar va jamoat tashkilotlari bilan siyosiy, iqtisodiy va madaniy sohalarida juda kuchli ish olib bormoqda. Ular hatto Rim papasining oldiga ham borishdi.

Bu sohada Haydar Aliyev jamg'armasi va uning prezidenti jiddiy ish qilmoqda. Bu ham yetmagandek, Ilhom Aliyev Prezident devonida bizning vositachimiz bo'lgan amaldorni nafaqaga chiqardi. Bu vaqtgacha u prezidentni urush boshlash fikridan qaytarib kelgandi. Endi biz bunday imkoniyatdan mahrummiz. Tushunarlimi?

General kulib javob berdi:

– Bizning kuchimiz Kavkazda bo'lishligimizda. Pashinyan bo'lajak urushda g'alaba qozonadimi yoki mag'lub bo'ladimi, bu bizning foydamizga.

Mezbon yana savol bermoqchi edi, eshik ochilib, mehmon qaytib keldi va ularning yonida to'xtar ekan jilmayib dedi:

– Ming bor uzr. Endi men sizning savolingizga javob berishga tayyorman.

– Tonoyan boshini ko'tarib “Sibir fathi” asariga termulgancha davom etdi.

– Arman xalqi va armiyasi urushga tayyormi, deb so'ragan edingizmi? – General “ha” dedi. – Javob beraman. Ha, tayyor. Xalqqa va armiyaga bir uchqun kerar.

Kichkina g'alaba butun dunyo armanlarini birlashtiradi, armiyaning ruhini ko'taradi. Pashinyan Qorabog'

Soʻqmoq
muammosini bir urinishda hal qilgan Bosh vazir sifatida ham tarixda qoladi. – Biroz oʻylanib turdi-da, qoʻshib qoʻydi. – Hozir Armanistonda milliy birlik yoʻq boʻlsa-da, xalq koʻplab partiyalarga, hukumat va muxolifatga boʻlingan, ammo kichik bir gʻalaba xalqni yana birlashtirib, butun boʻlishiga sabab boʻladi.

Federal Xavfsizlik Xizmati generali soatiga qarab afsuslangandek qilib:

“Afsuski, ketar vaqtim boʻlib qolibdi”, dedi u, – boʻlmasa, siz bilan dasturxon atrofida bu qiziqarli suhbatni davom ettirgan boʻlardim. Lekin men bunday qilolmayman, - u ikki qoʻlini yon tomonga kerdi. — Hisobotda esa sizning aytganlaringizning hammasini koʻrsataman.

U qoʻlini uzatib, vazir bilan xayrlashmoqchi boʻldi. Vazir uning qoʻlini oldi, lekin qoʻyib yubormay soʻradi:

– Oxirgi savol-chi?

General ajablanib javob berdi:

– Qanaqa savol?

– Hojatxonaga borishimdan oldin ikkita savolim qoldi dedingiz, birini berdingiz, ikkinchisini esa unutib qoʻydingiz chogʻi.

General bir muddat oʻylanib turdida, dedi:

– Ha, oxirgi savolmi, butunlay unutibman. Oxirgi savolim: Armaniston tomoni Ozarbayjonni qanday qilib urushga undamoqchi? Javobingizni bajonidil eshitardim, lekin endi vaqtim yoʻq, – u vazirning qoʻlidan qoʻlini uzib, ikkinchi generalni ishora qildi. – Andrey Viktorovichga javobingizni aytarsiz. U esa menga aytadi.

General xayr-xushlashib ketdi.

Uy egasi mehmon bilan dasturxon atrofida yana ikki soat suhbatlashdi.

Mudofaa vaziri o'z o'rniga o'tirishi bilan ulkan harbiy samolyot tezlikni oshirib, havoga ko'tarildi. U Moskvada bo'lgan to'rt kun davomida manfaatli uchrashuvlar o'tkazdi, buning natijasida ko'plab qurol-yarog'lar sotib olishga ham muvaffaq bo'ldi. Endi u shu samolyotda o'sha qurollarni o'zi bilan Yerevanga olib ketayotgan edi.

Bosh vazir bundan qanoatlanishi tabiiy. Har holda, Moskva Armanistonni yaxshimi, yomonmi nima bo'lganda ham qurol bilan ta'minlashdan bosh tortmadi. U Sankt-Peterburg yaqinidagi omborxonadan hisobdan chiqarilgan raketalarni qismlarga ajratilib, Yerevanga qanday qilib olib kelinganini eslab jilmayib qo'ydi.

Natijada, rossiyalik ombor xodimi shartli qamoq jazosini olish bilangina hayotini saqlab qoldi. Ular undan yuqoriga chiqa olishmadi, to'g'rirog'i, ruxsat bermadilar. Keyinchalik bu raketalarning izlari Qorabog'dagi qirq to'rt kunlik urushda ko'rindi. Bu hali bir necha oydan keyin sodir bo'lgandi. Endi armanlar va ularning hukumati dunyoda qon talab qilishardi, ular hech kim bilan hisob-kitob qilishni xohlashmasdi.

U yordamchisidan qo'l telefonini keltirishni so'radi. Yordamchi unga telefonni uzatganda, vazir so'radi:

– Qo'ng'iroq ko'p tushibdimi?

– Ha, janob general!

U telefonni oldi, ekranni ochdi, kiruvchi qo'ng'iroqlar tugmasini bosdi.

O'nlab qo'ng'iroq bo'ldibdi, lekin uydan, oilasidan yoki xotinidan birorta ham qo'ng'iroq kelmagan. Moskvaga ketayotganda, uyda xotini bilan kelishib olgandi. Ayol vazirlik matbuot xizmati xodimasini bir necha bor televizor va tadbirlarda eri bilan birga ko'rgan, erini rashk qilardi. Eri har gal xizmat safariga ketayotganda, "Syuzannani ham

o'zing bilan olib ketyapsanmi?" deb piching qilardi.

Biroq, rafiqasining o'zi ham zobitlar orasida ancha dong taratgan edi. Lekin u hamon erini rashk qilardi. Tonoyan bu qizni o'zi bilan Mokvaga olib ketmaganiga qancha qasam ichmasin, ishonmasdi.

Cho'ntagidan boshqa bir uyali telefon chiqarib tugmani bosdi. U bu telefon bilan bor-yo'g'i to'rt-besh kishiga qo'ng'iroq qilar va telefon har qanday tinglashlardan himoyalanganligini bilardi. Telefonning narigi tomonidan qo'ng'iroq qilgan odamning ovozi eshitildi:

– Eshitaman

Javob bergan kishi qo'ng'iroq qiluvchining kimligini bilar edi.

– Xayrli kech, janob Bosh vazir! - Tonoyan ichganligini Pashinyanga bildirmaslikka harakat qildi. Samolyotga chiqishdan oldin elchi vazir sharafiga ziyofat uyushtirgan va "shonli" arman armiyasi uchun qadah ko'tarilgandi. Vazir hattoki elchiga Yerevan "Buyuk Armaniston" orzusidagi urushda hozirgi yerlar bilan qanoatlanmasligini aytgandi.

Telefondan Bosh vazirning ovozi eshitildi:

– Aytishlaricha, sen allaqachon samolyotdasan, Yerevanga uchib kelyapsan. Uchrashuv qanday o'tdi, garchi har kuni sendan bu haqda ma'lumot olsam ham bu men uchun muhim. Qanday kelyapsan?

Tonoyan o'zini biroz yig'ib oldida:

– Ha, janob Bosh vazir! Uchrashuv yuqori saviyada o'tdi. Biz deyarli barcha masalalarda kelishib oldik. - U Pashinyanni maqtab ketdi. - Moskvada sizni juda hurmat qilishadi. Ismingizni tilga olishim bilan hamma eshiklar ochilib, meni tabassum bilan kutib olishdi. - Telefonda uning kulayotganini eshitdi.

U Bosh vazir kulgisini tugatganidan keyin gapini davom ettirmoqchi bo'lib kutib turdi. Shunday ham bo'ldi. - Sizga yaxshi xabarim bor dedi.

– Qanday ekan?

Yunus O'g'uz

– Janob Bosh vazir! Men o'lja bilan qaytyabman. Biz istagan eng zamonaviy qurollar men bilan birga samolyot yukxonasida. Nihoyat, sizning sharofatingiz bilan ular bizga o'sha raketalarni berishdi.

Pashinyan o'zidan qoniqish hosil qilgan holda:

– Ajoyib yangilik! Demak, siyosatimiz to'g'ri yo'nalishda. Biz Moskva bilan ozgina noz-karashma qilsak, ularga yoqmaydigan gaplarni aytsak, xohlagan narsamizga erisha olamiz ekan. Ofarin senga! Menimcha, bu siyosatni davom ettirish kerak.

– Rahmat, janob Bosh vazir! Yerevanga yetib borishimiz bilan men sizga sotib olgan qurollarimiz ro'yxatini yuboraman.

Pashinyan e'tiroz bildirdi:

– Yuborish shart emas, janob vazir! - so'radi u. – Ro'yxat bormi?

Tonoyan yonidagi papkaga qaradi va tasdiqan javob berdi:

– Ha, ro'yxat papka ichida.

– Juda yaxshi. O'sha papkani ham ol, Zvarnotsga tushish bilan to'g'ri mening qarorgohimga kel, tashqi ishlar vaziri ham shu yerda bo'ladi. Kel, masalalarni qizg'in muhokama qilamiz, sizning Moskvadan muvaffaqiyatli qaytishingiz sharafiga ziyofat beraman.

– Bosh ustiga!

Telefonni o'chirib, yonidagi portfelni ochib, ro'yxatga ko'z yugurtirdi. Ular haqiqatan Moskvadan o'zlari xohlagan hamma narsalarini olishgandi. Ro'yxatni portfelga qo'yayotganida behosdan Velichkning kitobiga ko'zi tushdi, qo'l cho'zib uni oldi. O'yladi: "Nega bu odam bizni shunchalik yomon ko'radi?" Qaysi sahifani ochma, ustimizdan haqorat yog'diradi".

U beixtiyor kitobni ochdi. Bu yetmishinchi sahifada edi. Unda shunday yozilgan edi:

“Armanshunos Patkanov deyarli hech qanday faktining

yoʻqligidan uyalmagan holda, fanda nomi yoʻq Senkovskiy va Botanika, Koxga ishora qilmoqda. Gruzin yozuvchisi Bakradze oʻz vaqtida ularni fosh qilishga urindi, lekin bu bahs rus jamiyatidan nariga oʻtmadi.

Patkanovning shogirdi janob Marr fursatni qoʻldan boy bermay, armanlar manfaati uchun gruzinlardan nimanidir tortib olishga qaror qildi va gruzinlarning “Yoʻlbars terisini yopgan pahlavon” asari armanlarniki ekanligini isbotlashga vaʼda berdi...”, u yetmish ikkinchi sahifani ochdi. Xolis, insonparvar, axloqiy Tatsit Rim dushmanlarini taʼriflaganda nemislar haqida yaxshi gaplar aytadi, armanlar haqida esa shunday yozadi: “Bu xalq tabiatan ikkiyuzlamachi va rimliklarga nisbatan cheksiz nafratga ega”.

Bir qator pastda esa Pushkinning soʻzlari keltirilgandi: - Sen qoʻrqqsan, sen qulsan, sen armansan! U gʻazab bilan kitobni yopib portfeliga soldi. Qachondir boʻsh vaqtim boʻlsa, bu kitobni oʻqib chiqaman, dedi. Dushmanga aniq javob berish uchun siz uning zaif tomonlarini bilishingiz kerak.

Bu Velichko bizning eng zaif tomonlarimizni oʻrganganga oʻxshaydi. Harbiy sohada ham shunday, lekin u egallagan vazir lavozimi, qolaversa, oʻz xalqining oʻzidan roziligi, “goʻyo butun dunyo ular oldida qarzdor” degan fikri bunga imkon bermasdi.

Harbiy kiyimda oldiga kelgan styuardessa uning xayollarini tarqatib yubordi:

- Janob vazir! Sizga ichimlik keltiraymi, nimadir yeyishni xohlaysizmi?

Vazir qizga boshdan-oyoq qaradi, nigohini uning sonlariga qadadi va koʻzini oʻsha joydan uzmay gapirdi:

- Ovqatlanmayman. Limon bilan konyak bersangiz kifoya.

Styuardessa “hoʻp boʻladi” dedi nozlanib. Birozdan keyin vazir buyurgan narsalarni olib keldi. Stol ustiga qoʻydi va yana noz-karashma bilan chiqib ketdi. Vazir keltirilgan konyakdan bir qultum ichib, ogʻziga limon boʻlagini tashladi.

Ko'zlarini yumib, Bosh vazir bilan bo'ladigan uchrashuvga qanday hozirlik ko'rish haqida o'ylay boshladi.

Bosh vazirning qarorgohi Yerevanning eng chekka qismida, shovqin-surondan uzoqda joylashgan edi. Bu joylar bilan tanish bo'lganlar qarorgoh uch karra ichki va tashqi himoya bilan qo'riqlanishini bilardi. Shuning uchun ko'p odamlar bu joydan uzoqroq turishga harakat qilishardi. Pashinyan bosh vazir etib saylanishi bilanoq oilasini ushbu qarorgohga ko'chirib, xavfsizlik choralari kuchaytirdi.

Prezident Sarkisyandan qolgan barcha jihoz va mebellarni almashtirdi. Darhaqiqat, u buni o'zi qilmadi, eridan battar shuhratparast bo'lgan xotini Anna Akopova qilgandi. Aytishlaricha, aynan shu ayol jurnalist bo'lib ishlagan payti Nikolni Soros bilan tanishtirgan.

Nikol ko'pincha uning chizgan chizig'idan chiqmas va xotinining maslahati bilan siyosiy faoliyatiga ba'zi tuzatishlar kiritgandi. Hatto 2008-yilgi Sarkisyanning prezidentlik saylovlarida ham maydonda alanga ichida edi, Anna unga kelajak istiqboli uchun uning oldingi safda turishni maslahat bergandi. Va shunday ham bo'ldi. Nikol qo'lga olinib, ikki yillik qamoq jazosiga hukm qilindi. Bu uning reytingining oshishiga sabab bo'ldi.

Amnistiya bilan qamoqdan chiqqan Pashinyan darhol Armanistonning birinchi prezidenti Ter-Petrosyanga yaqinlashib bordi. Ammo 2018-yilda Armaniston prezidentlik boshqaruvidan parlament boshqaruviga o'tganida Pashinyan ko'cha mitinglarini uyushtirdi, amaldagi Sarkisyanni hokimiyatdan ag'dardi va shu bilan birga sobiq prezident Ter-Petrosyandan ham uzoqlashdi.

Avvaliga Bosh vazir televideniye va matbuotda nima haqida gapirayotganini bilmagandek tuyulardi. Keyinchalik uning dasturi juda jiddiy ishlab chiqilgani va u shu dastur

doirasida ishlayotgani ma'lum bo'ldi. Uning afzalliklaridan biri Nikolning Armanistonda tug'ilganligi edi. Qorabog' klani, ya'ni Kocharyan va Sarkisyaning yigirma yillik hukmronligi davrida mamlakat shu qadar korrupsiya va qonunsizlik botqog'iga tushib ketdiki, Yerevan armanlari Qorabog' armanlaridan shunchaki nafratlana boshladi.

Hokimiyatga it kelsin, bo'ri kelsin, lekin Qorabog'liklardan emas, deyishardi. Chunki bu klan Armaniston va Qorabog'da ko'z tushadigan hamma narsani sotgandi. Bunday vaziyatda Pashinyanning bosh vazir sifatida hokimiyatga kelishi va norozi olomonni ko'chaga chiqarishi qiyin kechmadi. Arman xalqi Nikolni ko'chalarda qo'llab-quvvatladi. Endi uning turmush tarzi o'zgargandi. Pashinyan hokimiyatda uzoq vaqt qolishi uchun yangi elita yaratishga juda ehtiyotkorlik bilan harakat qildi, biroq Qorabog' muammosining bir marotabada hal etilmagani uning xohish-istaklarining amalga oshishiga to'sqinlik qildi.

Mudofaa vazirining mashinasi qarorgohga yaqinlashganda, eshiklar avtomatik ravishda ochildi. Mashina tosh plitalar ustidan shitirlab hovliga kirdi.

Bu yerda uni xavfsizlik xizmati raisi kutib oldi:

– Janob vazir, sizni Bosh vazir kutmoqda! – U Tonoyan mashina eshigini ochib, o'ng oyog'ini yerga qo'yganda, shu so'zlarni aytdi. Tonoyan indamay, qo'lida papkasi bilan rais orqasidan ergashdi.

Xavfsizlik boshlig'i uni to'ppa-to'g'ri banket zaliga olib bordi. Stolda tashqi ishlar vaziri va bosh vazir qadah urishtirayotgan ekan. Eshik ochilgan zahoti ikkalasi ham suhbatni to'xtatib, eshik tomonga yuzlandi. Tonoyanni ko'rgan Bosh vazir o'rnidan turishi bilan Tashqi ishlar vaziri Zuhrab ham oyoqqa qalqidi. Pashinyan qo'llarini keng ochib, unga qarab yurdi va aziz mehmonining yelkasiga qoqib:

– Qani, kel-chi! Men muvaffaqiyatli safaring sharafiga ziyofat beryapman-u, sen esa kechikishingni qara.

Mudofaa vaziri ham qo'llarini yon tomonga yozib:

Yunus O'g'uz

– Janob Bosh vazir! Samolyotimizning yuki juda og'ir edi. Shuning uchun kechikdim. Yukni ko'chirish degandek.

Ular quchoqlashdi. Nikol sarxushligini sezdim. U yonidan joy ko'rsatdi:

– Kel, o'tir, hammasini birma-bir aytib ber, bitta ham voqeani o'tkazib yubormagan yoki unutmagan holda. Yo'q, avval sog'lig'ing uchun qadah ko'taramiz, keyin gapirasan.

U xizmatkorga buyurdi. – Hammaga konyak quy. – U ruslarga acchiq qilib aroq ichmasligini hamma bilardi. Shuning uchun stolga konyak yoki sharob qo'yilar edi. Dasturxon uch kishiga emas, o'ttiz kishiga yetadigan darajada tayyorlangan, turli taomlarga boy edi.

Nikol qayta o'rnidan turgan edi, ikkala vazir ham tik turishdi. Qaddini rosladi, avval konyakni hidladi, so'ng Zuhrabga qarab gapirdi:

– Eshit Zuhrab, sen ham, – barmog'ini Tonoyanga ishora qildi, – fahm-farosatli, tadbirli bo'lsang, qo'shinlarimiz Kur dengizining chap sohiligacha boradi. Mana shunda, qora xalq ichidan chiqqan Nikol Qorabog' masalasini to'liq hal qildi, deyishadi.

Faoliyatingni kuchaytir, bizni jiddiy sinovlar kutmoqda. Biz buni albatta hal qilamiz. Kocharyan va Sarkisyan hasaddan portlab ketsinlar. – Mudofaa vazirining yelkasiga qo'lini qo'ydi. – Sog'liging uchun ichamiz. Yasha! Doim shunday ishla!

Qadahni bo'shatib, bir bo'lak limon oldi-da og'ziga soldi, zavq bilan chaynab-chaynab joyiga o'tirdi.

– Ha, endi gapirchi, safar qanday o'tdi?

Ikkila vazir ham joyiga o'tirdi. Bu vaqtda xizmatkor qadahlarga konyak quyib, navbatdagi buyruqni kutdi.

Bosh vazir ularning suhbatini to'rtinchi shaxs tinglashini istamadi. U xizmatkorga yuzlanib:

– Sen ketaver, kerak bo'lsang chaqiramiz, issiq ovqat hozirla, – dedi. Xizmatkor chiqib ketishi bilan:

– Xoʻsh gapir, qulogʻim senda. Qiziqqanimdan yorilib ketay deyapman.

– Janob Bosh vazir! Men siz aytgan barcha odamlar bilan, hatto Kocharyan va Sarkisyanning odamlari va doʻstlari bilan ham Moskvada uchrashdim. Chunki siz buni oʻzingiz istagandingiz.

Pashinyan boshi bilan aytilgan gaplarni tasdiqladi.

– Barcha rahbarlar bilan uchrashuvlarimiz samarali oʻtdi. Markaziy Razvedka Boshqarmasi boshligʻi bilan uchrashuvim natijasida bir samolyot eng zamonaviy raketalar allaqachon Yerevanda.

Nikol bevosita koʻzlari chaqnab: – Ofarin! KGB (SSSRdan qolgan atama Davlat Xavfsizlik Xizmati rahbari, rus tilida KGB) bilan ham uchrashdingmi? - dedi.

Tonoyan bosh irgʻab tasdiqladi.

– Ha, uchalamiz birga uchrashdik.

Pashinyan endi tashqi ishlar vaziriga oʻgrildi:

– Ha, Zuhra, diqqat bilan tingla, suhbatni zoʻri endi boshlandi.

Mudofaa vazirini uning oldida maqtashi Zuhra bga yoq-masa-da, buni sirtida koʻrsatmadi. Ichida esa: men seni butun dunyoga Bosh vazir sifatida qabul qildirdim, uzoq vaqt Arman Milliy Qoʻmitasiga qarshi kurashdim. Moskvada Ara Abramyan seni bilishni ham xohlamasdi. Endi buni qara, menga nima deyapti?

Nima boʻldi-yu, bu bir samolyot uzoq masofaga uchadigan raketa keltirdi. Sen buyruq berasan, u raketalarni uchiradi, keyin men buni butun dunyoga maʼqullataman. Barcha davlatlardan yalinib-yolvorib bizni qoʻllab-quvvatlashlarini soʻrayman. Bizni, nasroniylarning tayanchini, Kavkazda yakkalatib qoʻymanglar deyman.

Oʻylaganlarining aksi oʻlaroq, yuziga yaltoqlik tusini surtib tilga kirdi:

– Janob Bosh vazir! Men butun borligʻimni va diqqatimni sizga qaratganman. Agar bugun buyerda, sizning qaror-

gohingizda yolg'iz uchovimiz o'tirib, eng muhim masalalarni muhokama qilayotgan ekanmiz, bu sizning bizga bo'lgan yuksak ishonchingizdan dalolat.

– Shunday, gaping to'g'ri Zuhra. – Endi bunday maqtoiv ortiqchaligi sezildi. U mudofaa vazirini tinglagisi keldi, – buyog'iga sening ishing ko'p bo'ladi. Qani, mudofaa vazirini tinglaylik-chi.

Tonoyanning o'zi grafindan sharbat quyib, bir ho'plab oldi-da, tomog'ini qirib qo'ydi:

– Aslida men uchrashgan barcha odamlarga, – u Pashinyanning yuziga qaradi, – siz bilan muhokama qilgan rejamiz yoqdi.

Tashqi ishlar vaziri Pashinyanga hayrat bilan qaradi:

– Qanday reja, nega men buni bilmayman?

Bosh vazir yuzida tabassum bilan gapirdi:

– "Yangi urush – yangi hududlar". Shuning uchun ham biz seni ishga jalb etishga, uning siyosiy va diplomatik yo'nalishlarini belgilashing uchun chaqirdik.

Mnatsakanyan avvaliga ikki qo'lida boshini changallab, so'ng qoshini chimirib savol berdi:

– Urush boshlamoqchimisiz? Axir, – duduqlanib, – a... x... i...r, bu bizning intihoyimiz bo'lishi mumkin.

Nikolning ko'ziga hech narsa ko'rinmasdi. O'zini asabiy holatda ko'rsatdi:

– Xo'sh, nima xohlayotganding? Armanistonni talon-taroj qilayotgan, turk qo'llaovi bilan ish boshiga kelgan bu Qorabog' klani biz bilan "Artsax" deb o'ynashib, xohlasa aholini ko'chaga chiqarishini, lozim bo'lganda bizni ag'darishini kutaylikmi?

– Qo'lini stol ustiga mushtladi. – Agar Qorabog'ning maqomi masalasini hal qilmas ekanmiz, hech kimning tinch hayoti, yegani noni bo'lmaydi. Bu qaysar Ilhom Aliyev ham bunga ko'nishni istamaydi. Aytadiki, bu maqom masalasi hech bo'lmaydigan narsa. Uni stolga o'tqazmoqning bir yo'li bor ...

Tonoyan botinib, tezgina dedi:

– Urush, "yangi urush - yangi hududlar".

– Pashinyan uning so'zlarini tasdiqladi:

– Rost, – u tashqi ishlar vaziriga qaradi va sha'ma qilib so'radi. – Zuhrab, bu ishda sen biz bilanmisan yoki o'rningga yangi nomzod qidiraymi?

Tashqi ishlar vaziri Bosh vazirning nima demoqchi ekanini darrov tushundi, ya'ni "yo'q" desang, turib bu yerdan bemalol ketaver. Bu yerdagi barcha suhbatlar yozib olinishini u biladi. "Yo'q" desa, ko'chaga chiqishiga ham yo'l qo'ymaydilar, ishini shu yerda hal qilib qo'yishadi. Hech bo'lmasa, "Davlat siri" deb qandaydir ishga aralashtirib, qamoqqa tashlashadi. U Qorabog' klanini o'lgudek yomon ko'rardi. Qaysi davlatda rasmiy uchrashuvlar o'tkazilsa, Ozarbayjonning jozibadorligini ochiq tilga olishardi. Bu ham uni g'azablantirardi. Bu sababdan dedi:

– Albatta, men sizlar bilanman, janob Bosh vazir!

Pashinyan uning javobidan qoniqish hosil qildi, chunki u amalga oshirmoqchi bo'lgan rejasidan oldin kuch bilan yaratgan jamoasining bo'linib, o'zboshimchalik bilan harakat qilishlarini istamasdi. Mamnuniyat bilan dedi:

– Ha, juda yaxshi. Endi vazir gaplarini davom ettirishi mumkin edi.

Tonoyan so'zini boshlagan ham edi. daf'atan eshik ochildi. Pashinyan ruxsatsiz ichkariga kirgan odamni urishib bermoqchi bo'lgan edi, biroq lablari muzlaganday gapga kelmay qoldi. Eshik oldida xotini Anna turardi.

Garchi Anna tor, ko'kragi ochiq ko'ylak kiygan bo'lsa-da, Nikol bunga e'tibor bermadi. U o'rnidan turdi, ikkala vazir ham oyoqqa qalqidi. Qo'llarini yonidagi stolga ishora qilib:

– Annushka, kelganing qanday yaxshi bo'ldi! Qilayotgan suhbatimiz va rejalarimiz bo'yicha sening ham fikring kerak.

– Xayrli kech, janoblar! - U nozlana-nozlana yuzini erining yuziga tegdirdi. Uchalangiz yig'ilib, ziyofat qilayotganingizni menga yetkazishdi. O'zimga o'zim Nikolning

Yunus O'g'uz

ko'ngliga bunday maishatlar sig'maydi. Uning bor g'am-tashvishi shu Armaniston va armanlar ustida dedim.

– Boshqalarga ohista ma'nodor boqdi. Bu yerga kelguncha joyida tinch o'tiraolmagani sezilardi.

– Shunga bu aytganlari rostmi yoki yo'qmi deb, yotishdan oldin o'zim ko'rgani keldim. U stolga ko'z yugurtirdi. Nimadir demoqchi bo'lgan ham edi, Nikol uning fikrlarini o'qidi:

– Nimalar deyapsan, Annushka, qanaqa mayishat? Bu yerda biz kelajak hayotimizni belgilaydigan masalalarni muhokama qilayapmiz. – U “Martuni” vinosini olib, xotinining qadahini to'ldirib quydi.

– Janoblar! Xohlardimki, - u ham o'z qadahini oldi, - keling shu qadahni mening Annushkam sharafiga ko'taramiz. Bosh vazir bo'lishimda uning hissasi beqiyos, buni baralla aytaman! - U qadahini xotinining qadahiga to'qishtirdi. - Sog'liging uchun, Annushka!

Vazirlar ham qadahlarni urishtirdi. Konyakni ichgach, Nikol hammadan o'tirishni so'radi.

– Xo'sh, endi davom ettirsak bo'ladi, - yuzini Tonoyanga qaratdi, - marhamat, janob vazir!

Mudofaa vaziri sharbat yana bir qultum ichdi.

– Hurmatli Bosh vazir, xonim Akopova! Ishlarimiz ko'p. Ozarbayjon biz bilan urush boshlashi uchun hamma narsa qilib ko'rishimiz kerak. - U avval Annaning yuziga, keyin ochiq ko'kraklariga ko'z soldi. Bu ayol Nikolni urushga birinchilardan bo'lib undagan odam ekanligini tushundi. Ammo unga buni kim o'rgatgan, bilmasdi.

Ayolning yuzida qilt etgan alomat sezilmadi. Go'yo ro'parasida haykal o'tirgandek edi. - Shuning uchun yaqin kunlarda, balki bir oydan keyin bu rejani matbuotga taqdim etaman. Qolgan ish sizlarniki...

Tashqi ishlar vaziri o'zini ko'rsatmoqchi bo'ldi. Uning gapini bo'lish bilan mening ham o'z so'zim bor demoqchi edi go'yo.

– Ya'ni? -Tonoyaning ko'zlariga tik qarab so'radi. -

“Qolgan ish sizlarniki” deb nima demoqchi bo‘lyapsiz?

Pashinyan ko‘rdiki, sal bo‘lmasa, ular urishib ketishga ham tayyor, o‘rtaga tushib, vazirlarni tinchlantirdi.

– Janob vazirlar, og‘irroq bo‘ling, asablaringizni jilovlang. Har holda, bu rejaning mualliflaridan biri menman, ruxsatingiz bilan men gapirsam.

Ikkala vazir bir vaqtning o‘zida javob qaytardi:

Albatta!

– Ha, juda yaxshi! Mudofaa vaziri ushbu tezisni, ya'ni "Yangi urush - ya'ni hududlar" g‘oyasini matbuotga topshirganidan bir necha kun o‘tgach, u xotiniga yuzlandi, Anna mamnunlik bilan bosh irg‘adi.

– Tashqi ishlar vazirligi Armaniston Qorabog‘ muammosini tinch yo‘l bilan hal etish tarafdori ekanligi haqida bayonot berishi kerak. Shu bilan birga, xorijiy tashriflar va tarafdorlarimiz bilan uchrashuvlarda Mudofaa vaziri aytganlarini u yoki bu tarzda so‘zsiz tasdiqlaysan.

– Kulib qo‘shib qo‘ydi. – Sen buni qoyilmaqom tarzda bajarasan.

Zuhrab o‘zini o‘ylantirayotgan savollarni aniqlashtirmoqchi edi.

– Bu bizga nima beradi, janob Bosh vazir?

Nikol jilmayib, unga qaramasdan gapirdi:

– Birinchidan, shuni bilishimiz kerakki, hukumatimizni kim qo‘llab-quvvatlayapti, kim yo‘q? Kelajakda Armaniston kim bilan hamkorlik qilishi kerak. Ikkinchidan, oramizda kim bizga qarshi oshkora yoki yashirincha ishlayotgani oydinlashadi.

Tonoyanga qaradi: – Ayni paytda sening kontrrazvedkang juda jiddiy ishlashi kerak, armiyadagi general va ofitserlarni kuzatib borish, ularni yashirincha tinglash lozim. Dushmanlarimiz armiyada ko‘plab bazalarga, ayg‘oqchilarga ega, ular istalgan vaqtda provokatsiya qilishlari mumkin.

Anna birdan so‘radi:

Yunus O'g'uz

– Xavfsizlik rahbari-chi? – Akopova savolni shunchaki bermadi. Hatto vazirni bu yerda yo'qligidan taajjublangandi ham. Chunki vazir bu lavozimni uning talabi bilan tayinlangandi.

Pashinyan inkor ma'nosida qo'lini silkitdi, xotining savolini javobsiz qoldirmay:

– Unga shaxsan men o'zim ko'rsatma beraman. Bu mavzuda u bilan alohida gaplashaman. -Aslida Bosh vazir hammani bir joyga yig'ib, barcha sirlarni oshkor qilishni istamasdi, chunki endi yonida o'tirganlarni ham nazorat ostida ushlab turish kerak edi.

– Aytganim to'g'rimi, janob vazirlar?

Bu safar vazirlarning gaplari boshqa-boshqa chiqdi.

– Sabab bor.

– Mantiqlidir.

– Bunday bo'lsa...

Nikol gapini tugatib ulgirmadi. Xotini vinodan bir qultum ichib, uning gapini bo'ldi:

– Mening ishim nima bo'ladi?

Xotining bu xatti-harakatlariga o'rganib qolgani uchun miyig'ida jilmayib qo'ydi, javob berishdan chekinmay:

– Sen esa, azizam Annushka, Ozarbayjon turklari bilan psixologik va informatsion urush olib borasan.

– Qanday?

– Juda oddiy, – Pashinyan hech narsa bo'lmagandek, xotirjamlik bilan javob berdi. – Umuman olganda, butun hukumat devoni, arman xalqi, jumladan, diaspora ham jangdan avval axborot-psixologik urush olib borishi, dushmani chalg'itishi, uning muvozanatini buzishi kerak.

"Agar urush boshlansa, mag'lubiyat uyingiz eshiklarigacha kirib boradi", deb har kuni ularning miyasiga singdirishingiz kerak. Shunday qilib, dushman ma'nan ojiz qoladi va urush g'oyasidan voz kechadi.

Xo'jalida odamlarni qirg'in qilib, turklarning faxri

hisoblangan Shushani olganimizdek, ularni ma'nan sindirdik, o'ldirdik.

Natijada yengilmas armiyamiz yana yetti tuman va yuzlab qishloqlarni qo'lga kiritdi. Bu juda muhimdir. Demak, Annushka, bunday qilasan, - biroz o'ylanib, so'ng dedi, - sen matbuot orqali Mehribon Aliyevaga shu mazmunda xabar yuborasan: agar Qorabog'da Ozarbayjon bayrog'ini ko'rmoqchi bo'lsang, unda Arsax bayrog'i yonida ham turishing kerak.

Keyinroq xuddi ayollar batalyonini tuzayotgandek bo'lib, pulemyotning o'qini Ozarbayjon bayrog'iga qaratasan. Mana, turklarning g'azabini qo'zg'atib, olovga moy sepish uchun shunaqa ishlar qilasan. Ho'sh qalay?

Anna erini birinchi marta ko'rayotgandek edi, go'yo uni qayta kashf etardi. O'yladi: "Uni aqli noqis, nodon, parvoyi palak deyishadi. Qara-ya, qancha ichgan bo'lmasin, bir marta ham aljiramadi, s o'zi mantiqini yo'qotmadi.

Voy sen Pashik! Sen bilan birga yashagan shu yillarimda sen ham meni qing'ir yo'llarga yetaklading. G'arbda yurgan paytlarim, u mening qo'lim ostida, uni o'zim boshqaraman derdim". Hech narsa bo'lmagandek javob berdi:

- Bu men uchun suv simirgandek gap. Stepanakertga (Xonkendi) borishim bilanoq bundan ham ko'p narsa qila olaman. Xavotir olma.

Men buni shunday bajaramanki, barcha armanlar menga tasanno aytadi.

- Juda yaxshi, Annushka! Bu g'ayrating meni doim qoyil qoldirgan. - U tashqi ishlar vaziriga buyurdi. - Qani Zuhreb, qadahlarni to'ldir, bunday suhbatdan keyin ichish kerak.

Mnatsakanyan "bosh ustiga" deb avval Anna uchun vino, keyin esa o'zlariga konyak quydi. Pashinyan qadahni olib o'rnidan turdi, boshqalarga esa qo'llari bilan turmang deb ishora qildi.

- E-ha, bu hali nima bo'libdi? Shunday ishlar qilamizki, turklarning o'zi Ilhom Aliyevni ag'darib tashlaydi. Yaqin

kunlarda Shushaga boramiz, "Jidir duzu" da raqsga tushamiz.

Men u yerda aytamanki, Shushada Arsaxning parlament binosini quramiz, deputatlar shu shaharda ishlaydi, poytaxtni Shushaga ko'chiraman. Turklarning o'tini yoraman, ular g'azabdan yorilib o'ladi. Turklarning prezidentidan nafratlanadilar. Ularda mahorat bor, mayli urush boshlashga harakat qilib ko'rishsin.

– Tonoyanga qarab qo'shib qo'ydi. - O'zimizdagi va sen olib kelgan raketalarni ularning shaharlariga uchiramiz. Xalq to'g'ri Bokuga qochadi, ko'rasan, shundan keyin biz ularni Arsaxga mustaqillik berishga majbur qilamiz. Aliyevni hokimiyatdan ag'daramiz, o'zimizga yaqin odamni boshqaruvga olib kelamiz...

Bu gal Anna uning gapini bo'ldi:

– Bu qanday bo'ladi?

Xotini Nikolning gapini birinchi marta bo'lmayotgan edi. Shu sababdan bosiqlik bilan javob berdi:

– Keling, qo'limizdagi qadahlarni bo'shatib qo'yaylik, keyin tushuntiraman. Annushka xonim va janoblar! Men bu qadahni muzaffar arman qo'shini sharafiga ichaman! Yaqin kunlarda Qorabog' klanidan ham qutulamiz.

Atrofida gilar ham o'rnidan turib, bir ovozdin:

– Yashasin shonli arman armiyasi, yashasin Bosh vazirimiz, yashasin buyuk Armaniston! - dedilar.

Hammalari qadahlarni ko'tarib oxirigacha ichib, so'ng o'tirishdi.

Nikol Annaning savolni takrorlashini kutmadi. U stol ustida turgan bir bo'lak shirinlikni og'ziga soldi-da, chaynab:

– Azizam Annushka, sen hozir bu qanday bo'lishini so'radingmi? Unda eshit. Ilhom Aliyev Qorabog'ning respublika maqomiga rozi bo'lsa yoki urushni davom ettirsa, har ikki holatda ham xalq bosh ko'tarib, ko'chaga chiqhadi, katta yo'qotishlar sodir bo'lgani sababidan davlat to'ntarishi yuzaga keladi, barchasi juda oddiy.

Shu payt eshik ochilib, xizmatkor paydo boʻldi. Asta soʻradi:

– Janob Bosh vazir! Ovqat tayyor, olib kelaveraymi?

Ozarbayjon chayqalib turardi. Pashinyan Shushaga borib, aytganlarini takrorladi. Anna Akopova rejalashtirilgan vazifalarni bajarishga kirishdi. Armanlar xalqaro tarmoqlarda Shusha tasvirlarini koʻrsatganda, Ozarbayjonda "oʻt och komandir, oʻt och!" degan chaqiriqlar ijtimoiy tarmoqlarda ortib borardi.

Ammo Pashinyan aytganidek, xalq boʻlinish sari emas, birdamlik tomon yoʻnaldi. Xalq asta-sekin armiyaga aylanib bordi. Ortiq hamma urushni xohlardi, chunki Pashinyanning Shushadagi harakatlari xalqning nafsoniyatiga teggandi.

"Ur, komandir, oʻt och" degan ovozlari yanada balandroq eshitilardi. Ilhom Aliyev va uning rafiqasi hech qanday chaqiriqlarga eʼtibor bermas, oʻz paytini poylashardi. Tovuz jangi boshlanish arafasida edi...

Shusha ishgʻoli arafasi. 1992-yil may

Prezident Ter-Petrosyan mudofaa vaziri Vazgen Sarkisyan bilan Stepanakertga (Xonkendi) keldi. Atrofida faqat harbiylar boʻlgan Armaniston prezidenti juda magʻrur koʻrinardi.

Uni bu yerda Kocharyan, Sarkisyan, Qorabogʻ fronti qoʻmondoni Arkadiy Ter-Tadevosyan, Seyran Ohonyan, Samvel Babayan va boshqalar juda qizgʻin kutib olishdi. Xonkendidagi sobiq viloyat qoʻmitasining eski binosi endi ularning asosiy qarorgohiga aylangandi.

Mashina bino maydonida toʻxtagach, olomon gulduros qarsak urdi, prezidentning oyogʻi yerga tegishi bilan oʻquvchi qizlar uning oldiga yugurib keldilar, gullar taqdim etib, yuzlaridan oʻpdilar.

Keyin u bino oldida harbiylar va ma'murlar (aslida ular ham harbiy kiyimda edi) bilan bir-bir salomlashdi, Robert Kocharyan bilan o'pishib ko'rishgach, biroz orqaga chekindi, yig'ilganlarni ko'zdan kechirib, ularga dedi:

– Siz arman xalqining faxrisiz! Dunyo armanlari sizning turklar bilan shavashingizni diqqat bilan kuzatmoqda, ular har tomonlama sizga yordam beradi va shunday qilishmoqda ham.

Prezident bu so'zlarni birovga yoqish uchun aytmayotgandi. O'z vaqtida Mixail Gorbachov qo'li bilan Armanistonga Markaziy Komitetning birinchi kotibi olib kelinganida, Qorabog'da urush kengayib, Xo'jayli qirg'ini aynan shu shaxsning ig'vosi bilan sodir etilishini hech kim bilmas edi, keyin esa tevarak-atrofdagi hududlar bosib olinadi, so'ngra u Qorabog' masalasida yumshab, murosa qilmoqchi bo'lganida, Robert Kocharyan tomonidan ag'dariladi. Qorabog' klani hokimiyatni qo'lga kiritadi.

Bu hali bir necha yildan keyin bo'ladigan ishlar edi. Hozir esa uni har yerda qahramondek kutib olishdi. Gorbachov davrida u Armaniston prezidenti etib saylandi. Sovet Ittifoqi parchalanganidan so'ng esa dunyoda yashovchi barcha armanlarni, ularning do'stlarini, deputatlar-u senatorlarni Armaniston va Qorabog' atrofida birlashtirishga muvaffaq bo'ldi.

Zotan bunga unig kuch va qobiliyati yetarli edi. Butun dunyo uni qo'llamoqda edi. Prezident boshqa so'z aytmadi. Uning aytmoqchi bo'lgan so'zlari bu yerga yig'ilgan hamma uchun emas edi. U Robertning qarshisida to'xtadi:

– Rasmiy qism tugadi, hali qiladigan ishimiz ko'p. Kechqurun Yerevanga qaytaman. – Ko'charyandan bo'ychan bo'lgan Ter biroz g'ilay ko'zlari bilan unga tepadan boqdi.

Yig'ilishda kimlar ishtirok etishi oldindan aytib qo'yilgandi. Shu bois uning maslahatchisi Liparityan (u Amerika fuqarosi edi) prezident mashinasi yetib kelguniga qadar yig'ilishda qatnashadigan odamlarni xabardor qildi.

Robert soatiga qaradi, soat deyarli oʻn ikki edi. U bu uchrashuvni tushlikka yaqin uyushtirishga koʻp kuch sarfladi, bir talay amaldorlarga qoʻngʻiroq qilib, oxir bunga erishdi.

U istak va xayollari koʻklarda parvoz qilar, oʻzini Armaniston va butun armanlarning yetakchisi va birinchi odami kabi his qilmoqda edi.

Qoʻlini eshikka uzatdi:

– Albatta, janob Prezident, marhamat! - deb yoʻl koʻrsatdi u.

Ter-Petrosyan katta odimlar bilan eshikdan chiqdi, shitob bilan zinadan koʻtarilib, Kocharyanning ikkinchi qavatdagi kabinetiga kirdi, indamay uning stuliga oʻtirdi.

Garchi u boshqa joyda xavfsizligi haqida koʻp qaygʻurmasa ham, bu yerda oʻzini erkin his qilmayotgan edi. Birlashgan Millatlar Tashkilotining qaroriga koʻra, bu hudud Ozarbayjon yerlari ekanligini bilardi.

Lekin uning ham boshqa armanlar singari bu davlatdagi eng goʻzal diyorlardan biri va birinchisi boʻlgan Qorabogʻdan voz kechish niyati yoʻq edi, u hatto vatandoshlari bu yerlarga 1828-yildan koʻchib kelishgani va bu joylardan koʻngil uzolmasliklarini ham bilardi.

Uning ortidan taklif qilingan mehmonlar xonaga kirishdi. U xonani koʻzdan kechirdi. Sovet davridan qolgan bu xonada devoriga osilgan suratlardan boshqa hech narsa oʻzgarmagan. Lenin va Gorbachyov suratlari oʻrniga endi uning va Kocharyanning portretlari ilingan edi.

U hammani stol atrofida oʻtirishga davat etdi:

– Oʻtiring, janob generallar! - Ular oʻtirganlaridan keyin davom etdi. – Bilasizki, Shusha shahri turklarning iftixor maskani, qadr-qimmat timsoli va madaniy markazidir. Ular uchun Shusha ham hokimiyatda qolish ramzidir.

Bu shaharni olish bilan biz avvalgi viloyat tarkibida kirgan shahar va qishloqlar ustidan toʻliq hokimiyatimizni

o'rnatamiz. Shusha atrofidagi barcha qishloqlar qo'lga kiritildi. Endi navbat bu olinmas qal'agadir.

Uni olgandan so'ng Arsax davlatini butun dunyoga tanitamiz, keyin esa Bokuni buni tan olishga majbur etish uchun Qorabog' atrofidagi tuman va shaharlarni qo'lga kiritishimiz kerak. Bu shuning ushunki, muzokaralar chog'ida qo'limizda arzigulik faktlar bo'lsin.

Biz xalqaro tashkilotlarga Arsaxni tan olishlarini, shundagina hukmronligimiz ostidagi yerlarni qaytarib berishimizni aytmiz. – U Mudofaa vaziriga yuzlandi. Vazgen Sarkisyanga qaradi.

– Biz janob general bilan ko'p maslahatlashdik va nihoyat Shusha operatsiyasini “Tog'lardagi to'y” deb nomlashga qaror qildik. Buning ramziy ma'nosini tushunsangiz kerak? – O'tirganlar boshlarini qimirlatishdi.

– Ya'ni, turklarning to'yini tog'da o'tkazamiz, faqat Shushada emas, butun dunyoda yashayotgan turklarga shunday zarba beriladiki, ular uzoq yillar o'ziga kelolmaydi. Vazgen va Arkadiy sizga jang taktikasi va strategiyasini tushuntiradi. Unutmang:

Shushaning olinishini jahon matbuoti va bizni sevgan dunyoga mashhur insonlar Shushakenddan kuzatib boradi. Jiddiy hozirlik ko'rmog'imiz lozim. Savollar bormi?

Kocharyan ko'zlarini qisib o'rnidan turmoqchi bo'ldi. Ter unga “turishning hojati yo'q” deganday o'tirishga ishora qildi.

– Janob Prezident! Bizni qiziqtirayotgan narsa sovetlarning bu yerda qolgan rus qo'shini...

Prezident uning so'zini kesdi:

– Nima, ular sizga to'sqinlik qilyaptimi?

Robert qat'iy ohangda gapirdi:

– Yo'q, yo'q, aksincha. Ular bizga har taraflama yordam beryapti, bizga o'zlarining texnika va qurollarini jon deb ijaraga berishadi. Biz ulardan qarzdor bo'lib qolayotganimiz

yoʻq. Hatto janglar bir necha kun toʻxtab qolguday boʻlsa, qoʻngʻiroq qilib, “Nima, urush tugadimi?” deyishadi.

– Xoʻsh, bunday boʻlsa masala nimada?

Kocharyan tomoq qirib javob berdi:

– Meni oʻylantirayotgan narsa shundaki, sovet-rus qoʻshini Shushani olishimizga imkon berarmikin?

Prezident biroz oʻylanib, oʻtirganlarga qaradi-da, soʻng qatʻiy ohangda javob berdi:

– Yaxshi va oʻrinli savol. Bu oʻzi qiyin masala edi, ammo biz bu masala boʻyicha Moskva bilan baʼzi narsalarni kelishib oldik, endi bu ishlar bilan Kremlni tinch qoʻymaymiz.

– Qanday qilib, janob Prezident?

Kabinetda koʻp odam yoʻq edi. U bu yerda oʻtirgan hammani avvaldan yetti pushti bilan oʻrganib, tekshirib keyin chiqqandi. Faqat Kocharyanga toʻliq amin emasdi. Maʼlumot va toʻplangan hujjatlar uning naslida turk qoni borligini koʻrsatar edi.

Ammo u Rim papasidan ham ortiq katolik edi. Shuning uchun u hech narsadan shubhalanmasdan dedi:

– Boʻldi, rus qoʻshini bilan masalani hal qildik. Sababi juda oddiy. Ozarbayjonda vaziyat murakkab ekanini bilasiz. Ularda endi toʻqsoninchi yillardagi birlik yoʻq.

Ular parchalanib ketishdi. Hokimiyat uchun kurash, hatto qurolli toʻqnashuvlar ham boʻlyapti. Bu Ayaz Mutallibovni “ahmoqona avgust” (1991) toʻntarishi sababidan Yelsin yoqtirmasdi. Lekin nima qilsa ham, ishdan ketmadi.

Oʻshanda biz ularning kuch-qudrati zaiflashsin deb Xoʻjayli voqealarini keltirib chiqardik. Kremlning qoʻlida goʻyo oʻyinchoqdek koʻringanimiz rost, ammo biz Qorabogʻni qoʻlga kiritishimiz kerak edi. Bularga rozi boʻlib Stepanakertda yashovchi turklarni qoniga botirdik.

Oʻtgan yilning oktyabr oyidan beri Xoʻjayli qamal qilinganini va buning sabablarini bilsangiz kerak. Biz oʻzimizni Kreml manfaatlarini koʻzlayotgandek koʻrsatgan boʻlsak ham bizga Qorabogʻ kerak.

Izoh: 1992-yil 25-fevraldan 26-fevralga o'tar kechasi Armaniston qurolli kuchlari SSSR davrida Stepanakert (Xonkendi) shahrida joylashgan 366-motoo'qchi polkining zirhli texnikasi va harbiy xizmatchilari yordamida shaharni egallab oldi.

Hujum oldidan, 25-fevral oqshom chog'idan shahar artilleriya va og'ir zirhli texnikalardan kuchli o'qqa tutildi. Oqibatda shaharda yong'inlar boshlanib, shahar o't ichida qoldi.

Bunday vaziyatda armanlar qurshovidagi shaharda qolgan qariyb 2500 kishi yaqin atrofdagi Ag'dam tumani markaziga yetib borish umidida shaharni tark etishga majbur bo'ldi. Shaharni vayron qilgan rus polkining qurolli bo'linmalari va zirhli artilleriya askarlari tinch aholini o'ldirdilat.

Ushbu genotsid natijasida 613 kishi halok bo'lgan, ular orasida;

bolalar – 63 kishi;

ayollar – 106 kishi;

keksalar – 70 kishi.

487 kishi yaralangan, shundan;

bolalar - 76 kishi;

1275 kishi asir olingan

150 kishi bedarak yo'qolgan.

Bu haqiqiy katta ko'lamdagi genotsid edi. Ammo boshqa ma'lumotlarga ko'ra, Xo'jalida bundanda ko'p aholi qirg'inga uchragan, bu haqda hozirda Livanda yashovchi David Xeridyan Xo'jalida armanlarning Ozarbayjon turklariga nisbatan qilgan vahshiyliklarini yaxshi eslaydi.

U "Xoch uchun" kitobining 19–76-betlarida qayd etishicha, 2-mart kuni armanlarning "Qoplon" nomli harbiy guruhi jasadlarni yoqish bilan mashg'ul bo'lgan: "Ular 2000 ga yaqin turklarning jasadlarini yig'ib, Xo'jalidan bir kilometr uzoqlikda alohida qismlarga bo'lib yoqib yubordilar.

Oxirgi yuk mashinasida boshidan va qo'lidan jarohat olgan qiz bolani ko'rdim. Sinchiklab qarasam, u sekin-sekin nafas

So‘qmoq olayotgandi. Sovuq, ochlik va og‘ir jarohatlariga qaramay, u tirik edi. Bu bolaning o‘limga qarshi kurashayotgan ko‘zlarini hech qachon unutmayman.

Shunda Tigranyan degan askar uning quloqlaridan tortib benzin sepilgan jasadlar ichiga otdii. Keyin ularni yoqib yubordilar. Alanga ichidan yig‘i va dod- faryodlar eshitilardi...”

Prezident ovozini pasaytirdi. U Moskvaning maxfiy razvedka boshqarmasi uning har bir harakatini kuzatishini, yozib olishini, so‘ng ma‘lum xulosalar chiqarishini bilar edi. Stol chetida xona burchagidagi televizorga ko‘z yugurtirib o‘tirgan Seyran Ohonyanga buyurdi:

– Televizorni yoq, ko‘raylik-chi.

Shu payt Ohonyan ko‘magi bilan bor-yo‘g‘i ikkita kanaldan – biri mahalliy va boshqasi Moskva ko‘rsatuvidan iborat televizor ishga tushdi.

U tugmani bosib, Moskva kanaliga qo‘ydi. Bu yerda Baku kanaliga faqat yangiliklar vaqtidagina o‘tkazib qo‘yilar edi, u ham bo‘lsa, Bokuda nima bo‘layotganini bilish uchun. Prezidentning nimaga ishora qilganini tushungan Seyran suxandonning ovozini biroz balandlatib, rahbarga qaradi. Petrosyan unga bosh irg‘ab davom etdi:

– Ha, janoblar, gap shu. Men allaqachon Moskva bilan gaplashganman, bunga keyinroq Amerikaning ma‘lum doiralari ham rozilik berishdi.

Kocharyan yana sabri chidamay so‘radi:

– Voy, nimani kelishib oldingiz, janob Prezident?

Prezident jilmayib:

– Sabr qil, Robert! Shu yerda turibsanmi, demak, sen tanlanganlardansan va mening fikrimni albatta bilib olasan. Shuning uchun men bu yerga keldim. – Bunday maqtovdan boshi ko‘kka yetgan Kocharyan kechirasiz degan ma‘noda qo‘lini ko‘ksiga qo‘ydi.

Ter-Petrosyan gapni odatdagidek uzoqdan boshladi.

– Ha, Ozarbayjonda vaziyat juda chigal. Sovet Ittifoqi

parchalanganidan keyin dunyoning barcha davlatlari, jumladan, Turkiya ham bu yerda hukmron bo'lishni xohlaydi.

Qara, bugun ularning rahbari "Ozodlik" maydonida nutq so'zlab, turk birligi haqida gapirib, xalq frontini qo'llab-quvvatlayapti.

Bu gal Qorabog' fronti qo'mondoni Ter-Tadevosyan o'zini tutib turolmadi:

– Janob Prezident! Ming bor uzr, gapingizni bo'ldim. Biz harbiy xizmatchilarmiz va bu masala haqida aniq bilmoqchimiz: Turkiya bu Qorabog' masalasiga aralashadimi yoki yo'q?

Prezident uning siyosatga aloqasi yo'q bir harbiy ekanini bilar edi. Kulimsirab shunday dedi:

– Albatta, shuni bilishingiz kerakki, bizda Shushani o'z yerlarimizga qo'shib olishga yetarlicha qudratimiz bor. Bilib qo'ying! Ularning Turg'ut O'zali ham, Bosh vaziri Sulaymon Demireli ham Amerikaning so'zidan chiqmaydi.

Nari borsa, o'zlarini uyoq-buyoqqa urishar, ammo hech qanday harbiy yoki boshqa yordam berolmaydilar. Turkiyaning o'zining iqtisodiy vaziyati barbod bir ahvolda. Ularning vahima solishlariga e'tibor bermang.

Mening maslahatchim, – qo'li bilan Liparityaga ishora qildi, – yaqinda Amerikadan qaytib keldi va bizga senatorlarning, hatto Baydenning xabarini keltirdi. Amerika butunlay biz bilan.

Turklarning qo'ynini puch yong'oqqa to'ldirib, xursand qilishadi. To'g'risi, ular biz bilan barcha aloqalarini uzsalar ham, buning ahamiyati yo'q. Muhimi, maqsadimizga erishish uchun qadam-baqadam olg'a intilamiz. Bundan hamma xulosa chiqarishi kerak.

Shu payt yordamchi eshikni ochdi-da, indamasdan unga yaqinlashib qog'oz uzatdi va chiqib ketdi. Prezident qog'ozni o'qib, jilmaydi, o'tirganlarga yuzlanib dedi:

– Ha mana, biz Shushaga qadam-baqadam yaqinlashib bormoqdamiz. – Yordamchisi bergan qog'ozni ko'tardi. –

Ozarbayjon tomoni men bilan Tehronda uchrashishga rozi bo'libdi.

6 may kuni Eronga uchib ketaman. - U avval Vazgen Sarkisyaniga, keyin Ter-Tadevisyaniga qaradi. - Siz esa aynan o'sha kuniyoq "Tog'lardagi to'y" operatsiyasini boshlaysiz.

Robert "Cermux" shishasini olib, stakanga suv quydi, ohista qultumlab icha boshladi. Prezident unda yana savol bor deb o'yladi. Mayli, savollari bo'lsa, bersin. Oldinda bizni juda mas'uliyatli kunlar kutib turibdi, degan o'ylar o'tdi ichidan. Unga yuzlanib o'zi so'radi:

- Robert, menimcha, menga savoling bor?

Kocharyan oxirgi qultum suvini ichgach, stakanni qo'ydi:

- Ha, bor, janob Prezident! - dedi. - Tehronga tashrifingiz mantiqini tushunishga harakat qildim, lekin tagiga eta olmadim. Shu arafada Eronga borish siz uchun juda muhimmi?

Hamma kulib yubordi, chunki birinchi bo'lib prezident kulishni boshlagandi. Ter-Petrosyan o'rnidan turib, xona bo'ylab keza boshladi, lekin u hech kimning turishiga ruxsat bermadi. U qaytib kelib, o'zi o'tirgan kursi ustida to'xtadi.

- Albatta, borishim juda muhim.

- Nega?

- Biz sovet-rus qo'shinlarini va Kremlni zararsizlantiramiz. Bu juda muhim.

Bu safar Seyran Ohonyan savol berdi:

- Axir, qanday qilib?

Ter-Petrosyan o'tirdi.

- Mana qarang, - dedi u. - Biz Kremldagi ba'zi odamlar bilan Tehronda Eron vositachiligida o't ochishni to'xtatib, tinchlik o'rnatishga kelishib olamiz. Prezidentning maxsus vakili Qorabog'ga, Yerevanga, Bokuga keladi, muzokaralar olib boradi va Rossiya bundan ham bezovtalanadi.

Robert yana so'radi:

- Balki Ozarbayjon tomoni hujjatni imzolamagandir, unda nima bo'ladi?

Ter-Petrosyan Kocharyanga shunday qaradi-ki, nigohida “Ko‘p savol berib yubormayapsanmi yoki Yerevanga kelib Bosh vazir bo‘lmoqchimisani?” degan savol namoyon edi. Ko‘nglida o‘ziga javob berdi: “Nega yo‘q bo‘lsin, hozir Qorabog‘ armanlari Yerevanda juda mashhur”. Ichida shunday o‘ylagan bo‘lsa-da, tili boshqa so‘zlarni aytdi:

– Bilishimcha, prezident vakolatlarini vaqtinchalik bajarib turgan Yoqub Mammedov siyosatga tashqaridan kelgan shaxs. Turklar orasida uni “Dollar Yoqub” deb atashadi.

U juda qobiliyatsiz siyosatchi, o‘z fikri, hukmi yo‘q. Kecha u bir vazirni ishdan bo‘shatgan, ikki kundan keyin esa qayta tiklangan. Qo‘lida hukmronlik, so‘zida subut yo‘q.

Mana shunday og‘ir vaziyatda u hatto Xalq fronti talabi bilan prezidentlik saylovlarini o‘tkazishga ham rozi bo‘ldi. U atrofiga barcha kuchlarni to‘plash o‘rniga bor-yo‘q kuchlarini ham bir-biriga qarama-qarshi qilib qo‘ydi.

Ularning birligi uzoq vaqt davom etmaydi deb o‘ylayman. Bunday vaziyatda Yoqub Mammedov nima qilishni xohlaydi? - Bu gal u savolni Robertga qarata berdi. - Shuni hisobga olsak, u ham prezidentlikka nomzod va bu saylovda g‘alaba qozonishni istaydi.

– Nima qilishni xohlarydi ekan, janob Prezident? - Kocharyan beixtiyor savol berdi:

– U bunday vaziyatda hatto somon cho‘piga ham yopishib, qirg‘oqqa chiqib olishni xohlaydi. Yopishgan somoni uni qutqara oladi, deb o‘ylaydi.

Qorabog‘ masalasi hal etilmasa, prezident bo‘lolmasligini ham biladi. Ishqilib, tinchlik shartnomasi saylov paytida imzolansin. Bu vaqtda uning reytingi saylovlarda oshadi. Hozirda Eron uning uchun somon rolini o‘ynamoqda.

Kimdir so‘radi:

– Rossiya haqida nima deyish mumkin?

– Rossiya Tehronda kelishuv imzolanganidan juda

g'azabga to'ladi. Tayinki, Bokuni jazolashni o'ylaydi. Bu jazoning o'rnini Shusha bo'ladi. Qalay?

– Rossiya men bu yerlarni ikki yuz yildan beri boshqarib kelaman, endi Eron kelib hamma rejalarini buzib, burnim ostida shartnoma imzolaydimi? Bu hech qachon sodir bo'lmas! - deydi.

Ozarbayjon Sovet Ittifoqi parchalanganidan keyin uning o'rnida yaratilgan MDH (Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi) ga kirmaganini inobatga olsak. Bu bizning afzalliklarimizdan biridir.

– Qo'lini stolga ohista urdi. Qorabog' fronti qo'mondoniga qaradi. - Siyosat shunaqa, endi "Tog'lardagi to'y" operatsiyasiga o'tsak. Marhamat, janob general!

General o'rnidan turdi. Bu safar prezident unga "o'tir" demadi. U harbiylar ko'proq tik oyoqda gapirishni va buyruq berishni yaxshi ko'rishini bilar edi.

– Janob Prezident! "Tog'lardagi to'y" operatsiyasiga tayyormiz. Dashalti qo'lga kiritilgach (1992-yil 24–25-yanvar – Y.O.), Shusha buykul qamalda qoladi deyish mumkin.

Ammo Dashaltida yo'qotishlarimiz ko'p bo'ldi. To'g'ri, bizga turklarning ferma tomondan kelishini oldindan ogohlantirishgandi. Biz ham ularni qamal qildik.

Lekin o'sha jabhachi Ramiz Qambarov qayerdan chiqdi, Shushadan qanday tushdi, hech kim bilmaydi. O'n besh-yigirma chog'li turk orqamizdan o'qqa tuta boshladi. Shu sababdan to'qsontacha askarni yo'q qila oldik xolos.

Izoh: Ozarbayjon Milliy Qahramoni, Shusha mudofaa bataloni komandiri Ramiz Qambarov. Uning jangchilari Shusha shahri, Qorqijahon, Kosalar, Nabilar, Qaybali, Melibeyli, Qushchular, Qo'ytola qishloqlari mudofaalarida mardonavor kurashganlar.

1992-yil 29-aprelda arman bosqinchilari Kosalar va Qorqijahon qishloqlari yaqinidagi postlarga hujum qilganda, Ramiz Gamdarov bataloni jangga otildi va shu jangda xiyonat tufayli jasur sarkarda og'ir yaralanib, bir kun

o'tib halok bo'ldi. Shushada tug'ilgan ushbu qahramon o'z vatanida dafn etildi.

Prezident mudofaa vaziriga qaradi. U ham o'rnidan turdi:

– Ramizning askarlarimiz ortidan qanday chiqqanligiga oydinlik kirita oldingmi? – deb so'radi u generaldan. – Shushadagi odamlarimiz buni o'rganib chiqdimi? Nahotki, birdaniga ortimizdan bir guruh jangchi chiqsa-yu, ularni hech kim ko'rmasa?

– Hech kim ko'rmabdi, janob prezident! Bu hol birinchi marta emas, bir necha marta sodir bo'lgan. – General yelka qisib qo'ydi. – Hech narsani bilmay turibmiz. Ablah sehgarga o'xshaydi, goh u, goh bu yerdan chiqadi.

Ter-Petrosyan o'yga toldi. Hech kim bir og'iz so'z aytish u yoqda tursin, gapirishga jur'at eta olmasdi. Nihoyat sukunatni o'zi buzdi:

– Balki. Shushaga asos solgan kim edi? – Kocharyanga qaradi, – uning ismi nima? Sen shu yerda tug'ilgansan-ku.

Robert darhol javob berdi:

– Panohalixon.

– Ha, ha... balki o'sha xon Shushani qurayotganda yashirin yo'l qoldirgandir. Masalan, lahim, yerosti yo'li. Bu yerda bir sir bor.

Bu safar Kocharyan shunday javob berdi:

– Janob Prezident! Sho'rolar davrida shu yerlarda kezib yurganman, besh qo'limdek bilaman.

Qoyalar ostida bir g'or bor. O'zim u yerga kirib, oxirigacha borganman. O'shanda menga hamma joyni o'rganish, tanishish, yashirin joylarni aniqlash va boshliqlarga xabar berish vazifasi yuklangan edi.

Boshini chayqadi. – G'or aytganimdek. Uning kirishi bor, lekin chiqish yo'q. Chiqish uchun orqaga qaytish kerak.

Prezident past kelishni istamadi:

– Xo'sh, unda hamma gap Ramizda, uni qo'lga olib, bu sirni aniqlash kerak.

Endi qo'mondon Arkadiy o'rnidan turdi:

– Bu mumkin emas, janob Prezident!

– Biz uning suratini qal'adagi odamimiz orqali qo'lga kiritdik. Uch kun oldin Kosalar uchun jangga kirishganida yana birdan paydo bo'ldi – mergan qizimiz uni otib tashladi. Oradan bir kun o'tib, halok bo'lgani haqida ma'lumot oldik.

Prezident bu javobdan qanoatlangan bo'ldi.

– Mayli, davom eting, lekin bu sirni kelajakda o'rganish kerak.

Mudofaa vaziri o'tirdi. Qo'mondon davom etdi.

– Hozir qal'ada ikki ming besh yuz nafar tinch aholi bor. Uning yarmicha jangchlar ham bor. Agar ularning hammasi qolib, himoyalansa, biz ko'p kishi yo'qotamiz. Shushani ham ololmasligimiz mumkin.

Ter-Petrosyan hayrat bilan mudofaa vaziriga qaradi. U tezda o'rnidan turgancha shoshib gapirdi:

– Bu borada juda jiddiy ishlar olib borilmoqda, janob Prezident! Moskva, Boku va Shusha bilan muntazam aloqalarimiz bor. Hozir ham bimalol aytishim mumkinki, natija yaqqol ko'zga tashlanmoqda.

– Hisobot bering! - U hirqiroq ovozda gapirdi:

– Biz Boku bilan, ya'ni Mudofaa vazirligi bilan masalani hal qildik.

Ularga bo'ysungan askarlar ta'til bahonasi bilan allaqachon qal'adan olib chiqildi. Yana ikki batalyon ko'pi bilan uch kundan keyin Shushadan chiqib ketadi. Ulardan biri sobiq prezidentga bo'ysinuvchi...

Petrosyan qo'lini ko'tarib, uning gapini bo'ldi:

– Yo'q, ularning ismlarini aytma. Bizga hali u yerdagi odamlar kerak bo'ladi.

Urush bir kunda yoki Shusha bilan tugamaydi. Shusha esa buyuk g'alabamizning birinchi qatorida turadi. Shushada bizni yirik g'alabalar kutmoqda. Marhamat, davom eting.

Qo'mondon harbiy javob berdi:

– Ho'p bo'ladi, janob Prezident Xulosa qilib aytganda, Shushaga hujum qilganimizda, - biroz o'ylanib davom

etdi, - menimcha, to'rt yo besh yuz nafar jangchisi qoladi. Bizning shonli armiyamiz ularni yengadi, barchasining jasadi ko'chalarda, parklarda, uylarda qonga belanib yotadi.

Ter-Petrosyan e'tiroz bildirdi:

- Yo'q, faqat jangchilarning jasادلari yerga yoyiladi, tinch aholi ketishi uchun yo'lak ochiladi, bo'lmasa, - u Seyran Ohonyanga qarab, barmog'ini qaratdi.

Ohonyan darrov o'rnidan turdi: - Seyran Xo'jaylida shunday vahshiyliklar qildiki, bu haqda butun dunyo gapirdi. Yillar o'tadi, lekin ular gapirishdan qolmaydi.

Hatto Yerevanda o'ldirilgan bolalar, ayollar, qariyalarning suratlarini go'yo bular turklar tomonidan o'ldirilgan armanilardek, butun dunyoga tarqatdik. Yana hech kim ishonmadi. Nega bilasizmi? - Javob beruvchi yo'q edi. - Birinchidan, ularda video materiallar bor edi. Ikkinchidan, Zori Balayanning kitobi... uning nomi nima?

Kocharyan darrov javob berdi:

- "Ruh tantanasi"

- Ha, ha... Zori "Ruh tantanasi"da yozadiki, men Xo'jaylida bir bolani nayza bilan devorga sanchib qo'ydim.

Bola chinqirardi. O'lgan onasining ko'kragini kesib, o'layotgan turk bolasining og'ziga tiqib qo'ydim, bu turkning ovozi o'chirsin deb. Turk bachcha bir necha daqiqadan so'ng jon taslim qildi.

Gumrohona yozgan bu kitobini barcha tillarga tarjima qilib, butun dunyoga tarqatdi. Bundan keyin ular bizga ishonishadimi? Albatta yo'q. - U jim qoldi. Yig'ilishni yakunladi. - Men Yerevanga qaytyapman, lekin kelgunimcha, Tehron, Shusha biz bilan bo'lishi kerak. - U o'rnidan turdi.

Kocharyan prezidentga kechki ovqat haqida eslatmoqchi bo'ldi, ammo bu fikrdan qaytdi. Shushani olgandan keyin bu suhbatga qaytgan ma'qul, deb o'ylardi, chunki o'shanda u muzaffar qo'mandon bo'ladi...

Tovuz jangi, 12-iyul, 2020-yil

Ijtimoiy tarmoqlarda Tovuzda urush boshlangani haqida yozardilar. Bu mavzu kun tartibida, boshqa bir yangilik yoʻq edi.

Baʼzi saytlarda norasmiy ravishda soat 12:40 da arman qurolli kuchlari chegara xizmati punktlarini, shuningdek, Agʻdam, Alibeyli va boshqa qishloqlarni bombardimon qildi degan xabar yoyildi. Xalq urushga tayyorlanardi, xalq urushni xohlardi.

Ilhom Aliyev Prezident maʼmuriyatining beshinchi qavatidagi xonasida Rajab Toyyib Erdoʻgʻan bilan telefonda gaplashardi.

– Bizning bashoratimiz, ehtimollarimiz oʻzini oqladi janob Prezident! Biz olgan maʼlumotlar toʻliq tasdiqlandi.

Urush Qorabogʻda emas, Ozarbayjonning gʻarbida boshlandi. Armanlar bir necha kundan beri: "Yangi urush - yangi hududlar" gʻoyasini targʻib qilishmoqda.

Telefonning narigi tomonidan Erdoʻgʻanning ovozi eshitildi:

– Hurmatli Prezident! Turkiya barcha masalada siz va ozarbayjonlik qardoshlarining yonida. Harbiy, siyosiy, iqtisodiy yordamlar sizning ixtiyoringizda boʻladi. Oʻylaymanki, Rossiya bu urushda qatnashmaydi.

Prezident Erdogʻanga minnatdorlik bildirdi:

– Rahmat, janob Prezident. Menimcha ham, Rossiya bu urushda qatnashmaydi.

Armanlar urushni Qorabogʻda emas, Tovuzda boshlash bilan Kollektiv Xavfsizlik Shartnomasi Tashkilotini bunga jalb eta olishiga umid qilmoqda. Lekin ular mutlaqo yanglishyapti.

Biz allaqachon urush uchun yetarli tajribaga egamiz. Ilgari aprel, keyin esa Naxchivonda Gunnit janglari boʻldi. Askarlarimiz Turkiyada NATO standartlari boʻyicha mashq

o'tadi. Men ham, xalq ham, armiyamiz ham bu urushga tayyormiz.

Bu ishga hech bir davlatni aralashtirmay, erkakcha yuzma-yuz urushishni aytamiz. Lekin bundan na foyda, armanlar har doim qandaydir davlat orqasiga yashirilib qichqirishadi.

Erdo'g'on uning so'zlarini tasdiqladi:

– Haqsiz qardoshim. Siz kabi biz ham paytida armanlarning xiyonatiga duch kelganmiz. Bugun men Rossiya prezidenti Putinga qo'ng'iroq qilib, voqealarni muhokama qilaman. Kerak bo'lsa, unga o'z chizig'ini ham ko'rsatib qo'yaman.

– Tashakkur, janob Prezident! Biz har doim sizning va Pokistonning do'stligini his qilganmiz.

– Alloh yor va madadkor bo'lsin!

Prezident telefonni qo'yib, o'rnidan turdi. Devordagi otasining suratiga qaradi-da, xuddi u bilan gaplashayotgandek dedi:

“Agar men qilmasam, kim qiladi? Nega tarixga nomimni g'olib kabi yozdirmasligim kerak? Siz armanlarning esa orzu-istagingiz faqat tilingizda qoladi!

Bilaman, Rossiyadagi ayrim doiralar sizga turlicha ko'mak berib kelmoqda. Biroq Rossiya KXShT nomi ostida hech qanday yordam bermaydi. Tovuz jangi - bu katta urush uchun kichik bir mashqdir.

Men yillar davomida bunga tayyorgarlik ko'rib kelyapman. Urushdan meni to'xtatadigan hech kim yo'q. Ularning aksariyatini va eng asosiylarini ish boshidan olib tashladim.

Unga otasining portretidan boqqan ko'zlarida rozilik alomati bordek tuyuldi. Qaytib joyiga o'tirishi bilan selektordagi “yordamchi” deb yozilgan tugmachaning sariq chirog'i yondi.

– Janob Prezident! Mudofaa vaziri Zokir Hasanov aloqaga chiqdi. Ulaymi?

Javob qisqa bo'ldi:

– Ulang! - telefon dastagini koʻtardi.

– Salom, janob Prezident! Hisobot berishimga ruxsat eting. – “Ruxsat” degan soʻzni eshitgach, mudofaa vaziri davom etdi.

– Janob Oliy Bosh Qoʻmondon! 12-iyul sanasi kun yarmidan boshlab Armaniston Qurolli kuchlari Ozarbayjon Davlat chegara xizmatining Tovuz viloyatida joylashgan punktlarini artilleriya vositalaridan oʻqqa tutdi.

Oliy Bosh Qoʻmondon qogʻozgan oʻqiyotgandek ravon maʼruza qilardi. Oʻyladiki, ayni damda nola-figʻon qilmay, qatʼiy fikr bildirish kerak. Mudofaa vaziri esa davom etdi.

– Bugundan boshlab biz tomondan Armaniston qurolli kuchlariga tegishli zirhli texnika va shaxsiy tarkibning harakatlanishi kuzatilmoqda. Bu Armaniston tomonining Ozarbayjonga qarshi artilleriya hujumini oldindan rejalashtirganidan yaqqol dalolatdir. - Rasmiy ravishda qoʻshib qoʻydi. – Janob Oliy Bosh Qoʻmondon, Mudofaa vazirligi buyruqingizni kutmoqda.

Prezident darhol javob berdi:

– Dushmanning oʻt ochish nuqtalari zudlik bilan yoʻq qilinishi lozim. Qurolli Kuchlar jangovar shay holatga keltirilishi kerak, armanlar avvalgi hiyla-nayranglaridan voz kechmasligi aniq.

Bizning havo hujumidan mudofaa tizimimiz kecha-yu kunduz shay holatda boʻlmogʻi lozim. - Qoʻshib qoʻydi. - Lekin bizning askarlar va zirhli texnikalarimiz belgilangan chiziqdan bir metr ham nariga oʻtmasin.

Ha aytgancha, ular menga Armaniston Mudofaa vazirligi bayonotini ham olib kelishdi, men uni oʻqib chiqdim. Mudofaa vazirligimiz ham bayonot bersin. Unga mana bunday jumlani ham qoʻshib qoʻying:

“Agar Ozarbayjon armiyasi Armaniston davlat chegarasini kesib oʻtmoqchi boʻlsa, buni avtomobilda emas, zirhli va qiruvchi jangovar mashinalarda amalga oshirardi”. Tushunarlimi janob general?

Telefonda Zokir Hasanovning harbiycha ovozi yangradi:

– Tushunarli! Ho'p bo'ladi, janob Oliy Bosh Qo'mondon!

Suhbat tugadi. Ba'zi harbiy qismlarda hali ham kichik kamchiliklar bo'lishiga qaramay, u armiyasiga ishonardi. Armiya yangilandi va mustahkamlandi, lekin islohotlarga moslasha olmagan zobitlar ham bor edi.

O'yladi: “Endi xalqning ruhiy holatini tekshirish, siyosiy partiyalar, jamoat tashkilotlarining pozitsiyasini aniqlashtirish kerak. Shunday qilish kerakki, xalq bir mushtga aylansin. U Amir Temurning so'zlarini esladi:

“Xalqim ham, qo'shinim ham bir mushtdir. Qayerga yo'naltirsam, u erga boradilar. (Keyinchalik Ulug' Vatan urushi yillarida bu ibora “Temir musht” iborasiga aylanib qoldi. Ulug' Vatan urushiga roppa-rosa yetmish besh kun qolgan edi).

U “apparat rahbari” so'zi yozilgan tugmani bosdi. Aparat rahbari Samir Nuriyev javob berdi:

– Labbay, janob Prezident!

– Samir bey, Hikmat bey va Adolat bey bilan oldimga kiringlar.

Bir necha daqiqadan so'ng har uchala amaldor ham Prezident qabulida edi.

Prezidentlik saylovlaridan so'ng har uchala mansabdor shaxs ham islohotlarga ko'ra tayinlangandi. Yosh, epchil, har bir masalaga zudlik bilan javob beradigan bu mutasaddilar o'z vazifalariga yarasha ishini ado etib, Prezidentni xalqqa yaqinlashtirardi. Ularda xalqqa, davlatga, uning rahbariga muhabbat bor edi.

Prezident suhbatga kirish so'zi o'laroq shunday dedi:

– Bugun kun yarמידan keyin Armaniston qurolli kuchlari Tovuz viloyatidan bizning punktlarimizni o'qqa tutdi.

Men Bosh Qo'mondon sifatida Mudofaa vaziriga dushmanni o'q otish joylarini zudlik bilan yakson qilish buyrug'ini berdim. Hamma narsani urushga safarbar qilish kerak. Ishimiz ko'p.

– Yuzini apparat boshligʻiga burdi. – Samir bey, apparat mutasaddilari, tuman ijro hokimiyati rahbarlari kecha-yu kunduz oʻz joylarida boʻlib, xalq bilan gaplashib, vaziyatni tushuntirishi kerak.

Apparat rahbari uning aytganlarini yozib olar ekan javob berdi:

– Albatta, janob Prezident!

Ilhom Aliyev davom etdi:

– Oʻylaymanki, bir soatdan keyin Xavfsizlik kengashi yigʻilishini oʻtkazamiz. Lekin bu uchrashuv haqida bir ogʻiz soʻz ham matbuotga sizib chiqmasligi kerak.

Shunda u yordamchisi Hikmat Hojiyevdan soʻradi:

– Hikmatbey, Tashqi ishlar vaziri Elmar Mammadyarov qayerda?

U telefonini oʻchirib qoʻyganga oʻxshaydi.

Feʼl-atvorida samimiyat va soddalik boʻlgan prezident yordamchisi yelka qisib qoʻydi:

– Topib boʻlmadi, janob Prezident!

Prezidentning yuragida nimadir uzulgandek boʻldi. Fikridan shular oʻtdi: “Bu ogʻir kunda hammadan koʻra koʻp ishlashi kerak boʻlgan vazir shu boʻlsa. U ham topilmaydi. Aftidan, u oʻz bizneslari bilan band boʻlib, “Shirvonshoh” restoranida kun oʻtkazayotgandir.

Uning kimningdir oldida tili qisq joyi borga oʻxshaydi. Oyoq bosolmayapti. Boʻgʻzidan shunday tutub olishganki, nafas ololmayapti hatto. Shuncha ishlabdiki, Qorabogʻ masalasida bir ishni doʻndirmadi, vaqttni behuda oʻtkazdi.

Menga aytishganda, ishonmagandim. Boshqa undan vazir chiqmaydi. Elmardan yaxshi foydalanishdi. Urushdan soʻng bizniki qolsin. Lekin u koʻnglidagini oʻtirganlarga bildirmadi.

– Uni qidirishning hojati yoʻq. Qaytaga, ishimizni buzishi mumkin. Topilmadimi, topilmay qoʻya qolsin. Bu mavzuga keyinroq qaytamiz.

Prezidentning jiddiy sabablari borligi uchun bunday gapirayotganini o'tirganlar tushundi.

Bo'lmasa, bir deganda Ozarbayjonning istalgan joyidan topib, olib kelishlari mumkin. Uning uchun bu qiyin emas. Aslida, tashqi ishlar vaziri lavozimi har doim nazorat ostida bo'lgan mansabdir.

Buni hammadan ko'ra Prezidentning o'zi biladi. Demak, bunday deyishga jiddiy asoslar bor. Mammadyarov esa o'z yakunini tezlashtirardi. Ilhom Aliyev Hikmat Hojiyevga yuzlandi.

– Hikmatbey! Sizning ishingiz endi biroz qiyinlashadi. – Hojiyev bor e'tiborini prezidentga qaratdi.

– Asosiy vazifa xorijiy davlatlar elchixonalari, ularning attashelari, xorijiy davlatlar, xalqaro tashkilotlar bilan ish olib borish, ularga maqsadimizni tushuntirish, matbuot anjumanlari o'tkazish, ularga o'z faktlarimizni yetkazish.

Ommaviy axborot vositalari ichki siyosatimizda muhim o'rin tutadi. Ijtimoiy tarmoqlar, matbuot va veb-saytlar yagona kuchga aylanishi uchun harakat qilishimiz kerak. Bu shunday bo'ladi. Ichkari mahkam bo'lmasa, kuchimiz haqida gapirish yaramaydi.

Chunki har qanday urushda faqat davlat va uning armiyasi kurashmaydi, bu urushga xalq ham qo'shiladi. – Qo'lingizdan keladimi, Hikmatbey?! – so'radi prezident.

Tinib-tinchimas, ham sho'ba mudiri, ham Prezident yordamchisi bo'lgan Hikmat Hojiyev zimmasidagi yuk juda og'ir ekanini his qildi.

Prezident unga juda mas'uliyatli vazifani topshirdi. U har doim yurtni himoya qilish, bosib olingan yerlarni qaytarish uchun men nafaqat biror lavozimda o'tirib, o'z vakolatlarimni halol bajaraman, balki askar etigini kiyib, frontga ketishga ham tayyorman, deb o'ylardi. Bu uning e'tiqodi edi. Shuning uchun u o'ylamasdan javob berdi:

– Albatta, qila olaman, janob Prezident! Bunday ishda “yo'q” so'zini lug'atimizdan olib tashlash, “qo'limdan

Soʻqmoq kelmaydi” degan soʻzni vaqtincha uloqtirish kerak. Kerak boʻlsa, kechasi umuman uxlamaymiz, lekin Prezidentimiz qoʻygan vazifani yuqori saviyada bajarish bizning birinchi darajali vazifamiz boʻladi.

Yordamchining bunday samimiy nutqidan Prezident ruhlandi. Keskinlik davri allaqachon boshlangan edi. Endi har qadamda asabiylikka duch kelish mumkin, urush ketmoqda, jamiyat bosimi ham ortadi, xalqaro tashkilotlarning istaklari yana boshqa bir tomondan.

Endi u boshalardan koʻra juda mamnun koʻrinmogʻi lozim edi, chunki bu kun xalqining gʻalabaga boʻlgan ishonchini oʻziga qaytarish uchun uning rahbari, xususan, oʻzi hamisha nekbin boʻlishi va shu nekbinlikni boshqalarga ham yuqtirishi kerak edi. Aks holda, jamoada biroz tushkunlik paydo boʻlsa, ish chappasiga ketishi mumkin edi.

U jilmayib dedi:

– Kuchli boʻlish uchun orada dam olib ham kerak, Hikmatbey. Oʻylaymanki, siz oʻz ishingizni yuqori saviyada bajarasiz.

– Hech shubhangiz boʻlmasin, janob Prezident!

U bu safar yuzini Adolat Valiyevga qaratdi:

– Adolatbey! Siz ish boshlaganingizga hali bir yil ham boʻlmadi. Ammo faoliyatingiz tamoyillari siyosiy hayotni jonlantirdi, siyosiy faollikni oshirdi.

Bu yaxshi natija, buni sizning oʻzingizga aytyapman, buni albatta qadrlayman. Siyosiy hayotda, faoliyatda bir-biri bilan kelishmayotgan partiyalarni koʻraylik-chi, ular milliy birdamlikni namoyon etib, bizning haq bilgan ishlarimizni himoya qiladimi?

Toʻgʻri, bir-ikkita partiya borki, besh barmogʻini asalga botirib ogʻziga solsangiz ham norozi boʻladi. Biroq bugun milliy birligimizni butun dunyo koʻrishi kerak. Unutmang!

Butun vujud bilan vatanparvar, hamisha subordinatsiyani saqlashga oʻrgangan shuʻba mudiri oʻrnidan turib soʻzlamoqchi boʻlganida, Prezident qoʻli bilan ishora qilib,

turishga hojat yo'qligini bildirdi.

Valiyev boshini ko'tarmay gapirdi:

– Janob Prezident, shu'bamizning barcha xodimlari ijtimoiy tarmoqlardagi ma'lumotlarni kuzatib boradi. Albatta, rasmiy ma'lumot bo'lmagani uchun hozircha biror siyosiy partiyaga murojaat qilganimiz yo'q.

– Samirbeyga ham xabar berdim.

U Apparat rahbariga qaradi. Samir Nuriyev aytilganlarni boshi bilan tasdiqladi. – Birinchi so'z Prezidentdan bo'lishi kerak, lekin norasmiy ishlar ketmoqda, bu ishni yanada kuchaytiramiz. Butun sho'ba safarbar qilindi.

– Ha, yashang Adolatbey! Mudofaa vazirligining rasmiy bayonoti, u qo'lidagi soatga qaradi, - bu o'n besh-yigirma daqiqada tayyor bo'ladi. – Shu payt stol ustidagi kompyuterga signal keldi.

U yerda yozilganlarni o'qish uchun vaqtini atigi bir daqiqasini ajratdi. - O'ylaymanki, bu milliy birlik yo'lidagi birinchi qadam bo'lsa-da, so'ngisi bo'lmaydi.

U yana Apparat boshlig'iga murojaat qildi:

– Samirbey! Yoshlarimiz harakatga tushib qolgani haqida ma'lumot oldim. Har bir inson urush maydoniga borishni xohlaydi. Tovuzga mashinada ketayotganlari haqida xabarlar bor. Hamma jang qilishni xohlayapti.

Bu yaxshi narsa bo'lsa-da, darhol bundan qochish kerak. Birinchidan, bizning tayyorlanmagan, qurolsiz yoshlarimiz askarlarimizni jang qilishiga to'sqinlik qiladi, - tuzatish ham kiritib o'tdi. – Biroq, bu targ'ibotdan nariga o'tmasligi lozim.

– Ikkinchidan, yoshlarimiz jang qilmoqchi bo'lsa, tuman harbiy komissariyatiga ariza berib, zahiradagi qismlarga yozilishi kerak.

Bu paytda apparat boshlig'i qaydlarni tez yozib olayotgan edi.

– Uchinchidan, urush tartibsizlikni yoqtirmaydi, temir tartib-intizomga amal qilmasak, ishimiz bitmaydi. Urush

orqa frontda ham ketyapti, - barmogʻini stolga tekkizib, - mana bu yerga qarang. Agar har kim oʻz joyida konveyer boʻlib ishlamasa, gʻalaba haqida gapirishdan maʼno yoʻq.

Nihoyat, toʻrtinchidan, buni oʻzim ham aytaman, boshqa tegishli muassasalar ham aytsin. Safarbarlikeʼlon qilish bilan birga, aholiga, ayniqsa, yoshlarimizga armiyamiz yetarli darajada kuchli ekanini, bugun bunga ehtiyoj yoʻqligini, kerak boʻlsa, armiyaga chaqirishimizni tushuntirish lozim.

U gapirayotganda oʻtirganlar yozib olishardi.

- Ha, Samirbey, koronavirusga qarshi kurashimiz davom etadi. Urush toʻsatdan boshlangani uchun uni yengil qabul qilib boʻlmaydi.

Tovuzda janglar boshlanganiga qaramay, Bokuda va Ozarbayjonning hech bir joyida tartib buzilmaganini, hatto shunday sharoitda ham Ozarbayjon davlati soat mexanizmiddek aniq ishlayotganini butun dunyo koʻrishi kerak. Kovid bilan bogʻliq yordam bir lahzaga ham toʻxtamasligi shart.

- U gapini tugatib, chuqur nafas oldi va oʻtirganlarga diqqat bilan qaradi. Ular Prezident tomonidan yana bir qancha topshiriqlar berilishini kutishyotgan edi, ammo bunday boʻlmadi, yigʻilish yakunlandi.

- Uchalangiz ham birinchi marta bunday favqulodda vaziyatga duch kelyapsiz, chunki bu muhim lavozimlarga yaqinda tayinlangansiz. Tez orada bunday holatlarga koʻnikishingizga ishonaman. Savollaringiz boʻlmasa, boshingiz mumkin.

Ular ketganlaridan keyin Prezident oʻrnidan turib, soatiga qaradi, Xavfsizlik Kengashi majlisiga hali oʻn besh-yigirma daqiqa bor edi.

U bir muddat ofisini aylanib chiqdi. Yana kelib otasining portreti oldida turdi. U oʻzida ota ruhini olib yurganga oʻxshardi, bu dunyo koʻrgan, siyosatchi otadan maslahat olmoqchi edi, bosadigan qadamini yuz marta oʻlchab, bir kesardi.

Unda ko'tarinkilik bor edi. U o'zi va Ozarbayjon uchun yangi YO'L ochdi. U bu yangi YO'Lni qudratli qilmoqchi edi. U o'zi boshqarayotgan davlat uchun yangi, mutlaqo yangi ufqlarni ochish arafasida edi.

Undagi ko'tarnkilik uni muvaffaqiyatga erishishiga ishontirdi. Agar u ochgan bu YO'L o't-alafga to'la bo'lsa, unda bu YO'Lni ochishga arzimaydi. YO'Lning boshlanishi allaqachon mavjud edi, endi uni iqqbolli YO'Lga aylantirish kerak.

Ammo, har ishni sabr-toqat va maslahat bilan amalga oshirilishi kerak. Hozir bu dunyo, har qaysi davlat o'zi bilan o'zi ovora. Barcha yetakchi davlatlar saylovlar bilan band yoki koronavirusga qarshi kurashmoqda deb o'ylardi.

Bu telba iblis armanlar urushni Tovuzdan boshlabdi, sen esa bu urushni Qorabog'ga ko'chir, derdi. U portretidagi ko'zlarga boqdi. Keyin o'ziga-o'zi: "Yo'q, hali erta. Biz hali ba'zi narsalarni tugatmadik. Bu jangda ba'zi odamlarning ovozi qayerdan kelgani aniq bo'lishi kerak".

Hayollarini telefon qo'ng'irog'i buzib yubordi. U monitorga qaradi. Qo'ng'iroq qilgan shaxs birinchi vitse-prezident Mehribon Aliyeva edi. Uning Haydar Aliyev fondi prezidenti sifatidagi faoliyati ham xalq tomonidan yuqori baholanardi.

Bu jamg'arma ko'plab nochor odamlarning, bemorlarning umid maskaniga aylangan edi.

Jamg'armaning sport, adabiyot, san'at va boshqa yo'nalishlardagi faoliyati butun dunyoda olqishlanib, shu sababdan ham xonim YUNESKO va ISESKOning tinchlikparvar elchisi unvoni bilan taqdirlangandi.

Oxirgi prezidentlik saylovlaridan keyin u birinchi vitse-prezident etib tayinlandi.

Prezident telefon tugmasini bosdi, narigi tomondan ayolning shoshqin, biroq tiniq ovozi eshitildi:

- Salom, janob Prezident!
- Salom, - va u darhol birinchi vitse-prezident hamma

Soʻqmoq narsani bilishini tushundi. Aslida, shunday boʻlishi kerak, apparat soat kabi ishlashi kerak va u shunday ishlardi.

Bu jarayon otasi Haydar Aliyev davridayoq tartib-intizomga solingan edi. - Ular nima qilishlari toʻgʻrisidagi tezislar markazlashtirilgan holda barcha shoʻbalarga, shoʻbalardan sektorlarga yuborilardi.

Internet sharoitida bu ish juda moslashuvchan tarzda amalga oshirilar va vaqt yoʻqotilishi bartaraf etilardi. - Oʻylaymanki, siz voqealarning mohiyatini va urush boshlash qarorimni allaqachon bilasiz.

Telefonning narigi tomonidan ovoz eshitildi:

- Ha, bilaman, ziyolilarimiz, ijtimoiy-sogʻlomlashtirish xodimlarimiz toʻliq shay holatda boʻlishi uchun apparat va jamgʻarmaga topshiriq berganman.

Agar urush boʻlsa, hamma narsa boʻladi, bu aniq. Qoʻshnimiz armanlar tinch va osoyishta yashashimizga yoʻl qoʻymayapti, garchi men tinchlikparvar elchi boʻlsam-da, lekin yerlarimiz yaxlitligi va davlat suvereniteti uchun men bu lavozimdan voz kechishga majburman, balki meni bunga majbur qilishmoqda, lekin afsuslanmayman, chunki egallab turgan lavozimim mendan shuni talab qiladi.

Biroz avval Anor Alakbarov bilan ham gaplashdim, koʻrsatilishi kerak boʻlgan yordamni muhokama qildik. Yana u hech qanday muammo boʻlmasligini aytdi. Anorbey topshiriqlarimni jamgʻarmaga yetkazgan boʻlsa kerak.

Mehribonxonimning kirishimlilik bilan va toʻgʻri ishlashi uni doim xursand qilardi. Oʻz ortida bir aqlli odam turganini, uni qoʻllab-quvvatlayotganini doim his etardi

Xonim bilan bevosita oilaviy rishtalar ham uning mavqeyiga taʼsir qiladi. Biroq, rafiqasi biror marta boʻlsin ishning ogʻirligi yoki oilaviy muammolardan shikoyat qilmagan. Aksincha, u doimo muammolarni Prezidentning yelkasiga yuklamaslikka harakat qilgan.

U bu baxtni, oilaviy baxtni his qilardi, har bir masalada rafiqasi uni qoʻllab-quvvatlardi, undan maslahat olardi,

lozim bo'lganda o'z fikrini bildiradi. "Ayol oila tayanchi" degan otalar so'zi bekorga aytilmagan. U bularning barchasini ichidan o'tkazib dedi:

– Bularning hammasi yaxshi, Mehribon xonim. Ovozingizdagi bir qadar hayajonni sezib turibman. Buning sababini bilaman, chunki urush boshlandi. Endi biz ham-mamiz ma'lum vaqt keskinlikda yashaymiz, bunga ham ko'nikishimiz kerak.

Esingizdami, aprel janglarida asab tarangligimiz, hayajonimiz bundan ham ortiq edi. Lekin uddaladik. O'ylaymanki, biz buni ham g'alaba bilan yakunlaymiz, - unga tasalli berdi. – G'alaba haqidagi xabar barcha keskinliklarga chek qo'yadi, jonimizga malhamdek tarqaladi.

Mehribon xonim hotirjamlik bilan:

– Xudo xohlasa, - dedi, - ammo urush boshlanishi meni sarosimaga solgani yo'q, aksincha, ichimda bir ko'tarinkilik, yoqimli tashvish va hayajon uyg'otdi. - Prezident biroz hayron bo'ldi shekilli, chunki u ham sal oldin xuddi shunday tuyg'ularni boshdan kechirgan edi. – Tanglikning boshqa bir sababi bor.

U shunday tushundiki, Mehribon xonim tashqi siyosat, ya'ni xorijiy davlatlarning bu urushga munosabati haqida o'ylayotibdi, bu bezovtaliklar shundan. U ishonch bilan dedi:

– Xotirjam bo'lavering, bu bezovtalik tashqi siyosatimiz bilan bog'liq bo'lsa, shuni aytamanki, bizning hozirgi urushimiz aprel urushidan ulug'vorroq bo'ladi. Negaki, bu urush Qorabog'da emas, mamlakatimiz g'arbida kechmoqda.

– Katta rahmat, janob Prezident! Meni xotirjam qildingiz, tashqi siyosatdagi muvaffaqiyatlaringizdan boxabarman, chunki imkon qadar men ham siz bilan chet el safarlariga boraman, yutuqlarimizni birgalikda baham ko'ramiz. Mendagi ishtiyoqni yaratgan boshqa bir masaladir.

Uning gumonilari tarqab ketdi. Shuni so'radi:

– Qiyin bo'lmasa, menga ham ma'lumot bering.

Mehribon xonim biroz taraddudlanib so'ng qat'iyat bilan gapirdi:

– Ijtimoiy tarmoqlardagi muammolar meni taranglikda ushlab turibdi.

– Ya'ni?

– Ya'ni barcha yoshlarni Tovuzda to'planishga chaqirmoqdalar.

Yoshlar bu chaqiruvga ishtiyoq bilan qo'shilmoqdalar. Ular mashinalarga o'tirib, Ozarbayjon va Turkiya bayroqlarini olib, jang maydoniga bormoqchi. Armanlar yoki ularning bu yerdagi trollari provokatsiya qilishidan qo'rqaman. Ularning naqadar ayyor ekanligini siz hammadan yaxshi bilasiz.

Prezident birinchi xonimni tinchlantirdi:

– Mehribon xonim! Ortiqcha xavotirga hech bir asos yo'q. Ularning aytganlari haqiqat bo'lishi uchun biz xushyor bo'lishimiz lozim. Bir necha daqiqadan so'ng Xavfsizlik kengashi yig'ilishi boshlanadi. Bu kun tartibidagi masalalardan biri.

...Va bu majlisda Ozarbayjon taqdirini hal qiladigan muhim qarorlar qabul qilindi:

Ozarbayjon hamon o'z YO'Lini yaratayotgan edi.

Ozarbayjon televideniyasida Mudofaa vazirligining chegaradosh Tovuz viloyatining chegara hududida armani qurolli kuchlari chegarachilarga qarshi jangovar harakatlar boshlagani, harbiy punktlarni bombardimon qilayotgani va Ozarbayjon Qurolli kuchlarining javob o't ochgani haqida rasmiy bayonotidan so'ng kimningdir ko'rinmas tayoqchasi bilan mamlakat qaynay boshladi, ijtimoiy tarmoqlar, veb-saytlar, bloggerlar ko'rsatuv va sharhlar berar ekan voqealarni to'g'ri yoki noto'g'ri tomonga yo'naltirishga tutindilar.

Aslida, hech qanday sehrli dirijyor tayoqchasi yo'q edi. Aprel janglari armanlarning "g'alaba" sindromini yakson

qildi. Odamlar – yoshlar, keksalar, qizlar, ayollar Xo'jayli, Shusha va boshqa bosib olingan tumanlarda shahid bo'lgan insonlar uchun, xo'rlangan kelin-qizlar nomusi uchun o'ch olmoqni istar edilar.

Chunki o'ttiz yil davomida bu haqda gapirilmagan, orzu-ustaklar bildirilmagan biror joy qolmadi. Ayniqsa, katta-kichik majlislarda barcha suhbatlar Qorabog' bilan tugardi.

Odamlar bu qasos qiyomatga qolmasligini so'rab Xudodan iltijo qilardilar.

Xususan, 26-fevralda, yani Xo'jayli qirg'ini, Shusha, Lochin, Galbajar, Fuzuliy, Ag'dam, Jabroyil, Zangilon tumanlari ishg'ol qilingan kunlar yodi uchun belgilan bu sanada ommaviy tadbirlar o'tkazish, shahidlarni xotirlash odat tusiga kirgan, hatto qochqinlar orasida to'y bo'lganda, kelin-kuyovga tilak bildirar edilarki, bularning bolalari to'yini ishg'oldan ozod bo'ladigan falon joylarda o'tkazaylik deb.

Maktab va oliy ta'lim muassasalarida bu chora-tadbirlar yildan-yilga kuchaydi.

Hatto Oliy Bosh Qo'mondon ba'zi chiqishlarida "payti kelib, armiyamiz yerlarimizni bosqinchilardan ozod qiladi" deganda, ba'zilar qoshini chimirib, "o'sha kun qachon bo'ladi, bu payt keladimi o'zi", deyishardi.

Albatta, bu kinoya qilganlar o'sha "payt" kelgandan so'ng nima bo'lishini o'ylamaganlar edi. To'qsoninchi yillardan o'ttiz yil o'tdi, orada ikki avlod yetishib chiqdi.

Keksa avlod yangi avlodlar Qorabog' muammosini unutib, yerlarni qaytarib olishni xayoliga ham keltirmaydi, deb qo'rqardi. Zotan, Armanistonni qo'llab-quvvatlayotgan barcha davlatlar shuni istardi, Yerevan ham bundan umidvor edi.

Shuning uchun ular "xalq diplomatiyasi" nomi ostida yoshlar o'rtasida turli xalqaro tadbirlar o'tkazishar edi. Sarflangan millionlar behuda ketdi. Yetti yoshdan yetmish yoshgacha barcha urushmoqni istar edi.

Bokuda, shuningdek, barcha viloyatlarda (tumanlarda) yoshlar mashinalarga oʻtirib, koʻchalarda Ozarbayjon, Turkiya, baʼzan Pokiston bayroqlarini koʻtarib kezar edi.

“Qorabogʻ, Qorabogʻ, Qorabogʻ” deya qichqirishar edilar. Bu bilan hammani urushga chorlardilar. Tovuzda yoshlar toʻplanib, urush boʻlayotga joygan poyi piyoda yoʻl olish, armiyamizga yordam berish istagida ekanliklari haqida xabarlar kelmoqda edi.

Odamlar yordam toʻplashar, hatto eski shinalarni yigʻib, urush jabhasiga joʻnatishardi. Birinchi Qorabogʻ urushida Tovuzliklar bir qadam ham yerning bosib olinishiga yoʻl qoʻymagan. Endi ular yana shunday qilishni xohlashardi.

Hatto imkoni boʻlsa, tarixiy ota-bobo yerlarimizni ham qaytarib olishimiz kerak, degan oʻyda yashardilar. Ammo zamonni farqlay olmasdilar. Endilikda Ozarbayjon armiyasi dunyodagi eng kuchli ellikta armiya qatorida edi.

Endi tartib-intizom, texnikani puxta egallash, kadrlarni eng yuksak saviyada tayyorlash eng muhim shartlardan sanalardi...

Politsiyachilar Olot aholi punktiga kiraverishda nazorat postlari qoʻyib, oʻtishni qiyinlashtirgan bloklar oʻrnatgan edi. Deyarli barcha mashinalar qaytarildi. Karantin tufayli shaharlararo avtobuslar qatnovi berkor qilindi.

Hatto “ruxsat-E”dan olingan hujjatlar ham ish bermadi. Tezkor politsiya polki hech kimni ayamasa va qatʼiy harbiy buyruqlar berardi:

– Qayerga ketyapsan?

– Ey ogʻa, ey birodar, Salyonga ketyapman, ishim bor.

Serjant yanada qattiqroq gapirdi:

– Yoʻq, mumkin emas, qayt ortga. Besh soat hech qanday ruxsat boʻlmaydi.

Haydovchi chor-nochor mashinani chetda toʻxtatdi.

Keyingi mashina unga yaqinlashdi.

– Qayerga?

– Hojiqobulga.

– Chetga ol.

Shunday qilib, bir necha soat o'tdi. Mashinalarning harakatlanishi imkonsiz edi. Tirbandlik vujudga kelib, noroziliklar orta bordi. Shunga qaramay, bu yerda kutib turgan odamlar orasida suhbat ketardi:

Urush. Hamma telefonida yangilik izlar, yangi xabar kelsa atrofdagilarga e'lon qilardilar.

– Xabaring bormi? Bizning dronlarimiz armanlarning harbiy punktlarini yo'q qilibdi. Yashang azamatlar, uring, qasosimizni oling.

Boshqasi aydi:

– Bizning o'g'il ham Tovuzda xizmat qilyapti. Maxsus xizmatlarda. Shu sohani tanlaganida, men unga bor, o'g'lim, borib vatanga xizmat qil, dedim. Uch o'g'limdan biri davlatga, Vatanga fido bo'lsin! - Atrofdagilarga qarab g'urur bilan qo'shib qo'ydi.

– Lekin aytdimki: agar kuragingdan o'q eb o'lsang, qabringga ham kelmayman. Bunday o'lim bilan el ichida beobro' bo'laman. Qo'ni-qo'shni e, sen qanday odamsan? O'g'ling armandan qochayotib o'libdi deydi...

Atrofdan ovozlari eshitildi:

– Haloling bo'lsin!

– Ofarin!

Yana boshqasi dedi:

– Meniki ham Maxsus xizmatlarda. Lekin u Beylaganda. Ular harbiy holat e'lon qilishibdi. Urush oxirigacha kazarmada qolishadi.

Yosh, baland bo'yli sportchi yigit mashina yonida turgan o'ziga o'xshagan uch kishiga ishora qilib suhbatni to'xtatdi:

– Tovuzga ketyapmiz, ko'ramiz, qanday yordamimiz tegadi.

Haydovchilardan yoshi ulug'rog'i unga yuzlandi:

– Bolam, urushga bunday bormaydilar...

– Qanday borishadi, amaki?

– Ey bolam, qara, Tovuzga chiqding, u yerdan qayoqqa borasan?

– Qayga boʻlardi, toʻgʻri urush zonasiga.

Haydovchi amaki istehzo bilan kulib qoʻshib qoʻydi:

– E bola, seni u yerga kim qoʻyadi, tartib bor, qoida bor. Bu yerga kelganimda radiodan eshitdim. Harbiy xizmatga koʻngilli boʻlmoqchi boʻlganlar oʻzi roʻyxatda turgan hududdagi chaqiruv uchastkasida roʻyxatdan oʻtishi kerakligini aytishdi.

– Amaki, rost gapiryapsizmi?

– Bolam, sen bilan hazillashadigan odamga oʻxshaymanmi? Tushdan beri radio-telvizordan qayta-qayta gapirib yotibdi.

Yigit biroz oʻylanib turdi-da dedi:

– Toʻgʻri aytasiz, amaki, borib doʻstlarimga ham aytaman, roʻyxatdan oʻtish uchun Bokuga qaytamiz, biz Bokuda roʻyxatda turamiz deyman.

Sportchi yigit ulardan uzoqlashdi. Shu payt odmi kiyimli oʻn besh yoshlardagi oʻspirinning ovozi eshitildi:

– Sovuq suv bor.

Yelkasida sandiqqa oʻxshash qizil rangli quti osilib turardi. – Bugun suvni tekinga beraman. Urush boshlandi.

– Ertaga borib men ham armiyaga yozilaman. – Yigitcha qutini qoʻydi va qopqogʻini ochdi. – Qani, oling, issiqdan tomogʻingiz qurib qolmadimi?

Odamlar birin-ketin kelib, uch yuz grammlı sovuq suv quyilgan idishlarni olishar, oʻsha yerda idishning ogʻzini ochib, suvni boshlaridan quyishar, oʻsmir yigitchani duo qilishib, otasigarahmat aytardilar. Bumanzarani tashqaridan kuzatib turgan, koʻrinishidan badavlat koʻringan bir kishi oʻspirinni chaqirdi:

– Ey bola! – oʻsmir unga qaradi. – Bu yerga kelchi!

Yigitcha boʻshagan qizil qutini yelkasiga olib, unga yaqinlashdi:

– Labbay, amaki, eshitaman.

Yunus O'g'uz

Haligi kishi cho'ntagidan ellik mingtalik chiqarib, unga uzatdi:

– Ol, bu pulni. Sen hozir er kisining ishini qilding. Bugun tekinga suv tarqataman deding, haloling bo'lsin. Ol halol bo'lsin senga. Sen haqiqiy er yigitsan!

O'spirin erkakning qo'lini qaytardi:

– Amaki, siz er yigitsan deyapsiz. Men bu pulni ololmayman. Ustiga ozgina qo'shib, askarlarimizga yordam bering. Ular ko'proq yordamga muhtoj.

O'smir bu so'zlarni aytib, bo'sh qizil qutisi orqasida taraq-turuqlagancha ketdi.

Atrofdan ovozlar eshitildi:

Xudo bu bolani panohida asrasin!

– Bu jaziramada ishlab, bir nonga pul topardi, undanam bosh tortdi. Shunday o'g'lonlari bor ekan, Vatan yutqazmaydi!

Biri gap qo'shdi:

– Kambag'al mard keladi.

Chetda turgan haydovchidan biri ikkinchisiga dedi:

– O'g'lim hozir qo'ng'iroq qildi. Ota, qo'shnimizning o'g'li borib armiyaga yozilibdi, dedi. Men so'radim, ay o'g'lim, sen nima qilding? U: «Nima, mening undan nimam kam? Men ham borib ro'yxatdan o'tdim» - dedi.

Suhbatdoshi militsiya polkovnigi ularga yaqinlashayotganini ko'rib, og'zini ochib nimadir demoqchi bo'ldi.

– Polkovnik kelyapti, ko'ramiz nima deydi ekan?

Polkovnik Ichki ishlar vazirligidan olgan buyrug'ini haydovchilarga yetkazishni o'z zimmasiga olgandi. Zum o'tmay odamlar uni o'rab olishdi. Ular gapirib, noroziliklarini bildirmoqchi bo'lgandi, polkovnik qo'lini ko'tardi:

– Xaloyiq, tinchlaning! Qaror shunday. G'arbiy hududlardan tashqari viloyat raqamlariga ega barcha avtomobillarga ruxsat beriladi.

Kimdir so'radi:

– Ganja uchun ham ruxsat bormi?

Polkovnik tasdiqladi:

– Ha, bu hududdagi avtomobillarga ruxsat berilgan, jumladan Ganjaga ham.

– Ganjaning narigi tomonida yashovchilar-chi? - yana kimdir so'radi:

Polkovnik uning savoliga oydinlik kiritdi:

– Hozir kuting yoki Bokuga qayting. Ehtimol, kun botgunga qadar bu haqda yangilik bo'lar.

Yonginasida turgan bir kishi kesatiq qildi:

– Yo tavba, hayron qolaman. 2015-yilda Yevropa o'yinlari paytida tuman viloyat moshinlarni Bokuga kiritmagan-dilar. Endi esa viloyatlarga Boku raqamli moshinlarni o'tkazishmayapti. Nima, borib raqamni almashtirib kelaylikmi?

Politsiyachi orqasiga o'girilib, bu tanish ovoz kimligini bilmoqchi bo'ldi. Bu juda tanish ovozning egasi Milliy ozodlik harakatining faol a'zolaridan biri, birinchi Qorabog' urushi faxriysi, hamon ichida o'ti o'chmagan keksa Nuriddin Xo'ja edi.

Viloyat nomerli mashina haydovchilari shosha-pisha o'z ulovlariga ketishdi. Qolganlari polkovnikning yana nima deyishini kutishardi. Polkovnik Xo'jani ko'rishi bilan unga yaqinlashdi.

– Buni qara, kimni ko'rayapman mem, Nuriddin Xo'ja! - Ular qo'l berib salomlashdi. - Eh Nuriddinbey, buyragingiz peshobga to'lib, shlang bilan yursangiz. Bu yerda nima ishingiz bor?

– Qo'li bilan yoshlarga ishora qildi. - Mayli, men bu yoshlarni tushunaman. Ular vatanni, yerni himoya qilishni xohlaydilar. Sizchi? Siz zo'rg'a yursangiz. Qayga ketyapsiz?

Polkovnik nimani nazarda tutayotganini bilardi, Ozarbayjonda faollar va harbiylar orasida juda mashhur bo'lgan Nuriddin Xo'ja Birinchi Qorabog' urushida ko'p marta yaralangan, ko'p bor jarrohlik amaliyotini o'tkazgan edi.

U ko'p marta qamoqda ham yotgan. O'g'li Rashid ham harbiy xizmatchi. Yurt tuprog'ni ishg'oldan ozod qilish uchun uni yillar davomida tarbiyalab o'stirgan.

Tovuzda urush boshlanganini eshitgan zahoti quroldosh do'stlariga qo'ng'iroq qilib, "tayyor bo'lin" deb xabar beribdi. "Tovuzga boraylik, balki bizning tajribamiz askarlar uchun kerak bo'lar" - debdi.

Hech qaysi e'tiroz bildirmabdi, ishim bor, borolmayman, deb bahona ham qilmabdi. Ikki soatdan keyin kekxa askarlar to'rtta mashinada Turkiya va Ozarbayjon bayroqlari bilan Tovuzga jo'nab ketishdi.

Olotda hamma narsa oydin edi. Ichki ishlar vazirligining blok postlari yo'lni o'tib bo'lmas holga keltirgan.

Nuriddin Xo'ja yana piching qildi:

– Polkovnik, chollar urushga ham bora oladi, go'sht ham yeya oladi. Ustimizdagi unni ko'rib, bizni tegirmonchi demang. Vatan, davlat deganda qabrda bo'lsak ham chiqib kelamiz. Biz mana shunday yaratilganmiz.

Polkovnik Xo'janing gapga usta ekanligini, va'zni qoyil qilishini bilar edi. Biroz shunday gapirsa, Tovuzga ketmoqchi bo'lgan yoshlar uning atrofida to'planadi, keyin ularni boshqarish qiyinlashadi. Holatni zudlik bilan yumshatmoq kerak.

– Hoy Nuriddin og'a! Bu yoshlar tajribasiz hali, sizga nima bo'ldi?- ularning suhbatini tinglayotgan yoshlarni qo'li bilan ko'rsatdi.

– Agar urushmoqchi bo'lsangiz, chaqiruv uchastkasiga borib ro'yxatdan o'tib, armiyaga yoziling. Loyiq ko'rib chaqirsalar, boringlar, sharaf bilan jang qilinglar.

Nuriddin Xo'ja uning fikriga qo'shildi:

– Yasha! Men nima deyapman? Men ham birinchi Qorabog' urushi qatnashchisi sifatida Tovuzga ketyapman. Men bularning hammasini borib tovuzliklarga aytib beraman.

Polkovnik uning quchog'iga kirib hazil bilan dedi:

– Meni laqqilata olmaysiz ogʻa! Siz avvalo, - qoʻllari bilan yigitlarni koʻrsatdi, - ularga tushuntiring, keyin koʻramiz. Nuriddin Xoʻja qarasa, polkovnik toʻgʻri aytyapti. Bu yerda tajribali odamning soʻzlariga koʻproq ehtiyoj bor edi.

Soʻradi:

– Boshliq, megafoning bormi?

– Albatta, agar xohlasangiz, mashinadagi mikrofondan gapiring.

Xoʻja eʼtiroz bildirdi:

– Yoʻq, bu yer yaxshi. Odamlar seni koʻrishlari va senga ishonishlari kerak. Agar oyoq tagiga biror yogʻoch quti topsang, soz boʻlardi.

Polkovnik ishlar oʻrniga tushayotganidan xursand edi. Aftidan, yoshlarni qaytarish mumkin boʻladi. U tezda qoʻl ostidagi politsiya xodimiga megafon va quti topishni buyurdi. Politsiya xodimi aytilgan narsalarni zumda topib keldi.

Nuriddin esa quroldosh ogʻaynilaridan birini chaqirib dedi:

– Osif, bolalarga ayt! Hamma bir tomonda boʻlib, meni qoʻllab-quvvatlang. – Osif "bosh ustiga" dedii.

Bir daqiqa oʻtmayotq ular toʻplandi. Xoʻja quti ustida turib, megafonni ogʻziga tutdi:

– Yoshlar, men birinchi Qorabogʻ urushi qatnashchisiman, koʻp marta yaralanganman.

Ismim Nuriddin Ismoilov.

Atrofiga yigʻilganlar kutilmaganda baqirishdi:

– Qorabogʻ, Qorabogʻ, Qorabogʻ!!!

U oʻng qoʻlini koʻtarganida, atrofdagilar jim boʻlishdi. U soʻzini davom ettirdi:

– Aprel janglari shonli sahifamizga aylandi. Tovuzda ham yangi gʻolib sahifa ochishimizga ishonaman. Biz armanlarning belini sindiramiz.

Baʼzi joylardan ovozlar keldi:

– Toʻgʻri!

– Albatta!

U davom etdi:

– Aprel janglari kuchli va intizomli armiya yaratganimizni ko'rsatdi. To'qsoninchi yillarning tirik guvohi sifatida shuni aytamanki, bizning bugungi armiyamiz o'sha armiya emas. O'shanda jang qilish uchun qurol ham topolmasdik. Biz dushmanni pistirmaga tushirib o'ldirardik va qurolini olardik. Endi vaziyat butunlay boshqacha.

Rasman ham e'lon qilishdi: hozircha zaxiradagilarga ehtiyojimiz yo'q. Askarlarimiz dushmanni eplab turibdi. Agar urush cho'zilsa, biz sizni jangga yuboramiz, deb. Menimcha, bu to'g'ri qaror.

Biz armiyamizga yordam berishimiz kerak, ammo tartibsizlik va o'zboshimchalik bilan emas.

Pastdan ovozlari keldi:

– To'g'ri aytasiz!

– Biz armiyamizga yordam berishimiz kerak!

– To'g'ri!

Yoshlar yana “Qorabog'” demoqchi bo'lgan edilarki, u yana o'ng qo'lini ko'tardi:

– Agar aytganlarimga ishonsangiz boring, mashinalaringizga o'tirib, Bokuga qayting. Ertaga sahar tezda hududlaringizdagi chaqiruv uchastkasiga borib, armiyaga yoziling.

Yoshlar yana qichqirdilar:

– Qorabog'! Qorabog'! Qorabog'!

Bir necha daqiqadan so'ng to'planganlar mashinalariga o'tirib, ortga – Bokuga qaytishdi. Nuriddin esa polkovnikga yaqinlashdi:

– Qoyilmisiz, boshliq?

Polkovnik qo'llarini yon tomonga ochdi:

– Sizga boshqa gapim yo'q!

– Xo'sh, endi ketishim mumkinmi?

– Qayerda?

– Tovuzga-da!

Polkovnik qoʻllarini yana ochdi:

– Bunday qilolmayman, Nuriddin Xoʻja, hech kimni qoʻymaslik haqida buyruq olganman.

Keksa askar qizishib:

– Bu safar ijozat berasiz, boshliq. “Ruxsat-E” rahbaridan matbuot xodimi sifatida ruxsat olganman, oʻzi ham Tovuzda.

Qoʻlidagi telefonni olib, polkovnikka ekranni koʻrsatdi:

– Bunga nima deysan?

– Hech narsa, mayli, oq yoʻl! – U yonidagi politsiyachiga buyurdi: bu “Qari boʻri”ni nazorat punktidan oʻtkazib yubor.

Tovuz janglarp qizigan pallaga kirgan edi. Ikkinchi kun ediki, armanlar viloyatning Dondar, Qushchi, Agʻdam qishloqlariga tinmay oʻt ochishardi. Bunga sabab ham bor edi. Armaniston armiyasi yana avvalgi taktikasini qoʻllab, qishloqlar va tinch aholini toʻplardan oʻqqa tutardi.

Ularining maqsadlari ham aniq edi, aholi orasida vahima qoʻzgʻatish, ularni bezdirish va qochirish, keyin esa boʻsh qolgan qishloqlarga kirish. Shu tariqa bu harakatlarini kengaytirib, yangi hududlarni egallash ularning asosiy rejalaridan biri sanalardi. Har kuni otishmalar boʻlar, toʻp va minomyotlar tinmas, merganlar oʻzlariga qurbon axtarardi.

Dushmanning birinchi raqamli vazifasi Qoraqoya tepaligini egallash edi. Keyin esa bu tepalikdan foydalanib, hududlarini kengaytirish uchun tinimsiz snaryadlar yogʻdirardilar.

Hatto Armaniston Mudofaa vazirligi ham oʻz xalqini urushga ragʻbatlantirish uchun muhim strategik tepalik boʻlgan Qoraqoya oʻzlarining nazorati ostiga oʻtganligi haqida rasmiy tarzda yolgʻon maʼlumot berdi. Ozarbayjon tomoni buni rad etdi va darhol yangi operatsiyalarni boshladi.

Ozarbayjon tomoni Qoraqoya pozitsiyasida tayanch joylashuv oʻrnining, artilleriya qurilmalarining koordi-

natorlarini urushdan ilgariyoq aniqlashtirgan edi. Razvedka hatto eng kichik tafsilotlarni ham yozib olish uchun dronlardan foydalangandi.

Armanilarning tayanch punktlarida o'ttiz nafargacha askar bor edi. Ularning orqasida biroz orqada artilleriya batareyasi joylashtirilgandi. Oralarida xandaqlar qazilib, aloqalarni mustahkamlash uchun yagona boshqaruvga o'tkazilgan edilar.

Dushman kazarmalarida ruhiy holat juda baland edi. Aprel janglari ularga saboq bo'lmagan edi. Tun yarmidan o'tgandi. Tun sukunatini uzoqdan eshitilgan bo'ri va shoqollarning ovozi buzardi. Har yarim soatda dushman tomonidan otilgan to'plarining ovozi qishloqlar aholisini larzaga solib turardi.

Avvaliga chaqmoq chaqar, keyin snaryad tushgan yerda gumburlash eshitalardi. Aslida to'pchilar snaryad yerga tushganmi yoki biror binoni vayron qilinganmi, buni uning ovozdan farqlay olishardi.

Leytenant Vazgen kazarmada armiyaga endigina kelgan, snaryad, o'q ovoziga o'rganmagan, bunday ovozni eshitganda, yashirinish uchun joy qidirib qoladigan oddiy to'pchi Araratga urush sirlarini o'rgatardi:

-Ara, Ararat, hech narsadan qo'rqma! Bu gradmi, to'pmi yo boshqasimi, ularning ovozini eshitsam, snaryad qayerga tushishini bilaman.

Askar ajablanib so'radi:

– Janob leytenant, buni qanday bilasiz?

Vazgen ko'kragini kerib javob berdi:

– Ara, buning uchun iqtidor kerak. Osmonda uchayotgan snaryadlarning hushtak ovozidan qayerga tushishini bilasan. Qara, eslab qol! Bir snaryad tushgan joyga ikkinchi marta boshqasi tushmaydi.

Turklar shiddat bilan snaryad otayotganini ko'rgan zahoting, yashirinish uchun birinchi uchragan chuqurga o'zingni ur, shunda salomat qolasan. Ko'nikib ketasan hali.

Aks holda, bu kazarma seni qutqara olmaydi.

Askar yana soʻradi:

– Urushda hech qatnashganmisiz?

Bu vaqtda boshqa arman askarlari ularning suhbatini tinglash uchun atrofga toʻplanishdi.

– Yoʻq, koʻrmayapsanmi leytenantman-ku? Sendan atigi toʻrt yosh kattaman xolos. Lekin men baʼzi qoʻporuvchilik operatsiyalarida qatnashganman. Otam birinchi Qorabogʻ urushi faxriysi. Urushdan qancha pul olib kelganini bilasanmi? Shu pulga Xonkendida uy qurdik, mashina oldik.

Askarlardan biri hayron boʻlib soʻradi:

– Janob leytenant, urushdan koʻp pul topish mumkinmi?

Vazgen oʻgirilib, savol bergan askarga qaradi:

– Ara, agar landavur boʻlmasang boʻladi. Biz armanlar Buyuk Armanistonni yaratish uchun hamma narsadan, hatto urushdan ham pul ishlashimiz kerak. Lekin joningni saqlab qolishga harakat qil. Sen oʻlishing bilanoq hamma narsa tugaydi.

Bu safar Vahan ismli bir askar soʻradi:

– Otangiz pulni qanday topgan?

Leytenant askarlarga qaradi, ularni sinchiklab koʻzdan kechirdi, hatto ularga rahmi ham keldi.

– Bu harbiy sir, lekin urush boshlangani uchun buni ayta olaman, - ularga masalani silliq tushuntirishga harakat qildi.

– Demak, otam Fuzulini, yaʼni tuman markazini oldi. Koʻchalar, fabrikalar, zavodlar askarlar oʻrtasida taqsimlandi. Bu tuman markazi juda boy shahar edi, deyardi otam. Ikki qavatli uylar, doʻkonlar, boshqa yana nima-nimalar. Hamma nima boʻlsa buzib sotdi, hatto uylarning toshlarini ham.

– Kimga sotdingiz? - kimdir savol berdi.

Vazgen jilmayib javob berdi:

– Ara, sotiladigan narsa boʻlsa, har doim xaridor topiladi. Erondan mashinalar kelib, yigʻib olib ketardi. Ular hamma narsani sotib olishardi. Otam shu tariqa katta pul ishlab

topgan. U menga urush hali tugamagan, askar bo'l, turklardan yana yerlarni tortib oladigan vaqt keladi, dedi. Shu sababli men bu yerdaman.

Komandiri gapirar ekan, Araratning qo'rquvi yo'qolib borardi. Ko'zlaridagi hayajon ochko'zlikga aylanib, tobora kuchayib borardi.

Bu safar u xotirjam savol berdi:

- Janob leytenant! Ya'ni bizda ham pul ishlash imkoniyati bo'ladi deyapsizmi?

Vazgen cho'ntagidan bir quti "Ararat" sigaretini chiqarib labiga qondirdi, so'ng askarlariga ham uzatdi. Uchtasi oldi. U sigaretani yoqib, tutunini ichiga yutdi, so'ng uni havoga puflar ekan dedi:

- Ara, urush boshlanganidan xursand bo'l. Qara, – Tovuz tarafdagi qishloqlarga ishora qildi, – o'sha qishloqlarni talon-taroj qilamiz. Aholisi chiqib ketmagani uchun ovimiz baroridan kelishi aniq.

Askarlardan biri go'yo Tovuz qishloqlarini allaqachon talon-taroj qilgan, cho'ntagida bir dasta dollar bor deb o'zini tasavvur etdi. Umid bilan dedi:

-Yaxshiyam bularning hammasini bizga aytdingiz, janob leytenant! Pulni olishim bilan sevgan qizimga sirg'a va ko'ylak olaman. Ara, bilasanmi ular qanday nochorlikda yashashadi? Qizning otasi o'zaro otishmada halok bo'lgan. Onasi esa Yerevandagi idoralardan birida xizmatkor bo'lib ishlaydi. U ikki bolani boqa olmaydi.

- Qizning surati bormi? - Vahan do'stlariga ko'z qisib so'radi:

Askar qo'lini ichki cho'ntagiga solib, buklangan rasmni chiqarib, unga uzatdi:

- Ha, bor. Armiyaga borishdan bir necha kun oldin birga suratga tushgandik.

Rasm qo'ldan-qo'lga o'tdi. Buni ko'rib, hatto ulardan birining og'zidan suvi keldi:

-Yaxshi, -dedi u, -lekin kiyimi juldur ekan.

Oxir-oqibat surat egasiga qaytarildi. U yana sevgilisining suratiga qaradi va rasmni choʻntagiga solib dedi:

- Koʻrdinglarmi, qanchalik goʻzal-a? Shunaqa goʻzal qizning qashshoqlikda yashashi mumkinmi? - dedi u komandiriga. - Komandir, turklar rostdan ham qoʻrqoqmi?

Komandir uni ruhlantirdi:

- Ara, ular juda qoʻrqoq. Arman degan nomni eshitishlari bilan sholvorini hoʻllab qoʻyishiga sal qoladi. Qishloqqa bir-ikkita snaryad tashlab, tongda qarasang, odamlar oʻz narsalarini olib ketishgan boʻladi. Qishloqqa urushsiz kira olasan. Chop, tala, gʻorot qil. Xohlaganingni ol. Otam shunday der edilar.

Biroz tajribali, es-hushi joyida askarlardan biri kinoya aralash soʻradi:

- Unda nega hozir qochishmayapti komandir?

Aftidan, Vazgenga qiyin savol berilgandi. Toʻgʻrisi, u javobni bilmas edi.

Chegaradagi qishloqlarga snaryad yogʻdirayotganiga bir kundan koʻproq vaqt oʻtdi, biroq aholi qochib ketganidan xabar yoʻq edi. Aksincha, chegaraga yaqin arman qishloqlari boʻshatilgan edi.

Buni odamlarnig xavfsizligi bilan bogʻliq deb tushuntirishdi. Lekin savolga javob berish kerak edi, aks holda ishonchsizlik paydo boʻlardi, ertaga “hujum” desa, askarlar orqaga yugurib qochib ketishlari mumkin edi.

Egilib pishirlagancha javob berdi:

- Bu harbiy sir, lekin men senga aytishim mumkin. Turklar har bir qishloqning chiqish joyiga qurolli odam qoʻygan, ketmoqchi boʻlganlarni hatto oʻqqa tutishdan ham toymaydilar.

Savol beruvchi yana piching qildi:

- Turklar jazo batalyonini tuzib, oʻzlarinikini otadimi?

Vazgen uning kinoyasini tushungan boʻlsa-da, parvo qilmadi. Bu asosiy narsa emas edi, asosiysi oʻz askarlarini dushmani qoʻrqoq ekanligiga ishontirish edi. Shuning

uchun e'tiborsizgina javob berdi:

- Ha, shunga o'xshagan narsa. Endi qishloqlarda yashovchi turklar nochor ahvolda qoldi. Ularni qishloqda qolsalar biz, qochsalar esa o'zlariniki o'ldiradilar. Ular arosatda qolishgan.

Gaplariga boqsang, xuddi vatanpar deysan. Ha-ha, ularni bu yerda zo'rlik bilan ushlab turishganini butun dunyo bilmaydi. Sir oshkor bo'lmasin deb bu qishloqlarga jurnalistlar kiritilmaydi, aks holda Bokudagi turklar bosh ko'tarib, o'z prezidentiga qarshi namoyishga chiqadilar.

Yana o'sha askar savol berdi:

- Komandir, qishloqqa bir necha raketa, snaryad otsak, sahar turib ko'ramizki, qishloqda birorta ham odam qolmaydi, deb aytyapsiz. Ularning hammasi qochib ketadi, shundaymi?

Vazgen uning kinoyali savollaridan bora-bora beza boshladi. Bu savollar ko'p masalalardan bexabar bo'lgani uchun uni burchakka taqayotgan edi. U biroz asabiy tarzda javob berdi:

- Ara, namuncha savol beravermasang? Komandiringga ishonmaysanmi yoki? Agar shunday deyayotgan bo'lsam, demak, shunday. - Uning gaplari askarlarni yosh bolani aldagandek mahliyo qilib qo'ygani o'zining xayoliga ham kelmagandi. Endi ularning hammasi pul ishlash haqida o'ylashadi. - Albatta, snaryad otsak, qochib ketishadi, ko'p chidamaydilar.

Bunda Vahan barchani chorlar:

- Komandir, keling tekshiramiz. Buyruq bering Ag'damga bir-ikki snaryad otishsin. Ertaga kutamiz va qishloqda nima bo'layotganini kuzatamiz.

Askarlar Vahanni har yoqdan qo'llab-quvvatladilar:

- Komandir, tekshirib ko'raylik.
- Janob leytenant, jasorat toping!
- Komandir, bizni ishontiring.

Vazgen qarasa, uni siquvga olishyapti. Ularga hozir

yo'q desa, nazardan qoladi, hurmati yo'qoladi, o'rada ishonchsizlik paydo bo'ladi.

-Yaxshi, - dedi u, - men buyruq beraman, qishloqqa bir-ikkita snaryad tashlashadi, ertaga nima bo'lishini ko'ramizmi? - Aslida urush paytida bir-ikkita to'p otgani uchun hech kim uni so'roq-savolga tutmasdi.

Aytaylik, snaryad otildi, ertaga durbin bilan qarasalar, qishloqdan hech kim chiqmagan. Bunga javob oddiy bo'ladi. Askarlarga, - ko'rdingizmi mening aytganim bo'ldi, jazo bataloni hech kimga qishloqdan chiqishga ruxsat bermadi - deydi.

Jazo bataloni hech kimga qishloqdan chiqishga ruxsat bermaydi. Shuning uchun u to'liq ishonch bilan dala telefoniga yaqinlashib, dastakni ko'tardi. Narigi tomondan ovoz eshitilgach, dedi: — Ara, Qabik, men askarlarimga bu turklar qo'rqq, bir to'p o'qiga qochib ketadilar desam, ishonmay turishibdi. Ag'damga ikkita snaryad oting.

Chamasi, bu Qabik deyilmish Qabriel sarxush edi. Bir miqdor tut aroq uni mard qilib qo'ygan edi. Tili galdirab dedi:

- Komandir, bu turklar bor-ku, sichqondek qo'rqq. Ular bozor-do'konida mard keladi. Biz bilan urush bo'lishini eshitishlari bilanoq g'oyib bo'lishadi. - Bir muddat jim turgandan keyin qo'shib qo'ydi. - Komandir, ikkita snaryad otishim kerakmi?

Vazgen ikkilanmasdan buyurdi:

- Ot.

- Ho'p bo'ladi!

Askarlar ko'p o'tmay to'pning gumburlashi va ikkita snaryadning boshlari ustidan uchib Ag'dam qishlog'ida potrlagani ovozini eshitdilar.

Hamma xursandchilik bilan qichqirdi:

-Urta...urra...urra...

Ularning quvonchi atigi besh daqiqa davom etdi.

Yunus O'g'uz

Besh daqiqadan so'ng Ozarbayjon qo'shinlarining og'ir qurollardan aniq nishonga urishi bilan dushmanning tayanch punkti, artilleriya uskunalari, transport vositalari va jonli kuchi yo'q qilindi. Ular otilgan snaryaddan ertasi saharda qishloqda odam qolgan-qolmaganini ko'ra olmadilar.

Va hamma narsa aksiga sodir bo'ldi. Ag'dam qishlog'iga otilgan o'sha ikki snaryad hammasini o'zgartirib yubordi. Ikki snaryaddan biri Tovuz oqsoqoli hisoblangan bir kishining hovlisiga tushdi.

Oqsoqol baxti qarolikdanmi, balki iqboldan bo'libmi kechasi hovlida yurardi. Snaryad tushganda, u nima bo'layotganini anglab etmay, yonidagi portlashni hisn qildi. Uyning oynalari chil-chil sindi.

Oqsoqol vasiyat qilishga ham ulgurmadi. U o'ttiz yil avval qo'lida qurol bilan bir qishloq muhofazasiga otlangan, qishloq chetida xandaq qazib, dushmanni bir qadam ham olg'a siljitmagan edi.

Uning qat'iyati, irodasi, tashkilotchiligi tezda butun Tovuzga, u yerdan Bokuga yetib borgandi. Shu bois tumanda hamma uni "Oqsoqol" deb chaqirardi. Birinchi Qorabog' urushidan tan jarohatisiz, hatto bir joyi tirnalmagan holda chiqqan Oqsoqolning tasodifiy snaryad portlashi oqibatida halok bo'lishi barcha Tovuzliklarni qayg'uga soldi.

Hovlida snaryad portlashidan so'ng, uydagi tebranish va silkinishlarga qaramay, o'g'li darhol hovliga yugurdi. Otasi sal avval "siqilib ketdim, biroz aylanib kelaman" deb hovliga chiqqanini bilardi. Bu yerda o'lim uni o'ziga tortdi.

Erta tongdan yozning jazirama quyoshi Tovuzning o'rmoni, tog'i, tekisligini yondirganda, viloyat ahli oyoqqa turgan edi. Hamma bir-biri bilan telefonda bu qayg'uli xabarni g'azablanib bo'lishardi.

- Armanlar oqsoqolni o'ldirishdi.

- Oqsoqol Ag'damda vafot etdi.

- Qanday qilib o'ldirishdi?

- Qachon dafn etiladi?

- Uning jasadi bizdami?

- Mashaalloh, yetmish olti yoshga to'lganiga qaramay, yana ona yurt uchun kurashmoqchi bo'ldi, peshonasiga shahidlik maqomi yozilgan ekan.

- E, ertaga oqsoqolni izzat-ikrom bilan dafn qilish lozim.

- Dafn marosimi qachon?

- Hamma Ag'damga ketayotganga o'xshardi...

Shunday qilib, hamma bir-biriga xabar berdi. Tong otguncha tuman markazi va uning atrofidagi qishloqlardan yuzlab mashina urush ketayotgan hududga, chegaradosh Ag'dam qishlog'iga jo'nab ketdi.

Birozdan keyin qishloqning tuproqli yo'lida mashinalar ko'rinmay qoldi.

Asosan yoshlardan iborat bu avtomobil karvonini to'xtatib bo'lmasdi. Bayroqlarni olib, yo'lga chiqqan bu odamlar shu qadar g'azabnok edilarki, hatto Yerevanga piyoda borishga ham tayyor edilar.

O'tib bo'lmas izdihom paydo bo'lganini ko'rgan odamlar bayroqlarini olib, mashinadan tushhdilar. Ular endi musibatli odamlarga o'xshamasdi, jang qilmoqni istashardi.

Tovuzdan Ag'dam qishlog'iga odamlar sel kabi oqib kelardi. Odamlar boshlari uzra Ozarbayjon, Turkiya va Pokiston bayroqlarini boshlari uzra ko'tarib olishgandi. Tovuz viloyati bo'lishiga qaramay, Qorabog' haqidagi shiorlar bir lahzaga ham to'xtamadi.

Xalqaro va mahalliy matbuot ham bu yurishda ishtirok etardi. Darhaqiqat, odamlar o'ttiz yildan ortiq davom etgan urush va keskinlikdan charchagan edi. Ularning qo'llarida qurollari yo'q edi, lekin bu ishtiyoq va QALQISH bilan har qanday dushmanga qarshi tura oladiganlar jangga shay edilar.

- Qorabog', Qorabog', Qorabog'...
- Qorabog' Ozarbayjondir!
- Shahidlar o'lmaydi, Vatan bo'linmaydi!
- Yo g'oziy, yo shahid bo'l!

Havo issiq, ko'zlar qaynar, qarashlar g'azabga to'la... Biroq bu odamlar hali kuzning iliq kelishini bilmasdilar.

Janglarning ilk kunidanoq Tovuzda bo'lgan deputat G'anira Pashayeva Ag'dam qishlog'iga ham birinchilardan bo'lib yetib keldi.

Bu xonim deputat bo'lishdan oldin ham juda faol edi. Turkiyadan tortib Turkistonga qadar taniqli edi. U o'zining ishi, mehnatsevarligi bilan el-yurt muhabbatiga sazovor bo'lgan edi. Saylovchilarining har birini tanir, qo'lidan kelgan yordam va ko'magini ko'rsatgandi.

Hovlida qator stullar qo'yilgan edi. Qishloq ahli hech qachon bunday izdihomli dafn marosimini ko'rmagan edi. Taziyaga kelganlar soni qishloq jamoasidan ko'p edi. Orada uzoqdan to'plarning gumburlagan sadosi eshitilar, hushtak chalib uchgan snaryadlarning bu ovozidan ularning qayerga tushganini bilish mumkin edi.

Oqsoqolning o'g'li G'anira xonimni va uni yordamchisi Ilg'orni darvoza oldida kutib oldi. U uyga kirmadi, to'g'ri jamoat tarafga kirdi. Hamma bilan salomlashib, hamdardlik bildirdi.

- Alloh rahmat qilsin! - Garchi charchagan bo'lsa-da, ovozida nekbinlik bor edi. Xalq uni yaxshi ahvol-ruhiyada ko'rmasa, turli xayolga borishi mumkin, deb o'ylardi. Hozircha jang kichik hududda kechmoqda, ammo u istalgan vaqtda urushga aylanib ketishi mumkin edi. Keyin ko'proq ishlash kerak bo'ladi.

Mulla Fotiha surasini o'qidi. Marhumga Allohdan qayta-qayta rahmat so'raldi. Shunda o'tirganlardan biri deputatga savol berdi:

-G'anira xonim, agar davlat ruxsat bersa, Xudo haqqi biz bu armanlar ustiga hujum qilardik. Odamlar bunga tayyor.

Biz ulardan toʻydik. Xuddi kinoda aytganlaridek: “Biz ularning nozi bilan koʻp oʻynashyapmiz”. Bu yana qancha choʻziladi? Ular maydonda urusholmaydi. Qishloqlarga oʻt ochib, tinch aholini oʻqqa tutyapti xolos.

Deputat qoshlarini chimirdi.

- Bunday fikrlarni boshigizdan chiqarib yuboring, hatto bu haqda oʻylash ham notoʻgʻri. Bu nima degani? Qurolsiz nega boramiz? Bugungi kunda Ozarbayjon armiyasi dunyodagi eng qudratli ellikta armiya qatoriga kiradi. - Oʻrtaga choy olib kelishdi.

Hamma jim edi, agar pashsha uchsa, qanot qoqishi eshitilardi. Choydan bir qultum ichdi. - Toʻgʻri aytdingiz, qishloqqa oʻq otilmoqda. Ular xotinlar va bolalar bilan urushadilar. Haliyam toʻqsoninchi yillar deb oʻylashyapti. U kunlar oʻtib ketdi. Endi bizda yengilmas armiya bor.

- U savol bergan odamga diqqat bilan qaradi. - Xavotir olmang, oz qoldi, juda oz qoldi. Biz ularga shunday saboq beramizki, bir umr eslarida qoladi.

Bugun Turkiya va Pokiston kabi ittifoqchilarimiz bor. Biz endi yolgʻiz emasmiz. Armanlarning maqsadlarini bilasiz. Ularning mudofaa vaziri bir necha oy oldin chiqib: “Yangi urush – yangi hududlar” demaganmidi.

Tovuzda urush boshlanishining sabablaridan biri ham shu. Ularning maqsadi Rossiyani bu urushga jalb qilish. Ular Kreml orqasiga yashirinib, niyatlarini amalga oshirmoqchi.

Kimdir soʻradi:

- Nima uchun bu urush Tovuzda boshlandi?

-Mantiqli savol. – Deputat xonim tomoq qirib qoʻydi. Sovutilgan choydan bir hoʻpladi. Choy tutuvchi darhol uning stakanini yangiladi. U bugʻlanib turgan choyga qarab gapirdi.

- Birinchidan, bu yer Qorabogʻ hududi emas. Agar u yerda urush boshlansa, KXShT aralasha olmaydi, chunki bu Ozarbayjonning ichki ishi. Bu yerda armiyamiz chegarani kesib oʻtsa, Yerevan yordam soʻraydi. Armanlar hamisha

ruslarning orqasiga yashirinishini hamma biladi.

Ikkinchidan, g'arbdagi strategik yo'nalishlarning hammasi Tovuzdan o'tadi. Bu chiziqlarni nazorat ostida ushlab turish bilan ular Qorabog'dagi tinchlik bitimini bir marta o'z foydalariga hal qilishga harakat qiladilar, bu esa uchinchisi.

Yana kimdir so'radi:

-Prezidentimiz bu borada qanday fikrda?

-Prezidentimizning pozitsiyasi anchadan beri ma'lum. Bir qarich yer ham dushmanga berilmaydi. U buni hamma joyda aytadi. Agar urushni xohlasa, armanilarga buni tortiq qilamiz. Ammo buni oqilona qilmoq kerak.

Paytni kutish, paytni tanlash qobiliyatini egallash kerak. Xalq urushga tashnaligini ham bilaman. Hozirgi avlod bu urushni hammadan ko'ra ko'proq xohlaydi.

Kimdir baland ovozda dedi:

-Biz Tovuz jamoasi sifatida Prezidentimiz bilan birgamiz, uni qo'llab-quvvatlaymiz. Bu so'zlarni Ilhom Aliyevga albatta yetkazing. Ishonchim komilki, u bu haqda nima qaror qilsa, biz rozi bo'lib qo'l ko'taramiz va nima desa, unga ergashamiz.

Olomondan ovozlari eshitildi:

- To'g'ri aytdi, shunday bo'ladi.

G'anira xonim o'tirganlarga minnatdorchilik bildirdi:

-Katta rahmat! Men bunga bir soniya ham shubha qilmayman. Ammo buning tartib-nizomi bor.

Men keksalarni aytmayapman, lekin yoshlar safarbarlik uchun chaqiruv punktlariga borishi, armiyaga yozilishi, hukumat nima desa, shuni qilishi kerak. Harbiy bilimingiz va kuchingiz behuda ketmasligi kerak.

Uning yonida o'tirgan bir chol e'tiroz bildirdi:

- Nega biz keksalar urushga bormaymiz? To'qsoninchi yillardan beri tajribamiz bor. Shaxsan men urushga borishga tayyorman.

Deputat bu kishining vatanparvarona, umidlivor

soʻzlaridan qanoatlansa-da, biroz eʼtiroz bildirdi:

-Oqsoqol, - dedi u, - aytganingizdek, hozir koʻplaringizda toʻqsoninchi yillar tajribasi bor. Chegara hududi bugun xavfsiz joy emas.

Xudo koʻrsatmasin, dushman bizni tepadan,-qoʻlini togʻlarga tomon choʻzdi, – togʻlardan bizni kuzatadi. Turgan joyimizga bir-ikkita snaryad tashlasa nima boʻladi? Bu juda yomon boʻladi. Bu bir qancha yoshlarimizni urushmay shahid qilamiz degani.

Shuning uchun hammasini harbiy mashgʻulotlar doirasida hal qilish, jamiyatda temir qonunga rioya qilish kerak, aks holda biz nafaqat urushda, balki hech bir jangda ham gʻalaba qozona olmaymiz.

Xalqdan yana ovozlari keldi:

- Toʻgʻri aytyapti.

- Xalq oʻzi bir armiya boʻlishi kerak!

- Yoshlarimizni Alloh oʻz panohida asrasin!

- Omin!

Shu payt Gʻanira xonimning telefoni jiringladi. Xonim yordamchisiga telefonga javob berish uchun ishora qildi. Yordamchi telefon ekraniga qaradi va ohista dedi:

- Gʻanira xonim Bokudan qilishyapti.

Deputat telefonni olib, tugmani bosdi:

-Ha, opa, rahmat, hammasi yaxshi. - Chamasi, qoʻngʻiroq qilgan vaziyat haqida surishtirdi. Darhaqiqat, eng koʻp bezovta boʻlayotgan Boku edi. - Ha, biz oqsoqol taʼziyasidamiz. Yoʻq, aholimiz jangovor kayfiyatda. Men hozir koʻp gapira olmayman. Tovuzga qaytaman, sizga telefon qilaman. Xayr.

U telefonuni yopdi. Deputatning eʼtiborini bir holat tortdi. Tovuz janglari boshlanganidan beri hech kim shaxsiy savollari bilan chiqmadi. Bu uni gʻururlantirdi. Urush xalqimizning shaxsiy muammolarini ikkinchi oʻringa qoʻydi, deb oʻyladi. Demak, eng avvalo Vatan va Davlat.

Bu odamlar bilan gʻalabaga ham hatto oʻlinga borish

Yunus O'g'uz

mumkin. U odamlarga o'z hislarini ifoda qilmoqchi bo'ldi, keyin fikridan qaytdi. Buning o'rniga u:

- Bu yerda men tushuntirib bera olmaydigan narsalar bor. Lekin bir narsaga ishonch hosil qiling. Davlatimiz, uning Oliy Bosh qo'mondoni dushmanning Qorabog'da ham, chegaralarimizda ham bir metr oldinga siljishiga yo'l qo'ymaydi.

Bunga ishonchingiz komil bo'lsin. Hozirgina oqsoqolimiz "Xalqning o'zi armiya bo'lsin", degan ma'qul gapni aytdi. Umid qilamanki, shunday bo'ladi.

- Alloh panohida asrasin!

- G'anira xonim! Tovuz xalqi siz bilan faxrlanadi. Allohim Prezidentimiz ham boshimizga omon bo'lsin!

G'anira xonim olomonga qaradi va yordamchisiga dedi:

- Ilg'orbey, ketish vaqti keldi. Tovuzda bizni kutayotganlar bor. U yerda yoshlar bilan uchrashish kerak. - U aholiga yuzlandi. - Endi, ruxsat bersangiz biz boraylik.

- Yonida o'tirgan oqsoqolning o'g'liga murojaat qildi. - Uka, Olloh rahmatiga olsin! Boshqa qayg'u ko'rmang!

Xonim o'rnidan turdi. Hurmat ko'rsatib jamoat ham oyoqqa qalqdi. Ko'chaga chiqib ketayotganlarida, tovuzlik faol ayollardan biri, o'zi doim "opa" deb murojaat qiladigan ayol hovli chetida turganini ko'rdi. U xursand bo'lib uning oldiga yurdi:

-Opajon, yaxshimisiz? - Quchoqlashdilar.

Ayol horg'in tarzda javob berdi:

-Qanday kunlarda qoldik, og'zi qonsiragan qonxo'rlar biz bilan qanaqa o'yin qilayotganini ko'ryapsiz-ku?

G'anira Poshshayeva uni ovutdi:

-Toriqmang, opa! Yomon kunning umri qisqa. Biz o'sha qonxo'rlarga o'rnini ko'rsatib qo'yamiz.

G'anira xonim ayolning qo'lini olib, gaplashib bo'lgach, bog'ning ichiga qarab odimladi. Shunda Qoraqoya tepaligidan o'q ovozlari eshitildi.

To'plar momaqalldiroqdek gumburlab, chaqnab, yer-

u koʻkda snaryadlar ucha boshladi. Qayerga bormasin, dushman snaryad yogʻdirardi. Asosan tinch aholi ustiga bu snaryadlarni otmoqda edi.

Maqsad ham aniq edi. Aholini bezdirib, qishloqlardan chiqarsinlar. Lekin xalq qarshilik koʻrsatardi. Hech kim yashagan joyini tark etishni xohlasdi, chunki qoʻshinlarining kuchiga amin edilar.

Shunda uncha uzoq boʻlmagan bogʻning narigi chekkasida snaryad portladi. Snaryad portlashi bilan uning parchalari osmonda uchardi.

Odamlar xavotir bilan atrofga boqdi, ammo qoʻrqmadi. Chegara hududlaridagi qishloqlarda yashovchi aholi bunday vaziyatga oʻrganib qolgandi. Urush boʻlmagan paytlarda ham armanlar yil boʻyi qishloq va dalalarni oʻqqa tutardilar.

Shunga qaramay, har bir kishi doimo oʻz ishida va kuchida edi. Snaryad parchalaridan biri Gʻanira xonimning oʻng qoʻlini siyirib oʻtdi va daraxtga borib urildi. U muvozanatni yoʻqotdi. "Ay" dedi-da, oʻng tomoni bilan yerga yiqildi. Qishloq oyoqqa turdi. Ovozlar borgan sari kuchaydi.

- Gʻanira xonimni jarohatlashdi!

- Eh, Gʻanira yaralandi!

- Voh, uyung kuysin bu snaryadni otmay!

Ilgʻor xonimning oldiga yugurdi:

- Gʻanira xonim, Gʻanira xonim! - deb baqirdi u. Odamlar uning orqasidan bogʻ ichiga yugurdi. U hushini yoʻqotmagan edi. Boshining ustida boyagi ayol dod-voy solardi. Snaryad parchasi qayeriga tegganini hali oʻzi ham bilmasdi.

Qoʻlida ogʻriq sezdi. Oʻyladi: "Demak, qoʻrqmasa ham boʻladi". Bu yerdagi arslondek yigitlarni ruhan mavh etib boʻlmaydi, vahima qoʻzgʻatish ham joiz emas. Turmoq kerak, Gʻanira, turmoq! Kuchli boʻl! Bitta jon nima boʻlibdi? Davlatimga, Vatanimga borim fido!"

Chap qoʻli bilan yerga tayanib qimirladi. Atrofdan ovozlari eshitildi:

- Sogʻ ekan!

Yunus O'g'uz

- Allohga shukr, u tirik! Haligina men unga biror narsa bo'lmasin, qurbonlik qilaman, deb yuragimga tugib qo'ygandim. - Ikki qo'lini ko'tarib duo qildi, - Ollohim, yuragimdagi iltijolarni eshitding.

Yordamchi uning qo'lidan tutib ko'tarmoqchi bo'ldi, deputat qattiq e'tiroz bildirdi:

- Katta rahmat, Ilg'or! O'zim, - og'riqning zo'riga qaramay, o'zida kuch topdi. - O'zim turaman.

U ichki zo'riqishini yengib hech narsa bo'lmagandek o'rnidan turdi va hatto jilmayib ham qo'ydi:

"Ey jamoat, tinchlaning", dedi u. - Shovqin qilmang. Hech narsa bo'lmadi. Cnaryad parchasi qo'limning terisini shilib o'tdi xolos. Bizni bunday to'satdan sodir bo'luvchi hujumlar bilan qo'rqitib bo'lmaydi. Birimiz o'lsak, mingimiz tirikmiz.

Odamlar xursandchilikdan ko'zlarda yosh bilan qarsak chalishdi. Hatto bir kishi G'anira xonimning qo'liga tekkan o'q parchasini qidira boshladi, lekin topa olmadi.

Boshqa qishloqlardan bu yerga oqib kelgan yurishchilar ortidan ikkita tez yordam mashinasi keldi. Shifokorlardan biri hamshira bilan darhol xalq deputatining oldiga yugurdi.

Atrofdan yana ovozlari eshitildi:

- Ey, shifokorga yo'l bering, yo'l bering.

Aholi "shifokor" degan so'zni eshitishi bilan o'ngga, chapga o'tib, o'rtada yo'lak hosil qildi. Shifokor uning yaralangan qo'lini ko'rib so'radi:

- O'zingizni qanday his qilyapsiz, G'anira xonim?!

Kimdir darrov hovlidan bir stul olib keldi. Xonim stulga o'tirdi va shifokorga javob berdi:

- Ha, yaxshiman.

Doktor uning qo'lidagi yarani dorili suv bilan yuvib, bog'lab qo'ydi. Keyin u to'planganlarga ishonch bilan dedi:

- Xotirjam bo'ling, qo'rqinchli narsa yo'q, endi tarqalingiz...

Bu xabar Bokuga yetib borgach, shahar larzaga keldi. Haqiqatni yolg'on xabar bilan qorishtirib, ijtimoiy

So‘qmoq
tarmoqlar, saytlar tarqatdilar. Oxir-oqibat, yolg‘on xabarlar rost xabarlarini bosib ketdi. Ayrim saytlar G‘anira xonimga o‘q tegib o‘lgani haqida ham yozdi.

Bunga zudlik bilan chek qo‘yish kerak edi. Qo‘yildi ham. Bu gap-so‘zlarga uzil-kesil chek qo‘yish uchun deputat xonim qo‘li bog‘langan holda televizorga chiqib bayonot berdi, hammani tinchlantirdi, odamlar yengil nafas oldi.

Bu buyuk yo‘lga olib boradigan so‘qmoqning boshlanishi edi. Bu yo‘lda hali ko‘p qon to‘kiladi, qancha mardlar shahid bo‘ladi.

Urushning uchinchi kuni davom etardi. Bu urushning holati ham o‘zgardi. Endi jonli kuchlarning to‘qnashuvi yo‘q edi. Kuchlar bir-biriga asosan artilleriya, raketa va dronlardan zarba berihar edi.

To‘rt kishi shahid bo‘ldi. 14-iyul kuni ertalab Tovuz viloyati yo‘nalishida bo‘lib o‘tgan janglarda Ozarbayjon Qurolli kuchlarining yetti nafar harbiy xizmatchisi, jumladan, olti nafar zobiti halok bo‘ldi. Ushbu qayg‘uli voqea yuzasidan o‘sha kuni soat 13:00 da Mudofaa vaziri o‘rinbosari Karim Valiyev jonli efirda bayonot berdi:

“Bugun ertalabki jangda general-mayor Hoshimov Po‘lat oldingi marrada qahramonlarcha shahid bo‘ldi. U bilan birga polkovnik Mirzayev Ilg‘or ham halok bo‘ldi.

Bu generallarimiz, oliy martabali zobitlarimiz askar ortiga yashirinmay, o‘z oldiga qo‘yilgan jangovar vazifalarni munosib ado etayotganidan dalolatdir. Afsuski, janglar yo‘qotishlarsiz bo‘lmaydi.

Mudofaa vazirligi rahbariyati nomidan shahidlarimizga Allohdan rahmat, oila a‘zolariga sabr-toqat tilaymiz. Yarador do‘stlarimizga shifo so‘raymiz. Men sizni ishontirib aytamanki, shahidlarimiz va yaradorlarimizning qoni behuda ketmaydi”.

Polad Hoshimov qo‘l ostidagi jangchilar bilan birga

jangda shahid bo'ldi.

O'shanda u bilan birga bo'lgan polkovnik Ilg'or Mirzayev, mayor Anar Novruzov, mayor Namiq Ahmadov, leytenant Ilg'or Zeynalli, leytenant Yashar Babayev va askar Elchin Mustafozoda haq huzuriga rihlat qildilar...

Qorabog' tog'lari etagida havo juda sovuq edi. Mart oyining o'rtalarida bunday sovuqlar bo'lmaganiga ancha vaqt bo'lgandi. Ba'zan qor yog'ar, kechasi esa muzlab, hatto harakatlanishning ham imkoni bo'lmasdi. Navro'z bayramiga sanoqli kunlar, aprel janglariga esa ikki hafta qolgandi.

Askarlarga oilalaridan jo'natmalar kelar, ular uydan jo'natilgan rizq-nasibalarni yo'ldoshlari bilan baham ko'rishar, ba'zi oziq-ovqat, shamlarni esa bayram kuniga qadar saqlab qo'yishardi.

Oilalardan issiq kiyimlar ham jo'natilar edi. Jun paypoqlar, belni issiq saqlaydigan belbog'lar odatda ko'proq yuborilardi. Birinchi Qorabog' urushida polkovnik Hoshimov ham qatnashgan, Murovdagi "Ko'zgu" va "Umar" operatsiyalarining faol ishtirokchisi bo'lgandi.

Onasi Semayening o'g'lining huquqshunos bo'lishi istagiga qarshi harbiylik san'atini tanladi va u bunga bir umr bog'lanib o'tdi. Faoliyati davomida doimo oldingi marrada xizmat qildi. Shuning uchun u o'zini hech qachon askarlardan ayirmas, ba'zan ular bilan birga okopda ham yotardi.

U hamisha qo'l ostidagi zobitlarga ham askarlarni bir lahza bo'lsin e'tiborsiz qoldirmaslikni buyurardi. Zotan, zobitlar bunga amal qilar, ularga qayg'urib munosabatda bo'lishardi. Shuning uchun askarlar zobitlarni otasidek ko'rar, xizmatni tugatgandan keyin ham ular bilan aloqani uzmasdilar.

...Oʻsha kuni askarlar koʻp joʻnatma olishganidan xursand edilar. Faqat bir necha kishidan tashqari.

Polkovnik Hoshimov chodirdan chiqib, sovuq havodan nafas oldi. Avvaliga bir-ikki sport harakatlarini qildi. U bugungi bayram chorshanbasini hamma xursandchilik bilan kutib olishini istardi.

U uydan yoki boshqa joydan hech qachon joʻnatma yoki xat-xabar olmaydigan bir qancha askarlar borligini bilar edi. Bunga sabab askarning internatda oʻsgani yoki juda kambagʻal oiladan boʻlgani edi. U buning ham yoʻlini topdi.

Agar harbiy qismda shundaylar boʻlsa, har bir zobit ulardan birini otaliqqa olsin deb koʻrsatma berdi. Bu ham juda yaxshi samara berdi. Oʻzi ham ulardan birini oʻz himoyasiga oldi. Chodirdagi navbatchi askarga joʻnatmani stol ustida olib kelishni buyurdi. Askar darrov keltirdi.

-Janob polkovnik, qayerga lozim boʻlsa, men bu joʻnatmani olib borib beraman, - navbatchi unga murojaat qildi.

Polkovnik eʼtiroz qildi:

-Yoʻq, Jafarov, bu shunday joʻnatmaki, uni oʻzim eltib berishim kerak. Qani uzat-chi.

U joʻnatmani olib, koʻchma oshxona tomon yurdi. U oddiy askar Odilovning bugun oshxonada navbatchilik qilayotganini bilar edi.

Askarning parishonxotirlik bilan oʻtin yorayotganini, boltani kundaga notoʻgʻri urayotganini uzoqdan kuzatdi. Yaqinlashib askarni chaqirdi:

- Odilov!

Askar komandirning ovozini eshitishi bilan boshini gʻoz koʻtarib, oʻtin yorishdan toʻxtadi.

- Men, janob polkovnik!

Tushlikka hali vaqt bor edi. Lekin bunday oʻtin yorish boʻlsa askarlar och qolishi turgan gap edi. U askarning koʻzlariga boqdi, xushbichim askarning chehrasi, koʻzlarida gʻam-gʻussa, mahzunlik aks etardi. Unga tasalli bermadi, qaytaga u bilan hazillashib, uchuriq qildi:

-Askar Odilov! Bugun hammani och qoldirmoqchi bo'lganga o'xshaysiz. Ish shunday ketsa, tushlikkacha o'tin yorib, qozon boshiga ulgurmaydiz. - Polkovnik o'tin yorishga usta edi. Otasi bilan Vendamda yashaganida, o'tin uchun o'rmonga ko'p borardi.

-Men doim aytaman, boltani to'g'ridan-to'g'ri orqasiga urmang, yon tomonga uring. Shunday davom etsangiz bolta uch-to'rt zarbga ham chidamay, o'tmaslashadi, kuchingiz ham behuda ketadi.

Unga jo'natmani berib so'radi:

-Odilov, mana bu jo'natmani oling. Siz negadir ko'zimga xomush ko'rinyapsiz. Biror narsa yuz berdimi? - U o'zini hech narsadan bexabardek tutdi.

Askar jo'natmani ushlab javob berdi:

Yo'q, janob polkovnik! Hammasi joyida, hech qanday o'zgarish yo'q.

Hoshimov yana hazil ohangida so'radi:

-Siz hali yoshsiz, Odilov. Yoshingiz nechada o'zi. Hayotingiz hali oldinda. -U jo'natmani askarning qo'liga tutqazib. -Buni oling, sizga yuborishibdi. Chodiringizga borib, uni oching. Men sizning o'rningizga o'tin yorib turaman.

Askarning ko'zlarini quvonch bilan hayrat qopladi, rangi oqarib ketdi, ammo e'tiroz bildirdi:

-Janob polkovnik, men hech qayerdan jo'natma kutmayotgandim.

-Nega kutmaysiz? -Barmog'i bilan ishora qildi. Qarang, bu harbiy qismimizning raqami, bu esa "askar Odilovga" degan so'zlar.

Askar hamon ko'zlariga ishonmasdi. U jo'natma olib, ustidagi yozuvini o'qidi. Darhaqiqat, uning ismi va familiyasi yozilgan. Polkovnik unga taskinlik bilan:

-Mayli, chodirga boring. Keyin menga hamma narsani aytib berasiz. -Hoshimov ustidagi harbiy ko'ylagini yechib, yon tomonga qo'ydi va o'tin chopishga kirishdi. Askar esa

Soʻqmoq oʻz chodiriga yoʻl oldi. Birozdan soʻng oʻtinga urilayotgan boltaning ovozi atrofni toʻldirdi.

Bir necha daqiqadan soʻng askar chodirdan chiqdi.

U oʻng qoʻlida uncha katta boʻlmagan qogʻozni ushlab turardi, uning koʻzlarida quvonch yoshlari bor edi. Polkovnik uning kelayotganini koʻrib, ishini toʻxtatdi. Chapqoʻli bilan peshonasidagi terni arttdi.

Shux quvnoq ovozda soʻradi: - Ha, askar, paketdan nima chiqdi? Siz aytdingizmi, mening hayotimda hech narsa oʻzgarmaydi deb?

Odilov muzlagan odamdek ogʻir qadamlar bilan komandiriga yaqinlashdi. U oralarida kam masofa qolganda unga qoʻlidagi qogʻozni uzatdi. Polkovnik qoʻlidagi boltani yerga qoʻyib, undan qogʻozni oldi.

Tezda u yerda yozilgan satrlarni oʻqib chiqdi:

“Aziz askar! Bilaman, hozir mana shunday sovuq, ayozli havoda sizlar vatanimizni, zaminimizni himoya qilyapsizlar. Yangi bahor kuni arafasida onamga bayram taomlarini tayyorashlarini soʻradim, askarlarga joʻnatishimizni ayt-dim. Shu bayramda yuzlari kulsin. Vatanni himoya qilish sharaflidir. Bizni u yerda sizlar qoʻriqlayapsiz va biz xotirjam yashayapmiz. Bayramingiz muborak boʻlsin!

Hurmat bilan, 5-sinf oʻquvchisi Aybeniz”.

U xatni oʻqib, askarga qaradi:

- Chiroyli yozilgan, odamlar aytishga soʻz ham topolmaydi. Nima boʻldi, nega muzlab qolding? Goʻyo Odilovning koʻylagi va ajinlari ochilgandek. Birdan u komandiri tomon yurdi va uni mahkam quchoqladi: keyin hoʻng-hoʻng yigʻlay boshladi. Ularni tashqaridan ofitserlar va askarlar kuzatib turardi.

Komandir yelkasi osha uzoqlarga qaradi, koʻzlari yoʻl ketdi. Uning nima haqida oʻylayotganini oʻzidan boshqa hech kim bilmasdi. U atrofga qaradi, ularga qarab turganlarni koʻrdi va qoʻlini askarning orqasiga urdi.

Yunus O'g'uz

- Mayli, Odilov, atrofdan qarab turganlar bor. - U undan bir qadam uzoqlashdi. Qo'lidagi qog'ozni askarga uzatdi. - Bu qog'ozni olib, yoningizda saqlang. Bunday xatlarni o'qib, kishining esiga o'sha she'r tushadi. Shoir naqadar go'zal aytgan: "Qayerdadir, qayerdadir, bizni eshitadiganlar bor, hali yashashga arziydi..."

Masalan, qo'mondonning askaro'rniga o'tin yorayotganini tashqaridan kuzatib turganlar ham bor edi, ofitserlardan biri hatto buni telefon xotirasiga ko'chirib ham olgan. Hoshimov buni keyinroq bilgan...

Askar qo'li bilan ko'z yoshlarini artib, jilmayib qo'ydi: - To'g'ri aytdingiz, komandir. Agar orqada kimdir sizni o'ylasa, demak, bu Vatan yashashga va u uchun jon berishga arziydi.

Hoshimov o'z so'zlariga qo'shimcha qildi:

- O'lish emas, yashash kerak, Odilov! - U ko'rsatma berishni ham unutmadi. - Odilov, bugun siz askarlarni och qoldirish niyatidasiz shekilli. Qozonga o'tni qalang. - Bir uyum o'tinni ko'rsatdi.

- Bular o'choq yoqish uchun etarli. ozonning ustiga qo'ygan ust kiyimni olib, kiydi. O'yladiki, agar u askar bilan o'z fikrlarini muhokama qilsa yaxshiroq bo'lardi...

...Aprel janglari tugadi. Ozarbayjon qo'shini uch kunlik urushda, Lalatapa, Talish tepaliklarida katta g'alabaga erishdi. To'g'ri, hududiy jihatidan juda katta maydonlar ozod qilinmadi. Ammo bu g'alabani buyukligi shunda ediki,

Ozarbayjon armiyasi jangga juda uyushgan holatda jang qildi, armanilarning o'n yillar davomida shakllangan "G'olib" sindromi sindirildi.

Ozarbayjon askari jang qilishda yuksak mahoratli edi.

Ikki yil oʻtib, bu gʻalaba natijasida Armaniston prezidenti Sarkisyan hokimiyatdan agʻdariladi, uning oʻrniga bosh vazir sifatida Pashinyan keladi. Aprel janglari Ozarbayjon uchun 90-yillardan beri birinchi marta oʻz oʻrnini topdi va u bu yoʻlda ishonch bilan harakat qilardi. Biroq, u bu yoʻlni qurishda azob-uqubatlarga chidadi, kelajak uchun bu qiyinchiliklarga chidash zarurligini tushundi. Ozarbayjon bu yoʻldan sekin-sekin qadam tashlab, oldidan chiqqan toshlarni tozalab bormoqda edi. Agar aprel oyida xalqaro tashkilot va davlatlar bosim va tahdid qilmaganida, bu iz choʻzilib, urush davom etgan boʻlar edi...

Polkovnik uzoq yillar Sumgait shahrida uy ijaraga olgan edi. Uning otasi Isroil aka metallurg edi. dastlab alyuminiy zavodida muhandis, keyin smena boshligʻi va ustaxona boshligʻi boʻlib ishlagan. Polad olti oylik boʻlganida uning oilasi Gabala tumanidan Sumgaitga koʻchib oʻtdi. Uning otasi 2005-yilda uzoq davom etgan kasallikdan soʻng vafot etdi.

Mudofaa vazirligidan chiqib, taksiga oʻtirdi. Uning odati, uyiga borganida xizmat mashinasidan foydalanmasdi. U orqa oʻrindiqqa oʻtirdi. Uni oʻylab olishga vaqti bor edi. Unga vazirlikdan xabar qildilarki, apreldagi toʻqnashuvlar Tatar viloyati yoʻnalishidagi janglarni boshqarishdagi xizmatlari uchun u xonadon bilan taqdirlangan.

Bir tomondan ichida quvonsa, ikkinchi tomondan, aprel janglarida halok boʻlgan askarlarning oilasi uning koʻz oldiga kelardi. U askarning dafn marosimiga ham bordi, marosimidan yuragi ogʻir dard bilan qaytdi. Shahidning oilasi vayrona holdagi kulbada turishardi. Hech ikkilanmay sovgʻa qilingan xonadonni shahid oilasiga hadya qiladi. Ammo bu xabarni onasi, rafiqasi Ofeliya, oʻgʻillari Dovud va Teymur, qizi Aybeniz qanday kutib olishadi?

Taksi oynasidan tashqariga qarab, koʻz oʻngidan tez-tez oʻtib ketayotgan uylar, daraxtlarga boqsa-da, xayoli boshqa joyda, oʻzi bilan oʻzi gaplashardi: "Polad, bu uyni menga

bera olasizmi? Albatta, bera olaman. Mening vijdonim-chi? U ko'zim o'ngida shahid bo'ldi, Vatani uchun jonidan kechdi, u bunga loyiqdir.

Menga nima bo'ldi? Maoshim yomon emas, oilamga yetarli. Biz hamma qatori yashaymiz. Birovdan yomonroq, kimdandir yaxshiroq yashaymiz. Bolalarim ishtirokida bu qarorni qabul qilish juda qiyin kechadi. – Yana shahid oilasini ko'z oldiga keltirdi.

“Nima qilyapsan, Po'lat? — deb so'radi u o'zidan.

Bufikrlarga qarshi o'yo'ylab, hozirgacha qanday yashagani, nimalar qilgani ko'z o'ngidan o'tdi. Xo'sh, xonadon tufayli aqida va e'tiqodingdan, imoningdan kechasanmi? Albatta yo'q. Bu aniq. Axir men buni umrim davomida qanday qilib olib yuraman? Bolalarim va xotinimning ko'ziga qanday tik qaray olaman.

Bunday narsa meni siqiltirib, uyaltiradi. Oh, Po'lat, eh mening yuragim, mening yuragim. O'tgan ikki urush sizni qattiq lashtira olmadi. Faqat dushman nomini eshitsam, yuragim qotib, toshga aylanadi”.

Uning xayolini taksi haydovchisining ovozi buzdi: - Janob polkovnik! Aprel janglarida qatnashganmisiz? - Gaplashmay zerikkan haydovchi nihoyat bahona topib, savol berdi. Odatda bunday haydovchilar vaqt o'tkazish, yo'lni tezda kesib uchun og'izlari tinmaydi. Ular hamma narsadan ozgina bilib, xabardor edilar. Bu har qanday suhbat uchun ko'prik vazifasini bajarardi. U ko'zgudan unga qaradi, u juda g'amgin va o'ychan ko'rinardi.

Polkovnik qisqa javob berdi:

- Ha.

Haydovchi uning gapirganidan xursand bo'ldi:

- Qayerda jang qildingiz? - Og'zidan beixtiyor savol chiqdi.

- Tarter yo'nalishida, Tolish balandligida.

- Pah, qo'shnimizning o'g'li o'sha yerda urushib, jarohat olgan. Balki tanisangiz kerak? Ismini aytdi. - Bilasizmi,

qancha qarindosh-urugʻ va qoʻshnilar, deputatlar, rahbarlar, ofiyserlar, quoldoshlari uni koʻrgani kelishdimiyey? Hamma oxirida kelish-ketislardan charchadi. Eh, senga tasanno deyman, sen bu armanilardan qon undirdingiz. Siz bu itvachchalarni borishi kerak boʻlgan joyga quvib yubordingiz.

Oʻgʻlim borib urushga yozildi. Biroq ular oʻt ochishni toʻxtatish rejimi tiklanganini aytishdi. Agar sulh boʻlmasa, oxirigacha borardik. Yo bir martaga qirildik, yoki oʻz qadr-qimmatimizni tiklab olardik. Bu sharmandalikka toqat qilib boʻlmaydi. Qanchadan-qancha qochqinlar va koʻchirilganlar ogʻriq va iztirobdan halok boʻldi. Ularning qasosini kim oladi? Tinchlik boʻlishi kerak, lekin qancha askarlarimiz ularning snayperlari tomonidan shahid boʻldi. Aprel janglarida shahid boʻlganlar haqida “Alloh rahmatiga olgan boʻlsin” deyishni ham unutmadi.

– Oʻn marta, yigirma barobar koʻp.

– Koʻzgudayana unga qaradi va bir nafasda aytgangaplarini yakunladi. – Balki men toʻgʻri gapirmayotgandirman? Polkovnik uning aqlli va toʻgʻri nutqiga chin dildan jilmayib qoʻydi:

– Albatta, toʻgʻri aytasiz, lekin oʻzingiz savol berasiz va unga oʻzingiz javob berasiz.

Albatta, kurashni davom ettirishimiz kerak edi. Lekin buni bizning oliy bosh qoʻmondonimiz hal qiladi. Biz askarmiz, u qanday qaror qabul qilsa, muhokamasiz bajaramiz. Men qoʻshningizni ham, yaradorni ham bilmayman. Biz turli xil turdagi qoʻshinlarda xizmat qilganga oʻxshaymiz.

Taksi haydovchisining yana ogzi tinmadi: — Ilhom Aliyevning qasasini olaman, eh..., dedi. – U bizni oʻzimizga qaytardi. Nimani bilasiz, oʻrtoq polkovnik, buni oxiri bormi, yaʼni oxirigacha bora olamizmi?!

Poʻlatga bunday yoʻl suhbatlari yoqmasdi. Ishining ustasi, professional harbiy boʻlsa-da, siyosatga aralashgisi kelmadi. U bu gaplar men uchun emas, deb javob bermochi edi...

Yunus O'g'uz

Shu vaqt taksi haydovchisi mashinani chapga burib, binoga kiraverishda to'xtadi.

Harbiy sumkasini olib, mashinadan tushdi. Odatda, kelsa, bolalarga hech narsa sotib olmas, ertasi kuni ertalab uydagilarni olib, do'konga ketardi.

Shunda bolalarning xursandchiligining chegarasi bo'lmasdi. U qo'lini cho'ntagiga soldi:

- Qancha beraman?

Haydovchi qandaydir tarzda unga qaradi va javob berishdan tortinmadi: - Janob polkovnik! Qarzingni Qorabog'da to'lading. Bahra oling; vaqtни chog'o'tkazing! U bu so'zlarni aytdi va mashinani harakatga keltirdi. Shuningdek, polkovnik o'rindiqla pul tashlash imkoniga ega bo'lmasligi uchun derazalarni yopdi.

Polkovnik mashinako'zdang'oyib bo'lguncha mamnuniyat bilan kuzatib turdi. Keyin u kirishga qattiq qadam qo'ydi. U soatiga qaradi. Soat yetti yarim edi. U bir daqiqa eshik oldida turdi, keyin qo'ng'iroqni bosdi. Ichkaridan ovozlar eshitildi: - Otam keldi, otam keldi!

Bir oz vaqtgacha yuragi hapqirib urib turdi, chunki, bolalarini judayam sog'ingan edi. U har safar uyiga kelganida shunday hayajonlanardi. Eshik ochildi. Bolalarning uchalasi ham uning ustiga otildi.

- Ota, ota, ota!

Qo'lidagi harbiy sumkani tashlab, uchalasini birdan quchoqladi.

- Jonim sizlar mani! Men sizlarni juda sog'indim. - Navbatma-navbat hammasini yuzidan o'pib, bag'riga bosdi. Keyin bir qadam orqaga chekinib, Dovud va Teymurga qaradi. - Mashallah, ikkalangiz ham katta yigit bo'lib qolibsizlar. Bundoq qarasam, allaqachon uyimizni qo'riqchilari bolib yetishibsiz. Endi men dushmanga qarshi yuragim bilan ham kurasha olaman. Chunki siz bu yerdasiz...

U boshqa bir so'z demadi. Yana ularni bag'riga bosdi, yuz ko'zlaridan o'pdi. Bu uyda sening o'rning boshqadir. -

Bolalarning orqasidan xotini Ofeliyaning ovozi eshitildi. - Uyga xush kelibsiz! Ofeliya Polatga turmushga chiqqanida, uni qiyin, ko'pincha yolg'iz hayot kutayotganini bilardi. U doimo jang zonasida bo'lgan ofitserning xotini bo'lish nimani anglatishini bilarmidi? Ular 2003 yilda turmush qurishgan edi. Bu yillar davomida hasrat to'la uyqusiz tunlar, har kuni eri uchun duo qilishlar uning taqdirida yozilgan edi.

- Sizni ham xyw ko'rdik, bolalarimning onasi, Ofelya xonim! Bolalarni oldidan engashib xotiniga yaqinlashdi, peshonasidan o'pib. - Yaxshimisan? - dedi. Xotini navbatmanavbat bolalarining sochlarini silab, kulib javob berdi: - Qanday bo'lardim, sen meni shu to'polonchilar qo'liga tashlab ketding, ular kecha -kunduz ko'zimni ochirmaydilar. - U darhol gapiga tuzatish kiritdi. - Yo'q, xudoga shukur, ular so'zimga kiradilar, o'qishga moyil bo'ladilar, lekin to'polonchilar.

Po'lat ayolini tinchlantirdi: - Bu yoshda ularning shox, to'polonchi bo'lishlari odatiy holat. Hozir ularning qoni qaynaydigan payti. - U kuldi, keyin qo'shib qo'ydi. - Men bularning yoshida ulardan ham ko'proq sho'x edim. Go'yo simobdek edim, bir joyda turolmasdim. - Oshxonadan kelayotgan xushbo'yovqat hididan nafas oldi. - Sezishimcha, (tok bargidan) do'lma pishirganga o'xshaysan. Xo'sh, biz eshik oldida yana uzoq vaqt turamizmi?

U xursandchilik bilan dahlizdan kechib o'tdi va tuflisini yechdi. O'g'li Dovud uning harbiy sumkasini olib, shkafning yoniga qo'ydi. Ayoli nimanidir eslagandek bo'ldi, qo'lini peshonasiga urdi va hayajonlanib gapirdi:

- Alloh meni o'ldirsin! Biz boyatdan beri shuncha vaqt dahlizda turib gaplashdikmi. Albatta, tok bargidan do'lma pishirdim, axir, telefon qilib kelaman degan edingku. Vendamdan tok barglari yuborishgandi. Borib qo'lingni yuv, men dasturxon tayyorlayman.

Bir necha daqiqadan so'ng oila a'zolarinig hammasi to'liq

dasturxon atrofida edi. Polat tok do'lmasini yeb turib yuragi bilan gaplashardi: : - "Oh, qanchalik baxtli insonmanki, bolalarim va xotinim bilan birga kechki ovqatni tanovul qilyapman". U bu o'ylarning hech birini tiliga chiqarmadi. Qizil gulli salfetka bilan lablarini artib gapirdi:

- Qani, bolalar, sizlar xonangizga boringlar, men onang bilan biroz gaplashaman. Onam, opalarim va Ilhom akamga telefon orqali xabar bergan bo'lsangiz kerak.

Aybaniz otasining so'zlarini tasdiqladi:

- Ha, ota, siz hammomda bo'lgan vaqtingizda buvim qo'ngiroq qilgan edilar. Kelganizni ayttim. Ular manimcha Kamola va Orzu xolamga ham aytadilar.

Ota mamnun bo'ldi.

- Bu juda yaxshi. Tura qoling, qarindosh-urug'lar, qo'ni-qo'shnilar bir zumda eshik taqillatadi. Bolalar indamasdan o'z xonalariga kirib ketishdi. U gapni nimadan boshlashni bilmasdi. Qo'lidagi qizil gulli salfetkani silkitib tilga kirdi:

- Ofeliya, meni ayblaysanmi, yoki mening harakatimni oqlaysanmi, bilmadim. Sendan ayblasang ham, meni yoqlasang ham, achchiqlanmayman...

Xotini suhbat juda jiddiy ekanligini tushundi va vahima ichida uning gapini bo'ldi.

- Nima bo'ldi, - so'radi u, - harbiy qismda nimadir sodir bo'ldimi?

- To'xta, gapimni bo'lma, aks holda fikrimni to'p-lay olmayman. - U, so'zini davom etdi. - Sen doim mening tayanchim bo'lgansan, hamisha meni qo'llab-quvvatlagansan, Nima so'ragan bo'lsam, harbiy qismga jo'natding. Bilasanmi, - u xursandchilik bilan esladi, - Seni yuborganlaring askarlarni qanday xursand qildi? Go'yo ularga dunyoni bergandek. Ularning quvonchdan ho'ng-ho'ng yig'layotganini ko'rgan bo'larding. Lekin bizning hayotimiz, kasbimiz shunday, har kuni shod kunimiz bolmaydi, O'z safdoshlarimizni dafn qiladigan qayg'uli kunlarimiz, fojiali lahzalarimiz ko'p bo'ladi. Shahidlarimizni

Soʻqmoq
tuproqqa topshirgan paytda oʻzimni qoʻyishga joy topolmayman. Koʻzlarimni yumib, oʻzimni ularning oʻrniga koʻmib qoʻyaman...

Ofeliya yana uning gapini boʻldi va sabrsizlik bilan soʻradi: Yuragimni uzma, ayting nima boʻldi yana?

Polkovnik nihoyat maqsadini unga aytishga qaror qildi: - Bir narsa boʻlmadi, koʻp boʻldi ... - U oʻz fikrlarini tartib keltirib oldi. — Bilmadim, negadir bugun Mudofaa vazirligiga chaqirishdi. Harbiy xizmatni oʻtaganim uchun menga uy berildi, deyishdi. Lekin men... – u toʻxtab qoldi, va bir oz gʻazablandi, - lekin men bu uyni jangda ochiq qilgan koʻzlarini yopganim, tumanda dafn marosimida qatnashgan shahid oilasiga ehson qildim. Esingdami, dafn marosimidan keyin sen bilan gaplashganimda uning oilasi xaroba kulbada yashashini aytgandim. Oʻsha xonadonni oʻsha oilaga hadya qilmasam, yuragim tinchimadi, vijdonim tinch qoʻymasdi. – Barmoqlarini hayajon bilan qarsillatdi. - Vazirlik menga oʻylab olishim uchun bir kun vaqt berishdi, ammo yakuniy qarorim qatʼiy edi. Boʻldi shu.

U xotiniga qaradi, uning hozir aytadigan gapi juda muhim edi, lekin ikkalasi ham jim qoldi. Birozdan keyin xotini oʻrnidan turdi. Kelib umr yoʻldoshini boʻynidan quchoqlab yuzidan oʻpib dedi:

- Polad, men sizdan boshqacha javob yoki boshqacha harakat kutmagandim. Haloli boʻlsin! Polkovnikning yelkasidan ogʻir yuk koʻtarilgandek boʻldi. Chuqur nafas olib, yuzini xotiniga qaratdi va xursand ohangda dedi: -Aslida polkovnik Polad Hoshimovning rafiqasidan boshqa javob kutmagandim. Senga ham halol boʻlsin!

Shu payt eshik qoʻngʻirogʻi jiringladi. Polad xursand boʻlib xotiniga koʻrsatma berdi: - Ha, kelishdi. Boʻlaqol choy qoy. Sen bu yerlarni yigʻ, men eshikni ochaman. Biroz vaqt oʻtgach, xonadagi qarindosh-urugʻ, qoʻni-qoʻshnilarning quvnoq ovozlari, kulgulari deraza orqali hovliga tarqaldi...

Eslatma: Aprel janglarida barcha kuch idoralari, jumladan

Mudofaa vazirligi, Davlat chegara xizmati, Davlat xavfsizlik xizmati, Ichki ishlar vazirligining alohida zobitlari bor edi, yarador bo'lganlar, shahid bo'lganlar bor edi. Jangchilarning aksariyati Prezident tomonidan taqdirlandi. Eng muhimi, xalqning jangovar ruhi kuchaydi. Polkovnik P.Hoshimovga 2019-yil iyun oyida general unvoni berilgan edi.

...13-iyuldan 14-iyulga o'tar kechasi Tovusdagi janglar shiddatli avj oldi. Dushman bir necha bor hujum qilishga uringan bo'lsa-da, Ozarbayjon Armiyasi qatiyyat bilan buning oldini oldi. Garchi ular Agdam va Alibeli qishloqlarini egallashni o'z oldilariga maqsad qilib qo'ygan bo'lsalar ham, bunga erisha olmadilar. O'sha paytda armanlarga tegishli turli harbiy texnika, dushman mudofaasi chuqurlikdagi jangovar mashinalar, qo'mondonlik punkti, zaxira va ishchi kuchi yo'q qilindi va dushman ortga chekindi...

Tonoyanning o'zi jang maydoniga keldi. Uning atrofidagi ofitserlar ojiz ekanliklarini tan olib, yana nima qilishlari haqida o'ylashdi. Ammo vaqt o'tib borardi. Aslida, Ozarbayjon armiyasi istasa, bir necha soat ichida butun chegaradagi Aygeraz, Nerkin, Chinari va boshqa qishloqlarni, hatto tuman markazi hisoblangan Tavushni ham egallashi mumkin edi. Ammo Ozarbayjon tomonining bunday niyati yo'q edi. Armaniston tomoni turklar hech bo'lmaganda o'zlariga tegishli bo'lgan maydonni qo'lga kiritishlarini chindan ham xohlardi. Sababi, o'sha paytda urush ko'lami kengayib, urushga boshqa davlatlar ham jalb qilinardi. Ammo bu sodir bo'lmadi.

Mudofaa vaziri Tavush tumanidagi N harbiy qism shtabidagi dasturxon atrofida jimgina o'tirgan bo'lsa-da, uning har daqiqada portlamoqchiligi sezilardi. Chunki nima voqea yuz bergan bo'lsa ham, g'oya uniki edi. Pashinyanga taklifni u berdi. "Yangi urush – yangi hududlar" rejasi ish

So'qmoq

bermadi. Ular Moskvadagi ma'lum doiralarning roziligini olgan taqdirda ham, buni amalga oshira olmadilar, chunki ular azaldan dushman hisoblagan Ozarbayjon qo'shini arman chegarasini buzib uning hududiga kirmagan.

Uning yonida generallar qotib uxlab qolishdi. U tun bo'yi uxlamadi. Ertalabgacha bir chaqirimcha narida bo'lgan generallardan xabar kutdi. Hayhot! Chegaradan yaxshi xabar o'rniga ketma-ket yomon xabar kelardi. Yo'qotishlar haqida xabar kelganida, vazir boshini qo'li bilan siqib yonib ketar, gohida umidsiz boqib sovuq xabar olib kelganga tikilardi.

U bunday holatni qabul qilishni istamas edi. Axir u, Arman tarixida milliy qahramon sifatida kirishni istagan edi-da. Uning nomi darsliklarga kiritilishini, milliy xalq qahramonlari kabi haykali ko'tarilishini orzu qilgan. Endi hamma narsa teskarisiga aylanib ketayotgan edi. Nimadir qilish kerak edi, aks holda uni nafaqat Yerevanda, balki Moskvada ham masxara qilib gapirishlari tayin.

General nihoyat hisobotni tugatdi. Orada sukunat hukm surdi, lekin bu xuddi bo'ron oldidagi sokinlikka o'xshardi. Tonoyan sokin ovozda so'radi:

- Turklardan qancha yo'qotish bor? Lekin savolimga aniq javob ber. - U ornidan turib generalning qarshisida keldi. Uning ko'zlariga tik qarab qo'shib qo'ydi. Na kamaytirmang, na oshirib yubormang.

General bir muddat qo'lidagi papkani varaqladi, nihoyat bir varaq qog'oz topib, unga ko'rsatdi:

- Qarang, bu aniq ma'lumot, biz faqat to'rt nafar askarni yo'q qildik, o'n bir kishi yaralandi...

Tonoyan uning gapini bo'ldi:

- Bizda-chi?

General Tonoyaning ko'zlaridan ko'zini olib, gapirdi:

- Bizda yetmishga yaqin halok bo'ldi, yaradorlar sonini to'liq aniqlayapmiz. Texnika...

U, yana generalning gapini bo'ldi. Uning portlash vaqti

kelgandek edi. Ko'zini unga tikib qichqirdi:

– Texnikang boshingdan qolsin, general! Texnika ham yoqolsin, jahannamga ketsin! Tanklarni Rossiyadan, Fransiyadan, kerak bo'lsa Gretsiyadan sotib olamiz.

U kelib, generallar o'rtasida turdi, meni,- qiziqtiradigan narsa askarlarimizning halok bo'lganidir. Bu qanday sodir bo'ldi? Biz turklarning na askarlarini yo'q qila oldik, na bir metr oldinga siljiy olmadik. Kimdir buni menga tushuntira oladimi? Axir ular jang qila olmadilar. - U generallar oldida shiddat bilan odimladi, keyin qaytib keldib joyiga o'tirdi. - Biz bilan jang qilgan qaysi armiya o'zi?

Generallardan biri darhol javob berdi:

– Janob vazir, razvedka ma'lumotlariga ko'ra, aynan uchinchi armiya korpusi biz bilan jang qilmoqda va ko'zimizni ochishimizga imkon bermayapti.

Ularning bir general-mayori bor, familiyasi Hoshimov ekan. U juda tirishqoq, askarlari bilan bir yerda yotib turarkan. Askarlar ham uni juda yaxshi ko'risharkan, hatto uning uchun o'limga tik boqisharkan. Xalq orasida ham sevimli ekan.

Tonoyan bir muddat o'ylanib qoldi. U o'ziga o'zi dedi, lekin ovozi baland chiqdi:

Demak, general-mayor Hoshimov suyukli general, xalq uni juda yaxshi ko'rarmish. Nega men bu haqda o'ylamadim?

General uning so'zlarini tasdiqladi:

Ha, janob vazir! Aynan siz aytgandek. Ammo bu bizga nima beradi?

Mudofaa vazirining ko'zlari chaqnab ketdi. O'ylaganini aytmasa-da, yuragida o'ylardi: "Axir, bu bizning rejamizda bor edi. Buni zudlik bilan hal qilish kerak, bu turklarni yoqib yuborish kerak". Buning o'rniga u buyruq berdi. - Xabarlarda shunday ma'lumot beringki, dushman tomonidan yuzdan ortiq askar halok bo'lgani, ko'plab zenit-raketalar, artilleriya, inshootlari yo'q qilingan deb. Yerevanliklarning ko'ngli cho'kmasin. – U matbuotga mas'ul bo'lgan generalga qaradi.

General qoʻlidagi papka ustidagi qogʻozda aytilganlarni qayd etardi.

- Undan soʻradi. - Tushunarlimi?

General qaydlarni yozib-yozib javob berdi:

- Albatta, hammasi oydindir janob vazir! Lekin biz oʻz yoqotishlarimizning qanday raqamlarni keltirishimiz kerak?

Vazir biroz oʻylanib, javob berdi:

- Bizdan toʻrt-besh nafar askarimiz halok boʻldi, deb yozsangiz bas, texnika sonini kamaytirsangiz kifoya. Aholining qishloqlardan koʻchirilishi sababini ularning xavfsizligi bilan bogʻlang. Urush davom etmoqda. - U gapini tugatib, buyruq berdi. - Janob generallar, endi esa borishingiz mumkin. Meni Yerevan bilan juda muhim qoʻngʻiroqʻim bor. Keyingi buyrugʻimni kuting.

Generallar ketgach, u telefonni olib, Pashinyanga qoʻngʻiroq qildi. Uzoq qoʻngʻiroqdan soʻng javob berildi:

- Xayrli tong, janob Bosh vazir!

Telefonning narigi tomonida Nikolning ovozi eshitildi:

- Xayrli tong! Ishonchim komilki, siz shahar oyʻgʻonmasidan meni xushxabar bilan bezovta qilasiz. - Pashinyan unga yarim uyquda javob berdi.

- Yoʻq, janob Bosh vazir! Bizda yaxshi xabar yoʻq. "A" rejasining birinchi va ikkinchi variantlari muvaffaqiyatsizlikka uchradi. Men nima qilishni bilmayapman?

Bosh vazirning asabiy ovozi goshakning narigi tomonida eshitilardi:

- Nima qilishim kerak, nima qilishim kerak? Qarindoshingiz Lavrovga (Rossiya Tashqi ishlar vaziri Sergey Lavrovni nazarda tutadi) qoʻngʻiroq qiling vositachilik qilsin. Endi nima boʻladi, erta tongda Makronga Fransiyaga qoʻngʻiroq qilishim kerakmi? Nima deyishim mumkin? Kechirasiz, Rossiyaning baʼzi doiralari bizga kafolat berdilar, lekin hozir unga amal qilishmayapti deymanmi? Bizga yordam bering, shafolat qiling, bu harbiy operatsiya

to'xtasin, deymanmi? – ovozini balandladi. - Bizni qanday sarguzashtga tortganingizni bilasizmi? Yerevanda nima bo'layotganini bilasizmi? Yengilmas arman armiyasi "Yangi urush - yangi hududlar" tamoyiliga sodiq, ammo bir metr ham oldinga siljiy olmadi. Men kecha matbuotning yarmini zararsizlantirdim, ammo qolgan yarmi mening imkonimdan tashqarida. – Mudofaa vaziri telefonda gapirar ekan, undan ter chiqib ketdi. U siyosatchi emas, harbiy xizmatchi edi. Umuxolifatni, Kocharyan va Sarkisyaning hukumatga qanday bosim o'tkazishini farqiga bormasdi.

- Alo, meni eshitayapsanmi?

Telefonda zo'rg'a gapirayotgan ovoz eshitildi:

- Ha, janob Bosh vazir, eshitaman.

Nikol esa tobora qizib borardi. G'alaba va reja yuz foiz amalga oshishiga ishongan Bosh vazir buni rafiqasi Annaning do'stlari bilan nishonlagan edi. Hali uning boshidan aroqning mast qiluvchi kayfi ketmasdanoq, vaziri uni uyg'otib, yomon xabar ortidan yana yomon xabar aytdi. Shu sababdan asabiylashib, vazirga keraksiz so'zlarni ham aytardi.

- San bilasan, bu yerdagi xalq sening matbuot xizmatining berganma'lumotlarga ishonadi. Ammo chegaraviyoyatlarida, Qorabog'da hamma Ozarbayjon televideniyesini ko'radi. U yerda halok bo'lgan askarlarimizning ism-shariflari ko'rsatiladi. Xalq dushmanlarga ishonadi, dushmanga, turklarga ishonadi. Ara, sen buni farqiga borasanmi?

Tonoyan harbiycha javob berdi:

- Ha, janob Bosh vazir! Men to'liq farqiga boraman.

- Nima qilmoqchisan, qanday qadamlar tashlamoqchisan? Buni shunday qilish kerakki, ertalab ishga borganimda, xonamga faxr bilan kirishim kerak.

Erining asabiy ovozidan uyg'onib ketgan Anna bu baqirishga endi chiday olmadi. Tungi ko'ylagini kiyib, yotog' xonani aylanib chiqdi va asabiylashib gapirayotgan Nikolga yaqinlashdi. Ishora qilib telefonni undan oldi.

- Xayrli tong, janob vazir!

Pashinyan bu suhbatdan qutulganidan xursand boʻlib, stolga yaqinlashdi. Kechqurun suzilgan, lekin ichilmay qolgan qadahni oldi. Biroz boshi aylandi. Shu sababdan u xotining suhbatini diqqat bilan tinglay boshladi. Tonoyan mamlakatni kim boshqarishi masalasidan xabardor edi. Shuning uchun u ayolning ovozini eshitishi bilanoq oʻzini bir oz yigʻdi. U bu ayolning qoʻli qayerga yetishini bilardi. U javob berdi:

- Xayrli tong, Akopova xonim!

Anna vaziyat haqida soʻramasdan, muqaddimasiz davom etdi:

- Nikol bilan suhbatingizdan tushundimki, hali Tovuzda hech qanday muvaffaqiyatga erishmaganmiz.

- Shunday, Anna xonim!

- Nima qilishni tushuntirsangiz?

Tonoyan ikkilanmasdan javob berdi:

- "B" rejasini amalga oshirish lozim.

Anna oʻzini vino ichayotgandek koʻrsatayotgan Nikolga oʻqrayib qarab eshittirdi.

- "B" rejasi? Fuqarolarmi yoki harbiylar orasidami? Bu juda qiyin boʻlmaydimi? - U sekin-sekin eriga yaqinlashdi va telefonni berdi. - Tonoyan "B" rejasiga oʻtmoqchi. Qaroriga ruxsat ber.

Mudofaa vaziri hali ham kim bilan gaplashayotganini bilmas edi; Bosh vazir yoki uning xotini bilan. Shunga qaramay, u javob berdi:

- "B" askarlar orasida boʻladi va bu reja shu jangda oldimizda turgan generalga nisbatan qoʻllaniladi.

Telefonda yana Bosh vazirning ovozini eshitib, u umuman ajablanmadi. Pashinyan "B" rejasini eshitib xursand boʻlmasa-da, buning masʼuliyatini tushundi, lekin gʻalabaning shirin taʼmini his qilgisi keldi.

Toʻgʻri, u hokimiyat tepasiga kelganida, 2018-yilda Ozarbayjon qoʻshini "Gunnit amaliyoti" nomi bilan

Yunus O'g'uz

Naxchivan viloyatida bir necha kilometr ilgarilab ketdi, ammo, muvaffaqiyatsizlik sababini bemalol undan oldin Armanistonni boshqargan Sarkisyaning bo'yniga osonlik bilan qo'ydi.

Bosh vazir allaqachon bu rejani amalga oshirishni xohlagan, ammo ehtiyotkorlikni qo'ldan boy berib bo'lmasdi.

Shunday qilib, u qat'iy dedi:

- "B" rejasiga qarshi emasman. Moskvaga qo'ng'iroq qil, kuratoring bilan ushbu rejani kelishib oling. Bir sharti bor, bu ishning barcha mas'uliyat sening zimmangda bo'ladi. Yana, — deb o'yladi u biroz va qo'shib qo'ydi — «B» rejasi ish bersa, Bokuda, xususan, Ozarbayjon armiyasida ishlayotgan odamlar Moskvaga ham, bizga ham ta'sir qilishi mumkin. Bu juda jiddiy masala, chunki men ba'zi hujjatlarni ko'rib chiqdim, bu agentlar biz uchun o'nlab yillar davomida ishlagan. Hozir Ozarbayjon Tashqi razvedka xizmati va Davlat xavfsizlik xizmati juda kuchli ishlamoqda. Sobiq vazirning davri emas, xodimlar faqat qanday qilib vazifani bajarish haqida o'ylasinlar. Bu juda xavfli.

Mudofaa vaziri uni tinchlantirdi:

- Nikol Vovevich! Mudofaa vaziri sifatida men barcha mas'uliyatni o'z zimmamga olishga tayyorman. Agar bu reja amalga oshmasa, men hatto iste'foga chiqishga ham tayyorman. Nima bo'lganda ham shu lavozimga tayinlanganimda ishdan bo'shatish to'g'risida ariza yozdim va sizga berdim, o'sha xatga sana qo'yish kifoya. Shuningdek, Bokuda kimlar fosh etilishi ham asos emas. Biri fosh bo'ladi, ikkinchisi keladi. Menimcha, bu muammo bo'lmaydi. Moskva bizning pul sigirimiz ekan, u shunday bo'lib qolaveradi. Moskvaning bu mintaqada katta manfaatlari bor va biz bu manfaatlarning eng katta va birinchi vakilimiz.

Pashinyan boshqa norozilik bildirmadi:

- Yaxshi, kuratorga qo'ng'iroq qil, lekin mening bunga aloqam yo'qligini unutma. Tushundingmi?

- Albatta, janob Bosh vazir! – Sevinib telefonni o'chirib,

biroz oʻylanib, Moskvadagi kuratorining raqamini terdi...

ESLATMA: Ozarbayjon tashqi razvedka xizmati qirq toʻrt kunlik urushda Tovuz jangida fosh etilganlarni toʻliq zararsizlantirdi va bu Vatan urushidagi gʻalabaga asos boʻldi.

27-sentyabrga qirq toʻrt kun qoldi.

Quyoshning shafaqlari togʻ uzra yoyilganda, qushlar va xoʻrozlarning ovozi eshitilmas boʻlib qoldi. Kechagi jang hammani qoʻrqitdi va hurkitdi. Urush nafaqat odamlarga, balki atrof-muhitga, togʻu-toshga, tabiatga, hayvonlarga, qushlarga katta zarar etkazadi. Inson yaralari vaqt oʻtishi bilan asta-sekin bitadi, unutiladi, vayron boʻlgan qishloqlar va shaharlar bir necha yil ichida tiklanadi, hayvonlar va qushlar bu joylarga qaytib, avvalgi hayotlarini davom ettiradilar.

Ammo oilaga berilgan zarba, kelgan qaygʻu hech qachon unutilmaydi. Bu achchiqlik uchinchi avloddagina asta-sekin yoʻqoladi, oʻsha avlod bobolari, buvilari haqidagi shirin hikoyalarni tinglaydi, ota-bobolarining shunday ogʻriqli kunlarni boshidan kechirganiga, kurashganiga hech qachon ishonmaydi. Yaxshiyamki, endi hamma narsani yozib olish, tasvirga tushirish, kelajak avlodlarga yetkazish mumkin. Boʻlmasa, asrlar davomida xalqqa qilingan vahshiyliklar epizodik tarzda, ogʻzaki aytilar edi.

Qadim zamonlarda bu muammolarni umumlashtirish mumkin emas edi. Ayyor gʻanimlar aholini qirgʻin qilib, iztirob va zulm taxtiga suyangan, soʻngra butunlay boshqacha talqin qilishgan, gunoh zolimda emas, mazlumda deb ayuhannos solishgan. Oqibatda Vatanda vatansiz qolganlar koʻchirilgan, oʻz joyini tashlab, dunyo boʻylab tarqalib ketganlar. Ammo, Vatanning davlati boʻlsa, uni himoya qiladigan qudrati bor boʻlsa, hech kim qochmaydi,

shahidlikni sharaf bilan qabul qiladi. Davlat - bu Vatandir, Armiyadir, xalqdir, boshqaruvdir, o'rnatilgan tuzumdur.

Aholi o'rtasida davlat to'g'risidagi ong kuchaygani sari uni himoya qilmoqchi bo'lganlar ko'payib, unga bo'lgan bog'liqlik kuchayadi.

General Hoshimov sayyor qarorgoh hisoblangan chodirda bugun kechki janglar natijalarini muhokama qilar va yangi janglarga tayyorgarlik darajasini tekshirardi. - Qarorgohda yetti kishi bor edi. Ulardan 6 nafari ofitser va praporshiklar, yana biri navbatchi askar edi. Ularning hammasining ko'zlaridan uyqu to'kilardi, shunga qaramasdan hech biri uxlashni xayoliga ham keltirmadi. Vaziyat yomon emas edi. Shu tunda dushmanning kuchli hujumi qaytarildi, ko'plab jonli quvvati va texnikasi yo'q qilindi.

O'rtada jangovar xaritasi bo'lgan yig'ma stol bor edi. Kerosin lampalari hamon yonib turardi. Kechasi hech qanday yorug'lik tushmasligi uchun chodirning derazalari yopiq edi. Ular generatorni ishga tushirishmadi. Chunki tog' va vodiylarda tovush dunyoni egallab oladi va tovush qayerdan kelgani aniqlanadi.

General quvnoq kayfiyatda gap boshladi:

- Nima deysizlar, kechamiz yomon o'tmadi manimcha, agar shunday hujumni qaytarsak, armanilar bu kichik hududda butun Armaniston qo'shinini keltirishi, biz ham ular bilan jang qilishimiz kerak bo'ladi. - Yuzini bosh shtab boshlig'i, polkovnik Ilgar Mirzayevda. - Ha, Ilgar muallim, sizni eshitamiz.

Bosh shtab boshlig'i qo'lidagi qalamni xarita ustida siljitdi:

- Janob general, bugun tunda o'zingizga ma'lumki, janglarning aksariyati shu nuqtalar, ya'ni Garagaya cho'qqilari uchun bo'lib o'tdi, lekin dushman katta yo'qotishlar bilan ortga qaytarildi. Shunga qaramay, armanlar Agdam va Alibeyli qishloqlarini intensiv ravishda o'qqa tutdilar. Armanlarning yo'qotishlari juda katta.

Biz tomonda qurbonlar yoʻq. - Uning yuzida tabassum paydo boʻldi. Ular charchagan boʻlsalar ham, bu tabassum chodirdagilarga tarqaldi. Ular jilmayishdi. Aslida nima uchun jilmayishayotganini hamma bilardi. Endi polkovnik PUA-lar haqida gapirmoqchi edi, chunki uchrashuvdan oldin ular monitorda baʼzi lavhalarni tomosha qilishgan. - Armanlar PUA-larimizni koʻrishi bilan qochib ketishadi va qochib ketish uchun teshik izlaydilar.

Bu safar hammalari chin dildan kulishdi. General hatto hazillashib ham qoʻydi:

- Armanlar xotirjam boʻlishlari kerakki, bizning raketalarimiz va zenit raketalarimiz oʻsha sichqon teshiklarini topib portlatib yuboradi. - Hamma yana kulib yubordi. - Davom eting, janob polkovnik! Keling, bugun kechqurun bizni nima kutayotganini muhokama qilaylik.

Bosh shtab boshligʻi qalamni yana xarita ustida siljitdi:

-Razvedka maʼlumotlariga koʻra, bugungi kunda armanlar oʻzlarining yangi kuchlarini ushbu yoʻnalishlarda toʻplamoqdalar, ammo bu aldamchi manevr boʻlishi mumkin.

- Hmm, - general polkovnikga qaradi. - Qayerdan boʻlishi mumkin?

Polkovnik xaritadagi dushman makoniga qalamini olib borib, shunday dedi:

— Bu yerdan qara, — soʻng qalamni xaritaning boshqa joyiga olib bordi. - Mana qarang.

General hech narsa boʻlmagandek gapirdi.

- Demak, bunga ham tayyorlanish kerak...

Shu payt telefon jiringladi. Polad soʻzida turdi va qorovulga qaradi. Qoʻriqchi telefon goʻshagini olib tingladi, keyin generalga qaradi va dedi:

- Sizni soʻrashyapti, janob general!

U bir soz demasdan navbatchiga yaqinlashdi va dedi:

— General-mayor Polad Hoshimov eshitadi.

Telefondan ovoz eshitildi:

- Chodirni, shtabni zudlik bilan tark eting... dud...dud...

Po'latning buyruq berishga bir soniyasi ham yo'q edi. Favqulodda vaziyat yuzaga kelganini tushundi. U buyruq bermoqchi bo'lib og'zini ochmoqchi edi, qayerdandir otilgan raketaning hushtak ovozi eshitildi. Hushtak ovozi tobora yaqinlashib borardi. Bu nishon, raketa chodirning o'rtasiga tushdi.

- Dushmanning "B" rejasi boshlandi...

...Yaxshi xush xabar bo'lganda, Prezidentga yetkazish uchun navbatga turishadi. Yomon, qayg'uli xabar kelganda, o'rtada bir kishi qoladi va barmoqlar o'sha odamga qaratilgan. Bu safar ham shunday bo'ldi.

Prezident yordamchisi Hikmet Hojiyev xorijlik jurnalistlar uchun brifingga tayyorgarlik ko'rayotgan edi.

Ertalab Mudofaa vazirligidan jang haqidagi ma'lumotlar allaqachon yetib borgan edi. U endi qo'li ostidagi qog'ozlarga diqqat bilan qarar, aytmoqchi bo'lgan raqamlarni xotirasiga yozardi. Keyin telefon qo'ng'irog'i keldi:

- Hikmat domla, xayrli tong! – Qo'ng'iroq qilgan shaxs blan subati vaqtida uning rangi goh oqarar, goh qoyayib ketdi.

- Shunday ekan, Hikmat muallim, Alloh shahidlarimizni rahmatiga olsin!

Yordamchi bir muddat jim qoldi. Keyin so'radi:

- Janob Prezidentning xabari bormi?

Go'shakning narigi tarafidan javob keldi:

- Maslahat shuki, bu xabarni unga siz yetkazing.

Hikmet Hojiyev ikkilanmasdan gapirdi:

- Xo'p, hozir aytaman, – dedi u.

- U dastani qo'ymasdan ichki raqamni terdi. Prezident qabulxonasida o'tirgan yordamchining ovozi eshitisilishi bilan.

- Meni zudlik bilan prezident bilan ulang, zahmat bo'lmasa, iltimos...

-Bir daqiqa.

Ikki daqiqadan so'ng Prezidentning ovozi eshitildi.

- Xayrli tong, Hikmat muallim! Aytishingcha, shoshilinch xabar borganing oʻxshaydi.

- Ha, janob Prezident! Biz olgan maʼlumotlarga koʻra, bugun ertalab...

Yordamchi prezidentga voqeani batafsil tushuntirib berdi. Ayni damda u Ilhom Aliyev nimalarni boshidan kechirayotganini, qanday azob chekkanini, qanchalik katta zarba olganini his qildi. General, jangovar armiya polkovnigi shahid boʻldi. Bu oddiy ish emas. Jang katta urushga aylanishi mumkin.

- Uni Prezidentning gʻamli, lekin sinmagan oʻktam ovozi toʻxtatdi:

Yaxshi, Hikmat muallim! Bugun xorijlik jurnalistlar uchun matbuot anjumaningiz bor. Unga yaxshi tayyorgarlik koʻring, lekin bu brifingni soat ikkiga boʻlishini tayinlang, yaʼni vaqtini oʻzgartiring.

Ulanish tugashi bilan Prezident “Mudofaa vaziri” tugmasini bosdi. Zokir Hasanov darhol javob berdi:

- Ha, janob Prezident!

- Voqealar haqida bilaman! Joyi jannatda boʻlsin! Shahidlarni eng yuqori darajada dafn etish, zudlik bilan jazo choralarini qoʻllash zarur. – Bir necha soniya oʻylanib, qoʻshib qoʻydi. - Lekin bu rasmiy maʼlumotni bergandan keyin. Rasmiy maʼlumotni soat birda eʼlon qiling.

Prezident soʻzini tugatgandan soʻng, mudofaa vaziri faqat bir soʻz aytdi:

- Bosh usti, janob Prezident!

Soat birdan keyin javob choralari boshlandi.

ESLATMA: Tovuzdagi janglarda 120 nafar arman askari yoʻq qilingan, 1 tank va 1 bronetransportyor oʻqqa tutilgan. 4 ta UAV urib tushirildi, 1 ta radioelektron urush (REM) vositasi va bir nechta aqlli mashinalar urib tushirildi va ishdan chiqarildi.

General-mayor Polad Hoshimovning shahid bo'lishi butun olkani larzaga soldi. Shonli namoyishlar boshlandi. Ozarbayjonda oliy martabali zobitlarning shahid bo'lganiga achinmagan, norozilik bildirmagan odamni topmaysiz, hamma urush boshlanishini hohlardi. Hamma shahidlar uchun qasos olishni istardi. Armanlarning yakka o'zi kurashishga jur'ati yo'qligini hamma bilardi, bu haqda hatto prezident ham o'z nutqida aytgan.

Tovuz janglaridan so'ng Ozarbayjon armiyasi xalq birinchi Qorabog' urushi va Xo'jali fojiasi uchun o'ch olmoqchi ekanligiga yuz foiz ishonch hosil qildi. Ming hiyla bilan uyushtirilgan va bosib olingan yerlarni qaytarishga ahd qiladi. Lekin hali erta edi. Xalqaro vaqt pishmagan edi. Dushmanning tez-tez provokatsiyalar uyushtirishi va haqoratomuz harakatlari urushni muqarrar ekanligini tayin etardi.

Tovuz janglari arafasida Armaniston bosh vaziri Pashinyan Xonkendidagi so'zlaganida quyidagi jumlaning ishlatgan: "Qorabog' Armanistondir, nuqta".

Prezident Ilhom Aliyev javobini kechiktirmadi. Sochida bo'lib o'tgan "Valday" konferensiyasida, dunyo siyosatchilari ko'proq yig'ilgan yig'ilishda: "Qorabog' Ozarbayjondir, undov!"- dedi.

Ko'p o'tmay bu shior xalq tiliga, hamma joyda "Qorabog' – Ozarbayjondir!" va undov deya aytila boshlandi.

Generalning jasadi dastlab Gabalaga, o'zi tug'ilgan Vandam qishlog'iga olib kelingan. Ozarbayjon va Turkiya bayroqlari bilan bezatilgan avtomobillar karvoni Tovuzdan u tug'ilgan qishlog'iga, u yerdan Sumg'ayitga yetib keldi. Sumgaitdan ularni boshqa shahidlar bilan birga Bokuga olib kelishdi va Ikkinchi Faxriy xiyobonga dafn qilishdi, hammasi 14 iyul kuni kechqurun sodir bo'ldi. Milliy Majlis

Soʻqmoq

oldiga odamlar ommaviy yigʻilishdi. Shahidlar xiyobonini ziyorat qildilar. Ammo norozi, fursatdan foydalanib, janjal chiqarmoqchi boʻlganlar ham boʻldi...

Qoʻngʻiroq keldi. Telefonni ochdi. Qoʻngʻiroq qilgan muxolifatdan boʻlgan doʻsti edi. Koʻrinib turardiki, yangi vazifa kelgandi. Bugun juda muhim kun edi.

- Ha, salom.

- Salom, meni tanidingmi?

- Ha, men uni tanidim.

- Bilishimcha, maydonga chiqqanlarning lideri boʻlmaydi. Olomonni oʻzimizning tomonimizga ogʻdirishimiz kerak. Agar shunday qila olsak, ishimizning ellik foizini bajargan deb hisoblang. Davlat televideniyesi ham yaqinimizdadir. Milliy Majlisni tortib olamiz, keyin televideyiyega hujum qilamiz. Shunda ishimiz osonlashadi.

- Lekin uning xavfsizlik xizmati, ichki qoʻshinlari, armiyasi bor. Ular bizga imkon berishadimi?

- Albatta, berishmaydi, lekin olomonni gij-gijlay olsak, ularning qoʻlidan hech narsa kelmaydi. Sen buni qil...

- Eshitaman.

- Qirq ellikta bolani toʻpla. Ular olomonning ichiga kirib izgʻisinlar, qizdiruvchi, olomonni qoʻzgʻatuvchi targʻiborlar olib borsinlar. Hamma ayb shu hukumatda, deb targʻib qilishsin. Bir oz harakat boʻlsa hammasi yaxshi boʻladi, chunki ularda yetakchi yoʻq. Bunday joylarda, rahbar boʻlmaganda, olomonni xohlagan joyga yoʻnaltirish mumkin.

- Bizdan birimiz rahbar boʻlib nutq soʻzlaylikmi?

- Yoʻq, hamma narsa oʻz-oʻzidan boʻlishini maslahat berishdi. Bunday holatni xalqning oʻzi xohlagan deb oʻylasinlar. Agar Milliy Majlisdan keyin televideniye qoʻlga olinsa, xalq talabi bilan bir necha rahbarlar paydo boʻladi,

Yunus O'g'uz

ular vaziyatni yanada keskinlashtiradi, hatto hukumat iste'fosini talab qiladi.

- Avval nimadan boshlashimiz kerak?

- Milliy majlis va politsiya mashinalaridan. Ammo va faqat halokat taassurotini yaratish uchun, shundan keyin maqsadimizga erishish uchun. Esingizda bo'lsin, agar ular mikrofonni sahnaga olib kelishsa, kabellarni kesishga harakat qiling.

- Nega endi?

- Tartibsizlik bo'lsa, kimdir miting o'tkazishiga hojat qolmaydi. Bizning g'alabamizning kaliti xaos va tartibsizlikdir. Biz bu tartibsizlikni to'xtatish uchun aylanmaga kiramiz. Endi ko'p narsa sizga bog'liq, aziz do'stim! Hokimiyatga kelmoqchi bo'lsangiz, men aytganimni qilishingiz kerak. Ha, yodingizdan chiqmasin, o'sha eski mudofaa vaziriga ishonmang. Uning davri o'tdi. Endi to'qsoninchi yillar emas. U o'zining qarshi tashviqoti uchun xavfsizlik xizmati tomonidan allaqachon zararsizlantirilgan. Va u odamlar orasida hech qanday ta'sirga ega emas. Bizga nufuzli rahbar kerak.

- Bir so'z aytaman.

- Marhamat.

- To'g'ri, to'qsoninchi yillar emas, lekin ommaviy psixologiya o'zgarishsiz qoldi. Ushbu massani qaysi versiyada ishlatamiz? Tunis, Misr, Suriya, Ukraina, Gruziya?

Telefonning narigi tomonidagi odam uning gapini bo'ldi:

- Bu hali to'liq aniq emas. Qachon olomonni ortimizdan aniq yetaklay olishimiz aniq bo'ladi, ko'p narsa bunga va sizga bog'liq.

- Menda savolim bor.

- Ayt, marhamat.

- Bu tartibsizlikda mening joyim qayerda bo'ladi?

- Siz eng yuqori saviyada vakillik qilasiz. Bundan buyon shunday bo'ladi.

- Undan keyin?

- Keyin nima?

- Aytmoqchimanki, bizni xalqaro qoʻllab-quvvatlash boʻladimi yoki oʻz qoʻlimiz, oʻz boshimiz boʻladimi?

- Albatta boʻladi. Xalqaro tashkilotlar va ayrim yetakchi davlatlar bizni har tomonlama qoʻllab-quvvatlashiga ishonaman, chunki ular bu oʻjar hukumatdan toʻygan. U Qorabogʻ masalasini hal qilishda oldinga qadam tashlamoqchi emas. Menimcha, Qorabogʻ qanday hal boʻlishidan qatʼiy nazar, bu muammoni oʻzimizga qoʻyib yubormaslik kerak. Ulardan keyin biror narsa haqida janjal qilish yoki bahslashishdan koʻra, bu kuchni hamma narsada ayblash osonroq. Boshqa vaziyatda bu, bizga qiyin boʻlardi.

- Evropadagi saytlarimiz va trollarimiz bizni qanday qoʻllab-quvvatlaydi?

- Nafaqat saytlarimiz va trollarimiz, hatto Yevropa matbuoti ham biz tomonda boʻladi, Ozarbayjon elchixonalari oldida piket va mitinglar oʻtkaziladi.

- Yaxshi, yana nima qoldi?

- Kun tartibidan yana bitta masalani qoldirmang. Polad Hoshimov shahid boʻlgan sardorimiz.

- Tushunarli.

- Aniq boʻlsa, keling, hozirdan boshlab ishga kirishaylik...

Oradan bir soat oʻtib "soxta" xabarlar trollar va ayrim saytlarning kun tartibiga aylandi.

Bir soatdan keyin bu telefon suhbatlari kerakli davralarga yetkazildi...

...Shaharning barcha koʻcha va xiyobonlaridan Milliy Majlis maydonigacha oqim oqib kelardi. Ularning aksariyati yoshlar edi. Ozarbayjon, Turkiya va oz sonli Pokiston bayroqlari bu namoyishni bezatib turardi. Ayrim yoshlarning qoʻllarida Polad Hoshimovning surati bor edi. Aksariyat siyosiy partiyalar qoʻshma bayonot berib, Ozarbayjon Prezidentining Tovuzdagi janglarda qanday qadam tashlasa, qoʻllab-quvvatlashini maʼlum qildi.

Nodavlat notijorat tashkilotlari, veb-saytlar, gazetalar,

taniqli ziyolilar ham xuddi shunday ishlarni takrorlashi xalqning bir mushtga aylanib borayotganidan darak berdi. "Qorabog' tugunlari" juda chuqurlashib ketganga o'xshaydi. Ammo bu yurishni tashkil etishni hech bir siyosiy partiya o'z zimmasiga olmadi, hatto partiya yetakchilari ham yurishga bormadilar. Odamlar o'zidan qat'iy nazar maydonga to'planishdi. Shiorlar shubhasiz hukumat foydasiga edi:

- Qorabog' Ozarbayjondir!
- Qorabog'ni hal qiling!
- Qasos! Qasos! Qasos!
- Biz jang qilmoqchimiz!

Kechqurun maydonga odamning kopligidan igna tashlasangiz, u yerga tushmasdi.

Politsiya va xavfsizlik xizmati xodimlari guruhning sabotaj qilishlari haqida allaqachon ma'lumotga ega bo'lgan. Shu bois, namoyishchilar safida militsiya xodimlarining borligi orqadagi yoshlarni provokatsiya qilishiga to'sqinlik qildi.

Bu dunyoning barcha mamlakatlarida shunday. Oldindagilar hech qachon olomonning orqasida turganlar uchun javobgar bo'lolmaydi. Biroq hozir orqadan kelayotgan politsiya mashinalari namoyishni tark etib, vayronagarchilikka sabab bo'lmoqchi bo'lganlarga deyarli to'sqinlik qildi. Boshqa tomondan, Qo'riqlash xizmati xodimlari ham fuqaro kiyimida aholi orasida yurib, vaziyatni kuzatib borishdi.

Namoyish ortidan kelgan ikki kishi gaplashib o'tirishibdi va yonlarida notanish odamni ko'rib, baqirishdi:

- Qorabog' Ozarbayjondir! Qorabog' Ozarbayjondir! Armanilarga o'lim!

Ikkalasining shiorlarini eshitishi bilan atrofdagi yigirma-o'ttiz nafar yoshlar shu shiorlarni takrorlashdi.

Namoyishchilar Ziyo Bunyadov shoh ko'chasidan Matbuat shoh ko'chasigacha borishdi. Yo'lning chap tomonida talonchilik uchun eng qulay joy hisoblanishi mumkin

Soʻqmoq boʻlgan koʻplab xorijiy kompaniyalarning doʻkonlari joylashgan edi. Namoyish ortida turgan ikki kishidan biri “Lider” deb atalgan.

– Rahbar, nima qilishimiz kerak?! – yonidagi boshliqqa murojaat qildi. – Boshlash vaqti keldi. Esingizda boʻlsin, oldinda harbiy qism bor. Politsiyachilar koʻpayadi. Shunda biz hech narsa qila olmaymiz.

Rahbar oʻgirilib, orqasiga qaradi. Ularning orqasida koʻplab politsiya mashinalarini koʻrib koʻzlari qamashtirdi, qoʻrqitdi.

– Ortimizda qancha militsioner kelayotganini koʻrmayapsizmi? – Vaqt boʻldi, qarorsizligini koʻrsatsin. – Biroz kutish kerak.

Aftidan, “rahbar”ning yoniga nazoratchi qoʻyilgan. Qoʻlidagi telefon bilan oʻynab javob berdi:

– Nimani kutish kerak? – u oʻzidan besh metr oldinda turgan yoshlarga ishora qildi. – Bolalar jamoani kutishmoqda. Buyrugʻ ber yoki ularga qoʻngʻiroq qil.

“Rahbar” uchun “U yerga qoʻngʻiroq qilish” ayni damda eng qiyini edi. Ammo agar tanlash imkoni boʻlsa, u umuman qoʻngʻiroq qilmagan boʻlardi. Qoʻlidagi telefon tugmachasini bosdi. Salom aytishga ham nasib etmadi. Telefondan buyrugʻ ohangdagi ovozni eshitdi:

– Biz sizni kuzatyapmiz, u tirik. Agar hozir boshlamasangiz, kech boʻladi.

– Xoʻsh, men boshlayman. – Qoʻlidagi telefon tugmachasini bosib, koʻrsatma bermoqchi boʻlganida, Yasamol Ijroiya hokimiyati joylashgan binoning yuqori qismidan kelayotgan shovqin-surondan bir zum xayoli chalgʻib ketdi.

Tepadan yigirma-oʻttiz nafar niqobli yoshlar qoʻllarida bayroqlar bilan qiyqirib, baqirib kelib, orqa qatordagi “rahbar” va uning hamrohini oʻrab olishdi. Pandemiya sababli ularning aksariyati niqob kiygan, shuning uchun ular tanib boʻlmasdi. Ularga faqat maxsus signallar uchun telefonlardan foydalanishga koʻrsatma berildi.

Oradan ikki daqiqa o'tmay, "rahbar" va uning hamrohi g'oyib bo'ldi. Shunday qilib, sabotaj rahbari zararsizlantirildi.

Ammo masala shu bilan tugamadi. Milliy Majlis oldidagi maydon sekin-asta to'lib borar, hatto "Olovli minora" dan ham nariga o'tar, "Shahidlar xiyoboni" namoyish va mitinglar joyiga aylanib borardi.

Biroq, bu katta olomon oldida hech kim ko'rinmadi. To'g'ri, maydonda ikki davlat amaldori paydo bo'ldi. Ular bir soatdan ko'proq vaqt o'sha erda turishdi, keyin ketishdi. Hatto ikki marta Az TV orqali maydonga kabel yotqizishga urindi. Ikkala holatda ham kabellar ko'rinmas qo'llar bilan kesildi.

Oyning o'n to'rtinchidan o'n beshiga o'tar kechasi maydon yanada jonlandi, odamlar baqirishdan to'ymasdi. Rahbarlarning yo'qligi sabotajning boshlanishi uchun haqiqiy vaqt bo'ldi. Endi butun mamlakatga o't qo'yish uchun uchqun kerak edi.

Bu vaqtda kutilmagan voqea yuz berdi. Kutilmaganda maydondagilar baqirishdi:

- Ilhom! Ilhom! Ilhom!

- Qorabog' Ozarbayjondir! Qorabog' Ozarbayjondir!
Qorabog' Ozarbayjondir!

- Qorabog'! Qorabog'! Qorabog'!

- Qasos! Qasos!

- Ilhom! Ilhom! Ilhom!

Bu allaqachon xalqning birligi edi. Maydonni shunday tark etish to'liq mag'lubiyat degani. Odamlar asta-sekin maydonni bo'shatishdi.

Qo'ng'iroq yana keldi:

- Ha, - javob berdi.

- "B" rejasiga o'ting, boshlang.

- Bu sodir bo'ldi.

Bir necha daqiqadan so'ng olomonni o'ttiz-qirq kishi tark etdi. Avvaliga Milliy Majlis oldida turgan politsiya

So'qmoq mashinasini burishdi. Politsiya aralashmadi. Bu odamlar tobora aqldan ozishdi. Ular bir-birlariga ishora qilishdi.

- Milliy parlament o'tkazilishi kerak. Asosiy joy u erda!
- Oh, u to'g'ri. Milliy majlisda o'z kuchimizni ko'rsataylik.
- Ketdik, vaqtni behuda o'tkazmaylik.

Bir necha daqiqadan so'ng bir guruh odamlar Milliy Majlisga hujum qilishdi. Ularning oldiga hech kim kelmadi. O'shanda parlament binosida tungi qorovuldan boshqa hech kim yo'q edi. Eshik va derazalar singan.

Kimdir baqirdi:

- Ularni yo'q qiling! - U o'z tomoniga ko'rsatmalar berishni unutmadi. - Sizning vazifangiz bularning barchasini telefonga yozib olish, keyin xabar berishimiz kerak.

Uning yonidagi odam suratga tusha boshladi. Kreslolarini sindirildi, stol va o'rindiqlarni sindirildi, devorlardan suratlarni olib, yerga tashlandi, oyoq osti qilindi, parcha-parcha qilindi, begunoh qo'riqchilar kaltaklandi, oyoq osti qilindi.

Ilgari shinam va ozoda bo'lgan qabulxona endi tanib bo'lmahvolga solindi. Oxir-oqibat, ular haqiqatan ham Milliy Majlisda rahbariyatdan hech kim yo'qligiga to'liq ishonch hosil qilishdi. Shunda vandallarining boshlig'i qichqirdi:

- Az TV, Az TV ga boramiz.

Lekin juda kech edi. Politsiya maxsus bo'linmalari allaqachon Milliy Majlis ichidagi provokatorlarni zararsizlantirdi.

Xalq o'zi bosib o'tgan yo'lning o'rtasidan to'qsoninchi yillarga qaytishiga oz qoldi. So'qmoqning yo'lga aylanishiga bir yuz o'n olti kun qoldi...

XVIII-asr o'rtalari

...Panohalixon Shohbulog' qo'rg'onidan yo'lga chiqqanida hali tong otmagan bo'lsa-da, qushlarning sayrashi, chug'urlashi eshitilardi.

U bu safar o'zi bilan faqat Murodni olib ketdi. Endi Murod

harbiy qiyofada emas, saroy xizmatchisi kabi, o'tgan safargi kiyimida edi.

Xon xizmatchisiga orqada ergashishiga ruxsat bermadi. Agar kimdir uning orqasidan kelayotganini ko'rsa, xo'jayin-xizmatkor masalasi paydo bo'ladi, deb o'yladi. Shunga qaramay, u hayotini xavf ostiga qo'yib, bir kishi bilan yo'lga chiqqandi.

Ular otlarini teng haydab, jim ketib borishar, xon gapirmasa, Murod ham tin olar, churq etmasdi. Ikkalasi ham qo'ng'ir otda edi. Otlar yo'l bo'yi kishnar, egalari bir oz egarni bo'shatib qo'yishadigan bolsa, otlar sapchib chopib ketishi mumkin edi.

Xon boshidagi qalpog'ini o'ng qo'lga olib, osmonga qaradi. Osmonda ora-sirada bulutlar ko'rinsa ham, qushlar balandda uchib, chiyillashardi.

Bunday paytlarda - xon dedi, - bu yerlar juda yomg'irli hudud bo'lardi. Omadimiz kelgan shekilli, otlar loyga botib qolmayapti.

Murodning bolaligi qirlar-u adirlarda o'tgan, bu haqda u bilardi. Hatto kechalari otasi yulduzlarga qarab ertaga yomg'ir yog'adi, yoki yog'maydi deb bemalol ayta olardi.

Ammo xonning o'zi uni gapga solsa-ku, u javob bermasa odobsizlik bo'lardi. Qolaversa, otasi hamisha maroqli suhbat yo'lni qisqa qiladi deb aytardi. Shunday qilib, u javob berdi:

-Xon hazratlari! Biz-ku tog' va o'rmonlarda o'sganmiz. Lekin siz buni qayerdan bilasiz?

Panohalixon har safar Murodni ko'rganda otasi Nasriddinning dono chehrasi ko'z o'ngida namoyon bo'lardi. Ota va o'g'il o'rtasida o'xshashlik ham bor edi albatta.

Xon o'yladi: bu bolada aqllilik, ziyraklik hislatlari bor, qani bir tekshirib ko'raychi otasi kabi so'zlashadimikan? U "Xizmatchi"sining savoliga shunday javob berdi:

- Dono odam bulutdan ham nam tortadi. Yoki tog'u toshlarda yashaydigan donishmandlargina hikmatlar ayta oladi deb o'ylaysanmi?

Murod xonning otasi bilan nima haqida gaplashgani, qanday yo'sinda gaplashganini bilmasdi. Xonning o'zi shunday ohangda gapirdimi, mayli unda, deya javob berdi:

-Katta tog'ning tumanlari ham katta bo'ladi, xon hazratlari! Buni qanday bilmasligimiz mumkin? Sog' bo'lsinlar, tegirmondan qaytganning qo'liga qaraydilar! Siz bizning takkamizsiz!

Xon guvoh bo'ldi-ki, otasi nima ekan bo'lsa natija o'g'lida namoyon bo'libdi. "Yaxshi" - dedi uni ma'qullagancha jilmayib, so'ng qo'lini peshonasiga soyabon qilib gapirdi:

-Kel, otlarni biroz qizdiraylik. Zerikib qolganga o'xshashadi. Poygaga nima deysan? Aytganlaridek... Yomon ot o'zini o'ylaydi, yaxshi ot yigitni".

Murod e'tiroz bildirmoqchi bo'lib, o'zini chetga oldi va dedi:

-Xon hazratlari! Men kim bo'libman-ki siz bilan raqobatlashsam? Keyin atrofda xon navkari bilan ot poygasiga chiqibdi, degan gap taraladi. Haddimdan oshgan sanalaman, teng tengi bilan podishohim.

Ustiga mening otim yomon toifadagilaridan, doimo o'zini o'ylaydi.

Bu safar xon e'tiroz bildirdi:

- Men ot savdosi bilan ham shug'ullanganman, bir qarashda otni qanday ekanligini bila olaman. Ikkimizda ham Qorabog' otlari. Bilasanmi Amir Temur, - haqqiga duo qildi, Alloh uni rahmatiga olsin.

- Murod omin dedi, - Qorabog'ga har yili kelar ekan. Unga bu yerning muhiti juda yoqar, u Ag'dam tarafida, Go'tur qishlog'i yaqinida chodirlarini qurar, dunyoning barcha elchilarini shu yerda qabul qilarkan.

E'tibor ber! U Qorabog' otining chaqqonligini, baquvvatligini ko'rib, Turkistonda ham Qorabog' otlari bilan Axalki otlarini ko'paytirish xayoliga keladi.Va ishni qiladi.

Natijada biz o'tirgan bu zotdagi otlar yaratilgan. Shuning

Yunus O'g'uz

uchun men bu otlarning hamma narsaga qodir ekanligini bilaman. Biz shu otlarni mindik, buni unutma!

Yemini yegan ot egasiga zarar keltirmaydi! Xon qo'lidagi tizginni bo'shatishi bilan ot chopib ketdi, Murod ham uning orqasidan ergashdi...

... Cho'pon xarsang tosh ustida o'tirib nay chalar, dunyoning sir-sinoatlari haqida o'ychan tafakkurga cho'mgan, biroq hushyor edi. Itlarning hurillashi, bezovta bo'lishi qo'ylarni podadan ajratardi.

Orada qo'lini yerga qo'yib, yerdagi tebranishni tekshirar, so'ng nayini chalishda davom etardi. Bu safar qo'lini yerga qo'yganda tebranish kuchli ekanini, kimdir ot choptirib kelayotganini sezdi.

O'yladi: "Yo'q, xon bu yerlarda poytaxt qurmoqchi bo'lsa kerak. U so'zida qat'iy turadigan odam. Kelaman dedimi, keladi. - Keyin o'ylagan narsalaridan shubha qildi.

- "Balki kelayotganlar ular emasdir. Nega men ular albatta keladi deb o'ylayapman?"

Biroz vaqt o'tgach, sharpalari ko'rindi. Otliqlardan biri xon edi, o'tgan safargi kiyimda. - Xo'sh uning yonidagi kim ekan? Yuragi tez-tez ura boshladi. Ko'zlarinig qiri bilan sinchiklab qaradi...

"Ehey, bu Murod ku. Chakki emas o'g'lim! Qanchondan beri xon bilan birga ot surib yuribsan?! - Aftidan, u yuqori lavozimiga ko'tarilganga o'xshaydi. Endi men unga ko'rsatib qo'yaman."

Ular yaqinlashgach, itlar yana hurdilar. U o'g'lining isini itlar sezganini angladi.

Ular Cho'ponning oldiga yetgan zahoti u oldinga yurib, xon otining jilovidan ushlagancha ta'zim qildi:

-Xush kelibsiz, jonim qurbon bo'lsin! Juda tez chopibsizlar chog'i!

Panohalixon otdan tushdi. Murod ham chaqqonlik bilan yerga sakradi.

-Kuning hayrli bo'lsin, Nasriddin bey! Aytganlaridek, o'ylab o'tirsak manzilga yetmaymiz! Bugun qarorimizni to'liq qabul qilish uchun Obashdan keldik.

Cho'pon dedi:

-Yaxshi bo'libdi, xon hazratlari! - U o'g'liga qarab. - Itga egasi hurmatidan muomala qilishadi, qurboning bo'lay!

Xon tushundiki, chol o'g'liga "nega u bilan birga kelding?" - deb tanbeh beryapti.

- Nasriddin jasurligi bilan mashhur inson edi. Oy har doim ham bulutlar ortida qolmaydi!

Yaxshisi, mavzudan chetga chiqmaylik.

Cho'pon fahmladi. Ya'ni u, chuqurlashma, o'zim ruxsat berdim, demoqchi.

-Notog'ri tushundingiz, jonim tasaddiq? Alloh saqlasa bo'ri buzoqqa tegmas! Qanday maslahat berasiz? Amringizni bajarish bo'ynimizdagi burchdir. Qani keling, quyosh chiqmasdan yuqoriga chiqaylik.

Xon xarsang ustiga o'tirdi. Cho'ponni yoniga chaqirdi:

- Shoshma, Nasriddin bey! Bir oz dam olaylik, keyin yo'l bo'ylab yuqoriga chiqamiz. Senga bir qancha savolim bor: Murod yo'lni yaxshi biladimi?

Cho'pon savolga o'ylab o'tirmay javob berdi:

- Mendan ham yaxshiroq biladi. - maqol ham qo'shib qo'ydi - "Yaxshi ot eski egar ostida bilinadi" hech shubhangiz bo'lmasin.

-Juda yaxshi! -Murodga o'grilib buyurdi. - Otlarni olib yuqoriga chiq. Bizni o'sha yerda kut. Biz ham yo'l bo'ylab yuqoriga chiqamiz.

Murod qo'lini ko'kragiga qo'yib, itoatkorlik bilan ta'zim qildi:

-Bosh ustiga, xon hazratlari!

U boshqa so'z aytmay otlarni yoniga ketdi:

Panohalixon ikkinchi savol bilan yuzlandi:

-Nasriddin bey! Sendagi hikmatlarni cho'ponlik bilangina o'rganib bo'lmaydi. Qani ayt-chi, ankabaankanlar kim? Buni bilishim zarur, chunki bu Murodni o'zimga yaqinroq qilishimga yordam beradi.

Nasriddin chuqur xo'rsindi, xonning yoniga o'tirishni esa o'zini loyiq ko'rmadi. Xonning "ohing tog'larga bo'lsin" deganidan keyin u shunday dedi:

-Qurboni bo'lay! Katta bobom Ardabildan bu yerlarga ko'chib kelgan. O'tganlarni rahmatiga olgan bo'lsin! - Salovat aytdi. Xon ham barobarida qo'lini yuziga olib bordi. - Bu Qoraqo'yunli, Bahorlidan bo'lgan Sulton Jahonshoh davrida sodir bo'lgan.

Bobom ham, otam ham shayx Safiiddin maqbarasida bobolari munshi (kotib) bo'lganliklarini aytishardi. Ular nima bo'lganini, nima qolganini, nima kelganini, nima ketganini yozib, kelajak avlodlarga saqlab, yetkazgan.

Shayx Safiyning kuyovi Sulton Shayx Ibrohim vafot etganida Shayx Junayd yosh bo'lganidan takkaning ishi, - Panohalixon Murod nega yo'lda "takka" so'zini ishlatganini endi tushundi.

Ich-ichidan "Ofarin" dedi, - unga murshudlikni Shayx Ibrohimning ukasi Shayx Ja'farga topshirdilar. U Jahonshoh bilan til topishdi.

Shayx Junayd balog'at yoshiga yetganda murshudlikni qaytarishlarini so'radi, lekin yoshligi sababidan unga ishonqiramadilar. Shayx Jafar takka ishini undan qaytarib olishiga imkon bermadi.

Shayx Junayd o'zi kabi yoshlarni va muridlarini to'plab, qo'shin tuzdi. U borib Jahonshohning azaliy dushmani Hasan Bey Bayandurga panoh topdi, singlisiga uylandi.

Biz Shayx Junayd tarafdorlari bo'lganimiz uchun ta'qibga uchrab, tarqalib ketdik, darbadar kezib, ba'zilarimiz bu yerlardan qo'nim topdik. - U yana xo'rsinib qo'ydi. Bunday kunlarda yegan noning ham toshdek bo'ladi ekan, qurboni bo'lay!

Xon biroz oʻylanib, navbatdagi savolini berdi:

-Keyinchalik nega qaytib kelmading? Pirimiz Shoh Ismoil Qizilboshlar davlatini yaratdi axir...

-Toʻgʻri, qurboningiz boʻlay! Biroq, Qizilboshlar davlati tashkil qilinganda, oʻsha voqealardan kamida ellik oltmish yil oʻtgandi. Oʻlganlar oʻldi, qolganlari qoldi. Aytganlaridek oʻtgan ishga salavot. Bizning baxtsiz kunlarimiz shunday boʻldi, qurboningiz boʻlay!

Panohalixon choʻponning hikoyasidan ularni zodagonlar sulolasidan ekanliklarini tushundi, chuqurroq oʻrgansa balki Safaviylar bilan qoni ham tutash boʻlar.

Zero hammani ham olib kelib, dunyoni larzaga solgan tariqat egasining maqbarasiga munshilikka qoʻyavermasdilar. Oʻrnidan turib, qoʻlini choʻponning yelkasiga qoʻydi:

-Eski un qopini silkitishing bilan chang chiqadi, Nasriddin bey! Gapirar ekansan, chindan ham gʻubor uchib ketadi, biz bilmagan, yashirin sirlar oshkor boʻladi.

Xoʻsh, Ardabildan oʻzingiz bilan nimalar olib keldingiz? U yerda necha yil munshi boʻlib ishladingiz? - uning yelkasidan qoʻlini oldi.

Choʻpon jilmaygancha shunday dedi:

-Orif kamol axtarar, johil mol! Qurboningiz boʻlay. Otabobolarim komillik izlaganlar. Shunday qilib, biz bilan darbadar kezgan boylik kitob boʻldi holos.

Xon shoshib soʻradi: - Qanaqa kitob?

Nasriddin horgʻinlik bilan dedi:

- Shayx Safiiddin yozgan "Arkannoma"ni bir nusxasini olib kelishgan.

-Haqiqiy xazinasan sen, Nasriddin bey... Bularning barchasini keyinroq batafsil aytib berasan. Endi ketaylik!

Avgust oyining oʻrtalari edi. Bu joylarda kunduzi havo jazirama boʻlishiga qaramay, tunlari juda salqin edi.

Mahalliy aholi xoʻjalik ishlariga jalb qilingan. Oʻrim-yigʻim boshlangan, tez orada sovuq tushishi sababidan

qishga tayyorgarlik ko'rildirdi.

1757-yil edi. Shusha shahri allaqachon qurilgan, Panohalixon esa poytaxtni bu yerga ko'chirgan edi. Ekin ekish va yig'im-terimning qizg'in mavsumi boshlandi. Shahar soliqlari ortib, xonlik g'aznasi boyib borardi.

HOSHIYA: Garchi Panohalixonning o'zi bu shaharni Shusha deb atagan bo'lsa-da, bu shahar aholisi va mahalliy aholi qal'ani xon sharafiga Panohobod deb atardi.

Xon vafotidan keyin u joylashgan yerga qarab Shusha nomini oldi. Shahar uch tomondan tik qoyalar, to'rtinchi tomondan esa yengilmas va o'tib bo'lmas qal'a devorlari bilan o'ralgan edi.

Shusha ham uzoq vaqt mavh etib bo'lmas qal'a sifatida dong qozongan edi. O'zining mustahkam muhofazasi tufayli bu shahar "toshlardagi Shisha" deb nomlangan. Shaharning uchta chiqish darvozasi bo'lib, tashqi aloqa Ganja, Oqo'g'lon va Yerevan darvozalari orqali amalga oshirilgan.

Shushaning shahar sifatida shakllanishida uchta asosiy bosqichni bosib o'tdi. Birinchi bosqich - Panohalixon (1693-1763) (1748-1763) hukmronligi.

Bu bosqichda Shushaning birinchi yirik mahallasi, keyinchalik Quyi mahalla deb ataladigan Tabrizli mahallasi qurildi.

Bu mavzeda to'qqizta kichik mahalla bo'lib, aholisining asosiy qismini Tabriz va Ardabilidan Bayot qal'asiga ko'chirilgan usta hunarmandlarni tashkil etgan: Chuxur, Qurdlar, Julfalar, Seyidli, Quyular, Mardinli, Hoji Yusufli, G'azanchali va Cho'l.

Panohalixon davrida Juma masjidi qamish va yog'ochdan qurilgan bo'lsa, Ibrohim Xalilxon davrida esa masjid buzib toshdan qayta tiklangan.

Shushaning shahar sifatida shakllanishining ikkinchi bosqichi Ibrohim Xalilxon (1763-1807) davrini o'z ichiga oladi.

Bu bosqichda sakkizta kichik mahalladan (Xonliq, Soatli,

Koʻcharli, Mamayi, Xoʻja Marjonli, Demirchi, Hamam qabog, Taza) iborat Shushaning ikkinchi katta mahallasi - Yuqori mahalla tashkil topdi.

Uchinchi bosqich Qorabogʻ xonligi 1806-yilda Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olingandan soʻng boshlanib, uzoq vaqt davom etgan.

...Chopar otini toʻgʻridan-toʻgʻri xon saroyiga haydadi. Shohbulogʻ qoʻrgʻonidagi bu ikki qavatli qasrning kirish eshigi shimol tomonda edi. Qalʼa toʻrtburchak shaklda qurilgan.

Saroy binosida koʻplab xonalar va katta T shaklidagi zal oʻrin olgan edi. Bu zal oʻzining ikki tomonidagi ulkan, baland toʻrli derazalari va mahobatli eshiklari bilan ajralib turardi.

Zal oxirida esa xon taxti oʻrin olib, katta gilamga vazir va aʼyonlar uchun toʻshaklar yoyilgan edi.

Kunning oxiri boʻlib xon Eshikogʻasining³ hisobotini tinglayotgan edi. Xon harbiy safarda boʻlmagan paytlar, saroyda usti oltin bilan qoplangan boshmoq kiyib yurgan.

Boshmoqlarning uchlari yuqoridan pastga egilib, ichkariga kirgan, boshmoqlardan yuqorida esa Shushalik tikuvchilar tomonidan etaklari zarhal ip bilan burama naqsh shaklida tikilgan choʻpon ostidan past kesimli, yuqoridan kengayib borgan koʻk shim va tugmasiz yashil koʻylak koʻrinib turardi.

Libosning yenglari yelkadan tirsagigacha tor, u yerdan pastga - bilakgacha esa kengaygandi. Boshiga koʻk rangli, oʻrtasida katta yoqut joylashgan amoma kiygandi.

Eshikogʻasi doimo xonning qarshisida turardi. Shusha shahrining qurilganiga besh yil boʻlgan, qalʼa ahli farovon

³ **Eshikogʻasi** - saroyda rasmiy bayonnoma, tadbirlar, qabullar va boshqa rasmiy ishlarni boshqaradigan yuqori mansabdor shaxs.

yashar, har kim o'z ishi bilan mashg'ul, qashshoqlik yo'q edi.

Shusha uzoq vaqt davomida nafaqat Qorabog'ning ma'muriy markazi, balki muhim iqtisodiy nuqtasiga ham aylangandi. Asosiy savdo va hunarmandchilik manzillari shahar markazi bo'lgan Yuqoribosh va Maydon deb atalgan hududda to'plangan.

Shushaning dong'i uzoq-uzoqlarga borib yetgan, "Tosh ichidagi shisha"ni barcha oshig'iga aylangandi.

-Xon hazratlariga shon sharaf bo'lsin! - Eshikog'asi hisobotini boshladi. - Siz yuborgan chopar saroyga yetib keldi.

Panohalixon qo'llarini qo'liga qo'yib so'radi:

- Qaysi chopar?

- Janubga yuborilgan.

Panohalixon Ozarbayjonning janubi va shimolida sodir bo'layotgan voqealarni juda yaxshi bilardi. U shimoldagi Ganja va Shekidagi voqealarni, sharqda joylashgan Shirvon xonliklari haqidagi ma'lumotlarni hamisha kuzatib bordi. U yerlarda sovuq sukunat hukm surardi.

Bu davrda Qorabog' xoni janub va shimoldan ko'p joylarni o'ziga bo'ysundirdi, Ganja xonidan soliq olib, Qorabog', Ardabil va Naxchivon xonliklarini o'z ta'siriga oldi. Tabriz Beklarbegidan Zangezur va Qapan tumanlarini o'z tasarrufiga o'tkazdi.

U Kolaniy qabilalarning maskani hisoblangan Ushachiq qishlog'idan Go'ycha chegaralariga qadar yoyilgan Tartar daryosi bo'yigacha bo'lgan yerlarni Yerevan hokimidan olib, Ganja xonligiga qarashli Xudafarin ko'prigidan Kura daryosigacha bo'lgan yerlarni o'ziga bo'ysundirdi.

Bir so'z bilan aytganda, qisqa vaqt ichida Qorabog' xonligi hududi kengayib, shu bilan birga Shushada iqtisodiy va siyosiy jarayonlar ham kuchaydi.

Albatta, Nodirshohdan keyin vujudga kelgan tartibsizliklarda, podshohlik uchun kurashda hamma Qorabog' xoning u bilan birga bo'lishini, undan harbiy va

moddiy yordam olishini istar edi.

Afshorlarning parchalanib ketgan davlatida Xurosonda oʻtirgan Nodirshohning koʻzlari koʻr qilingan nevarasini hisobga olmaganida, uch kishi toju-taxt uchun kurashayotgan edi.

Ular orasida hozircha birinchi boʻlib Astrobodning Ashagʻibosh urugʻining boshligʻi Ogʻa Muhammadshoh Qojarning otasi, kelajakda podshoh boʻladigan Muhammadhasan Xon Qojar edi.

Ikkinchisi, Sheroz va Isfaxonni egallagan Karimxon Zand, uchinchisi esa, Afshorlar vakili hisoblangan Urmiyalik Fatalixon Afshor edi.

Xon bularning hammasini bilardi, va Muhammad Hasanxon Qojar unga xabar yubordib dedi-ki: Keling birlashib, Hindistonga qadar yoyilgan Nodirshoh saltanatini barpo etaylik.

Lekin Javashirilar sulolasining Sarijali urugʻidan boʻlgan Hulakiylardan Argʻun elxonlikga borib taqalganiga qaramay, uning naslidan podshohlikka daʼvo qila olmasligi sababidan bunga qattiq eʼtiroz bildirdi.

Shu bilan birga, u oʻz shajarasi uchun yoʻl ochgan va shu yoʻl boʻylab xotirjam yoʻlga tushardi.

U xayolini jamlab, buyurdi:

-Chaqiring choparni!

Ostonada shay turgan boʻydor qoʻriqchi chiqib, choparni olib kirdi.

-Yaqinroq kel! – buyurdi Xon.

Chopar yaqin kelib, ikki qoʻlini koʻksiga qoʻygancha taʼvozelanib dedi:

-Xon hazratlarimizning umri uzoq boʻlsin!

-Xon qachon gapirishini buyursa, shunda ogʻiz ochish uchun sukut qildi.

Hukmdor uni uzoq kuttirmadi. Buyruq ohangida dedi:

-Qani ayt, nelar koʻrding, nelar bilding, kimlar bilan boʻlding?

Choparning og'zi ochildi:

-Xon hazratlariga shon sharaf bo'lsin! Bilishimcha, Qojar xon ustingizga yurish qilish maqsadida Qaradog' qozisi va Ganja xoni Shohberdiga maktub yo'llab, Shusha yurishida unga qo'shilishlarini so'rabdi. Ular ham rozilik bildiribdi.

Panohalixon g'azab bilan baland ovozda:

-He nomardlar, senlarni vaqtida jazolashim kerak edi. Hechqisi yo'q, boshlaring oqib yana oldimga keladi. Chiyabo'ri ming chiransa ham arslon bo'lmaydi. - Yana u buyruq ohangida savol berdi. - Xo'sh boshqa Ozarbayjon xonlari-chi? Ular nima qilishdi?

Chopar o'z bilganlarini so'zlashda davom etdi:

-Xon hazratlari! Mendagi ma'lumotlarga ko'ra, qolganlar Qojarxonning talabiga quloq solmagan...

-Ya'ni? - Xon choparning so'zini bo'ldi.

-Boshqacha aytganda, boshqa Ozarbayjon xonlari uning talabiga ko'ra Mug'onga harbiy qismlar jo'natishga va'da berishgan bo'lsa ham, ular bunday qilmagan. Ular faqat qimmatbaho sovg'alar yuborish bilan kifoyalanishdi.

-Keyinchi? - Xon Qojar xonning keyingi qadamlari bilan qiziqdi. Sabrsiz holatga tushib qolgan edi. Aslida, u shunday qilishga haqqim bor, deb o'ylardi.

Shuningdek, u yangi qurilgan Shusha qal'asining chidam va mustahkamligini tekshirmoqchi edi. Bu, shahar yuzlashayotgam birinchi sinovi bo'lardi. - Qojar xon hozir qayerda?

-Hozir Muhammad Hasanxon Qojar Shushadan to'rt-besh chaqirim narida joylashgan Xatunarhda qarorgoh qurgan.

Panahalixonning yuzida bir muskul ham o'zgarmadi. U bu yangilikni bilar edi. Bu xabarni chopardan boshqalar ham tashqaridan olib kelishgandi. Ammo bu chopar boshqacha edi. U bir oydan ortiq vaqtdan beri Qojarxon qo'shinini yaqindan kuzatib yurgan. Yangiliklarning aksariyati bir-biriga uyg'un keldi.

U navbatdagi savolini berdi:

-Uning qo'shinlari soni qancha? Chopar aniq raqamni ayta olmadi. Ayta olmasdi ham. Askarlarni birma-bir sanab chiqibdimi? Ammo savolga javob berish kerak edi:

-Aytishlaricha o'ttiz mingga yaqin. Ular, asosan, Qovonli-Qojar Mozandarondan, Astrabad va Gilondan to'plangan.

Panohalixon boshqa savol bermadi.

-Ketishing mumkin, - dedi. Chopar ta'zim qilib, zaldan chiqib ketdi. U boyadan beri bir og'iz ham so'z aytmagan Eshikog'asiga qaradi. -Sen nima deb o'ylaysan?

Eshikog'asi huddi Xonning xayolini o'qigandek javob berdi:

-Xon hazratlariga shon sharaf bo'lsin! Biz mudofaaga kirishishimiz kerak. Xudoga shukr, qo'rg'onimiz buzilmas, o'tib bo'lmas, devorlarimiz mustahkamdir..

Bizda askar va oziq-ovqat yetarli. Kelgusi bahorgacha chidashimiz mumkin, ammo qish kelganda Qojarxonning askarlari qanday qilib chodirlarda yashaydi? Qaror, albatta, sizniki, oliy hazratlari.

Biz mudofaaga kirishimiz kerak va shahar devorlarining mustahkamligini ham sinab ko'ramiz. Ko'ramiz, hunarmandlarimiz, ustalarimiz halollik va ustalik bilan devor qurdilarmi yoki yo'qmi?

Panohalixon taxtidan yonboshladi.

-Men ham shu fikrdaman. Bahorga qadar chidash kerak, qishda esa biz to'satdan hujum qilib, qojarlarni aqldan ozdiramiz.

Shu payt qo'shaloq eshiklar ochildi. Qo'riqchining yonida xonning to'ng'ich o'g'li Ibrohimxalil paydo bo'ldi.

Xon uni ko'rgan zahoti:

-Ibrohim, juda vaqtida kelding. - Panahalixon unga otasining ismini qo'ygani uchun ham uni ko'proq yaxshi ko'rardi. - To'satdan kelishining sababini taxmin qildi.

Eshiklarni yopildi. Ibrohimxalil xon yaqinlashib, ta'zim qildi.

-Xon hazratlari, maydonga olomon to'plandi, sababini

bilsangiz kerak - dedi u.

Hukmdor uning aytganlarini tasdiqladi:

- Ha, bilaman, Qojarxon Xatunarhda o'z qarorgohini qurib, shaharni olmoqchi va biz unga taslim bo'lishimizni istayapti. U o'g'lidani o'zini qiziqtirgan savollarni so'radi. - Xalq nima deyapti, qanday kayfiyatda?

Yosh shahzoda o'zining faolligini ko'rsatib maqtandi:

- Beylar bilan maydonni aylanib, gap-so'zlarga quloq tutdik.

Xon qiziqib so'radi:

-Nima deyishyapti, o'zlarini tutishi qanaday? - U shubhalanishga haqli edi. Odam xom sut emgan banda, unda hamma narsa kutish mumkin, deb o'yladi.

U, shuningdek, mas'uliyatning katta qismi jamoatchilikka tushganida, odamlar o'zini qanday tutishini bilmoqchi edi. -Ular qal'ani himoya qilishga tayyormi?

Ibrohimxalil xon taajjub bilan javob berdi:

-Albatta, xonim! Aholi buni xohlaydi. Xonning fikri bilan ular ham qiziqmoqda.

Biz "Shisha" ni himoya qilishga tayyormiz. Panohalixon bizga yo'l ko'rsatsin! Bir qarorga kel, xonota - deyishyapti. - Bu jamoa bilan siz tog'ni tog' ustiga qo'yishingiz mumkin.

O'g'lining gapidan Panohalixon biroz yengil tortdi. U o'rnidan turib, unga yaqinlashdi:

-Bu jamoat bilan dunyoning ko'z o'ngida Shushani o'tib bo'lmas tog' ustida qurdik. - Eshikog'asiga qarab o'g'lining so'zlariga urg'u berdi.

- Shushani kelgan yovga qarshi g'oz tutish uchun barpo etdik, yuksaltirdik, aholi xavfsizligini ta'minlash maqsadida "Shisha"ni qurdik.

Sen kelishingdan oldin biz qal'ani mudofaa qilish bo'yicha Eshikog'asi bilan muhokama qilayotgan edik. Endi bizning ham, Shushaning ham sinaladigan vaqti keldi.

O'g'li otasining bu so'zlaridan ruhlanib:

-Nima qilish kerak, oliy hazratlari?! - so'radi u. -

Oyog‘ingizni qo‘ygan joyga boshimizni qo‘yishga tayyormiz.

Xon uning bu so‘zlaridan mamnun bo‘ldi. U qaytib joyiga o‘tirdi va ularga qarab dedi:

-Xon o‘g‘liga xitob qildi -Hali bu ishda sen tajribasizsan.

- Seni Eshikog‘asiga yordamchi qilib tayinlayman. Qal’ani himoya qilishni esa unga topshiraman.

-Eshikog‘asi qo‘lini ko‘ksiga qo‘yib “bosh ustiga” dedi.

- Birinchidan, darvozaning tanbalash va qal’aga kirish va chiqishni taqiqlash kerak. Kirish va chiqish uchun maxsus ruxsatnomasi bo‘lmagan hamma uchun eshiklar yopiq.

Ikkinchidan, dushman hujumi paytida qal’a devorlarining mudofaasiga, minoralar ustiga yelim va toshlarni to‘plab, ularni dushman qal’a ostonasida turganda, qaynoq holda ustilaridan quyish bizga qo‘l keladi.

Miltiqchilar va kamonchilar kechayu kunduz navbatchilik qilishlari, uxlamaslik uchun terisini ko‘chirib, yaralariga tuz sepishlari kerak. Kichik to‘plarimiz dushman juda yaqin kelganda ishlatilsin.

Portlovchi to‘p o‘qlaridan tejamkorlik bilan foydalanishimiz kerak. Uchinchidan, eng muhimi, qal’a ichida nazoratni kuchaytirish, ihtilof solgan har bir kishi zudlik bilan jazolanishi kerak. Qal’ani olish mumkin emasligi, aholini jangovor ruhini oshirish maqsadida targ‘ibot olib borish ularni kuchli ekanligini aqlariga singdirish kerak.

Va to‘rtinchidan, har bir qamalni buzishning asosiy sababi oziq-ovqat nazoratining yo‘qligi. Chayqovchilar bundan foydalanib, narxlarni oshirib, xalqni norozi kayfiyatga solib bizga qarshi qilib qo‘yishadi. Shu bois oziq-ovqat omborlari zudlik bilan nazoratga olinib, u yerga qo‘riqchilar qo‘yish kerak.

Odamlarga ham hamma narsa nazorat ostida ekanligi aytilsin. - U bir nafasda bergan ko‘rsatmasini tugatib so‘radi. - Aytganlarim tushunarli bo‘ldimi?

Xon gapirar ekan, Eshikog‘asi va o‘g‘li hamma vazifani miyyasiga quyib olgandek edi. Zero ular yillar davomida

bunday narsalarni o'rgangan va bunday vaziyatda dovdirab qolishmasdi. Ikkalasi ham qo'llarini ko'ksiga qo'yib javob berishdi:

- Tushunarli, xon hazratlari!

-Unda sizga ruxsat, ishga kirishing, odamlarga ayting, shaxsan o'zim mudofaa ishlarida qatnashaman. Tayyorgarlik ko'rib aholini ham safarbar qiling.

Ular ketgach, xon o'rnidan turib, zal bo'ylab, qo'riqchiga ko'z qirini tashlangancha yura boshladi. "Beshinchisi ham bor edi, lekin buni o'zim bilganim kifoya. Ibrohimxalil buni bilishga hali erta".

Bularning barchasini u ichida o'yladi. Joyiga qaytib kelib, o'tirdi va qo'riqchi bo'shlig'ini oldiga chaqirdi.

-Murod bey, yaqinroq kel.

Shusha shahri qurilgach, xon Murodni o'ziga yanada yaqinroq qilgan, beylik unvonini berib, bir qancha qishloqlarni ham hadya qilgandi. Murodning otasi Nasriddin shu besh yil ichida vafot etdi.

Murod unga yaqinlashdi:

-Amringizga muntazirman, xon hazratlari!

Panahalixon pichirlab dedi:

-Sening vaqting keldi, Murod. Men aytgan ishonchli yigitlardan iborat guruhini shakllantirdingmi?

Bundan to'rt-besh oy avval Xon Murodga ishonchli yoshlardan bir guruh tuzib, ular og'zini doim "qulf"lab yurishni topshirgan edi. Zero xonning o'zi majburlasa ham, sirni oshkor qilmasin.

Qamal paytida o'sha jangchilar xon qurdirgan "Yo'l"dan tushib, dushmanga hujum qilishadi, ularning jangovar qismlarini yo'q qilib, kelgan yo'ldan qaytib, ularni vahima va qo'rquvda ushlab turishardi.

Murod qo'lini ko'ksiga qo'yib javob berdi:

-Ular tayyor, xon hazratlari!

-Ishonsa bo'ladimi?

-Ular sirni oshkor qilmaslik uchun o'lishga ham tayyor.

Amaliy ishlar ham olib borilmoqda.

Xon yengil nafas oldi.

-Unday bo'lsa yaxshi, tayyorlaning! Uch-to'rt kundan keyin boshlaysiz ...

Muhammad Hasanxon Qojar qal'ani yigirma kundan ortiq qamal qildi, ammo hech qanday o'zgarish bo'lmadi. Qal'a himoyachilari Qojar askarlarini hatto qal'a devorlariga ham yaqin yo'latmadilar.

Uzoq masofadan Dayandoldurum miltig'idan otilgan o'qlar natijasida yiqilgan askarlar soni ortib borardi. Qojarxon Panahalixon bilan ko'p marta muzokara qilmoqchi bo'ldi biroq, buni uddalay olmadi.

Uzoqdan otilgan to'plar ham nishonga tegmasdi. To'plar yo qal'a devorlariga yaqin tushar,, devorga teggan taqdirda ham, faqat chang va tutun ko'tarilar, tosh bo'laklari esa osmonda bir aylanib, yerga tushardi.

Qojar xon uzoq masofaga otiladigan og'ir to'plarni maydonga olib kela olmagandi. Hudud tog'li bo'lgani sababidan bunga imkon yo'q edi, chunki buning uchun ko'p mehnat, ko'plab ho'kizlar, otlar, harbiy kuch kerak bo'lardi. Bu ko'p vaqt va ishchi kuchini talab qilardi. Muhammad Hasanxon Qojar Shimoliy Ozarbayjonga kirgach, bu bo'shliqlarni mahalliy xonlar hisobiga to'ldiraman deb o'ylagandi, ammo bu amalga oshmadi. Ikki xonlikdan boshqa hech bir xon unga yordam bermadi.

O'shanda xon g'aznani mahalliy aholi hisobidan to'ldirmoqchi bo'lgandi, biroq yana hech narsaga erisha olmadi. Yoz kelishi bilan mahalliy aholi mollarini olib, Kalbajar tog'lariga chiqib ketishar, qariyalardan boshqa hech kim qolmasdi.

Mug'onda ikki oy vaqtni behuda o'tkazgan Qojar qo'shini Shusha tomon harakatlana boshladi. Xotunarhga yetib

kelganida, xon bu yerlarda yozning oxirlari ekanini bilgandi.

Lekin nima ham qilish mumkin edi, bu yerga kelganidan so'ng nomiga munosib ish tutishi kerak edi. Shusha qal'asi bunchalik mustahkam bo'ladi deb o'ylamagandi. Aholisi esa Qorabog' xoniga bo'lgan muhabbati tufayli yo qal'aga, yo tog'larga o'rnashib olgandilar.

QAYD: Ko'p o'tmay, u Astrobodga qaytgach, o'zi noib qilib qoldirgan Og'a Muhammadxon Qojaraga bo'lgan ishlarni aytib, ulardan namuna olishini tavsiya qilardi.

U ham otasi kabi 1795-yilda Shushaga birinchi yurish qilganida ham o'sha xatolarini takrorlagan, hech narsaga erishilmasa, jahli chiqib bir yurish bilan Tiflisni zabt etardi.

Shushadan olgan mag'lubiyatining alamini Tiflisdan chiqarib, bu shaharni xarobaga aylantirardi.

Oradan ikki yil o'tibgina, ya'ni 1797-yilda Og'a Muhammadshoh Qojar Shusha atrofida uzoq masofaga uchuvchi og'ir to'plarni jamlab, qal'a devorlarini vayron qiladi va qal'ani egallaydi. Biroq u o'z o'limini ham shu yerda topadi.

Endi esa qal'a yengib bo'lmas darajada mustahkam edi. Bir tomondan, qo'shinning orqa tomoniga to'satdan uyushtirilgan hujumlar to'xtamasdi.

Murodning guruhi "Yo'l"dan tushib keldi. Kechasi havo quyuq bulutli bo'lgani uchun hech nima ko'rinmasdi. Bu orada Murov tog'i tarafida bulutlar g'uvillab yelar, momaqalldiroq gumburlar, ortidan chaqmoq chaqardi.

Bunday ob-havo sharoiti Murodning guruhi uchun katta imkoniyat tug'dirdi. Tim qorong'u tunda guruh ko'rinmasdi.

Har bir qorong'u tun Shushani najotga yaqinlashtirdi. Guruh o'zi bilan arqon va og'zi o'ralgan portlovchi xaltalar olgan edi.

Og'irlik qo'shmaslik uchun har biri faqat xanjar va ikkita to'pponcha bilan kifoyalandi. Ular bu yerga jang qilish uchun kelishmagandi.

Faqat orqadan o'tib, oziq-ovqat chodirlariga o't qo'yish,

Soʻqmoq

portlashlar uyushtirish va keyin ular kelgan yoʻldan qaytish guruhning asosiy vazifasi hisoblangan.

Boshdan-oyoq qora kiyingan bu qoʻriqchi askarlar guruhi "koʻrinmaslar" deb nomlangandi.

Chodirning orqasida va oldida qorovul turgan ikki askar bir-biriga yaqinlashdi. Vaqtini oʻtkazish uchun ular bir-biri bilan suhbatga kirishdi.

Askarlardan biri ikkinchisidan soʻradi:

-E, Nazmiy, sen bu oʻnboshi bilan jursan⁴, bu yerda uzoq qolamizmi, nima deyapti?

Nazmiy javob berdi:

-Xudo haqi, oʻnboshining aqli joyida emas. Nima soʻrasam bilmayman deydi. Soʻnggi paytlarda uning kayfiyati yomon.

Qalandar navbatdagi savolini berdi:

-Buni oxiri qanday tugaydo ekan-a? Yozning oxirida ob-havo shunday boʻlsa, kuz va qishda nima boʻladi?

Osmonda chaqmoq chaqib, ularning yuzlarini yoritdi. Qojar armiyasida hech kim soqol qoʻymasdi, lekin burama moʻylovli boʻlish urfga aylangandi. Endigina ularning burama moʻylovlari koʻrindi.

Ularning yonida yashiringan Murod va uning bir jangchisi ikki askarning yuzini aniq koʻrdi. Ular Shushalik odamlarga oʻxshar, turkcha gaplashishardi.

Agar boshqa vaqt boʻlganida va bu odamlar Shushaga mehmon boʻlib kelganlarida, ehtimol ular qalʼaning eng hurmatli mehmonlari qatorida boʻlar, ularni uylarini toʻriga olib borib, qoʻnoq qilishardi.

Ammo ular bu yerga yov boʻlib, oʻldirish, uylarini talon-taroj qilish, shaʼnini poymol qilish uchun kelishgandi.

Murod futsatni kutayotgan edi, vaqti kelsa, bu ikkisi va boshqa chodirlarning qorovullari ham kirib ketishlarini poylardi. Askarlar esa suhbatida davom etardi.

- Asti gapirma, ey Qalandar! Bu yerda bir oy tursak, uch

⁴ jur-yaqin, sirdosh boʻlmoq

narsadan itdek bezib go'rga kirib ketamiz. - o'ziga o'zi g'inshidi. - Vey, shu kunlar bormidi boshimda?

Xotin, bola-chaqani tashlab dunyoni bir burchagida nima bor edi? Hayif emasmi bunday cho'llik joylarda jon?! Otning boshini yo'qotib, shuvoq hidli sahro havosidan nafas olib yurasan.

-Bo'shashma Nazmiy bular barchasi oilamiz, vatanimiz uchun. Lekin biz bostirib kirayotgan aholi ham bizning tilimizda gaplashayotganga o'xshaydi. Ko'ryapsanmi, necha oylardan beri xon qo'shinida yurib, urushdamiz. Qaerda bo'lmasin ular ham bizning turkiy tilimizda gaplashyapti.

O'nboshimizning aytishicha, Bandar Abbosda forscha, Balujistonda arabcha, Janubda esa kurd tilida gaplashishadi ekan.

-Qalandar, demak biz o'z xalqimizni o'ldiryapmiz ekanda, to'g'rimi?

Uning suhbatlari Qalandarga doim qiziq bo'lardi. Ikkalasi ham yigirma besh va o'ttiz yoshlar orasida edi. Shuning sababidan ham suhbat u maroqli o'tardi. Ammo suhbat boshida uni hayratda qoldirgan, e'tiborini tortgan narsa boshqa edi.

Shosha-pisha Nozimning savoliga javob berib, o'zi ham nimadir so'ragisi keldi.

-Ha, ha, to'g'ri aytasan! Biz o'zimizni o'zimiz yo'q qilayapmiz. Hindistonga qadaryastangan o'lkaning podshohi Nodirshohni jiyani Aliquli Xonni o'zi o'ldirmaganmidi? Keyin u ham o'z ukasi tomonidan o'ldirilgan.

Otam rahmatli Nodirshoh bilan Dehligacha borgan edi. Sen menga boshqa narsani ayt. Bizni qabrdagi itlar kabi ushlab turadigan uchta narsa nima?

-Qaysi uchta narsa?

-Uchta narsa aytding-lu Qalamdar! Xotirang joyidami? Bir oz oldin aytgan so'zlaringizni tezda unutdingmi?

Qalandar qo'lini qo'lga ishqaladi. Va to'xtab, birdan kulib yubordi:

-Ha, uch narsa bizni itlardek goʻrga tiqadigan. Aytmoqchimanki, tez orada bu yerdan chiqmasak, halokatga mahkum boʻlamiz. Nima uchun soʻra?

-Nima uchun?

-Birinchidan, sovuqdan tarasha qotamiz. Aytishlaricha, bu yerda havo shunchalik sovuq-ki, odamning iligidan oʻtib ketadi. Aks holda, ochlik bizni qulatadi. Oziq-ovqatimiz tugab bormoqda bu ikkinchisi. Och odam qilichini qanday oʻynatadi. Bu “koʻrinmas”lar bizni qanday nayranglar bilan oʻynatyotganini koʻrmayapsanmi?

Birozdan keyin bir-birimizning goʻshtini yeymiz shekilli. Nazmiy beixtiyor savol berdi:

-Uchinchisi-chi?

Qalandar jilmayib javob berdi:

-Oʻylab koʻr, xayolingga keladi, uchinchisini topib, oʻzingiz ayt.

-Seningcha uchinchisi nima?

-E, ahmoq, uchinchisi nima boʻlardi? Agar sovuq va ochlikni yengmasak, bizda hech narsa qolmaydi. Biz hatto qimirlay olmaymiz. Shunda Panahxon askarlari kelib boʻgʻzimizdan tortadi. Ular buni shunday qilishadiki, oʻldirganlari uchun rahmat aytamiz.

Nazmiy ogʻzi ochilib uni tinglardi:

-Toʻgʻri aytding, Qalandar! Bizning kunimiz bitganga oʻxshaydi.

Bir lahza Qalandarni koʻz oldida oʻlim gavdalandi.

Soʻnggi kunlarda birdaniga tomogʻidan oʻldirib ketilganlar koʻpayganini bilardi. Bir payt oʻzini ham pichoq ostida his qildi. Nazmiyga qoʻrqib qaradi:

-Nazmiy, bu “koʻrinmaslar” kimlar deb oʻylaysan, ular qayerdan paydo boʻlgan, qayoqqa ketyapti? Xudo haqqi, bu yerlar jinlar toʻplanadigan joy deyishgandi ishonmagandim.

Ey doʻstim! Koʻz oʻngimizda safdoshlarimiz birin-ketin yoʻq qilinyapti, lekin na eshitdim, na koʻrdim degan bor. Bu qancha davom etadi?..

Qalandarni gapi og'zida qoldi. Shu payt tovush chiqarmaslik uchun oyoq kiyimining tagida echki terisi qoplangan ikki kishi sekin ularga yaqinlashdi. Shu zahoti xanjar tig'i ikkalasining tomog'iga tortildi.

Ularning aytganlari haqiqat bo'lib chiqdi. Qorabog' ularning g'o'riga aylandi.

Bir necha daqiqadan so'ng to'rt-besh chodirda yong'in va portlash sodir bo'ldi. Shunga qaramay, buni kim qilganini hech kim bilmas edi. Murod guruhi bilan kelgan yo'l bilan Shushaga talofatsiz qaytdi.

G'azablangan Qojar xoni hududni tintuv qilishni buyurdi, ammo qidiruv hech qanday natija bermadi.

Bir necha kundan keyin Muhammad Hasanxon Qojarga Karimxon Zand tarafdorlari Mozandaron va Gilonda qo'zg'olon ko'targanliklari haqida xabar keldi.

Unga bu yerdan ketish uchun bahona kerak edi. Bu xabar unga qo'l keldi. Qamalni to'xtatib, Mozandaronga jo'nadi. Shusha esa bir necha yil tanaffus oldi...

Shusha ishg'oli, 1992-yil 7-may

Shusha qamali yanada kuchaydi. 6-may kuni Qorabog' fronti qo'mondoni Arkadiy Ter-Tadevosyan butun front bo'ylab hujum qilish to'g'risidagi buyruqni imzoladi.

Havodan qon va o'lim hidi anqirdi. Bahor fasli bo'lsa-da, gullarning ifori yo'q edi. O'lim isidan boshqa. Shusha osmoni ham o'zgacha rang oldi. Osmonga qon sachragandek edi go'yo.

Shushaning boshi uzra ajal esardi. Bir paytlar bayram-tantana, kulgi sadolari bilan jonlangan shahar endi jon taslim qilayotgandi. Kishiga go'yo bu qadimiy shahar har doim shunday bo'lgandek tuyulardi. Aslida bunday emas edi.

Faqat yigirmanchi asrning boshlarida shahar uch marta (1905, 1918, 1920) yondirilgan. Bu esa to'rtinchisi edi.

Shusha madhiga aytilgan tarif-u dostonlardan asar ham qolmagandi.

Tinch aholi Lochin yo‘lagi bilan Lochinga yetib keldi. Qal‘ada 22 000 kishidan faqat 2500 ga yaqin odam qolgan. Ularning faqat besh yuzga yaqini ko‘ngilli jangchilar edi.

Oyning oltinchisida “Sumqayit OMONi” va Ravshan Akbarov qo‘l ostidagi harbiylar Shushadan allaqachon chiqib ketishgan edi.

Avvaliga arman kuchlari manevrlar uyushtirib, go‘yoki Lachin yo‘lagini egallash niyatida ekanliklarini bildirishdi. Mayor Ovanesyan boshchiligidagi polk Ozarbayjon jangchilarini Jonhasan-Ko‘salar yo‘nalishiga chorladi.

Bu yo‘nalishda bir necha bor zarbalar berib, harbiy kuchini Shusha tomon yo‘naltirdi. Jangni davom ettirish armanlarning 26-bo‘linmasi tomonidan amalga oshirildi.

7-may kuni Shushakendda to‘plangan armanlar (Ter-Tadevosyan, Armaniston mudofaa vaziri Vazgen Sarkisyan, general Gurgen Dalibaltayan, Armaniston harbiy shtabi boshlig‘i Feliks Gozoryan, Robert Kocharyan, Serj Sarkisyan, Leonid Martirosyan, Oleg Eseyan, Zori Balayan, Andrey Saxarovning o‘gay o‘g‘li Aleksey Semenov, Yelen Bonner, baronessa Koks, “Jahon xristian birdamligi”, “Dashnoqustun” tashkiloti, “Arman milliy qo‘mitasi”ning rahbarlari va xorijlik jurnalistlar...) go‘yo teatr tomoshasiga kelgandek edilar.

Ular uchun maxsus joylar tayyorlangan, oldilariga dasturxon yozilib, turli taomlar tayyorlangan, vinolar qo‘yilgan edi. Hammaga durbin tarqatildi.

Shushakend qal‘adan olti kilometr uzoqlikda, bir ming ikki yuz yetti metr balandlikda joylashgan edi.

Hammaning kayfi chog‘, quvnoqlik bilan gaplashib, kulishardi. Yerevan va Xonkendida Shushani olish uchun alohida tayyorgarlik ko‘rilgan, hatto ayrim xorijiy davlatlar rahbarlarining roziligi ham olingandi. Endi Shushani olish

qolgandi xolos. Shuning uchun bu operatsiya "Tog'lardagi to'y" deb nomlandi.

Shaharning olinishini tomosha qilgani kelganlar, go'yo to'yga kelgandek edi. Ular shunday yasanib-tusangan edilarki, go'yo ular birozdan so'ng inson o'limini emas, balki bayram, tantanani qarshilab, qarsaklar chalinadi. Ammo bu olqishlar odamlar o'limi uchun atalgandi.

Bu "to'y"ning boshlovchisi esa Mudofaa vaziri Vazgen Sarkisyan edi. Mehmonlarga birin-ketin yaqinlashib, ulardan hol-ahvol so'rar, hazillashar, gapirib-kulardi. Xizmatkorlar ham sergak, atrofda yelib yugurar, qadahlariga sharob to'ldirar, kim nima xohlasa, ovqat yoki mevalarni oldiga muhayyo qilardi.

Nihoyat, Vazgen qo'lini yuqori ko'tarib gap boshladi:

-Xonimlar va janoblarni! Bugun "ruhimiz tantanasi" kunidir. - U bu so'zlarini aytib, Zori Balayanga baxilona qaradi, ya'ni: "Ko'rdingmi, qo'lyozmang hali kitob holida chop etilmagan, men esa uning nomini tilga olayapman" - degandek.

Aslida, Vazgenga uni bu "tomosha"ga taklif qilmaslik buyurilgandi. Lekin Shushaning qachon olinishini bilgani uchun Zori bunga ko'nmadi, surbetlashdi va hatto tahdid ham qildi. Oxir-oqibat Ter-Petrosyan rozilk berdiki, indamang, kelib bu yerdagilarga qo'shila qolsin, shu bilan hech nima o'zgarib qolmaydi, deb.

Shu sababli ham Balayan o'zini Yerevan hukumatidan biroz ranjigandek tutardi. - Bugun biz turklarni bitta qo'ymay Qorabog'dan quvib chiqaramiz. Nihoyat, bu joylar arman havosidan nafas oladi.

Bugun turklarning eng yuksak, o'sha mustahkam qal'asi - Shushani egallaymiz. Ular yengilmas armiyamiz zarbasini har yerda ko'rarlar, sinib yanchilarlar va doim shu mute ahvolda qolarlar.

Biz turklarning hatto yo'rgakdagi chaqaloqlarini ham yo'q qilishimiz, ularga yashash huquqini bermasligimiz kerak.

Omon qolganlar, ya'ni asir tushganlar esa qo'l ostimizda qul kabi ishlashlari lozim.

Turklar har doim bizning nayzalarimizni boshlari ustida ko'rishlari kerak. – Hamma olqishlab qarsak chaldi. - Tez orada “Tog'lardagi to'y” operatsiyasi boshlanadi.

Biz sizni buyuk maqsad bilan boshlagan ishimiz natijasini ko'rishingiz hamda bu xabarni yashin tezligida butun dunyoga tarqatishingiz uchun bu yerga da'vat etdik.

Yana qarsak chaldilar. Xalqaro hamjamiyatda armanlarning sodiq tarafdori va himoyachisi bo'lgan Yelena Bonner bu yerga kech kelgani uchun ba'zi masalalardan bexabar edi. Chunki u bu yerga to'g'ridan-to'g'ri aeroportdan kelayotgandi. Armaniston prezidentini bu yerda ko'rmagach, so'radi:

-Levon bu to'yga taklif qilinmadimi?

Atrofdagilar kulib yuborishdi. Bu vaziyatni yumshatish maqsadida Vazgen shunday javob berdi:

-Janob Prezident boshqa to'yga ketdi. U yerda ham turklarning to'yini o'tkazyapti.

Yana hamma kulib yubordi, lekin Bonner hech narsani tushunmadi. U ajablanib yonida o'tirgan baronessa Koksga qaradi.

-Biror narsani tushundingizmi siz, baronessa?

Baronessa qo'lini uning qo'li ustiga qo'yib dedi:

-U demoqchiki, kecha Levon Tehronga jo'nab ketgan. U yerda Boku prezidenti bilan uchrashmoqda, ya'ni tinchlik shartnomasi tuzadi. Tehron ham vositachi bo'ladi, ular hatto Qorabog'ga Eron prezidentining Kavkaz mintaqasi bo'yicha maxsus vakili ham kelishini aytishdi.

-Hayron bo'lgan Bonner yana so'radi:

-Men yana hech narsani tushunmadim. Biz bu yerga “to'y”ga keldik, u borib Tehronda tinchlik shartnomasini imzolaydi, bu nimani anglatadi Xudo haqqi, biringiz menga buni tushuntirib bering.

Bu safar baronessa shu qadar qattiq kuldiki, u

atrofdagilarning e'tiborini tortdi. Holatni o'nglash uchun yana Vazgen Sarkisyaning o'zi aralashdi:

Bonner xonim! Prezidentimiz Boku va Tehronning boshini aylantirish, ya'ni tinchlik tarafdori ekanligimizga hammani ishontirish maqsadida Tehronga tashrif buyurdi.

Keta turib, men qaytib kelgunimcha Shusha bizniki bo'lsin, yo'qsa qolgan ishlarni unuting, deb ko'rsatma berdi.

Bu so'zlardan so'ng Yelena Bonner tinchlanib, qadah to'la sharobni ko'tarib, ikki qultum ichdi, so'ng tabassum bilan dedi:

Shuni oldinroq aytmaysizmi, Tehron bunday bo'ldi, Boku unday bo'ldi demasdan.

Atrofni yana quvnoq kulgi sadolari tutdi. Ammo mudofaa vazirining boshqa muammosi bor edi.

Ubu tomosha uchun juda ko'p pul sarflab, ko'plab mehmon va jurnalistlarni to'plagan edi. Asosiy maqsad go'yoki Arsax uchun pul yig'ish bo'lsa-da, o'zini ham unutmadi.

Har holda bu yerda yig'iladigan pulning bir qismi o'zining cho'ntagiga qolardi. U bunga amin edi.

Shuning uchun u kelganlarga murojaat qildi:

-Xo'sh, xonimlar va janoblar! Birozdan keyin Armaniston tarixida misli ko'rilmagan voqea sodir bo'ladi. "Tog'lardagi to'y" operatsiyasini jonli efirda tomosha qilasiz. - U kelgan mehmonlarga qaradi. - Bu "to'y"ga pul tikmaysizmi? Axir, biz turklar zaminida ikkinchi arman davlatini quryapmiz.

U bu so'zlarni aytishi bilan uning yonida qo'lida ruchka va daftar ko'targan harbiy kiyimdagi juvon paydo bo'ldi.

General kelib, birinchi "Dashnoqsutun" partiyasi rahbarining qarshisida to'xtadi:

- Bilaman, bu ishda sizning xizmatlaringiz katta. Cherkovdan keyin armanlar haqida eng ko'p o'ylaydigan sizsiz. Sizning tashkilotingizsiz biz nainki ikkinchi Arman davlatini, birinchisini ham ko'rmagan bo'lardik.

"Dashnoqustun" rahbari rozilik bildirdi:

-Katta rahmat! Bu "to'y"ga quruq qo'l bilan kelganimiz

yoʻq. Dastlab biz ellik million oʻtkazamiz.

Qarsaklar chalindi, “ofarin” deyishdi.

-Butunjahon xristian birdamligi, -general ovozi
balandlatib dedi:

-Yigirma yetti million.

Arman Milliy Qoʻmitasi.

-Oʻttiz bir million.

-Uch million

-Yetti million...

Aytilgan raqamlar umumiy mablagʻga aylanganda, mudofaa vazirining koʻzlari chaqnab ketardi. Bunga qadar birdaniga buncha pul yigʻilmagandi.

Andrey Saxarovning oʻgʻli Alekseyning kayfi chogʻga oʻxshardi. U yonida oʻtirgan Zori Balayandan soʻradi:

-Zori, bu yerlar rostdan ham siznikimi? “Oʻchoq” kitobida butun dunyo siznikidek qilib yozgansiz. Endi buni ikkimizning oramizda ayting. Qulogʻim sizda.

Aleksey bilan ketma-ket sharob ichgan Balayan savolni eshtib jilmayib qoʻydi. Ranjigan Zori ham sharobdan oldi. U boshini uning qulogʻiga yaqin olib bordi va pichirlab javob berdi:

-Haqiqatni qidirmang! U qandaydir yaramas bir narsa. Uni axtara-axtara oxiri boshingizni gilotina ostida koʻrishingiz mumkin. Haqiqat nimaligini bilasizmi? - Aleksey uning gaplaridan hech narsani tushunmay, xira koʻzlarini atrofga yugurtirdi.

Ularning suhbatini birov na eshitardi, na eʼtibor berardi. Zori bu qiziq suhbatni davom ettirdi. - Haqiqat men uchun bugun toʻgʻri va ideal, ertaga esa bularning hammasi yolgʻon demakdir. Yodingizda boʻlsin, mutlaq haqiqat yoʻq.

Aleksey qoniqmadi:

-Yoʻq, siz mening savolimga aniq javob bering. Axir, siz tadqiqotchisiz, bularni hammadan ham yaxshi bilasiz. Xoʻjayli haqida menga nima deganingiz esingizdami? Turk goʻdagini devorga nayza bilan qoqib qoʻyganingiz haqida

gapirgandingiz.

Keyin qichqirmasin deb, onasining ko'ragini kesib, og'ziga toqob qo'ygansiz. Esingizdami?

Balayan bosh barmog'ini labiga qo'yib, "tsh..sh...sh..." dedi. Keyin qo'shib qo'ydi:

-O'tgan ish o'tdi, ketdi. Lekin endi meni Shushaga qo'yishmayapti, yana ko'rganlaringni, eshitganlaringni yozasan, butun dunyoni ustimizga ag'darasan deb.

Agar haqiqatni bilmoqchi bo'lsangiz, nafaqat Qorabog', hatto Armaniston ham bizniki emas.

-Kimniki?

-Kimniki bo'lardi? Biz qonini to'kkan turklarniki. Ular bu yerda ming yillar davomida yashab kelishgan.

Aleksey Balayandan bunday e'tirofni kutmagan edi. Bu daf'atan yuz berdi. Aslida bergan savolining o'zi noo'rin edi. Unga Arman milliy qo'mitasi tomonidan ajratilgan pul yetarli edi. U ham ularni himoya qilish va taraflarini olish uchun u yer, bu yerga borib yurdi. Ammo endi uni sharob gapirtirayotgan edi.

-Xo'p, bularning barchasi nima uchun? Bu butun o'limlarga, olingan jonlarga arziydimi? O'zi nima uchun bularning barchasi Ozarbayjonda sodir bo'lmoqda?

Zori barmog'ini bukib dedi:

-Birinchidan, "Buyuk Armaniston" uchun harakatni shu yerdan boshlash kerak edi. Shuning uchun hamisha millatni oyoqqa turg'izish, ularga maqsad va vazifalarni ko'rsatish zarur. - Ikkinchidan, - barmog'ini bukdi.

-Ikkinchidan, biz bu asrda ikkinchi arman davlatini qayerda tashkil qila olardik? Frantsiyada, Amerikada, Rossiyada? Yo'q, biz u yerlarda qura olmaymiz, chunki ular juda kuchli.

Bu butun armanlarning intihosiga sabab bo'lardi. Yana qayerda? Albatta, Ozarbayjon va Turkiyada. Hozircha shu yerdan boshladik. Yodingizda bo'lsin, bu turklar dunyo xalqlari tizimining eng zaif bo'g'inidir.

U yana nimadir demoqchi edi hamki, generalning buyruq ohangidagi ovozi eshitildi:

-“Togʻlardagi toʻy” operatsiyasini boshlayapmiz. – Qoʻlida dala telefoni bilan bir askar darrov unga yaqinlashdi. U dastakni koʻtarib, hammaga qaradi va tantanali ravishda buyruq berdi. - Boshlang...

Kerkijahon va Xonkendida joylashgan Rossiya harbiy bazasining “Grad” raketalari osmon yuzini qopladi. Birinchi nishon shahardagi minoralarni urish va yoʻq qilish edi. Raketalar minoralarga urilishi bilan zarba yegan tosh boʻlaklari osmonda aylanib uchib, soʻng yerga qular, ogʻir tovushlar chiqarib, qoʻrquv uygʻotardi.

Minorada navbatda turgan koʻngilli Ozarbayjon askarlaridan kimlar yaralandi, kimlar oʻsha yerda shahid boʻldi. Tirik qolganlar raketa otishmalari tugaganidan keyin yana mudofaa oʻrnini egallashga harakat qilishdi. Nima boʻlganda ham, yordam kelguniga qadar Shushani himoya qilishni eng oliy burchlari deb bildi.

Lochin va Gubadli bilan barcha aloqalar uzilgandi. Vazgen Sarkisyan oʻz mehmonlari bilan Shushakenddagi barcha qurolli harakatini kuzatib, u yerdan koʻrsatmalar berardi.

Armaniston armiyasining birinchi va ikkinchi qanotlarida oldinga siljigan boʻlinmalarning jangovar vazifasi Shushaga olib boruvchi yoʻllarda ozarbayjon jangchilarining barcha oʻq otish nuqtalarini yoʻq qilish hamda qalʼa devorlariga yaqinlashishdan iborat edi.

Dushmanning uchinchi qanot jangchilari esa quyidagi buyruqni olgan edilar: Shusha-Lochin yoʻlini oʻt-olov ostida saqlash, shaharga Lochin-Gubadli tomondan kelmoqchi boʻlgan yordam kuchlari harakatiga yoʻl qoʻymaslik. Zarisli qishlogʻini bosib olib, Lochin-Shusha aloqasini uzish. Zotan, armanilar bunga erishdilar.

Shahar qamali torayib borardi. Ularga endi hech kim yordam bermasligini hamma tushundi. Shaharda qoʻmondon tomonidan hech qanday koʻrsatma boʻlmagani uchun, ular

faqat mudofaa haqida o'ylashardi.

Jangchilarning ozligi, texnikaning yetishmasligi Shushaliklarni sarosimaga solgan bo'lsa-da, ular bu yerda qahramon kabi shahid bo'lishni xohlashardi.

Raketa zarbalaridan keyin arman texnikasi harakatlana boshladi. Tanklar, BTRlar safga tizilib, snaryadlar nota-ota oldinga siljib borardi...

...Tofiq asli O'g'uz tumanidan edi. Bayat qishlog'ida sport o'qituvchisi bo'lib ishlagan. Viloyatning g'oyat obro'li kishilaridan sanalardi. Xo'jayli qirg'inidan keyin navbatdagi nishon Shusha bo'lishi hammaga ayon edi.

Xo'jayli fojiasi hamma kabi unga ham yomon ta'sir qildi. O'ttiz besh yoshli Tofiqning bo'yi bir metr sakson besh santimetr edi. Qorabog'da sodir bo'lgan qonli voqealar polvon jussali bu insonni sindirib, ezib tashladi. U bunga toqat qilolmadi.

U o'ttiz kishilik bir guruhni to'plab, ko'ngillilar qatori Shushaga bordi va ularga komandir etib tayinlandi. Tez orada u shushaliklar orasida hurmat qozondi.

Mahalliy aholi uni hazillashib "Botmonqilich" deyishardi. Botmonqilich Panohali xonning o'g'li Mehralidan bo'lgan nabirasi edi.

Ismi Muhammad bek Javansher edi. Og'a Muhammadshoh Qojar Shushada o'ldirilgandan so'ng Botmonqilich qo'shinni to'plab, qochgan Qojar qo'shinini Araz daryosigacha quvgandi.

Tofiqning guruhi Yerevan darvozasi oldida joylashgan edi. Navbatdagi otilgan snaryaddan keyin chang tarqalgach, askar Ali yaqinlashib kelayotgan tanklarni durbin bilan kuzatardi. Qarshisida arman tankining ustida raqami yozilgandi.

Ali bir daqiqa diqqat bilan boqdi, ko'zlariga ishonmadi.

Tofiqqa ovoz berdi:

-Komandir, kel, o'zing ko'r. Qara, ustimizga kim kelayotir! Biz ularni osmondan qidirayotgandik, lekin ular yerda qo'llarimizga tushdi.

Komandir unga yaqinlashib so'radi:

- Ko'zlaringga ishonmayotganingni hayajonli gap-so'zlaringdan tushundim. Seni nima ajablantirdi? - U durbinni olib, birinchi tankning raqamini o'qidi. U ham ko'zlariga ishonmadi. Qo'li bilan durbinning shishasini artdi.

Yana sinchiklab qaradi. - Kafti bilan yuzini ushladi. - Ali uka, Xudo duolarimizni eshitdi shekilli. Xo'jaylida qirg'in qilgan 422-sonli tank birinchi bo'lib kelyapti. Tankda Armaniston bayrog'i ham bor...

Xo'jayli qirg'ini paytida bu tank birinchi bo'lib shaharga kirgandi. Xo'jaylida qilgan ishlari har joyda gapirishardi. Ular tank ekipajining ismlarini yoddan bilishardi. Bir marta Tofiq guruhi razvedka chog'ida Xo'jaylida qatnashgan arman jangchisini qo'lga olib, Shusha qamoqxonasiga qamab qo'ygandi ham.

Tofiq qamoqxonaga kirgach, arman mahbus o'rnidan turdi. Bu pahlavon zobit uni tepib, mushtlab, ezib tashlaydi, deb o'yladi.

Aslida, quolsiz mahbusni urish to'g'ri kelmasdi. U bir musht tushsa, ag'anaydigan ahvolda edi.

Tofiq unga o'tirishni buyurdi. Arman qo'rqa-qorqa uning qo'llariga qarab, karavotning bir burchagiga o'tirdi.

-Isming nima?

Mahbus qorabog'li arman bo'lgani uchun turkchani yaxshi bilardi.

-Gevork Artunov. O'lay agar, mening bu ishlarga hecham aloqam yo'q.

Meni majburlab armiyaga yozdilar. Men ular uchun sigaret, suv va non olib kelardim xolos. Umrimda bir marta qo'limga qurol ushlaganman, u ham o'q uzmagandi.

Tofiq hotirjam turardi. U armanlar qo'lga tushganda, o'z jonlarini saqlab qolish uchun minglab cho'pchaklar o'ylab topishlarini bilardi.

Tofiqning buyruqli ovozi eshitildi:

-Gevork, gaplaringdan tushunishumcha sen Qorabog'lik armansan. Bizning tilimizda gaplasha olasan. Bu yerda yaxshi yashardingiz.

Asirning qo'llarini bo'shata boshladi.

-Xudo bu dashnoqlarning uyini kuydirsin. Sovetlar qulagandan keyin o'zlari bilan nayomniklarni (yollanma askarlarni) olib kelishdi. Kim bizga qo'shilmasa, xotini o'ldiramiz, qizini zo'rlaymiz, deyishadi. Biz ham qo'rqib ularga qo'shildik.

-Xo'jaylida sen ham bo'lganmisan?

-Xudo haqqi, meni majburlashdi.

-Bu meni qiziqtirmaydi. Ayt-chi, Xo'jayliga birinchi bo'lib kim kirdi? Eshitishimcha, tank birinchi bo'lib kirgan, g'ildiraklari ostida ayollar va bolalarni ezib tashlagan. Bu haqda bilasanmi?

Mahbusning yashashga bo'lgan umidi uyg'ondi.

-Albatta, bilaman - dedi u.

-Tank raqami, ekipaj tarkibini ham.

Tofiqning buyruqli ovozi uni cho'chitib yubordi. Uning ko'z o'ngida Xo'jaylida turklarga berilgan azoblar, qiynoqlar o'tdi. Bularni o'ylab titray boshladi, hushidan ketishiga oz qoldi.

Chunki uning o'zi ham bu qirg'inga qatnashgandi. Odamlarning og'zini ochib, tilla tishlarini ombur bilan sug'urib olishardi. Hattoki, tishni sug'urib olisholmasa, tanglayi bilan kesib chiqarishardi.

Keyin uni qabristonni vayron qilish, o'liklarni qabrdan chiqarib tahqirlash va suyaklarni yoqish uchun yuborishgandi. U bu voqealarni eslar ekan, bu polvon jussali zobit o'zi haqida hamma narsani bilsa kerak, deb o'yladi. Keyin sekin tilga kirdi:

T-72 tankning raqami 422, komandir Gagik Avsharyan, haydovchi-mexanik Ashot Avenesyan, o'qchi esa Serj Sarkisyan. - Gevork jimib qoldi, bu sukunat ichida o'lim ham, hayot ham bor edi. - Komandir, mening to'rtta farzandim bor..e., axir ularni qanday qilib boqardim? Sizning ham farzandlaringiz bormi? - deya yolvora boshladi.

Tofiq birdan tutoqib ketdi. U Gevorkning yoqasidan zalvorli qo'llari bilan mahkam tutgancha uni bo'yi barobar ko'tarib qichqirdi:

-Ey, benomus, e dayus! Xotinidan, qizidan bexabar! Men bolalarimni odamlarni o'ldirib, qiynab, rohatlanib boqmayman..! Farzandlarimni halol topgan nonim bilan rizqlantiraman!

Uning hayqirig'iga nazoratchi yugurib keldi va g'alati manzaraga duch keldi. Asirning oyog'i yerdan uzilib devorga tiralgancha turardi. Nazoratchi uning qo'lidan ushlab, tinchlantirdi.

-Tofiq, tinchlan! Biz ular kabi vahshiy emasmiz. Mahkumlar bilan muomala qilish qoidalarimiz bor, uni qo'y yerga.

Tofiq esa o'zini bosolmasdi, baqirishda davom etdi, bu safar nazoratchidan achchiqlandi:

-Og'a, qanday muomala, qanday qoida? Bu nomussizlar bizning mahbuslarga qanday munosabatda bo'lishadi, bilmaysanmi? Bular odam emas, bular arman. Bu safar nazoratchi qat'iy ovoz bilan gapirdi:

- Komandir, mahbusni qo'y yerga! Men bu qamoqxonadagilar uchun javobgarman. Kimgadir biror narsa bo'lsa, sababini mendan so'rashadi. Hali mendan nega seni bu itvachcha bilan yolg'iz qoldirganimni so'rashadi. Qoy! U bizga hali kerak. Xo'jaylida ko'rganlarini o'z tilida yozishi kerak.

Bu so'zlar Tofiqni tinchlantirdi. Rangi-ro'yi qochgan, oyoqlari tolgan Gevorkni xona burchagiga uloqtirdi. Asir koptokdek uchib, devorga urildi, sirpanib, polga yiqildi.

Yunus O'g'uz

Undan qutulganiga ich-ichidan sevindi. Tofiq unga barmog'ini o'qtab:

-Nazoratchiga rahmat ayt! U bo'lmaganda, seni bir musht bilan o'ldirardim. - Nazoratchiga yuzlandi. Og'a, shart bajarilsin endi. Xo'jaylida ko'rgan va qilgan ishlarining hammasini yozsin.

Kelib o'zim o'qiyman. Agar yolg'on yozsa, ta'zirini yeydi. Xo'jaylida asirga olingan boshqa armanlar ham bor. Men ularning barchasini birma-bir o'rganaman.

Nazoratchi uni yana tinchlantirdi:

Hotirjam bo'l. - Bu mening shaxsiy nazoratim ostida bo'ladi. Ular yozganlarining bari tarix uchun. Shunday kun keladiki, ular barcha qilmishlari uchun javob beradilar.

...422-sonli T-72 tanki o'tocha-ocha oldinga siljib borardi. Ali komandirning buyrug'ini kutayotgan edi. Endi komandir tankni urish uchun buyruq beradi deb o'ylayotgandi, lekin bunday bo'lmadi.

Askarga qaradi:

- O'g'lim, xafa bo'lma! Xo'jayliga kirgan birinchi tankni oldinga keltirishini Ollohga yolvorib so'rganman. Men uni o'zim yo'q qilaman. O'sha RPGni (tankga qarshi qo'l granatamyotini) buyoqqa ber. Sendan bir iltimosim bor.

-Buyuring, komandir!

Tofiq RPGni o'ng yelkasiga qo'yib dedi:

-Bu tankni va uning tarkibini yo'q qilishimizdan oldin azon ayt...

Azonni yaxshi aytasan. Xudo bizga shunday imkoniyat bergan ekan, bu ish yakuni Azon bilan tugasin.

Askar huddi shunday buyruqni kutayotgandek edi. Sevinarak o'ng qo'lini qulog'iga qo'yib javob berdi:

-Bosh ustiga, komandir!

Alining ovozi shu qadar baland ediki, snaryadlarning ovozini deyarli bostirib yubordi:

-Ollohu Akbar, Ollohu Akbar!

La Ilaha Illalloh!

“Ollohu akbar” kalimasi snaryad va o‘qlardan kuchliroqdir. To‘satdan bu tovushdan hamma narsa qotib qolganday bo‘ldi, hatto Shushadan olti kilometr pastda joylashgan Shushakendgacha yetib bordi. Bu ovozni eshitib, jangni tomosha sifatida kuzatganlar ham bir zum tek qolishdi.

Tofiq ichida dedi:

- Ey Ollohim! Ko‘z o‘ngimdagi, yuragimdagi maqsadimga erishtirganingga ishonaman. Meni pushaymon qilma, Robbim!

O‘t ochildi, snaryad tankning transmissiyasiga (motoriga) tegib portladi, zirhli mashina juda tez yonib ketdi, hatto undan hech kim chiqolmadi, arman askarlari tank ichida yonib kul bo‘ldi.

Tofiqning guruhi “URRA” deb baqirdi.

-Yashang, komandir!

-Omad!

-Xo‘jaylini qirg‘in qilgan tankni shunday yo‘q qildik!

Komandir xotirjamlik bilan ko‘rsatma berdi.

-Menga durbinni bering. - Askarlardan biri unga durbinni uzatdi. U xursand bo‘lib baqirdi. - Armanlar bizga qarshi hujumni to‘xtatdilar. Ortga chekinishyapti. Aftidan, ular boshqa narsani rejalashtirgan ko‘rinadi.

422-raqamli tank yakson etilgach, armanlar markazdan chekinishdi, ammo shaharga hujum to‘xtamadi. Bu safar dushman qanotlardan hujumga o‘tdi. Asosiy maqsad Shusha qamoqxonasi devorlarini buzib, shaharga kirish edi.

Kerkijahon va Xonkendida joylashgan Rossiya harbiy bazasidan yana qamoqxona devorlari tomon raketalar uchirildi. Devorlar odamlarning ko‘z o‘ngida qulab tushardi. Komandir vaziyatni tushundi. U darhol buyurdi:

-O‘n kishi shu yerda qolsin, qolganlar qamoqqa boring, darhol.

Lekin juda kech edi. Shusha qamoqxonasi devorlari vayron bo‘lgan, ko‘p sonli dushman askarlari shaharga kirib kelgandi. Tofiqning guruhi yetib borganda, qurshab olindi.

Har tomondan o'q uzilishiga qaramay, ular mardonavor kurashdi. Komandir qo'lidagi pulemyot paydarpay kelayotgan dushmani qirishda davom etdi.

Uning badani ilma-teshik bo'lib ketsa ham, orqaga chekinmadi, armanlarni yer tishlatishda davom etdi.

Nihoyat, snayperning o'qi peshonasiga tekkanida, u qalqib ketdi, oyog'ida mahkam turishni istasa-da imkoni bo'lmadi. Qo'lidagi qurolidan o'q ocha-ocha, orqasi bilan yerga yiqildi. O'sha kuni Tofiq va uning barcha yigitlari shahid bo'ldi.

Shusha bosib olindi. Shaharning tarovati o'zgardi. Sakkizinchi may kuni arman askarlari ko'cha janglaridan o'zlarini tiyib, g'alabasini e'lon qilishmadi. To'qqizinchi kechada Shushada hech kim qolmaganiga mutlaq ishonch hosil qilgach, shahar ularning qo'lida ekani xabari butun dunyoga tarqaldi.

Butun dunyoda Ozarbayjonning yolg'iz ekanligi yaqqol ko'rindi. O'n yettinchi may kuni armanlar Lochini bosib olgandan keyin Qorabog' va Armaniston o'rtasida yo'l aloqalari o'rnatildi.

Shushakendda Armaniston mudofaa vaziri bu operatsiyada bir yuz qirq besh million xayriya yig'ib, Xonkendidagi uch kecha-yu uch kunduz shodiyonalik qildi. Armanlar Shusha shahri ustidan qozonilgan g'alabani butun dunyoda bayram qildilar.

Lekin bu ishg'ol armanlar uchun oson bo'lmagandi. Besh yuz Ozarbayjon askari armanlarga qarshilik ko'rsatdi.

Umuman, Shusha va uning atrofida bo'lib o'tgan janglar natijasida 1860 nafar ozarbayjonlik yaralandi, 480 nafari halok bo'ldi. Asirga olingan 68 nafar mahbusning taqdiri haqida ma'lumot qo'lga kiritilmadi.

QAYD: O'sha paytda 289 kvadrat kilometr maydonga ega Shusha tumanida 25 ming kishi yashagan. Shushani bosib olishda mahalliy aholidan 193 nafari halok bo'ldi, 102 nafari nogiron bo'lib qoldi. Bosqin natijasida Shusha shahridagi bir

So'qmoq

qancha tarixiy-madaniy yodgorliklar dushman tomonidan talon-taroj va vayron qilindi.

Shusha tarix muzeyi, Davlat gilamchilik muzeyi filiali, Xalq amaliy san'ati muzeyi va besh mingga yaqin eksponatga ega Qorabog' davlat tarixi muzeyi vayron qilindi, eksponatlar o'marildi va yoqib yuborildi. Bu ro'yxatga jami 279 diniy, tarixiy va madaniy obidalar, jumladan, Xon g'ori, Gaxal g'ori, Shusha qal'asi yodgorliklari bor.

Armanlar Ozarbayjonga tegishli ko'plab obidalarni yo'q qilishga yoki ularni armanlashtirishga muvaffaq bo'ldi.

Shushadagi 7 ta maktabgacha ta'lim muassasasi, 22 ta umumta'lim maktabi, madaniy-ma'rifiy, qishloq xo'jaligi texnikumlari, 8 ta madaniyat uyi, 14 ta klub, 20 ta kutubxona, 2 ta kinoteatr, Sharq cholg'u asboblari zavodi, fabrikalar, Mulla Panoh Voqif maqbarasi vayron qilindi.

Vassalom! 1992-yil 8-may kuni Ozarbayjonda Shusha qayg'usi boshlandi va bu qayg'u 28 yil 5 oy, 2020-yil 8-noyabrgacha davom etdi. Biroq ular yigirma sakkiz yil davomida SO'QMOQNI topa bilmadilar. Bu yo'l ularning burunlari ostida ekanini ular xayollariga ham keltirmadi.

"B" rejasining davomi, Yerevan vatan urushi arafasida, 2020-yil 20-sentyabr.

Armaniston Bosh vaziri qarorgohida bu safar uch emas, to'rt kishi yig'ildi. Pashinyan Milliy xavfsizlik xizmati direktori Argishti Keramyanni ham taklif etgandi.

Yuqorida Bosh vazir, T shaklidagi stolning uzun tarafida tashqi ishlar va mudofaa vazirlari, Milliy xavfsizlik xizmati direktori joylashgandi. Telefon qo'ng'irog'i yangradi.

Fransiya prezidenti Makronning ovozi eshitildi. Aslida Bosh vazirning o'zi qo'ng'iroq qilib, janob Prezidentning vaqti bo'lsa, o'zi siz bilan bog'landi degan javobni olgan edi.

-Nikol, salom! Meni yo'qlabsan.

Pashinyan yonida o'tirgan safdoshlari yonida kerildi.

Ko'ylagining tugmalarini yechib kresloga yastandi, ko'z-qoshi ifodasi bilan "ko'ryapsizmi, biz qanchalik yaqinmiz? Frantsiya prezidenti meni ismim bilan chaqiradi,- demoqchi bo'ldi.

- Salom, Emmanuel! - U ham prezidentning ismini aytib chaqirdi. - Ha, yo'qlagandim. Esingizda bo'lsa, men sizga B rejasi haqida aytgandim.

Narigi tarafda jimlik hukm surdi. Biroz vaqt o'tgach, ovoz keldi:

- Ha, ha, esladim. Adashmasam, bu rejani yozda Ozarbayjon bilan qisqa muddatli urush arafasida aytgan edingiz. Nima bo'ldi, nega ishga tushmadi?

Bosh vazir ichida shu fikr kechdi: sen buni oson ish deb o'ylaysanmi? Bir-ikki bayonot berish muammoni hal qilarmidi, e.

Ammo boshqa gapni aytdi:

-Biz Bokuda norozilik aksiyalarini uyg'otmoqchi bo'ldik, hatto ularning generallaridan birini o'ldirdik. Ammo ko'lami kichik. Yozgi urushda o'n uch nafar turk halok bo'ldi, buni ham Bokuda kuchaytirib bo'lmadi.

- Sabab?

- Sababi urush Qorabog'da emas, Ozarbayjon g'arbida bo'lgan. Rossiya bizga yordam bermadi. U urushning davom etishini xohlamadi. Keyin biz ham ortga chekindik.

- Xo'sh, endi nima qilmoqchisiz? - Makron bu safar bunga beparvo qarashni istamadi. Ikki yildan keyin Fransiyadagi prezidentlik saylovlarida bu unga qo'l kelishi mumkin. Uning tashqi siyosatdagi faolligi ichki mavqeyida muhim rol o'ynardi. - Ko'lamni qanday oshirish niyatidasiz?

Bosh vazir kabinetidagilar suhbatni eshitsinlar deb ataylab telefon ovozini ochib qo'ydi.

- Emmanuel, menimcha, bu safar butun front bo'ylab Qorabog'ga hujum qilamiz. Asosiysi, turklar ko'proq o'ldirilganda, "B" rejasi ishga tushadi va Boku aralashadi.

Ko'rmadingizmi, uch kunlik urushda odamlarimiz Milliy

Majlisgacha borhdi, hatto ichkariga kirdi. – maqtandi u, - Mana, Emmanuel, ko'rdingizmi biz kimmiz! Men sizning roziligingizni olishni istayman. Siz nima deysiz?

Makronning ko'z o'ngida Go'yo Yerevanda raqsga tushish jonlandi. Xayolidan o'tkazdi: "Oh, qanday ajoyib kunlar edi. Yoki Parijdagi kabi. Oyog'ingni bir chetga tashlasang bo'ldi, hamma gazetalar, saytlar bu haqda yozadi. Eh, bu Sharq boshqa dunyo". U his-tuyg'ulardan kechinib, so'radi:

- Nikol, ishonchingiz komilmi, ko'plab turklarni qirsangiz, bu o'z samarasini beradi va Ilhom Aliyevning hokimiyati barham topadimi? Men bunga butkul amin bo'lolmay turibman.

- Iye, qanaqasiga ishonolmay turibsiz? - Pashinyan deyarli chinqirib yubordi. Keyin darhol Fransiya davlati prezidenti bilan gaplashayotganini esladi. - Albatta, mening ishonchim komil, chunki bizda Ohonyan to'sig'i bor.

Bu to'sig'ning biri janubda, biri shimolda. Bu to'sig shu qadar o'tib bo'lmaski, bu yerlardagi Ozarbayjon qo'shinining jasadi qolib, to'ng'iz va qarg'alarga yem bo'ladi. - Ishonch bilan qo'shib qo'ydi:

- Emmanuel, agar mening sizdek suyanchig'im bo'lsa, har qanday yo'l bilan bo'lsa ham Qorabog'ni Armanistonga hukman qo'sha olamiz.

Makron jiddiy ovozda dedi:

- Menga ishonganingiz va tayanch sifatida ko'rganing uchun rahmat. Ikki yildan so'ng Fransiyada bo'lib o'tadigan saylovlarda siz ham meni qo'llab-quvvatlab, orqamda turishingizga ishonaman.

- Albatta, bunga hech qanday shubhangiz bo'lmasin. - Ammo Fransiyada yashovchi barcha armanlar uning chaqirig'i bilan borib Makronga ovoz berishiga Bosh vazirning ishonchi komil emasdi. Chunki undan oldingi uch prezident ham bu mamlakatda kuchli tayanch va targ'ibotga ega edi.

Ammo u bu so'zlarni aytishi kerak edi. - Ishonavering,

Fransiyada sizdan boshqa nomzodimiz yo'q.

Frantsiya Prezidenti samimiy so'zlar uchun o'z minnatdorchiligini bildirdi:

- Albatta, buning uchun sizga katta rahmat! Ammo aytingchi, siz bu so'zlaringizni qanday amalga oshirmoqchisiz?

Makronning so'zlari unga moyday yoqib tushdi. U yonida o'tirgan Tonoyanga stakanga suv quyishini ishora qildi. Mudofaa vaziri darrov stakanga "Cermux" mineral suvini quyib, unga uzatdi. U bir qultum suv ichdi, go'yo hayajoniga, qizigan ruhiga sovuq suv sepildi. Ishonch bilan savolga javob berdi:

- Birinchi navbatda, Oxonyan to'sig'idan o'ta olishmaydi, yo'qotishlar ko'p bo'ladi. Boku oyoqqa turib, Ilhom Aliyevni ag'daradi. Ikkinchi navbatda, ular to'sig'dan o'ta olmadimi, biz yangi hududlarni egallab olamiz, qochqinlar esa Bokuga qarab yog'iladi. Bu barchasi yo isyon bilan kutib olinadi, yoki...

Makron uning gapini bo'ldi: Yoki Qorabog' maqomi to'g'risidagi hujjatga imzo qo'ysagina, bosib olgan hududlarimizni qaytarib beramiz, deymoqchisiz. To'g'rimi?

Bosh vazir uni yoqladi:

- Ha, siz haqiqatan ham buyuk siyosatchisiz. Men buni Yevropadagi donorlarimizga ham aytganman (Sorosni nazarda tutib). Siz hamma narsani oldindan ko'rib, hisoblay olasiz. Siz mutlaqo haqsiz. Imzo qo'yadimi, yo'qmi, hukumatni tark etadi.

Prezident kinoya bilan dedi:

- Ammo ruslar, aniqrog'i, Putin bunga qanday qaraydi? Bilishimcha, Putin va Ilhom Aliyev o'rtasida samimiy munosabatlar mavjud.

Bosh vazir uni xotirjam qildi:

- Janob prezident, siz hech xavotir olmang! Rossiyada ham, Fransiyada ham katta tashkilotlarimiz va diasporamiz bor. Hukumatning ko'p a'zolari bizning xalqimiz. Qolaversa, biz KXShTga a'zomiz, provokatsiya qilamiz, kerak bo'lsa

yolgʻon, hiyla ishlatib, Rossiyani bu urushga jalb etamiz..

Makronning yana bir toʻsatdan bergan savoli uning gapini boʻldi:

- Turkiya, Pokiston, Isroil-chi? Mening maʼlumotlarimga koʻra, bu davlatlar Ozarbayjon bilan harbiy hamkorlik qiladi. Men hattoki turklarning bir nechta F-16 qiruvchi samolyoti Ozarbayjonda ekanligining xabarini oldim.

Pashinyan uni tinchlantirdi:

- Azizim Emmanuel, bundan qoʻrqishga hojat yoʻq. Axir, Rossiya bu masalalarda juda qizgʻanchdir. U Kavkazni oʻzining qiziqish doirasi deb eʼlon qildi. Hatto Eronni ham qoʻyib yubormoqchi emas. B bu shia davlati bizga doim yordam beradi, tayanch boʻlib, yonimizda turibdi.

Turkiyaga kelsak, hamma joyda “bir millat, ikki davlat” deb yotishibdi. Bu masalada Rossiya siz aytgan davlatlar bilan yo toʻqnashadi, yoki Putin ularni urushsiz neytrallashtiradi va bizni qoʻllab-quvvatlaydi.

Bundan tashqari, qurollarimizning 90 foizi baribir Rossiyada ishlab chiqarilgan. Biz ularning yarmidan koʻpini bepul olamiz. – Ovozini biroz pasaytirib, avvaliga Xavfsizlik xizmati direktoriga “ishonaveraymi?” degan maʼnoda qoʻl va lab ishorasini qildi.

Direktor qoʻlini boshiga qoʻyib, “ishonavering” ishorasini qildi. - Mana, aziz Emmanuel, sizga bir sirni aytsam. Bizni Rossiyada shunchalik kuch-qudratimiz borki, hattoki norasmiy ravishda “Iskandar”ni ham sotib oldik.

Bunday olganda, Makron buni Pashinyan hokimiyatga kelishidan oldin ham bilar edi. Bosh vazir bu urushda ushbu strategik-taktik quroldan ham foydalanishga tayyorligini aytgani uni taajjubga soldi. Ammo u yana bir narsa soʻramoqchi boʻldi:

Nikol, siz... Nikol, siz rostdan ham bu quroldan foydalanmoqchimisiz?

Bosh vazir uning soʻzlarini tasdiqladi:

- Azizim Emmanuel! Turkiya Rossiya va Eron bilan

yuzma-yuz turishi uchun hamma narsa qilishga tayyorman. Shunda ular zaiflashadi, biz esa kuchayib boramiz. Fransiya Kavkazga kiradi.

Suhbatni tugatish kerak edi. Makron suhbatni shunday yakunladi:

- Nikol, siz haqsiz! Frantsiya, shaxsan mening siymomda sizga, Armanistonga, nima kerak bo'lsa, yordam beradi. Hech narsadan chekinmang. Frantsiya bir davlat sifatida sizning ortingizdadir. Sog' bo'ling!

Pashinyan ham unga minnatdorchilik bildirdi:

- Siz ham sog' bo'ling, qadrdonim Emmanuel!

U telefon dastagini qo'yib, o'tirganlarga qaradi:

-Ha, qalay? Biz Fransiyaning o'zimizga og'dirib oldik. Bu bizga haqiqatan ham kerakmidi? - Tonoyanga yuzini burdi. - Janob general! Siz Moskvadagi rahbarimiz bilan gaplashasiz. Biz boshlagan ishimizga Kreml xalaqit bermasligi uchun qo'lingizdan kelgan hamma narsani qiling.

- Tushunarli, janob Bosh vazir. Oxirgi to'rt oy ichida u bilan besh marta uchrashdim. Bu haqda sizga xabar bergandim. Siz aytgan "narsalar"ni shaxsan o'zim sizning nomingizdan yetkazib berganman.

U Germaniyada villasi bolishidan juda xursand bo'ldi. Keksaygan chog'imni o'sha yerda o'tkazaman, dedi. -Aslida bu darajadagi generallarga xorijda yashash taqiqlanganini kurator hammadan ham yaxshi bilardi. Buni yig'ilishda o'tirganlarning hammasi ham bilar edi.

-Rahbar bizni sizga har tomonlama yordam beramiz deb allaqachon ishontirgan. Tovuz jangidan keyin Rossiya birinchi bo'lib bizga harbiy yordam berdi. To'g'ri, Gruziya bu yordamlarni o'z hududidan o'tkazishga ruxsat bermagani uchun uzoq yo'l tanlandi.

-Rossiya - Qozog'iston - Turkmaniston - Eron - Yerevan. Boku bu borada hatto Moskvaga o'z e'tirozini bildirdi.

Bosh vazir uning so'zlarini tasdiqladi:

-Ha, bilaman, - dedi, kulib - menga qo'ng'iroq qilib,

boshqa tuzukroq yoʻl topolmadingizmi? - deyishdi. Yoʻq, ketib Keyptaundan aylanib kelardingiz. Bunday holda yordamni qiyin marshrutda tashilsa, hamma biladi. Oʻzi aslida bu yordamni Turkiston orqali olib keldingiz. Bosh vazir koʻrsatma berdi: Erondan yonilgʻi importini koʻpaytiramiz, ishimiz koʻp boʻladi. Menimcha, hozirgi urush Tovuzdagidek uch kun davom etmaydi. Qorabogʻdagi harbiy qismlarimizni Rossiyadan yangi kelgan texnikalar bilan qurollantiring. U yerdagi askarlarimizning hech narsadan taqchilligi boʻlmasligi kerak.

Pashinyan harbiy qismlarda korrupsiya, oʻzboshimchalik sodir boʻlayotganini bilar edi. Ikki kun avval Milliy xavfsizlik xizmati direktori unga maʼlumotnoma taqdim etgan edi. Hatto shunday harbiy qismlar ham borki, askarlarning oʻttiz foizi faqat nomlarini harbiy qismlarga yozib, goʻyoki xizmat qilmoqda.

Oʻzlari esa chet elda savdo qiladilar. Stakandagi suvni yuqori koʻtarib gapirdi. - Xuddi shunday, janob general! Oʻylaymanki, siz Ozarbayjonni bu urushga qanday tezlashni hammadan yaxshi bilasiz.

Tonoyanning yelkasidan togʻ agʻanagandek boʻldi. Bosh vazir “bular sendan chiqqan fikr”, deb tanbeh beradi, deb oʻylagandi, baxtiga bunday boʻlmadi.

Pashinyan bu uzoq yoʻlni tanlashda moliyaviy firibgarlik borligini bilmasligi mumkin emas edi. Ambarsumyan buni yetkazmasa, goʻrga edi deb, yuragi yorilib ketayozgandi. “Oʻz vaqtida sovgʻa berib ogʻzini yopganim yaxshi boʻldi. U ham jim boʻldi”, - dedi ichida.

Mudofaa vaziri “xoʻp boʻladi” deganday boshini qimirlatib javob berdi:

-Albatta, janob Bosh vazir! Aytganingiz aniq bajariladi.

Pashinyan qoʻllarini bir-biriga ishqab, bir zum oʻylanib qoldi, soʻng oʻziga xos ishora bilan tashqi ishlar vaziriga koʻrsatma berdi:

-Janob vazir! Oʻylaymanki, siz avvalgidek yana bor

kuchingiz bilan ishlaysiz. Bu ishda sizda juda ko'p qobiliyat bor. Mudofaa vazirligining boshqa kuch idoralari tomonidan taqdim etilgan ma'lumotlarni shunday ustalik bilan bezab-tuzyapsizki, hatto bizni ham bunga ishontira olyapsiz.

- Aqilli qiyofaga kirib, bosh barmog'ini chekkasiga olib borib qo'shib qo'ydi. - Bizga do'stona munosabatda bo'lgan davlat rahbarlari, hamkorlarimiz, ziyolilar ishimiz to'g'ri ekaniga ishonib, bizni qo'llab-quvvatlashi kerak. Xuddi Qorabog'da qilganimiz kabi.

Arsax armanlarning qadimiy zamini va beshigi ekanligiga butun dunyoni ishontira oldik. Axborot urushi bu urushning yarmi. Bu juda muhim. Shuning uchun Tashqi ishlar vazirligi bu davrda to'xtovsiz dvigatelga aylanishi kerak.

Zuhrab bosh irg'ab, aytganlarini ma'qulladi, lekin bir og'iz gapirmadi. Tovuz janglaridan beri uning bu ishda sochi oqargan edi. Pashinyan oxirgi topshiriqni berishdan oldin Argishti Keramyanning o'zi gapirdi:

- Janob Bosh vazir! Mening ishim "ovga" chiqish.

Pashinyan jilmayib qo'ydi, chunki unga "Ov" so'zi yoqardi.

- Harbiy qismlardagi norozilarni, namoyishchilarni, qariyalarni ovlashim, hech bo'lmaganda ularni zararsizlantirishim kerak.

To'g'ri, bu qiyin bo'ladi, lekin harbiy holat e'lon qilib, ishimizni biroz yengillashtirasiz, deb o'ylayman.

Pashinyan unga ko'z qisib dedi:

- O'ylaymanki, sizning faoliyatingiz Armanistonda olib borilayotgan islohotlarga, demokratiya rivojiga zarar keltirmaydi. - Yana nimadir yodiga tushib, qo'shib qo'ydi:

- Aytgancha, shahar va qishloqlarda tinch aholining bombardimon qilinishini nazoratga oling...

Ikki soatdan keyin bu kabinetdagi suhbatlar uchta markazga yetkazildi...

44 kunlik Vatan urushi boshlandi

Uning ruhi uchib, so'qmoqning boshlanishiga qo'ndi. Yigit tog' echkisi kabi chopqillagancha yuqoriga chiqib borardi. Charchash nima bilmasdi. O'ziga o'zi dedi: "Bu yo'lning oxiri. Endi bepayon kenglikga chiqaman."

Bu yerlarda mening ruhim yaralgan. O'ngga burilib, maydonga chiqsam bo'ldi. Bu joy mening Shushamdir! Oh, seni naqadar sog'indim, Shusha! Keyin Xon saroyini ziyorat qilaman. Agar bu odam bo'lmaganida, men bu yerda tug'ilmagan bo'lardim".

Chuqur nafas oldi. Bir paytlar tuygan havosi endi burniga sezilmadi. Shushadan sovuq porox hidi kelardi. Shusha Sukutga cho'mgan edi. Unga bu hid qayerdan keldi? U hech narsani tushunmadi.

Yuqorilab boraverdi, nihoyat to'xtadi. Qarshisida kenglik o'rniga katta "Yo'l" bor edi. So'qmoqning oxiri Yo'lga qo'shilgandi. Yuragi qattiq ura boshladi:

"Axir, bu yerda, mana shu kenglikda yo'l yo'q edi-ku. Bu yo'l qayerdan paydo bo'ldi, kim soldi bu yo'lni? Yo'lga tushishni istadi. Shu payt qayerdandir uzun qora ilon paydo bo'ldi, boshini ko'targancha unga tikilib turardi. U yana o'ziga o'zi dedi:

"Endi bu ilon qayerdan chiqdi? Axir bu yerlarda ilon bo'lmadi-ku. Ilon sovuq ko'zlarini tikib, uning harakatlarini kuzatardi. U bu qora ilonning qo'rqinchli ko'zlaridan tezroq g'oyib bo'lishni, ko'pdan beri xayoloni o'g'rlagan yo'lga borishni istadi.

Bu gal qayerdandir boshqa bir ilon paydo bo'ldi. Ikkinchi paydo bo'lishi bilan birinchi ilon undan ko'zini uzib, quyosh shu'lalari ostida bunisi bilan o'ynasha boshladi...

Uyqudan jiqqa ter holda uyg'ondi. Biroz oldin ko'rgan tushining ta'siridan ajrala olmadi. Yotar ekan, xayoliga ming xil o'ylar keldi: "Shusha sog'inchi meni o'ldiradi shekilli. Yana bir bor o'sha so'qmoqqa chiqsam bo'ldi, hatto o'lishga ham roziman. Xo'sh, bu ilonlar nimani anglatadi, u

yo'l qanday yo'l edi?

...U Shushanni oxirgi bo'lib tark etganlardan edi. Yoshi yetmishdan oshib qolgandi. Shahar bosib olinmasidan oldin xush-xandon bo'lgan odam qochqinlikda juda mahzunlashib qolgan qoldi. Unga gapirmasangiz, eshitmasdi, so'zni og'zidan sug'urib olardingiz go'yo.

Karavoti yonida turgan stol ustidagi soatga qaradi. Oltigacha ishlardi. Lekin deyarli uxlamasdi. Uyquasi bor-yo'g'i ikki soat davom etardi.

Ko'zini yumgan zahoti Shushani, Shusha ishg'olini ko'rardi. U shahid bo'lgan yaqinlarini dafn qila olmadi, lekin umid bilan yashardi.

Olis qishloqdagi bu hovlida kichik yeri bor edi. Shu yerga ekib, yetishtirgan meva-sabzavotlarni sotib tirikchiligini o'tkazar edi. Oz miqdorda nafaqa ham olardi. Xona kichkina derazasidan tashqariga qaradi, qorong'i tushgan edi.

O'rnidan turib, chiroqni yoqdi. Ko'zi devorga ilingan taqvimga tushdi: 2020-yil 27-sentyabr. Har safar taqvimni ko'zdan kechirarkan, har bir o'tayotgan kun uni Shushadan uzoqlashtirayotganini his qilardi. Ammo bugun u negadir boshqacha fikrladi. Bugungi kun uni Shushaga yaqinlashtirayotganini o'yladi.

O'ziga o'zi kuldi. "Xayol oshi" yeganini eslashi bilan yana yuzining ajinlari qoyuqlashdi. Shushada bo'lganida umuman chekmasdi, qochqinga aylagandan keyin tamakiga o'rganib qoldi, tinmay chekardi.

"Vikeroy" qutisidan sigaret chiqarib, lablari orasiga olib yoqdi. Tashqariga chiqib, yerdan biroz ko'tarilgan ayvonda turdi. Yoqimli kuz havosi edi.

Chekib bo'lgandan so'ng, ayvonda osilgan qo'lyuvg'ichda yuvindi. Brozdan keyin samovar qaynadi. Choy damlab, o'ziga bir stakan quydi-da, borib ayvondagidagi stolga joylashdi. Ko'rgan tushini eslab "Alloh hayrli qilsin", dedi.

Stol ustidagi eski "Vef" radiosini yoqdi. Shushada ham shunday radiosi bo'lar edi. 1990-yil 20-yanvarda Sovet

So'qmoq

armiyasi televideniya blokini portlatib, yakson qilgach, hammaning umidi ana shunday radiolarda qolgan edi.

Asosan "Ozodlik" radiosidan Mirza Xazarning ovozi va yangiliklarini intiqlik bilan kutardi. Qochqinlikda o'sha radio Shushada qolgandi. Bir gal Bokuga kelganida, shunday narsalarni Sovunchining "Eski bozori"dan topish mumkinligini eshitgandi.

Bozorga kirib, "Vef" radiosiga ko'zi tushganda, aziz bir narsasini ko'rgandek sevingan edi. Hatto ko'zlariga yosh oraladi. Radio ishlamasa-da, uni sotib oldi, keyin ustaga berib tuzattirdi.

Soat 07:30 edi.

Radiodan diktorning ovozi eshitildi:

"27-sentabr kuni soat 06:00 atrofida Armaniston Qurolli Kuchlari keng ko'lamli buzg'unchilik uyushtirib, Ozarbayjon armiyasining front chizig'i bo'ylab joylashgan punktlari va aholi yashash joylarini yirik o'qotar qurollar, minomyotlar va turli artilleriyalardan o'qqa tutdi.

Dushman tarafidan Tartar tumanining Qapanli, Ag'dam tumanining Alxanli va Shukurbeyli, Jabroyil tumanining Jo'jug' Marjanli qishloqlari kuchli sur'atda o'qqa tutilishi natijasida tinch aholi vakillari halok bo'lgan va yaralanganlar bor. Fuqarolik infratuzilmasi obyektlari jiddiy zarar ko'rgan.

Tinch aholi va harbiy xizmatchilar orasida qurbonlar va jarohatlanganlar haqidagi ma'lumotlarga aniqlik kiritilmoqda.

Ozarbayjon armiyasining oldingi safdagi bo'linmalari dushmanning bu hujumini qaytarish va qo'shinlarning qarama-qarshilik chizig'iga yaqin hududlarda yashovchi tinch aholi xavfsizligini ta'minlash maqsadida javob choralarini ko'rmoqda".

Choyini ichib, o'rnidan turdi. Front chizig'ida o't ochishni to'xtatish har kun buzilishuni o'yladi. Tovuz janglarining to'rtinchi kunda to'xtashi yuragida taskin bermadi. Ammo u hozirgi Ozarbayjon armiyasi 90-yillar armiyasi emasligini

bilardi. Endi bu qo'shin juda kuchli edi.

Bog'ga kirib kuzgi noklarni terishni o'yladi. Tunov kuni xaridor kelib, pulini to'lab, qancha olishini aytgandi. Kechagina narvonni daraxt ostiga qo'ygan edi.

Chelakni ko'tardi, nenidir o'ylab, radioni ham qo'lga oldi. Ikkalasini olib kelib, daraxt tagiga qo'ydi.

Ustiga chiqqanda lapanglamasin deb, narvonning oyoqlarini yerga mahkam tiradi, savatni narvon poyasiga bog'lab, mahkamligini tekshirdi, poyalardan og'ir-og'ir yuqoriladi, qulog'i esa radioda edi.

Shunday qilib, bir necha soat o'tdi. Har kuni ertalab eshitgan xabarlar tez-tez takrorlanardi. To'satdan unga tanish bo'lgan diktorning ovozi yana eshitildi:

- Hurmatli tinglovchilar! Bir ozdan so'ng Ozarbayjon Respublikasi Prezidenti janob Ilhom Aliyevning xalqqa qilgan murojaatini tinglaysiz.

Bu xabar har besh daqiqada takrorlanardi.

U narvondan tushib, daraxt tagiga o'tirdi. Radio ovozini balandlatdi.

Yon devordan qo'shni xotin Sanamning ovozi eshitildi:

- Ada, - ko'p viloyat va qishloqlarda odamlar yaqin kishilariga "ada" deb murojaat qilishardi, - nega o'sha radioning ovozini yana balandlatdingiz? Zormandaning ovozi qishloqni tutdi-ku. Xudo olsin buning ovozini-yey...

Ichida qo'shni ayolni malomat qildi:

- Heh nodon. Endi sen yetmay turuvding. O'chir ovozingni, ko'raylik Prezident nima der ekan...

Eshitmaganga oldi-da, radioning ovozini biroz paslatib qo'ydi.

Qo'shnining kulgisi eshitildi, baland ovozda dedi:

- Bilaman, nimani kutayotganingizni... Urush boshlanganidan bexabarmisiz?

Ko'zlarida chaqmoq chaqnadi. Hech gapirishni istamagan odam birdan tilga kirdi:

- Nima, bu xabarni zag'izg'on tumshug'ida keltirdimi

senga?

Qoʻshni ayol kulgisini bosolmadi:

-Xabaringiz yoʻqmi? Butun dunyo urush boshlandi, deb jar solyapti. - Sanam bu soʻzlarni aytdi-da uzoqlashdi.

U esa hech narsani eshitmasdi goʻyo. Quloqlari shangʻilladi. Shusha tomon otilgan snaryadlarning ovozi eshiltiganday tuyuldi. Xuddi urush hali tugamagan, hamon davom etmoqda edi.

Yana diktorning ovozi eshitildi:

-Hurmatli tinglovchilar...

Uning quloqlari bitib qolgandek edi. Xotirasida faqat Prezidentning ovozi va soʻzlari qoldi:

"...Ozarbayjon armiyasi qarshi hujumga oʻtib, Fuzuliy tumanining Qoraxonbeyli, Garvand, Horadiz qishlogʻi, Yuqori Abdurrahmonli qishlogʻi, Jabroyil tumanining Buyuk Marjonli va Nuzgar qishloqlarini dushmandan ozod qildi...

Shuningdek, Ozarbayjon armiyasining boʻlinmalari Ogdara va Murovtogʻ yoʻnalishlaridagi strategik tepaliklarni egallab oldi. Qorabogʻ - Ozarbayjondir!"

Oxirgi soʻzlardan keyin uning fikri tiniqlashdi. Yonidagi nokni olib, tikilgancha uni artdi. Gʻoyo bundan soʻng nima qilish haqida bir qarorga kelmoqchi boʻldi. Oʻyladi:

"Qishloqlarning qoʻlga kiritilishi hali hech narsani anglatmaydi, lekin tepaliklarni, ayniqsa, "Umar" tepaligini egallash oldinda kutayotgan katta urushdan darak beradi. Ha, mening vaqtim keldi".

Oʻrnidan turib, xonasiga ketdi. Koʻp yillardan beri kiymagan kostyumini olib, u yoq, bu yogʻiga qaradi. Soqolini oldi. Kostyumini kiyib, uydan chiqdi.

Avtobusga oʻtirib, tuman markaziga yoʻl oldi. Avtobusda hamma urush haqida gapirardi. Hamma jonlanib qolgandek edi. Tovuz janglarida birlashgan xalq endi qoʻshinga aylangandi. Avtobusdagi radio esa tinmay baqirardi. Diktor shunday dedi:

"Armaniston Qurolli Kuchlari jangovar faolligining oldini

olish va tinch aholi xavfsizligini ta'minlash maqsadida Ozarbayjon armiyasi qo'mondonligi tomonidan butun front bo'ylab qo'shinlarimiz qarshi hujumga o'tishga qaror qilindi.

Shaxsiy tarkib va tank bo'linmalarimiz, raketa-artilleriya bo'linmalari, front aviatsiyasi va uchuvchisiz dronlarimiz ko'magida Armaniston Qurolli Kuchlarining oldingi chizig'i va mudofaa chuqurligida joylashgan ko'pgina jonli kuchi, harbiy obyektlari va harbiy texnikasi aniqlanib yo'q qilindi.

Olingan ma'lumotlarga ko'ra, turli yo'nalishlarda Armaniston havo hujumidan mudofaa bo'linmalarining 12 ta "Osa" zenit-raketa komplekslari yo'q qilingan.

Ozarbayjon harbiy-havo kuchlarining jangovar vertolyoti frontning Tartar yo'nalishida urib tushirildi, ekipaj tirik. Harbiylarimizning tezkor qarshi hujum operatsiyasi davom etmoqda".

Diktor matnni o'qib tugatishi bilan avtobusda yana muhokamalar boshlandi, olag'ovurda birov-birobni eshimasdi.

- Haloli bo'lsin Prezidentimizning! - orqa o'rindiqdan baland ovozda baqirdi bir kishi. - Ey, aytgandim-ku, bu odamga ishonsa bo'ladi deb. Bir necha kun oldin nima degan edi ko'rmadingizmi?

Kimdir darhol so'radi:

- Nima degandi?

- Qorabog'dan bir qarich ham yer bermaymiz degandi.

Bir ayol darhol gap qistirdi:

- Nihoyat aytasanki, Lazim akamizning vaqti keldi shekilli-a. Allohim umr bersin senga, ey Prezident!

Boshqa bir xotin unga zarda qildi:

- Agez, sani Allohim yaxshi ko'radi. Armani kim bo'libdi?

Nima, biz endi o'rislar bilan urishamizmi? Arman qon ko'rsa qochadi-ku.

Orqada o'tirgan odam yana baqirdi:

- Ey, buncha gapni-gapga qoʻshrmaysizlar? Men qochqinman, uch oʻgʻlim bor. Biroz oldin menga telefon qilishdi. Uchalasi ham borib, armiyaga yozilibdi.

Bu soʻzlarni u goʻyo hammaga achchiq qilganday faxr bilan aytdi. Oldida oʻtirgan bir xotin ham unga acchiq-tirsiq qildi:

- Sizniki askar, bizniki askar emasmi? Kecha mening ham ikki oʻgʻlimni militsiya boʻlimiga chaqirishgan. Tayyorlaning, deyishibdi. Nima, menikilar notavon odamning bolasimi?

Boshqa bir ayol uni quvvatladi. Harbiyga borish bugun eng muhim ish boʻlib qoldi.

- Az...z... toʻgʻri aytyapsiz. Erimning yoshi qirqdan oshdi, oʻgʻlimiz yoʻq. Xudo haqi, ertalabdan malomat qilishni boshladi, oʻgʻil tugʻmagansan, boʻlsa borib Vatanni himoya qilardi, deb. Oʻzi kiyinib, roʻyxatga yozilgani ketdi...

U bu suhbatlarni eshitib gʻururi joʻsh urdi. Demak, xalq tarqoq emas, ruhi tushmagan, Qorabogʻ qasosini olmoqchi, deb oʻyladi.

Nima boʻlishidan qatʼi nazar, Vatanini, davlatini himoya qilishni xohlaydilar.

Bundan gʻurur tuydi. Yigirma sakkiz yildan koʻproq vaqt davomida koʻtarib yurgan bir yuki bilan avtobusdan tushdi. Yoshligida boʻlgani kabi shaxdam qadamlar tashlab harbiy qoʻmondonlik tomon yoʻl oldi...

Kechda Prezidentning harbiy holat eʼlon qilish toʻgʻrisidagi farmoni oʻqildi:

“2020-yil 27-sentabr kuni Armaniston Respublikasi Qurolli Kuchlari tomonidan turli xil qurollardan foydalangan holda xalqaro huquq normalarini qoʻpol ravishda buzgan, shu jumladan, Ozarbayjon Respublikasining aholi yashash joylarini va harbiy punktlarini ogʻir artilleriyadan foydalangan holda bir necha yoʻnalishdan oʻqqa tutilgani, buning oqibatida tinch

aholi va harbiy xizmatchilar vafot etgan va jarohatlangan.

Ozarbayjon armiyasi ushbu hujumlarning oldini olish maqsadida qarshi hujum amaliyotlarini boshlaganini hisobga olib, Ozarbayjon Respublikasi Konstitutsiyasining 109-moddasi, 29-bandi va 111-moddasiga asosan qaror qilaman:

1. Armaniston Respublikasi Qurolli Kuchlari tomonidan Ozarbayjon Respublikasining Tog'li Qorabog' mintaqasi va uning atrofidagi tumanlarning bosib olinishi, uning Ozarbayjon Respublikasiga qarshi qurolli hujumlari va muntazam harbiy provokatsiyalari sababli 2020-yil 28-sentabr soat 00:00 dan boshlab Ozarbayjon Respublikasining barcha hududlarida harbiy holat e'lon qilinsin.

2. Harbiy holatni ta'minlash maqsadida Ozarbayjon Respublikasining "Harbiy holat to'g'risida"gi Qonunida nazarda tutilgan chora-tadbirlar amalga oshirilsin.

3. Harbiy holat davrida Boku, Ganja, Sumgait, Yevlax, Mingachevir, Naftalan, Absheron, Jabroyil, Fuzuli, Oqjabadi, Beylagan, Ag'dam, Barda, Tartar, Goranboy, G'oyg'ol, Toshkasan, Gadabey, Tovuz, Shamkir, Qazax va Oqstafa viloyatlarida soat 21:00 dan 06:00 gacha komendantlik soati joriy etilsin. Komendantlik soati joriy qilingan hududlarda;

3.1. Fuqarolarning ko'chalarida va boshqa jamoat joylarida maxsus ruxsatnomasiz va shaxsini tasdiqlovchi hujjatlarisiz yurishi taqiqlansin;

3.2. Maxsus kirish-chiqish tartibini qo'llash, transport vositalarining harakatini cheklash choralari ko'rsin;

4. Ozarbayjon Respublikasi Ichki ishlar vazirligi komendantlik soati joriy etilishi bilan bog'liq chora-tadbirlarning bajarilishini ta'minlasin.

5. Harbiy holat davrida mulkchilik va tashkiliy-huquqiy shaklidan qat'i nazar, boshqaruv, korxona va tashkilotlarning huquq va qonuniy manfaatlari, fuqarolarning huquq va erkinliklarini qisman va vaqtincha cheklashni nazarda tutgan choralar vaziyatning keskinligidan kelib chiqadigan doirada

So‘qmoq va Ozarbayjon Respublikasi Konstitutsiyasiga, Ozarbayjon Respublikasi ishtirok etgan xalqaro shartnomalarga, shuningdek, Ozarbayjon Respublikasi qonunlariga muvofiq qo‘llanilsin;

6. Mazkur farmon tasdiq uchun Milliy Majlisga yuborilsin;

7. Ozarbayjon Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi Ozarbayjon Respublikasining “Harbiy holat to‘g‘risida”gi Qonunining 25-moddasidan kelib chiqadigan vazifalarning bajarilishini ta‘minlasin.

***Ilhom Aliyev,
Ozarbayjon Respublikasi Prezidenti
Boku shahri, 2020- yil 27-sentyabr.***

Urush davom etardi. Qarshi hujumga o‘tgan Ozarbayjon qo‘shini iloji boricha yo‘qotishlarga yo‘l qo‘ymaslikka urunardi. Albatta, bu oson emas edi.

Hujum qilayotgan tomonda har doim katta yo‘qotishlar bo‘ladi. Ozarbayjon Prezidenti butun dunyoga e‘lon qildiki, Ozarbayjon 1993-yilda Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan qabul qilingan to‘rtta rezolyutsiyani amalga oshiryapti va bu bizning o‘z huquqimizdir.

Har bir yangi hudud ishg‘oldan ozod etilgach, Bosh qo‘mondonning shuhrati ortib bordi. Xalq undan har kuni yangi-yangi g‘alabalar xabarini kutardi.

Urush boshlangan kuni siyosiy partiyalar ham (bir partiyani istisno qilganda) birdamlik bayonoti bilan chiqdi.

Urushning birinchi kunidanoq xalq armiyaga aylandi. Askarlar ham front ortidagilardan katta yordam olardi. Buning uchun ular o‘lishga emas, o‘ldirishga ketardi. Sahidlik sharaf masalasi edi.

Shahid bo‘lganlarning yaqinlari ham buni g‘urur bilan qabul qilar, jangchilar metin lodamga aylanib borardi. O‘q tegsa ham, o‘rnidan turib jang qilishga intilar, safdoshi

yarador bo'lsa, uni yelkasiga olar, yo'lida davom etardi.

Urush boshlangandan buyon Turkiya rahbarlari har kuni Bokuga kelib, muloqot qilar, muhim bayonotlar berib borilardi. Prezident Erdog'an, Tashqi ishlar vaziri Chavusho'g'li, Mudofaa vaziri Hulusi Akar muhim bayonotlar bilan chiqishlar qildi.

Pokiston va Isroil ham Ozarbayjon bilan ekanliklarini bildirdilar. Rossiya betaraf qolishda davom etardi.

Hamma vatan uchun kurashardi, hamma qo'ldan kelganini qilishga tayyor edi. Ozarbayjon favqulodda rartatibda ishlardi. Bir necha kundan keyin Bosh shtab boshlig'i chetlashtirildi va uning urushdagi ishtiroki to'xtatildi.

Yangi tashqi ishlar vaziri Jeyhun Bayramov, Prezident yordamchisi Hikmat Hojiyev, Birinchi vitse-prezident Mehribon Aliyeva va ko'plab deputatlar o'z faoliyatini yanada kuchlantirdi. Har kim imkoni boricha Mudofaa jamg'armasiga pul o'tkazdi.

Ishbilarmonlar, oddiy odamlar to'la mashinalar bilan askarlarga oziq-ovqat, ichimlik va kiyim-kechak olib kelishardi. Xalq hech qachon bunday bir mushtga aylanmagan edi. Prezident aytgan "temir musht"ni armanlar allaqachon his qilishgandi.

Uchuvchisiz uchish apparatlarimiz, jangovoruchoqlarimiz mo'jizalar yaratar, bularning barchasini televizorda ko'rsatishardi. "Bayroqdor", "Zarba", "Harop"ning nomlari tilga olinsa, arman askarlari qurollarini tashlab, jonlarini saqlab qolishga urinardi.

Dushman qochardi. Ozarbayjon armiyasi dunyoda birinchi marta juda ehtiyotkorlik bilan gibrid urushini olib bordi.

Harbiy komissarliklarning chaqiruv uchastkalarida urushga ro'yxatdan o'tish uchun ertalabdan kechgacha navbatlar paydo bo'ldi. Ular uchun yigirma to'rt soat yetarli emas edi. Hamma jang qilishni xohlardi ...

...Harbiy chaqiruv uchastkasida leytenantning baland ovozi eshitildi:

-Kimning navbati, keling!

Ichkariga oriqdand kelgan yigit kirib keldi. Pasportini stol ustiga qoʻydi. Achchiq nigoh bilan qaradi. Leytenant yozuvchizuv bilan band boʻlgani uchun bolaning yuziga boqmasdi. Qoʻlini choʻzib, hujjatni olgani-da, kulimsirab qoʻydi:

- Fariz, yana senmisan? Bu toʻrtinchi marta kelishing. Harbiy chaqiruvga hali yoshing yetmaganligini necha marta aytish kerak? Bor, uch oydan keyin kelasan.

Farizning yuzi tundlashdi, lekin gapga ustalik qildi.

-Komandir, meni ham tushuning. Uch oydan keyin hech qanday shahar-qishloq qolmaydi. Men u yerga borgunimcha, bizning askarlar hamma yerlarni qaytarib olishadi, menga hojat qolmaydi. - Baraka topkur, meni armiyaga yozing, urushga boray, - dedi.

Leytenant kulib yubordi.

-Shahar-qishlogʻ qolmaydi deganing nimasi? - soʻradi u. - Sen olmasang, boshqa askar yigitlarimiz oladi. Farqi nimada? Asosiysi, yerlarimizni qaytaramiz.

Fariz pichirlab javob berdi:

-Men ham shuni aytamanda, komandir. Sevgan qizim, agar urushib, qahramon boʻlsang, senga turmushga chiqaman dedi.

Hatto qoʻl-oyoqsiz qaytsang ham roziman dedi. Xudo xayringizni bersin, komandir! - deya yolvordi. - Meni ortga qaytarmasangiz nima qilardi! Ertami-kechmi, baribir, Vatan oldidagi burchimni oʻtashim kerak-ku.

Komandir oʻyladi: "Qara-ya, Vatan va muhabbat nimalarga qodir? Bu xalq qanchalar oliyjanob, xudoyim? Ammo u qoidalarni buzolmasdi. Oʻrnidan turib, yigitga yaqinlashdi. Qoʻlini yelkasiga qoʻyib dedi:

-Fariz, iltimosingni jon deb bajarardim. Lekin boshliqlarga nima deyman? Askarlar yetishmayaptimi? Nega bu yerga voyaga yetmagan bolani yozding? - deydi. Xafa boʻlma,

og'ayni, bunday qilsam, men ham jazoyimni olaman.

Men ham boshliqlarga frontga ketmoqchi ekanligim haqida raport yozdim. Ular qo'yib yuborishmadi. - Xujjatini unga qaytarib berdi. - Bor, uch oydan keyin kelasan.

Fariz jahl bilan pasportini olib cho'ntagiga soldi:

-O'zingizdan ko'ring. Olmasangiz, olmang. Men urushga o'zim boraman.

U chiqib ketdi. Leytenant kulgancha o'rniga o'tirdi.

-Navbatdagi kim?

Yigirma besh-o'ttiz yoshlardagi, kostyum kiygan bir yigit kirib keldi. Leytenant uni ko'rgan zahoti o'rnidan turib hayron bo'lib so'radi:

-Nodir domla! Bu yerda siz nima qilyapsiz?

Yigit o'tirishi bilan pasportini stol ustiga qo'ydi:

-Meni ham urushga yoz. Uyda, ko'cha-ko'yda yurishga uyalaman. Tengdoshlarim urushga ketgan. Men o'zim to'pchiman, ha, to'p otuvchiman. Sizga to'pchi kerak emasmi? Meni ham yoz, tez. Uyda xotin-bolalarimni yuziga qaray olmayapman.

Leytenant unga qaradi. Qarshisidagi odam yashashdan uyalgandek boshini quyi solib o'tirardi. O'zi ham bu vaziyatni boshidan kechirgan edi. Hamma oyoqqa turgan, hamma nimanidir qilish, yordamini berishni xohlardi.

Afsus bilan dedi:

- Nodir domla, nima qilay?! Siz harbiy xizmatdan ozodsiz, sizda "ruxsatnoma" bor. Tumanga muddatli harbiy xizmatdan ozod etilganlar ro'yxati kelayapti. Biz shunga muvofiq harakat qilamiz va ko'rsatmalar olamiz. Kechirasiz, men hech narsa qila olmayman.

Nodir egilib komandirga pichirladi:

- Mana qara, leytenant. Biz bir-birimizni anchadan beri bilamiz. Oramizda salom-alik bor. Sen bir yo'lini top, men urushga boray. Evaziga, - besh barmog'ini ko'rsatdi, - besh ming beraman.

-Ey Olloh, qanday odamsiz o'zi? Kecha saytlarda bir

So‘qmoq

armanning urushga bormasligi uchun pora berib, COVID-19 kartasini sotib olganini o‘qidim. Bizda esa meni urushga yubor deb pora taklif qilishadi.

Nodir domla, siz urushdan ozod etilgansiz, dedim-ku axir. Men nima qila olardim?

Kecha ham bu yerga taniqli shoir, Milliy Majlis xodimi Akbar Qo‘shali, taniqli yozuvchilar Elchin Husaynbeyli, Azer Turon, Sarvaz Huseynog‘li kelib, urushga ketishmoqchi ekanliklarini aytishdi.

Nodir muallim boshini quyi solgancha o‘rnidan turdi. Aftidan, uning o‘zi ham qilgan taklifidan uyaldi. UZR so‘rab:

- Sharif, xudo kechirsin, oxirgi paytlarda aqlim joyida emas. Xo‘p, sog‘bo‘l...

Leytenant unga taskin berdi:

- Bir o‘ylang axir, urush taqdiri faqat frontda hal bo‘lmaydi, bu yerda ham ko‘p ish qilish mumkin.

Xalqni ushlab turish, ularni ruhlantirish uchun tumanimizda ham sizdek yoshlarga ehtiyoj katta. Nega bu haqda o‘ylamaysiz?

Ko‘zlari yorishib, qaytadan tug‘ilgandek bo‘ldi. Umidsizlikni chetga surib, so‘radi:

-Masalan, nima qila olaman?

-O‘tiring, - dedi. Nodir buyruqqa bo‘ysunayotgan askardek darhol kursiga o‘tirdi. - Qarang, Nodir domla! Tuman ijroiya hokimiyatiga, Haydar Aliyev jamg‘armasiga yordamlar ko‘rsatilmoqda, barcha tadbirkorlar ham bu borada qo‘llaridan kelganini qilmoqdalar.

Frontda yarador bo‘lib kelganlar bor, shahidlarning jasadi olib kelinmoqda. Motam marosimlarini uyushtirish, kelgan-ketganlarni kutib olish, jo‘natish, oilalarga hamdardlik ko‘rsatish kerak. Ammo bularning barchasini kim tashkil qiladi?

Davlatimiz Vatanni ozod qilish yo‘lida qanday mas’uliyat zimmasiga olganini, vatanparvarlik tuyg‘usini targ‘ib etish, shahidlar va yaradorlar qaysi yo‘llarni bosib o‘tgani haqida

ommaviy axborot vositalari orqali nafaqat viloyatimizga, balki butun Ozarbayjonga yoyish bu ham kurash, davlat boshlagan ishni qo'llab-quvvatlash emasmi?

Komandir gapirarkan, Nodir muallimning yuzi qizarib bo'zardi. Qovog'i solindi. Qara-ya, u bu leytenantni ko'p yillardan beri taniydi, lekin bunchalik aqlli, vatanparvar bo'lishi mumkin deb o'ylamgan ekan. Uning xayolida harbiy komissarlikda ishlaydiganlarning kamida ellik foizi poraxo'rlar edi.

Zotan, buning sabablari bor edi. Bu yerda mehnat qilganlarning ayrimlarining turmush tarzi ana shunday o'ylashga asos bo'lgandi. Endi o'zidan uyaldi. U bir to'xtamga kelib, o'rnidan turgancha unga minnatdorchilik bildirdi:

-Katta rahmat, komandir! Sen aytgan gaplar xayolimga ham kelmagandi. To'g'ri aytding, uka, men Ijroiya hokimiyatiga boray unda.

Ular quchoqlashib, xayrlashishdi. Sharif chuqur nafas oldi. Sigaretini chiqarib, yoqmoqchi bo'ldi. Shu payt eshik taqilladi. Leytenant hali sigaretni yoqib ulgurmagandi, jahli chiqdi: "Bir dona sigaret chekishga ham qo'ymaydilar" - dedi, ichida. Lablari orasidagi sigaretni olib, kuldonga tashladi:

-Kiring!

Ko'zlari chaqnab turgan yetmish yoshli chol kirdi. Qo'lida pasporti ham bor edi.

Sharif kekxa odamni ko'rib, o'zini titib turolmadi, ovozi ko'tarib gapirdi:

-Ay, oqsoqol, siz bu yerda nima qilib yuribsiz?! Nima, siz ham urushga yozilmoqchimisiz? - qo'lini tepaga ko'tardi. - Yo Alloh, bu jamoatga nima bo'lgan-a? Yettidan yetmish yettigacha hammasi urishaman deydi.

Bu yoshlarning dastidan qayga qochishni bilmay tursam, endi oqsoqollari kelishyapti. Qani, uzating o'sha pasportingizni, ko'ray-chi necha yoshda ekansiz. - Joy ko'rsatdi. - Qani o'tiring.

Shushali otaxon oʻtirdi. Leytenant ovoz chiqarib oʻqiy boshladi:

-Nasriddin Murod, tugʻilgan sanasi, bir ming toʻqqiz yuz elliginchi yil. Tugʻilgan joyi - Shusha shahri.

Unga xitoban ovozini yumshatib qoʻshib qoʻydi. - Qarang, roppa-rosa yetmish yoshda, bobom bilan teng ekansiz, oqsoqol. Ayting-chi, sizni qanday qilib urushga yuboraman?

Bizga oʻxshagan yoshlar oʻlgani yoʻq hali, keksalarni frontga yuborsak.

Oqsoqol qarasa, stolda gugurt turgan ekan. Chekkisi kelib qoldi. Choʻntagidan sigaret qutisini chiqarib soʻradi:

-Chekish mumkinmi?

Sharif ham chekishni xohlardi. Kuldonni olib, oʻrtaga qoʻydi.

Marhamat, - dedi. Lablari orasiga sigaret qoʻyib, yoqdi. Sigaret chekarkan soʻradi: Xoʻsh, oqsoqol, nima yumushingiz bor?

Nasriddin bey ham sigaretni yondirdi, keyin vazmin ohangda javob berdi:

-Yoʻq, oʻgʻlim, shu yoshda urushga ketsam, meni emas, seni ustingdan kulishadi. Olti kundan beri navbat koʻpligidan bu yerga kira olmayotgan edim. Har kuni kelib-ketib yuribman. Yoshlarimiz omon boʻlsin!

Hammalari toʻyga borishga hozirlik koʻrayotgandek navbatda turishibdi. Bundan gʻururlanib, meni navbatsiz oʻtgazishlarini soʻradim. Buni tomosha qilishni oʻzi bir olam. Naq yigirma sakkiz yildan beri halovatim yoʻq edi. Hozir esa goʻyo oʻttiz yil orqaga qaytgandayman.

Oqsoqolning gaplari leytenantni rohatlantirdi:

-Rahmat, Nasriddin ogʻa! Buni tashqaridagi yoshlarga aytish kerak. Bu yerda urushga yozilish uchun "urush" ketmoqda.

Sigaretni oxirgi marta tortib, kuldonga tashladi.

-Yoʻq, oʻgʻlim! Koʻchaga chiqib, yoshlarni umid va ishtiyoqini sindira olmayman, boshqa ish bilan keldim. Bu

kunni roppa-rosa yigirma sakkiz yildan beri kutaman, - dedi.

Sharif qiziqib qoldi.

-Qanday ish, oqsoqol?

Nasriddin Murod gapni uzoqdan olib keldi:

-O'g'lim! Urush boshlangan kuni tush ko'rdim. - Leytenantning uni diqqat bilan tinglayotganini ko'rdi, dadillik bilan davom etdi. - Qarasam, bu safar Shushani qaytarib olib, u yerdan armanlarni qirib tashlayapmiz. Bittasi ham qolmapti, qochib ketishayotgan ekan.

Sharif gapini ma'qulladi:

-Xudo xohlasa, shunday bo'ladi ham, oqsoqol. - Prezidentning so'zlarini esladi, aytish uchun ayni muddao edi. - Biz ularni itni quvgan kabi quvamiz. Lekin aytingchi, nega olti kun navbat kutdingiz?

-Yo'q, o'g'lim! - Yangidan sigaret chiqardi. - Albatta, men buning uchun kelganim yo'q. Gaplarim bejiz eas, o'g'lim! Men Shushani juda kam yo'qotishlar bilan qaytarib olish yo'lini bilaman.

Leytenant "yettidan yetmish yettigacha hamma jang qilmoqchi" nima ekanligi mag'zini endi chaqdi. Chol yigirma sakkiz yildan beri shu dard va sirni yuragida olib yurgandi. Endi kelib, qanday yordam berishi mumkinligi haqida aytyapti.

Qarshisida vazminlik bilan gapirayotgan bu odamga hurmati yanada ortdi. Endi ovozi yumshatib sabol berdi:

-Buni qanday qilish mumkin, oqsoqol?

Nasriddinga bey qarshisida o'tirgan leytenant ziyoli, ko'pni ko'rgan yigit ekanligini ko'rdi. Bu sirni hozir oshkor qilmasa, qachon, kimga ham aytardi? Ozod o'lkaning fuqarolari. Shunday ekan, u ishonch bilan javob berdi:

- Men sizga SO'QMOQni ko'rsataman.

Sharif hech narsani tushunmadi:

- Qaysi so'qmoq? - so'radi u.

Oqsoqol yana gapni uzoqdan boshladi:

- Panohali xon Shushani qurganda, bobom Nasriddin

So‘qmoq
xon uni ko‘rsatgan, ya’ni shaharga biror kulfat kelsa, o‘sha yo‘ldan o‘tib, dushmanga kutilmagan zarba berish mumkin. Marhum xon bobonga so‘qmoqning joylashuvini avloddan-avlodga yetkazishni buyurgan.

Boshga musibat tushgada, bundan foydalanaylik, - ho‘rsindi.

– To‘qson ikkinchi yilda Shusha ishg‘ol qilinganida, men o‘sha yo‘ldan o‘tgan oxirgi insonman.

Leytenant o‘yladi. “Mana, shaharning siri ikki yuz yetmish yildan beri avloddan-avlodga o‘tib kelmoqda. Endi qaltis paytda kelib shunday sirni oshkor qilmoqchi, ofarin! Ammo bu yerdagilar bu qimmatli xabarni e’tiborsiz qoldiradilar deb qo‘rqaman. Shuni o‘ylab, gapirdi:

– Oqsoqol, yaxshi qilibsiz, oldimga kelganingiz to‘g‘ri bo‘libdi. Bu juda, juda qimmatli, muhim ma’lumot, lekin bu qulfni ochish kaliti bu yerda emas. Ular bu yerda jangovar xarita va rejalarni tuzmaydilar.

– Bir qog‘oz olib, nimalarnidir yoza boshladi. Yozib bo‘lib, qog‘ozni unga uzatdi. - Bu manzilni oling. Bu ishning ilojini general Hikmat Mirzayev qiladi. Uning oldiga boring ...

Urush hamon og‘rig‘i-achchig‘i bilan davom etardi. “Temir musht” dushman boshiga tusharkan, xalqning o‘zi ham temir mushtga aylanib borardi. Hammasi soat millari kabi tinmay ishlardi.

Barcha kuch tuzilmalari harbiy holatga keltirildi. Shunga ko‘ra, Mudofaa, Ichki ishlar, Tashqi ishlar vazirliklari, Davlat xavfsizligi, Tashqi razvedka, Davlat chegara xizmatlari, Davlat bojxona qo‘mitasi va boshqa tashkilotlar “Hamma narsa front uchun, hamma narsa Vatan uchun” g‘oyasi ostida birlashdi.

Barcha davlat ob'ektlari alohida nazoratga olindi. Xalq o‘zining hayajonli, g‘ururli va sharaflı kunlarini boshdan

kechirmoqda edi. Har kuni jiddiy xabarlar bilan ham, hazillar bilan ham xalqqa kuch-g'ayrat bag'ishlagan Oliy Bosh Qo'mondonning o'zi edi.

Uning "armanlarni itni quvgan kabi quvamiz" degan gapi xalq orasida mashhur bo'lib ketdi. Bosh qo'mondon xalqning qadrdoniga aylangan edi. Har kuni odamlar uning yangiliklarini intiqlik bilan kutishardi. Bosqindan ozod qilingan hududlar tobora kengayib borardi.

Nihoyat, Prezident bosib olingan viloyatlardan biri - Jabroyil ozod etilganini e'lon qilganida, xalq ko'chaga chiqdi. "Och qolsak ham, chanqoq qolsak ham Milliy g'ururimizni qaytaramiz".

O'sha kuni Prezident ma'lumot berganidan so'ng u aytgan jumla xalqning yuragiga yetib keldi. "Nima bo'ldi, Pashinyan, sen Jabrayilga yol olganding? Nima bo'ldi?"

Fransiya prezidenti o'zini qo'yishga joy topolmasdi. Ozarbayjonga qarshi qandaydir xalqaro qaror qabul qilish uchun kecha-yu kunduz ishladi. Erondan Armanistonga kecha-yukunduzqurol-yarog', oziq-ovqat, yoqilg'itashilardi. Rossiya ko'p ishlar qilganiga qaramay, betarafligini saqlab qoldi. Dushman esa tobora zaiflashib borardi.

Prezident har kuni xorijiy telekanal va agentliklarga intervyu berib, vaziyatni qanday bo'lsa, shunday izohlardi. Shunday holatlar ham bo'ldiki, ko'rsatma olgan xorijlik jurnalistlar provokatsion savollar bilan Prezidentga ko'p yuzlanishdi, lekin u har bir savolga sabr-toqat, vazminlik bilan javob berdi.

Arman qo'shini frontdagi mag'lubiyat uchun tinch aholidan o'ch olmoqchi bo'lib, yaqin atrofdagi shahar va qishloqlarni tinimsiz bombardimon qildi, biroq aholi o'zlari yashab turgan joyni tark etmasdi. Hatto armanlar taqiqlangan fosfor va vakuumli snaryadlar va raketalarni otishdan ham tap tortmadi. Tartar tumani markazi xarobaga aylantirildi.

Prezident yordamchisi Oliy Bosh Qo'mondon va birinchi

vitse-prezidentdan chet el elchixonalari vakillari va jurnalistlarni Tartarga olib borish toʻgʻrisida koʻrsatma oldi.

Armanlar shaharlarni qanday bombardimon qilayotganini oʻz koʻzlari bilan koʻrshlari, tinch aholiga yetkazilgan zulmlarni oʻrganish maqsadida Bokudan uch avtobus joʻnab ketdi.

Hikmat Hojiyevning yonida Mehribon Aliyevaning yordamchisi Elchin Amirbeyov oʻtirgan edi. Gʻalabalar barchaga yangi ruh bagʻishladi, ammo baʼzi xorijiy vakillklar bundan hech bir sevinmadilar.

Tadbirli, xushchaqchaq odam boʻlgan Hikmat Hojiyev Elchin Amirbeyovga murojaat qildi:

-Koʻryapsizmi, Elchin bey, bu elchixonalarning baʼzilari bizning olijanob ishimizni qilich va qalqonlar bilan kutib olishdi, hatto Minsk guruhi davlatlari ham oʻz vakillarini joʻnatmadi. Yigirma sakkiz yil jim turdik, yana oʻttiz yil kutishimiz kerak, deb oʻylashadi chogʻi.

Amirbeyov uni qoʻllab-quvvatladi:

- Toʻgʻri aytdingiz, Hikmat bey! Ulardan baʼzilarini mamlakatlaridan ruxsat olguncha qancha kutdik? Asosan Yevropa davlatlari, yillar davomida oʻtirgan haqiqiy byurokratik apparat.

- Toʻgʻri, bundan ancha qiynaldik, menimcha, birinchi marta boʻlgani uchun. Biz ularga urushdan keyin vayron boʻlgan shahar va qishloqlarni hali koʻrsatamiz.

- Koʻp narsalarni gapirib boʻlmaydi, Hikmat bey! – Amirbeyov uning gapini quvvatladi. - Bu Minsk guruhi vakillari Ozarbayjonni biror narsa bilan chalgʻitishga urinadi.

Har gal kelganlarida aytishdiki, qizgʻin muzokaralar ketmoqda. Umid qilamizki, muammo tinch yoʻl bilan, ikki tomon manfaatlarini hisobga olgan holda hal qilinadi, deb. Lekin bunday boʻlmasdi.

Tekis qishlogʻu shaharlar, shudgorlangan ekin maydonlari avtobus oynasidan koʻrinarkan, ular xoʻrsinib qoʻydi.

-Qarang, necha yil bo'ldiki islohotlar davom etmoqda. Ammo endi ishg'oldan ozod etilgan shaharlarimizni, qishloqlarimizni, xarobaliklarni qayta qurish, jonlantirish zarur. Bunga hali qancha vaqt, mablag' va kuch sarflaymiz?!

-Albatta, bundan qochmaymiz. Muhimi, g'alabamiz, inshooloh, tan olinsin.

- Inshooloh, tasdiqlanadi, ammo Rossiyada armanparast kuchlar juda ko'p, asosan ommaviy axborot vositalarida. Oqni qora, qorani oq deb tariximiz haqida gapirmoqdalar. Solovyov qanday beadablik qilayotganini ko'ryapsizmi?!

Vitse-prezidentning yordamchisi uning so'zlarini tasdiqladi:

-Albatta, Solovyovning birgina o'zi emas... Qarang, qanchadan-qancha ekspertlar uning va armanlarning pozitsiyalarini qo'llab-quvvatlayapti! Butun ko'rsatuv, bayonotlarida armanlar madh etilyapti. Go'yoki, bizning ham mavqeyimizni himoya qiladigan bittasini yonlariga olishibdi.

Hojiyev kulimsirab javob berdi:

-U yo Korotchenko, yoki Markov bo'ladi.

-Ha shunday. Bularga e'tibor bermay, janob prezident Tovuzdagi janglardan so'ng "Pashinyan mard bo'lsa, kelsin, yakkama-yakka kurashaylik", deb zo'r bir gap aytdi.

Hozir Armaniston butun dunyodan yollanma askarlarni, professional qotillar va terrorchilarni Qorabog'ga to'pladi, ammo ular bizning yoshlarimizga bas kelolmaydi.

Biznikilar armanlar bilan urushmaydi. Ular o'lim bilan jangga kirishadi. Hattoki, ular o'limga ham g'olib kela oladi, deyman. Nega bilasizmi? - O'rindiqdagi suv idishini olarkan, qopqog'ini ochib bir ho'plagancha javob berdi.

- Xalqimiz ona tuproqni, Vatanni shu qadar sevadiki, g'alaba va qasos uchun jon berishga ham tayyordirlar. Milliy g'ururimiz qaytayotganini xalq his qilmoqda.

O'zini shu zaminnig sodiq farzandi va uni himoya qilishni birlamchi burchi deb biladi. Bu tuproq ham sharaf,

ham oiladir. Hozir xalqimiz bu ikkisini birlashtirib, Milliy Nomusi uchun kurashmoqda.

Otaturkning bu boradagi bir gapi yodimga tushdi: “Millatning nomusi uning sarhadlaridan boshlanadi”.

Bu nomussiz armanlar Birinchi Qorabogʻ urushi davrida tinch aholiga nisbatan koʻp haqsizliklar qildilar. Oʻylaymanki, inshaalloh, biz bugungi Vatan urushida oʻshanda sodir etilgan haqsizliklarning evazini olamiz, chegaralarimizni tiklaymiz.

Amirbeyov “inshaalloh” degan payt avtobus Kurdamirda, “ASAN” xizmati yonida toʻxtadi. Eʼlon qilindi:

-Dam olish uchun oʻn besh daqiqa. - Aslida, dam olish deganda, asosan, chekish, yengillanish, oʻtiriaverib tolgan oyoqlarni chigalini yozish nazarda tutilar edi...

Avtobuslar Yavlax-Barda yoʻnalishi boʻylab Tartarga kirib, bombardimonlar natijasida butunlay vayron holatga kelgan shaharning gʻarbiy yoʻnalishida toʻxtadi.

Mehmonlar Prezident devoni vakillari oldida yigʻildi. Hikmat Hojiyev mehmonlarga vayron boʻlgan bino va uylarni koʻrsatib, ingliz tilida soʻzladi:

-Koʻrib turganingizdek, bu tuman Qorabogʻ bilan chegaradosh. Bu yerda harbiy obyektlar yoʻq. Bu shaharda tinch aholi yashaydi. Oʻlganlar va yaradorlarimiz bor. Armanlar bu shaharga fosforli snaryadlar otmoqda. Tartar yigirma birinchi asrning "Stalingrad"idir.

IZOH: Ikkinchi jahon urushi paytida, 1942-1943 -yillarda nemislar va sovetlar oʻrtasida shu qadar shiddatli jang boʻlganki, oxirida shaharda birorta ham bino omom qolmagan.

U davom etdi:

-Armanlar nafaqat urush hududidan tashqarida joylashgan Tartarni, balki Ganja, Yevlax, Barda, Beylagan, Oqbodini ham bombardimon qilmoqda. Ular hatto Mingachevir GESi va Boku-Jayhon neft quvuriga ham zarba berishga harakat qilishdi.

Xorijlik jurnalistlardan biri so'radi:

-Yevropaning ayrim gazeta va saytlari bu urushni Ozarbayjon tomoni boshlaganini yozmoqda...

Hikmat Hojiyev uning gapini bo'ldi:

-Xonim, gapingizni bo'lganim uchun uzr, lekin biz har kuni otashkesim buzilgani haqida butun dunyoga xabar berib keldik. Marhamat, uni internetda ko'rishingiz mumkin.

O't ochishni to'xtatish faqat to'qnashuv chizig'ida buzilgan emas. Shuningdek, tinch chegaradosh tumanlar va qishloqlar jadal o'qqa tutildi va bu hozir ham davom etmoqda. Men sizga bir narsa aytaman.

Sulhning yigirma oltinchi yilida minglab tinch aholi va askarlar otib tashlandi, xalq mulki vayron qilindi. Yana so'nggi voqealarda qishloqlarimiz o'qqa tutilishi natijasida bir qancha fuqarolarimiz halok bo'ldi, uy-joylar, fermer xo'jaliklari yer bilan yakson qilindi.

Shu bois Oliy Bosh Qo'mondon buyrug'i bilan 27-sentabr kuni Ozarbayjon armiyasi qarshi hujumga o'tdi va bugun Vatan urushi davom etmoqda.

Uning tezkor javobi muxbir qizni jim qoldirdi. Ammo chet ellik jurnalistlar uning tilidan qandaydir noto'g'ri talqinni eshitishni istardilarki, bu so'zlarni bir necha daqiqadan so'ng butun dunyoga tarqatsinlar. Keyingi savol shu maqsadda edi:

-Janob Hojiyev! - Erkak muxbir unga savol berdi. - Ozarbayjon tomoni xalqaro tashkilotlarning ruxsatisiz sulhni buzdi va urush boshladi.

Bir necha shaharlar, yo'nalishlar va yuzga yaqin qishloqlar sizning nazoratingizga o'tdi. Yevropa va Amerika sizga qarshi sanksiyalar qo'yishi mumkinligidan qo'rqmaysizmi?

Prezident yordamchisi nima uchun bunday savollar berilayotganini bilardi? Agar u javob bermasa, bu alohida muammo bo'lardi. U qat'iy ohangda javob berdi:

-Biroz avval urushni biz boshlamaganimizni, qarshi hujumga o'tganimizni, aytdim.

Shuningdek, Ozarbayjon armiyasi Birlashgan Millatlar Tashkiloti rezolyutsiyalarini oʻzi amalga oshirmoqda, garchi rezolyutsiyalarni amalga oshirishda bizga butun dunyo yordam berishi kerak edi, lekin bunday boʻlmadi.

Balki biz BMTning obroʻsini oshirish bilan band boʻlgan yagona davlatdirmiz.

Muxbir dovdirab qoldi, u oʻzini BMTning bu rezolyutsiyalari haqida hech narsa oʻqimagan yoki bu haqda bilmaydigandek tutdi. U ajablanib soʻradi:

-Qanday qaror, qachon boʻlgan?

Hikmat Hojiyev jilmayib qoʻydi. U muxbir uni chalgʻitmoqchi ekanligini tushundi.

-Armanistonning Ozarbayjonga tajovuzi natijasida, - dedi u muxbirga oʻtkir nigohlarini qadab, - 1993-yilda yetti viloyatimiz bosib olindi. Shu munosabat bilan BMT tomonidan 822, 853, 874, 884-sonli rezolyutsiyalar qabul qilingan.

Bu rezolyutsiyalarning barchasida tajovuzkor, yaʼni Armaniston bosqinchi boʻlib, oʻz qoʻshinini bosib olingan hududlardan zudlik bilan va soʻzsiz olib chiqib ketishi kerakligi qayd etilgan. Qarang, Ozarbayjon tomoni yigirma yetti yildan beri bu qarorlarning bajarilishini kutmoqda.

Endi biz buni yolgʻiz oʻzimiz bajaramiz. Ozarbayjon tomoni xalqaro huquq normalarini amalda qoʻllaydi va ularga qatʼiy amal qiladi.

-Uning qatʼiy javobi nafaqat jurnalistlar va elchixon vakillarini, balki boshqa yigʻilganlarni ham qoniqtirdi. Hojiyev soʻzini yakunladi.

-Gapimni shu bilan yakunlayman. Endi soʻzni vitse-prezident yordamchisi Elchin Amirbeyovga bersak. Elchixonalar vakillaridan ham gapirmoqchi boʻlganlar borligi ehtimoldan xoli emas.

Amirbeyov gapirayotganda jurnalistlardan biri diktafonni unga uzatdi, lekin qoʻli yetib bormadi.

Hikmat Hojiyev diktafonni muxbir ayolning qoʻlidan olib,

so'zlovchining ovozi aniq yozib olinsin, deb qo'lida ushlab turdi. Keyinroq elchixonalar vakillari ham so'zga chiqdilar.

Prezident Administratsiyasi rahbari Samir Nuriyayev charchagan bo'lsa-da, kayfiyati yaxshi edi. Frontdagi har bir yangi muvaffaqiyat mas'uliyatli bo'lish bilan bir qatorda barchaning ruhiyatiga ham jiddiy ta'sir qilardi.

Har kuni yuzlab ma'lumotlarni saralash, ularni tegishli joylarga o'tkazish, keyin esa belgilangan vazifalarning bajarilishini nazorat qilish oson emas. Albatta, bu juda ko'p kuch va vaqt talab qilardi.

Apparatning rahbari tibbiy niqobda o'tirardi. Koronavirus hali ham davom etayotgandi. Unga qarshi kurash va shu bilan birga urushni muvaffaqiyatli olib borish juda qiyin edi, lekin buning uddasidan chiqish kerak edi.

Asosiysi, Vatan urushining muvaffaqiyatli kechayotgani aholining kayfiyatini ko'tardiki, tibbiy niqob kiyish majburiyati yoddan ko'tarilishiga oz qoldi. Kabinetda Prezident yordamchisi Anar Alakbarov ham o'tirgandi.

Xonaga Davlat bojxona qo'mitasi raisi Safar Mehdiyev kirib, salomlashdi. Devon boshlig'i unga o'tirish uchun joy ko'rsatdi.

-O'tiring, Safar bey! - rais o'tirgandan so'ng darhol qo'shib qo'ydi. - Endi bizning vaqtimiz oltindan ham qimmat, shunday ekan, masalaga yondashsak. "Dashnoqustun" terror tashkiloti Ozarbayjon ichida xunrezliklar qilish bilan tahdid qilmoqda.

Albatta, bizning Davlat xavfsizlik va tashqi razvedka xizmatlarimiz bu bilan keng miqyosda shug'ullanib, har lahzada tezkor ma'lumot berib bormoqda.

Shu bilan birga, bunday bayonotni e'tiborsiz qoldirib bo'lmaydi. Ushbu terror tashkilotining tarixini bilasizmi?

Rais uning so'zlarini tasdiqladi:

- Ha, Samir bey, shunday! Men ularning tarixini o'qib chiqdim, Birinchi Qorabog' urushi paytida Ozarbayjonda

qilingan ishlarga hammamiz guvoh boʻldik.

Devon boshligʻi uning gʻayratli va bilimli ekanligini bilar edi. U davom etdi:

-Juda yaxshi, - ular qaysi tarafdin va qayerda terror uyushtirishlarini taxmin qilamiz, ammo bu shunchaki taxminlar. Biz hamma joyni nazoratga oldik.

Bu ishda bizga pandemiya qoʻl keladi. Yaʼni hozir chegaralarimiz yopilgan. Mamlakatga kirish va chiqish minimal darajaga tushirildi. Bu yaxshi, lekin biz xalqaro munosabatlarda import va eksportni toʻxtata olmaymiz. Bugun vatanning shohtomiri vazifasini siz oʻtaysiz.

Prezident topshirigʻiga koʻra, bojxona sohasidagi tekshiruvlarni kuchaytirishi, shubhali boʻlsa, darhol tekshiruv oʻtkazishi kerak. Men sizning tergov-tezkor boʻlimingiz bu borada kuchli ish olib borayotganini va xalqaro tashkilotlar bilan yaxshi hamkorlik qilayotganini bilaman, lekin bu ishni yanada kuchaytirishni toʻxtatmaslik kerak.

Rais bamaylixtir, lekin juda ishonchli gapirdi:

-Hech shubhalanmang, Samir bey! Biz allaqachon barcha kuchlarimizni temir yoʻllarda, aeroportda, quruqliklarda safarbar qilganmiz va hamma joyda tekshirish va nazoratni ikki baravar, ayrim joylarda esa uch baravar oshirdik.

Hatto xalqaro narkotik savdo tarmogʻi Ozarbayjonning urush holatidan oʻz savdosini kuchaytirish uchun foydalanmoqchi ekani haqida tezkor maʼlumot oldik.

Söhbət Prezidentin köməkçisi qatildi.

Suhbatga Prezident yordamchisi qoʻshildi.

-Mana, bu yerda juda ehtiyot boʻlish kerak. Hech kimga sir emaski, “Dashnoqsutun” xalqaro narkotik tarmogʻi bilan chambarchas bogʻliq boʻlib, baʼzan ular ham xuddi shunday ishlarni amalga oshiradilar.

Balki ular bu yerda oʻzlari xohlagan terrorchilik taʼminotini ololmasalar, bu rostdan ham shunday, u holda tashkilot ularni bojxona yoki chegaradan olib oʻtishga majbur

Yunus O'g'uz

bo'ladi. Har bir qadamingiz va harakatingiz, muvaffaqiyatli faoliyatingiz davlatimiz kelajagi bilan bog'liq.

-Hotiringiz jam bo'lsin, Anor bey!

Raisning to'g'ri, lo'nda javoblari uni qoniqtirdi.

Yoki ba'zilarga o'xshab kelib, o'n daqiqalik maqtoqli so'zini aytadi. U qo'mita raisiga murojaat qildi:

-Boshqa gapingiz yo'qmi, Safar bey!

Rais stol ustidagi jildni ochib, qog'ozni uzatdi:

- Samir bey! Pandemiya e'lon qilinganda bojxona xodimlari jamg'armaga pul o'tkazgan. Endi Vatan urushi boshlandi. Xodimlarimiz maoshlaridan xayriya yig'ib, Mudofaa jamg'armasiga bir million manat o'tkazdilar.

Devon boshlig'i uzatilgan qog'ozni olib ko'z yugurtirdi va qaytarib berib, dedi:

-Ha, yaxshi. Hozir urushga katta miqdorda pul sarflanmoqda. Yana nima?

-Yana, Samir bey, Bojxona qo'mitasi harbiylar, ularning oila a'zolari, shahidlarga yordam ko'rsatish uchun ishlarni boshlab yubordi.

Shu joyda Prezident yordamchisi aralashdi:

-Bu masalani ko'targaningiz yaxshi bo'libdi. Hududlarga jo'natilyotgan yordamlarni ba'zi dallollar bozorga sotayotgani haqida bizda ma'lumot bor.

Buning oldini olish uchun biz Haydar Aliyev fondi yordam masalasini markazlashgan holda amalga oshirishiga qaror qildik. Bundan keyin kimdan so'rashni bilamiz.

Samir Nuriyev devordagi soatga qaradi. Bu uchrashuv vaqti tugaganini anglatardi. O'rnidan turib, dedi:

-Safar bey, bilaman, yuzlab bojxonachilar urushga ketish uchun navbatda turishibdi. Qancha askar va shahidlaringiz borligini ham bilaman. Frontda dushmanga qarshi ochiq kurashmoqdasiz. Sizning qo'mitangizning vazifasi esa yashirin dushmanga qarshi kurashishdir. Bu juda qiyin ish. Shunday ekan, bunda omad tilayman.

Rais xayr-xushlashib, Prezident devonini tark etdi.

Oradan bir necha kun oʻtib qoʻmitaning jamoatchilik bilan aloqalar boʻlimi boshligʻi Notiq Oxundov matbuotga Astara bojxonasida ikki yuz kilogramm giyohvandlik vositalari va ayrim ashyolar topilib, musodara qilingani haqida maʼlum berdi.

Vatan urushi davom etar va har kuni yangi xabarlar kelardi.

Shahid boʻlgan eriga qoʻngʻiroq qilgan ayol.

Xabarlar orasida noxushlari ham bor edi... Hamma yer tuproq rangiga burkangan... Hamma yer chang-toʻzonga botgandi. Yomon xabar bilan bir uyning ustuni qular, nuri soʻnar, umidi uzilardi...

Lekin Aziza Farizni koʻrardi. Fariz avvaliga qoʻl silkitib, keyin qoʻlida uch rangli bayroq bilan gʻoyib boʻlardi. Aziza uni chaqirsa ham, eri qayrilib qaramasdi. U koʻzdan gʻoyib boʻlar, koʻziga koʻringan narsa esa uch rangli bayroq boʻlardi.

Vahima ichida uygʻondi, "Alloh xayrli qilsin" - dedi...

Erta tongdan barcha tuman ahli uy oldiga toʻplanishdi. Kimdir sabr tilar, kimdir marosimga hozirlik koʻrar, kim televideniaga suratga tushirsa, kimdir intervyu olardi, qisqasi, hamma boshida aylanib, hamdardlik bildirardi.

Ikki farzandi otasiz, oʻzi esa Farizsiz qoldi. Ular Azizaga Fariz armanlar bilan qoʻljangiga kirishganda ham koʻpini nayza bilan oʻldirganini aytishdi.

Soʻnggi raqibni oʻldirgandan keyin u bayroqni boshi uzra koʻtardi. Quvonishga ulgurmay, uzoqdan snayper uning boshiga oʻq uzdi...

Aziza ruhan tamom boʻldi, lekin ikki yosh farzandini Fariz nomiga munosib tarbiyalashi kerak edi. U barcha tashvishlar bilan yolgʻiz qoldi. Erkaklarning uy yumushlari ham endi uning zimmasida edi. U hech kimga ham ogʻzini ochgisi kelmasdi.

Farizning uyda qiladigan ishlariga boshqaning qo'li tegishini istamasdi. Bir necha kun shu zaylda o'tdi. Aziza qora ro'molini bog'lab, tuman markazida joylashgan xo'jalik do'koniga yo'l oldi. Odatda bu do'konga erkaklar kelishardi.

Ammo u xijolat bo'lib qoldi. Ayollar do'konga ikki holatda borishadi; yo eri bilan biror narsa tanlash uchun, yoki unga o'xshab chorasiz qolganda.

Qimtanibgina eshikni ochib ichkariga kirdi. Bir kampir eri bilan chiroqqa tikilib turardi. Qolganlari erkaklar edi. Sotuvchi oltmish yoshlardagi bir kishi, yordamchisi esa yigirma yoshlardagi yigit edi.

Navbat kelganda do'kondor diqqat bilan unga qarab so'radi:

-Qani, qizim, senga nima kerak?!

Aziza o'ksikroq ohangda javob berdi:

-Amaki, menga bolg'a, yelimlovchi selikon pistolet, ombur, mix... - ro'yxatni o'qib tugatdi.

Oqsoqol ayol aytgan narsalarni birma-bir yig'ib, ayolga achinib boqardi. Bu ayol unga juda tanish tuyuldi. Aziza olgan narsalarining pulini to'lab bo'lgach, do'kon egasi:

-Qizim, senga bir savol bersam maylimi?-dedi.

-Bemalol, amaki.

Amaki ma'yuslik bilan so'radi:

-Qizim, bularni nega sotib olyapsan? Mixning o'lchamini so'ramading. Silikon elim berdim, lekin nima yopishtirishni aytmading. Ering uyda ishlasa kerak, ehtimol. Mixning o'lchamini u biladi. Agar yanglishgan bo'lsang, ovvora bo'lib qaytib kelasan. Qo'ng'iroq qilib so'ramaysanmi, men ham shunga qarab buyumlarni berardim.

Dunyo Azizaning boshida aylandi. Endi qanday qilib unga eri shahid, men ham uyning erkagi, ham ayoliman, deb aytsin. Fariz tirik bo'lganida, bu yerda yurgan bo'larmidi? Erining shahid bo'lganini aytishga g'ururi yo'l qo'ymadi.

-Ha, to'g'ri aytdingiz, amaki, - telefonni chiqarib, eri bilan gaplashayotgandek chetga chiqdi. - Shu payt u mixning

Soʻqmoq

oʻlchami haqida oʻyladi. - Fariz, mixning kattaligi qancha? - Doʻkondorga murojaat qildi. - Ellik oʻlchamida kerak, amaki.

Yelim devorqogʻozlarni qirralarini yopishtirish uchun kerak.

Ayol shahid boʻlgan eri bilan yolgʻon suhbatini tugatdi.

Oqsoqol tushunganini ishora qilib, kerakli narsalarni olib keldi. U ayolga qaradi. Keyin telefonini olib, nimadir qildi. Erkak nam koʻzlari bilan dedi:

-Bolam, bir daqiqa kutib tur. Oyoqqa turdi. Amaki oʻzini yomon his qilyapti, deb oʻyladi. Yordamchisi ham bu manzarani chetdan, jimgina tomosha qilardi.

-Yaxshimisiz, amaki? - soʻradi u.

-Yaxshiman, bolam. - Kassaga yaqinlashib, ayol toʻlagan pulni qaytarib berdi.

Azizaga bu biroz noxush va gʻalati tuyuldi. U xijolatomuz soʻradi:

-Bu nima qilganingiz, amaki? Nega pulni menga qaytaryapsiz?

Amaki yuzini yon tomonga tutib, zaif javob berdi:

-Olgan narsalaringni puli, qizim!

Azizai oqsaqol uni yolgʻiz deb hisoblagani uchun shunday qilganini tushundi. Yigʻlab yuborishiga oz qoldi: "Yo Alloh, mening yesirligim shunchalik sezilyaptimi?" Bu fikr uning xayolidan oʻtdi. U oʻzini yigʻdi va qatʼiyat bilan dedi:

-Yoʻq amaki, birov toʻlasin deb olganim yoʻq. Katta rahmat! Oʻzim toʻlashga qodirman.

Doʻkon egasi undan pulni olib, uzoqdan suhbat boshladi:

-Qizim, harakatlarimni notoʻgʻri tushunma! Men ataylab mixning oʻlchamini soʻradim, nima deysan ekan deb.

Telefonni qulogʻingga olib yolgʻon gapirding, oʻzing bilan oʻzing gaplashding. Men buni his qildim. Men seni bilaman, yangiliklarni koʻrganman. Hali shunga oʻylanib qoldim. Oʻsha xonim senmi yoki men unga oʻxshatdimmi, aniqlik kiritmoqchi edim.

Sen oʻsha ayolsan. Shahid Farizning xotini. Alloh seni

Yunus O'g'uz

xifzida saqlasin! O'zingizni ojiz ko'rsatishni istamading. - Amakining ko'zlariga yosh to'lib ketganidan boshini pastga egdi.

Do'kon egasining gapi unga o'qdek tegdi. Yig'lamayman, deb o'ziga o'zi va'da bergan edi, lekin ko'z yoshlari yomg'irga aylanganda, hech kim ko'rmasligi uchun do'kondan chiqib ketdi. Yo'lda ketarkan yuragi ezilib bitgandi.

Uyga qanday yetib kelganini ham sezmay qoldi. Karavotga o'zini otib, ho'ng-ho'ng yig'lay boshladi. Bolalar ham nima bo'layotganini tushunmay unga qo'shilishdi.

Endi bu devorlarga mening sirdoshlarim, deb o'ylardi. Men ularga dardlarimni aytaman va yig'layman. Bolalar-chi? Ularni dardga sherik qilib bo'lmaydi. Ularning kelajagi hali oldinda.

U ko'zyoshlarini artib, bolalarni tinchlantirdi:

-Yig'lamang! Hech narsa bo'lgani yo'q, otangizni esladim, shuning uchun yig'ladim.

Aziza o'rnidan turib, sotib olgan narsalari bilan ishni boshlash uchun xaltani ochdi.

Ko'rgan narsasidan deyarli karaxt holga keldi. O'zini tutib, xaltadan narsalarni chiqardi. Xaltada pul va bir varaq qog'oz bor edi. Qog'ozga shunday yozilgandi: "Ering pulini to'lagan, qizim!"

Shahid erining tobutini yelkasida ko'targan ayol.

Urush davom etardi. 2020-yil 18-oktabr kuni Xudafarin ko'prigi ustida Ozarbayjon bayrog'i ko'tarildi.

IZOH: Xudafarin ko'prigi 1027- yilda Shaddodiy hukmdori Fazl ibn Muhammad tomonidan Ravvodiylarga qarshi kurash uchun qurilgan.

Noyob me'moriy yodgorlik hisoblangan ko'pri Ozarbayjon me'morchiligi uslubida qurilgan. Og'a Muhammadshoh Qojarning Ozarbayjonga yurishi chog'ida ko'prikning

bir tomoniga shikast yetgan bo'lsa-da, keyinchalik qayta tiklangandi. Tabiiy qoyalar ustiga qurilgan ko'priknining bir qismi bizning davrimizgacha saqlanib qolgan.

Bu ko'prikdan sal narida yana bir ko'priklar bor, uni ham Xudafarin deb atashadi. Ikkinchi ko'priklar 15 ko'zdan iborat bo'lib, XIII asrda Elxoniylar davrida qurilgan. Hozirda ushbu ko'priknining uchta o'tish joyi butun. Ikkala ko'priklar ham "Ipak yo'li"da joylashgan.

Bundan bir kun avval, ya'ni 9-oktabr kuni Armaniston va Ozarbayjon tashqi ishlar vazirlari o't ochishni to'xtatish to'g'risida kelishib olishgan bo'lsa-da, 10-oktabr erta tongda Armaniston armiyasi qurolli kuchlari Qo'ranboy, Tartar, Ag'dam, Oqjabadi, Fuzuli shahridagi aholi turar-joylarini tinimsiz o'qqa tutdi.

Ozarbayjon prezidenti xalqqa murojaatida va xorijiy televideniyelarga bergan intervyusida "Endi aloqa chizig'i yo'q, muzokaralar bosib olingan hududlarni ozod qilinishiga olib kelishi lozimi"ligini bildirdi.

Oradan bir hafta o'tib, yana sulh bitimi imzolangan bo'lsa-da, arman tomoni front chizig'idan yuz kilometr uzoqda joylashgan yirik sanoat shahri - Mingachevir GESini raketa bilan o'qqa tutdi.

Biroq raketalar Ozarbayjon havo hujumidan mudofaa kuchlari tomonidan havoda zararsizlantirildi. Bu safar dushman yanada zaiflashdi.

Ganjaga bir necha bor raketalar otildi. Prezident yordamchisi Hikmat Hojiyev Ganjada 13 kishi halok bo'lgani, qirqdan ortiq kishi jarohatlangani, yigirmata uy vayron bo'lganini ma'lum qildi.

Urush esa davom etardi. Urushdagi yo'qotishlarni hamma odatdagidek qabul qildi. Hatto shahidning janozasiga qurbonlik qilgan ota-onalar ham bor edi. Chunki shahidning qabri ko'z o'ngida bo'lardi. Bu quvonch, qayg'u, sevgi va g'urur bilan Vatan urushi edi.

Nurgul ukasi Eltonni Shahidlar xiyoboniga dafn qildi. Uning ikki farzandi bor edi. Eri Odil ham urushda edi. U ukasini juda yaxshi ko'rardi. Ba'zan otasi Birinchi Qorabog' urushida Sadarey himoyasi, boshidan kechgan janglari haqida gapirganda, Elton xo'rsinib:

-Eh, ota, qanday baxtli odamsiz? O'z yurtigingiz uchun kurashdingiz, uni himoya qildingiz. Qaniydi men ham o'shanda tug'ilganimda, siz bilan yelkama-yelka kurashardim.

Otasi kulib javob berdi:

-Ezgu ishning kechi yo'q. Yerlarimiz hali ishg'oldan to'liq ozod bo'ldimi?! Umid qilamanki, vaqti-soati yetib, bu sahifaga sen bam o'z nomingni yozib qo'yasan. Hali qiladigan ishlarimiz ko'p.

Ularning suhbatini tashqaridan tinglagan Nurgul gapga aralashdi:

-Erkaklar orasida shunday suhbatlaringiz bo'ladi. Men ham o'g'il bola bo'lib tug'ilganimda edi. O'shanda kim botirroq ekanini ko'rar edingiz.

Otasi uni jerkidi:

-Qiz bolasan, o'z ishingni qil. Sizning vazifangiz o'g'il tarbiyalash, u ulg'ayganda, sha'nimizni himoya qiladi.

Nurgul e'tiroz qildi:

-Ey ota, men nima deyapman?! Dunyo o'zgargan, e... Endi qizlar ham erkaklardek davlatga, Vatanga xizmat qilishi, armiyaga borishi, janglarda qatnashishi mumkin. Harbiy kiyim kiyish mening orzuyim ...

Otasi uning gapini bo'ldi:

-Astag'firulloh, ey qiz, kim deb so'radimmi?! Bizni butun dunyoga beobro' qilishing qoluvdi o'zi.

Nurgul ham achchiqlandi:

-Nima debman, nima qilyabman-ki sizni butun dunyoga sharmanda qiladigan?

Bu safar ukasi suhbatga qoʻshildi:

-Opajon, dadam toʻgʻri aytyapti, biz oʻlibmizmi, siz harbiy kiyim kiyasiz?

Endi Nurgul bu xotiralarni eslar ekan, koʻzlaridan jiqqa yosh oqardi.

-Eh, ukajon, oʻsha harbiy kiyimni sening oʻrniga men kiysam boʻlmasmidi, sening oʻrningda men oʻlmasmidim, jonim ukam, opang fido boʻlsin! - dedi.

U shu xayollar ogʻushida yurganida, telefon jiringladi. Notanish raqam edi, oʻylanib tugmani bosdi. Eri jang maydonida edi. U kimningdir telefonidan qoʻngʻiroq qilayotgan boʻlishi mumkin deb oʻyladi.

-Labbay...

Telefonning narigi tomonidan ovoz keldi:

-Nurgul xonim!

-Ha, men.

-Harbiy komissarlikdan sizni bezovta qilyapmiz.

Ayolning yuragi orqasiga tortib ketdi. Butun vujudi titradi. Boshida bir savol aylanardi: "Odilmikan?" Hech qancha oʻtmay oʻzini oʻnglab dedi:

-Marhamat, eshityapman.

Telefondagi odam zoʻrgʻa, tortinib gapirdi:

-Nurgul xonim! Qanday aytishni ham bilmayman. Bilasiz, bu urush-da, oʻlim-netim, qahramonliklar bor...

Nurgul qoʻngʻiroq qiluvchining nima demoqchi ekanligini allaqachon tushundi. Ichida hamma narsa qotib qolgandi, endi u yigʻlab, dod-faryod solishi boʻlmasdi. Bu Vatan urushi edi. Hech kim shahid boʻlish yoki jarohat olishdan kafillanmagan. Agar imkoni boʻlsa, shu yoʻlni tanlardi. Magʻrur turib uning gapini boʻldi:

-Vatan omon boʻlsin! Shahidlar oʻlmaydi, Vatan boʻlinmaydi!

Qoʻngʻiroq qilgan kishi uning soʻzlarini tasdiqlasa-da, ichida taajjublandi: "Biz ajib xalqmiz, xudo haqqi! Qarang, u oʻlim haqidagi xabarni qanchalik xotirjam va gʻurur bilan

qabul qilmoqda?

-To'g'ri, opa, Vatan omon bo'lsin! - U bu so'zlarni bo'g'ilib aytdi. - Ertaga Bokuda bo'lishingiz kerak. - Gapiirarkan, ayolning boshidan nima kechayotganini bilmas edi. Bu ish unga topshirilgandi. Nima qila olardi? - Nurgul xonim!

-Labbay! - Harbiy komissarlik xodimi tashqaridan chaqiriq ovozi eshitganday bo'ldi.

-Opa, ertaga janoza uyingizda o'tkaziladi. Ikkinchi shahidlar xiyobonida dafn marosimi bo'lib o'tadi. Bilaman, hozir tumandasiz, ukangiz...

Nurgul uning gapini keskin bo'ldi:

- Bugun kechqurun Bokuda bo'laman...

Hech kim bilmadiki, bu ayol kechasi harbiy kiyimni qayerdan topdi. Bokuga qanday uchib keldi. Kimsa bilmaski, Nurgul kechani qanday o'tkazdi, boshidan nimalarni kechirdi.

Erta tongda Odilning dafn marosimiga odamlar shunchalik ko'p yig'ilgan ediki, ular orasida qarindoshlarini ham topolmay qolardi.

Imom "fotiha" berganidan keyin erkaklar uch rangli bayroq bilan qoplangan tobutni ko'tarib, yelkalariga qo'ymoqchi bo'lganlarida, ayol ovozi eshitildi:

-To'xtanglar!

Hamma ovoz kelgan tomonga qaradi. Nurgul harbiy kiyimda tobut oldiga yaqinlashib, yelkalarini uning ostiga qo'yib, g'urur bilan dedi:

-Ha, endi ketishimiz mumkin.

Ozarbayjon tarixida shahid askarning tobutini hali hech qachon ayol kishi ko'tarmagan edi. Hayron bo'lganlar ham, tushunganlar ham bo'ldi. Uning orzusi ushaldi.

U harbiy kiyimda edi, lekin bu harbiy kiyimda unga erining dafni taqdir qildi. U bir shahid uchun jonini fido qilgan vatan tuprog'iga qovuchmoq uchun yo'lga chiqdi. Bir ayol shahid erining tobutini yelkalarida g'urur bilan ko'tarib odimlar edi...

Urush esa davom etardi.

Salom, Hikmat bobo!

Ismini eshitgan erkak oʻrnidan turib atrofga qaradi. Uning qarshisida bir yosh qiz turardi. Bu qiz hovliga qanday kirdi ekan?

-Ha, qizim, meninh oldimga keldingmi? - soʻradi u.

Qizning qoʻlida quti, qutining ichida oyoq kiyimi bor edi. U umrida kimdir uni izlab, salom berib keladi deb oʻylamagandi.

Naslining aksariyati qatagʻon qilingan edi. Shoʻrolar davrida. Ortiq hech kimga ishonmasdi. Hamma bu odam oʻzi uchun yashaydi deb oʻylardi. Lekin u ichida bir olamni olib yurardi, bu chol xotirasida tarix mujassam edi. Dardini kimga ham aytardi?

Shoʻrolar zamonida unga “boshim omon qolsin desang, jim yur” degan aqidani singdirishgandi. U ham ovozi chiqarmasdi. Qorabogʻ ishgʻolidan soʻng u butunlay oʻz dunyosiga chekinib, “jim boʻlish”da davom etdi.

Ichidagini oshkor qilishni istamasdi. Urush boshlanganda esa uning umidlari ortdi. Bizdan, shu xalqdan nimadir chiqadi, deb oʻylardi. U oʻz vijdoni bilan ish koʻrdi.

Qorabogʻda uning hech kimi urushmagan edi, lekin bu tuproq Shakidan iboratmi, degan savolga koʻp marta hazil bilan javob berdi: Shaki, Leki, Boku bizniki. Lekin nega Qorabogʻ bizniki boʻlmasligi kerak?

Bu Vatan degani murakkab masala. U oʻz aqli bilan oʻylardi va oʻz dunyosiga hech kimni qoʻymasdi, hatto atrofidagilar ham uning dunyosidan bexabar edi.

Davlatga boʻlgan bu muhabbat qayerdan paydo boʻlganini oʻzi ham tushunmasdi. Zotan, davlat unga pul yigʻib bermagan, yaxshi nafaqa ham olmasdi. Lekin nonini topib yerd.

U hech qachon ishlagan joylarida rasman roʻyxatdan

o'tmagani uchun eng kam pensiya olsa-da, "Shunisiga ham shukur!" - derdi.

U eski odamlardan edi. Davlatdan hech qachon bir narsa kutmay yashadi, ammo davlatini juda yaxshi ko'rardi, Illah Milliy hukumat bo'ladi.

Unda hech qanday gunoh yo'q edi. 1920-yilda milliy hukumat ag'darilgach, otasi unga hech qachon sovetlarda ishlamaslikni vasiyat qildi. Ishladi, lekin ismini hech qayerga yozdirmadi.

U sovetlardan shunday qasos oldi. Otasi Ikkinchi jahon urushi qatnashchisi bo'lib, asir tushib, Bavariyaga olib ketilgan edi. Keyin amerikaliklar kelgach, uni AQShga jo'natishadi. Otasi portda ishlaydi.

O'g'rilik-to'g'rilik qilib ikki chemadon to'la dollar yig'adi. 1946-yilda Stalin "Men barcha mahbuslarni kechirdim, ular qaytib kelishlari mumkin" deganidan so'ng, puldan ko'ra, Vatan sog'inchi ustun keladi va vatanga qaytishga qaror qiladi.

Amerika unga dollarga to'la chemadonni olishga ruxsat berdi, lekin sovet bojxonalarida uning barcha pullarini olib qoldilar va bu sirni hech kimga aytmasligini uqtirishdi. Bechora bu sirni Gorbachev davrigacha ichida saqladi.

Sovet idoralarida ishlamadi. Faqat "oshkoralik" davrida o'g'li Hikmatga ichda yashrgan dardi-sirini yordi. Shunda Hikmat otasining nega rasman hech qayerda ishlamasligini tushundi. U otasining yo'lini davom ettirdi.

-Va alaykum assalom qizim! - Kel, o'tir. - Ular ayvonda o'tirhdilar. Qizning ismi Zulfiya edi. Unga tikilib dedi: Uzu, tanimadim seni, qizim!

Muxbir qiz qo'ltig'i ostidagi qutini uni tizzasiga qo'ydi:

-Qayerdan ham tanirdingiz, bobojon?! Men muxbirman, Bokudan kelganman.

Hikmat uzatilgan qutini olib, qizga qaytardi.

-Qizim, manzilda xatoga yo'l qo'yganga o'xshaysan? Men hech kimdan hech narsa kutmayotgandim.

Yosh jurnalist qiz oʻyga tushdi, telefonini olib nimadir qidirdi.

-Shuncha vaqtdan beri manzilda xato qilmaganman, siz Hikmat Musayev, ya'ni Hikmat bobo emasmisiz?

Otaxon jilmayib javob berdi:

-Hikmat Musayevmanku-ya, lekin hech kimdan xabar kutmagandim.

Yosh qiz oʻz nomunosib harakatini tushunib yanada qizarib ketdi. Bosh muharrirning "tumanga borib, o'sha odamni top, intervyu ol", deb ko'rsatma bergani uchun masalani qandaydir hal qilmoqchi bo'lgan edi. Shoshib qoldi.

Qiz oʻzini tinchlantirdi:

-Ha, to'g'ri kelibman, - dedi. U diktafonni cholga yaqinlashtirdi. -Mudofaa jamg'armasiga pensiyangizni qanday o'tkazdingiz?

Chol bu yosh jurnalistning hali ham xomligini ko'rdi. Va hazil qilib dedi:

-Bilmadim, qizim! Urush ketayotganini ko'rdim, men pulimni hech yig'a olmayman. Shuncha pulni nima qilaman deb o'yladim. Bu pullar askarlarimizga xizmat qilsin dedim!

Zulfiya oyog'idagi nimdosh tuflisiga qaradi va xato qilganini angladi.

-Hikmat bobo, hafa qilgan bo'lsam uzr so'rayman,-dedi, -sizni ranjitmoqchi emasdim.

Chol dasturxonga choy keltirdi. Qiz xatosini tushunib, dovdirab qo'lmaganini ko'rdi. Taklif qilindi:

-Qizim, qani choydan ich! Yo'ldan kelgansan, damimgni ol, keyin gaplashaveramiz. Uyimiz tor bo'lsa ham, bag'rimiz keng. Mehmon atoyi xudo.

Zulfiya choy icharkan, diktafonni yoqishni ham unutmadi.

-Hikmat bobo, "ASAN xizmat" xodimi sizni pul o'tkazganingizni ko'rib, ijtimoiy tarmoqlarda tarqatdi. Siz hammaga o'rnak bo'ldingiz. Vatanning og'ir kunida kambag'al, boy farq qilmasligi lozim. Har kim qo'ldan

kelgancha yordam qilmog'i kerak.

Chol xo'rsinib:

-Bilmadim, bolam! Men ijtimoiy tarmoqlarga kirmayman. Menda eski telefon bor, men faqat uning qo'ng'iroqlariga javob beraman. Qo'shnining o'g'li ko'rsatgan edi ularni menga.

Muxbir choydan ho'plab so'radi:

-Nafaqangiz qancha?

Otaxon qiz uning ovoziini yozib olayotganini tushundi, lekin indamadi. Ishi shuda, qancha yo'l bosib keldi, deb o'yladidi. Qisqa javob qildi:

-Ikki yuz o'ttiz manat.

Zulfiya hayron bo'lib:

-Ikki yuz o'ttiz manatning bir yuz saksonini Qurolli Kuchlarga ko'maklashish jamg'armasiga o'tkazdingizmi? Qanday yashaysiz?

Hikmat bobo kulib yuboray dedi. Lekin negadir jiddiy turib dedi:

-Yo'q, qizim, hozir nafaqa haqida o'ylash vaqti emas. O'sha bir yuz sakson manatni tiyn-tiyn qilib jamg'argan edim. Niyatim bor edi. Bosh qo'mondonning buyrug'i bilan askarlarimiz yerlarimizni ishg'oldan ozod qilishini Xudodan so'rardim.

Men ham bu pullarni olib borib fondga o'tkazdim. Niyatim amalga oshdi. Xudoga shukur! Armiyamiz kuchaymoqda. Bu meni juda xursand qiladi. Nega bizning yerlarimiz armanlar hukmronligi ostida qolishi kerak?

Bundan tashqari, bu shahar yeridir. Butun Kungutun xalqi bir-birini qo'llab-quvvatlaydi, bir tan, bir jon. Ular hech kimning ochlikdan o'lishiga yo'l qo'ymaydilar.

Shu payt ko'chadan mashina signali eshitildi, kimdir qichqirdi:

-Hikmat bobo, hoy, Hikmat bobo, uydamisiz?

U o'tirgan joyidan javob berdi:

-Kim u qichqirayotgan? Darvoza ochiq, kelavering.

Ikki yigit kirdi. Har birining qo'lida bir quti.

Yoshlardan biri salomlashib, jo'shqinlik bilan gapira ketdi:

-Hikmat bobo! Bu qutilarni raisga yubordi. Shu kunlarda mehmonlari ko'p, ro'zg'ordan qiynalamsin - dedi! Mashaalloh, bir amal bilan qishlog'imizni mashhur qildingiz.

Qutilarni ayvonga qo'yib, xayr-xushlashgancha ortga qaytishdi. Hikmat bobo muxbirga qarab dedi:

-Ko'rdingmi, qizim! Shahar jamoati hech kimni ochlikdan o'lishiga yo'l qo'ymaydi. Hammasini shu yerda yozdingmi?

Zulfiya ovozini yozib olayotganini bobo boshidanoq bilganini, yuzaga chiqarmay jim o'tirganini tushundi.

Ohista javob berdi:

-Yozdim, bobo, yozdim.

Urush hamon davom etardi.

Urush boshlanganidan keyin Gabaladagi Tuntul qishlog'ining choyxonasida o'tirishga joy qolmadi. Kuz fasli bo'lgani uchun odamlar ekin-tikinlarini tugatgan edi.

To'g'ri, ba'zi ishlar hali bor, ammo urush bois hammaning qo'li ishdan sovigan edi. Chorvalar yaylovga o'tishi bilan hamma bu yerga oqib tushdi. Ular prezidentdan xabar kutishardi.

Choyxonachi choyxonaga rangli televizor o'rnatgan edi. Kelganlar tutib ketishni hech istamasdi. Choyxonachi ham har kuni choyni tekin tarqatardi. Gulbola bobo choyxonaga kirgandi, yoshlar o'rnidan turishdi. Salom berib joy bo'shatishdi.

Uning qishloqdagi hurmati ancha ortgan edi. Nimaga ham ortmasin? Uch o'g'li - Elgun, Elkin, Turon Vatan urushida qatnashayotgandi. U yigitlardan biriga buyurdi:

-Bolam, o'sha ikkita stulni burchakdagi stol yoniga qo'y! Hozir Jafar bobong ham kelib qoladi. Biz biroz chaqchalashamiz. Yangi xabarlar bormi, Bosh qo'mondon

chiqish qildimi? - so'radi chol.

Choyxonachi stol ustiga to'la choynak, ikkita stakan va bitta limonni kesib qo'ydi. Unga choy quyarkan, javob berdi:

-Gulbola bobo, hali erta-ku? Tong endi yorishdi, askarlarimiz uyg'onsin.

Chol piching qilishni unutmadi:

-Sho'ring qursin, askarlar uxlayapti, uyqudan turar deysanmi? Yodingda bo'lsun! Uxlayotgan askar bosib olingan yerlarni ozod qila olmaydi!

Orqadan ovoz keldi:

-Baraka toping, Gulbola bobo, to'g'ri aytdingiz!

Choyxonachi cholning yoniga o'tirib so'radi:

-Bolalardan xat-xabar bormi? O'shakuni Suvqovushondagi jangda Elkindan ikki metr narida minomyot snaryadlari tushib, portlaganini aytgandingiz.

Gulbola bobo xo'rsindi:

-Eh, bularni keyin bildim, e... O'n sakkiz joyidan jarohat olsa ham, o'rnidan turib, yana urusha ketibdi.

Po'lat Hoshimov va Muboriz Ibrohimovlarning o'chini olmasam, tinchimayman. Men ulardan ortiq bo'lolmaymanmi? - deydi. O'nta o'q parchasini olib tashlanibdi, sakkiztasi tanasida qolgan. Hali ham urushda ekan.

-Gulbola, xudo yorlaqasin seni! Mard o'g'illarmi tarbiyalagansan. -Boshqalar eshitsin deb aytilgan bu so'zlar orqadan keldi.

U o'girilib, ovoz kelgan tomonga qaradi. Jafar bobo uning gapiga quloq solib turgan ekan.

Yonidagi stulni biroz orqaga tortdi:

Kel, o'tir, havo soviyapti. Bir piyola choy ich, - dedi Gulbola bobo.

Choyxonachi darhol unga choy quyib berdi. Gulbala bobo sigaret chiqarib, yoqdi-da, qutini stol ustiga tashladi.

Sigaretadan bir tortib, tutunini purkadi. Jafar bobo ham shunday qildi. Tutun ustidan bir qultum choy ichdi.

-Bolalardan xabar bormi? - soʻradi, xuddi oʻz farzandlarini soʻraganday. Vatan urushi hammaning halovatini buzgan edi.

Sigaretini kuldonga bosib oʻchirdi.

-Kechqurun Turon qoʻngʻiroq qilgandi.

Hamma qiziqish va diqqat bilan tinglay boshladi.

Hatto choyxonachi ham sabrsizlik bilan:

-Ha, nima deydi, ilgarilabmizmi yoki toʻxtab qoldikmi?

Jafar bobo Gulbola boboning oʻrniga javob berdi:

-Bunday oʻgʻillar bilan toʻxtab qolish mumkinmi?

-Yoʻq, olgʻa bosishyapti. - Jafar boboning gapini tasdiqladi. - Hammasi yaxshi ekan. Soʻzlariga koʻra, unga maxsus kuchlarda xizmat qilish taklifi tushgan. Katta akasi bilan ham gaplashipti.

Elgun eʼtiroz qilmabdi, hatto xursand boʻlibdi. Hamma joyda aytaman, uch oʻgʻlim ham hayotini harbiy xizmatga bogʻlagan. Men ham bu yerda onasi bilam harbiy tartibda yashayotganimizni bilishmaydi.

-Oʻrnidan turgancha, sigaret qutisini stoldan olib, choʻntagiga soldi. Jafar bobo turmadi, boshqa doʻstlarini kutmoqchi edi. -Mayli, omon boʻlinglar.

Tashqariga chiqqach, orqasidan ovoz eshitildi:

-Xudo haqqi, bu odamning bolalari ham, oʻzi ham ajdaho!

U ogʻir-ogʻir qadamlar tashlab uyiga yoʻl oldi. Yoʻliga xotini va nevaralari peshvoz chiqdi. Nevaralarini quchoqlab oʻpdi. Xotini Sevdaning yuziga qaragandi, yana koʻzlarida yosh koʻrdi. Nevaralarining oldida indamadi, tufilisini yechib, ichkariga kirdi. Oʻtirishi bilan soʻradi:

-Bolalarning oldida koʻz yoshi qilma, demovmidim?

Sevda erining qiyofasidan uning jahli chiqqanini sezdi:

-Voy, xudoyim, bunga qanday chidayman, menga oson ekanmi? Axir, sizga aytgandim-ku, hech boʻlmasa bittasi qolsin deb.

Chol ovozini pasaytirdi:

-Menga ham oson tutma! Borma desam, qochib ketardi.

Yunus O'g'uz

Bilmaysanmi, uchalasi ham o'lgudek qaysarligini? Keyin hech qachon qo'ng'iroq qilishmasdi. - Taskin berdi . - Xudo xohlasa, uchalasi ham eson-omon qaytib keladi. Kelgan kuni oyoqlari ostiga uchta to'qli so'yamiz. Endi tur, choy olib kel.

Sevda ikki qo'lini yuziga tutib:

-Omin, aytganingiz kelsin...

Urush esa davom etardi.

Bosqindan ozod qilingan hududlar kundan-kunga kengayib borardi. Xalq endi urush kunlarini hisoblamay, barcha yerlarimiz ishg'oldan ozod etilishini kutayotgan edi.

Ular barcha yo'qotishlarga chidadi, faqat Ozarbayjonda arman fashizmiga barham berilishini istardilar. Shahidlar, yaradorlar kelishdi, lekin o'g'lim nega shahid bo'ldi deb, birorta odam norozilik bildirmadi.

Davlat barcha oilalarga g'amxo'rlik qildi. Hammaga qayg'urib yondoshilardi. Prezident har kuni xorijiy davlatlar matbuotiga intervyu berib, vaziyatni tushuntirib, kesatiq savollarga ham sabr bilan javob berar, ig'vo uyushtirmoqchi bo'lganlarni dalillar bilan joyiga o'tqazardi.

Pashinyanning "B" rejasi ham chippakka chiqdi. Aksincha, Ozarbayjon armiyasi armanlarni tobora qurshab olardi, dushmanni tez kunda mag'lubiyatga uchrashi aniq edi.

Ozarbayjon armiyasi "Ohonyan to'g'oni" deb atalgan Fuzuli va Ag'damga hujum qilmadi, balki halqani toraytirdi.

Hatto Ag'damlilar hamma yerda qishloqlar ozod qilinayapti, bizdan hali bitta ham qishloq qaytarilmadi, deb norozilik bildirdi. Ularga hazillashib, Ag'damni "yoppasiga" ozod qilamizi deyishardi.

Armaniston tomonining har qanday yurishi muvaffaqiyatsizlikka uchradi. Ayni paytda Ozarbayjon tomoni Armaniston hududidan Bokuga uchirilgan ikkita "S-300" ballistik raketasini yo'q qildi va zudlik bilan Bokuda elchixonalar harbiy attashelari uchun matbuot anjumani o'tkazildi.

90-yillardan farqli oʻlaroq, endi Armaniston (E. Makrondan tashqari) yolgʻiz qoldi. Haq ham, kuch ham Ozarbayjon tomonida edi. “Haqiqat kuchda emas, kuch haqiqatda” degan gap toʻgʻri chiqdi.

Urush davom etardi...

Urush boshlanishi bilan sud xodimi boʻlgan Kamron bey Xizidadagi chaqiruv uchastkasiga yoʻl oldi. Harbiy xizmatni razvedkachi sifatida tugatgan edi.

Harbiy komissarlikka borganida, koʻnglida qochib ketaman, derdi. Komandiriga telefon qilishni oʻylardi. Komandiri har doim undan yaxshi razvedkachi chiqishini, professional zobit ekanligini aytardi.

-Qoʻngʻiroq qilib, Vatanni ogʻir kunida keldim. Qabul qilasizmi? - deyman. Qabul qilmaslik mumkin emas...

U toʻgʻri harbiy komissarning xonasiga kirdi. Shahar kichkina boʻlgani uchun hamma bir-birini tanirdi.

Komissar uni koʻrgan zahoti oʻrnidan turib, peshvoz chiqdi va darhol eʼtiroz bildirdi:

-Kamron bey, men seni urushga joʻnata olmayman, senda ruxsatnoma bor. ikki qoʻlini tizzasiga qoʻyib urdi. – Hoy, muallim, Xizida mendan boshqa yosh zobitlar qolmaydi deysanmi?!

Bir-biridan hol-ahvol soʻrashdi. Boʻyi bir metru sakson besh santimetr boʻlgan Kamron harbiy komissarga kulib dedi:

-Frontga yozilish uchun kelganimni qayerdan bilding?

- Voy Xudo, sen avval oʻtir! - Kamronga joy koʻrsatdi. - Nima, oʻzicha aylanib keldi deb oʻylaymanmi? Hey, bolasi tushmagur!

Ilgarilari harbiy xizmatga bormoqchi boʻlganlarni uyma-uy yurib yoki Bokudan topardik. Endi bu azobdan qutuldik. Hamma – keksa-yu yosh - urushga borish uchun, roʻyxatdan

o'tish uchun kelyapti. Vaqting bo'lsa, senga bir voqeani aytib beraman.

- Marhamat – dedi, - endi vaqtim butkul sizning ixtiyoringizda. Ishdan bo'shash haqida ariza yozdim, bronni bekor qilishlarini so'radim.

Harbiy komissar u nimani nazarda tutayotganini tushundi. Uni fikridan qaytarish uchun suhbatini shunday davom ettirdi:

-Bilasanmi, ellik besh yoshli kishi kelib uni frontga jo'natishimni iltimos qildi. Falonchivoy, yoshingiz anchaga yetibdi, kerak bo'lsangiz chaqiramiz, dedim. Xafa bo'lib qaytib ketdi.

Kechqurun shaharda uni frontga ketganini gap qilishdi. Oradan bir necha kun o'tib, uni Xizida ko'rdim. Nima bo'lganini, nega Xizida yurganini so'radim.

Qo'llarini silkitdi. Qanday kelganini ochiq gapirmadi. Yoshi kattaligi uchun yengil ish berishibdi. Bilmadim, yashik, qop, qisqasi, nima kelgan bo'lsa, tashib yurdibdi. Bir kuni chiday olmay, yerga yashikni uloqtirib, baqiribdi:

-Men bu yerga yashik tashish uchun emas, armanlarni o'ldirish uchun kelganman!". Komandir yoshingiz to'g'ri kelmayapti, deydi. Rosa jahli chiqbdi.

Ikkalasi ham baravariga kuldi. Kamron jiddiylilik bilan:

-Komissar, men razvedkachiman. Men arman askarlarini o'ldirishimga shubham yo'q.

Chunki razvedkachi istalgan vaqtda dushman bilan duch kelishi mumkin va bu choq omon qolishning bir yo'li bor. - O'ldirish. Ammo men bir qardoshimizni, askarimizni ham qutqara olaman. Mening harbiy tajribam bugun u yerda kerak...

...Kamronning bo'linmasi Sug'ovushanda edi. Urush avjiga chiqqan payt. Dushman Talish qishlog'i va Sug'ovushanda surub chiqarilgandan keyin armani qo'shinlari bu hududlarni qaytarib olishga urinardi, biroq har safar uddasidan chiqa olmasdi.

“Zarba”, “Bayroqdor” va “Harop” uchuvchisiz uchish apparatlari asosan tumansiz havoda dushmanni bosh koʻtargani qoʻymasdi. Shu sababdan armanlar tungi vaqtda har xil turdagi qurollardan tinimsiz oʻq otardi.

Ular arman razvedkasi yuz metr narida buta ostiga yashiringanligi haqida maʼlumot olgan edi. Kamronning komandiri u bilan askarlikda birga boʻlgan boshligʻi edi. Kamron arman razvedkasini zararsizlantirish topshirigʻini olgandi. Boʻlinma juda ogʻir sharoitda oldinga siljirdi. U komandiri bilan ratsiyada gaplashdi:

-Komandir, osmonga mushak oting, atrof qorongʻi.

Osmonga mushaklar otildi. Hamma yoq yorishib ketdi. U tungi durbin bilan atrofga qaradi.

U armanlar joylashgan yerni aniqladi. Barmoqlari bilan boʻlinmasiga qayerga borishni koʻrsatdi. U yana ratsiyaga gapirdi:

-Komandir, boshqa mushak otilmasim, ularning joylashuvi aniqlandi.

Arman askarlari snaryad tushgan bir chuqurga yashiringandi.

Dushman razvedkasi biroz ilgari siljib Ozarbayjon askarlari joylashgan asosiy nuqtalarni aniqlash uchun payt poylar edi. Keyin qayerni bombalash kerakligi haqida xabar berar edilar.

Xandaqdan biri boshini koʻtarishi bilan Kamronning boʻlinmasi qirgʻiydek ularning ustiga yopirildi. Hatto ovoz chiqarishga ham ulgurishmadi. Goʻyo qoʻlga tushishni anchadan beri kutayotgandek edilar.

Qurolsizlantirib, qoʻllarini bogʻlashdi. Ular oltita edi, Kamron ikki askariga asirlarni shtabga olib borishni buyurdi. U komandiriga ham xabar berdi:

-Komandir, sizga oltita joʻnatma bor. Biz oldinga qarab ketyapmiz.

Ratsiyadan ovoz eshitildi:

-Tushunarli!

Guruh ellik-yuz metrcha oldinga o'tdi. Bu safar dushmanning mushaklari osmonni yoritib yubordi. Armanlar razvedka guruhining joylashuvini ko'rdi. U o'zinikilarga aloqaga chiqishga urindi, lekin ratsiya ishlamay qolgandi.

O'sha payt qo'lga tushganliklarini bilishdi. Zum o'tmay ular turgan joyga to'p, pulemyot va minomyotlardan o'q va snaryadlar yog'ila boshladi. Guruh tez yerga yotib oldi, ammo juda kech edi.

Yana bir-ikki mushak tun zulmatini yorib, osmonni yoritdi, atrofga minomyot snaryadlari yog'ildi. Guruh a'zolarining badanlari ilma-teshik bo'lib ketdi.

Kamron ko'zini ochganda, hech narsa ko'rmadi. Uning uchun dunyo zulmatga aylangandi. Qo'lini ko'zlari oldiga yaqinlashtirdi, lekin baribir hech narsani ko'rmadi. Bu safar qo'li bilan ko'zini ishqaladi. Suyuq narsani sezdi. Burniga yaqinlashtirib, hidladi, qon hidi kelardi.

U yana qo'lini ko'zlari tomon olib keldi. Ikki barmog'i bilan ko'zlarini ichiga tiqdi. Ikkala ko'zi ham yerga oqib tushdi. Qo'llari bilan yerdan nimadir qidira boshlashdi. Xayoliga har narsa keldi. Ko'zlarimni topib o'rniga tiqsam, dunyoni avvalgidek ko'ra olaman, deb o'ylardi. O'ziga-o'zi dedi: "Kamron, ahmoq bo'lma! Ko'zlaring yerga oqib tushdi".

Axtara-axtara qo'llari ikkita kichik issiq narsaga tegdi. U bu ko'z qorachig'i ekanligini bildi. Ehtiyotkorlik bilan olib, cho'ntagiga soldi. U askarlarini esladi. Asta pichirladi:

-Bolalar, tirik qolganlar bormi?

Hech kim javob bermadi. U yana so'radi. Hamma narsadan sukunat ustun keldi. Ora-sira o'q ovozlari eshitilardi, ammo o'q otgan armanlar edi. Xayolini yo'qotib, ovoz kelayotgan tomonga sudrala boshlashni o'yladi.

Asirlarni olib ketgan ikki askar allaqachon qaytib kelishgandi. Ulardan yigirma metr narida o'rnashib olishgandi. Ular komandirlari so'qir bo'lib qolganini ko'rishdi. Biri darhol ovoz berdi:

-Komandir, u yoqqa bormang, u yerda armanlar bor! Ovozim kelayotgan tarafga keling. Uning qulogʻiga tanish ovoz eshitildi. U endi orqaga sudrala boshladi. Snaryad portlagan joyga qaytdi. Askar qoʻli bilan jangchilarning jasadlarini paypasladi.

-Omon qolganlar bormi? - U pichirlab gapirdi:

Bu orada uni kutib turgan askarlardan biri dedi:

-Biz tarafga keling!

Bu ovoz unga umid bagʻishlab, dunyoni goʻzallashtirdi. U hech qachon bu ovoz unga bunchalik aziz va yoqimli boʻlishi mumkin deb oʻylamagandi.

Toʻsatdan yonida ingragan ovoz eshitdi:

-Yordam bering!

Tezda jasadlarni paypaslab ketdi.

-Kim u? - soʻradi.

Yana ovoz keldi:

-Yordam bering!

Ovoz kelayotgan tomon sudraldi.

-Iltimos yordam bering!

Jarohat olgan yigit uchinchi marta chaqirganida Kamron uni qoʻli bilan qidirib topdi. Tanasini paypasladi.

-Askar, isming nima, tura olasanmi?

Bu safar uning qulogʻiga juda yaqin ovoz keldi:

-Zulfiman.

-Harakatlana olasanmi?

-Yoʻq.

Bu yarador askarini shu yerda qoldirsa, oʻzini hech qachon kechira olmasdi. Lekin bu quroldosh birodarni bu yerdan qanday olib chiqish mumkin? Armanlar yana oʻq otishni boshladilar. U hali ham ovozlardan hech narsani aniqlay olmadi.

Yana oʻq otilganda xayoliga bir narsa keldi, Zulfining boʻyi bir metru yetmish besh santimetr atrofida. Ogʻir boʻlsa ham, uni elkaga koʻtarib olsa boʻladi. Qoʻli bilan askarni tepaga oʻgirganida, Zulfi dodlab yubordi. - Chida, ukam,

Yunus O'g'uz

chida! Men ham yura olmayman. Endi seno yelkamga olib, bu yerdan sudralib chiqib ketamiz.

-

-Yaxshi, chidayman.

U askarning ustiga chalqancha yotdi. Uning qo'llarini o'z bo'ynidan o'tkazib dedi:

-Zulfi, tomog'imdan ushlab ol. Endi ikkalamiz ham yuztuban yotib siljiymiz.

-Yaxshi!

Arslon kelbatli yigitlar "Yo Olloh" deganda, qo'llariga quvvat keldi.

U go'yo tuproqdam kuch oldi. Tirsaklariga kuch berib sudlala boshladi. Askar ham uning yelkasiga yopishib olgan eddi.

Ikki askar qaydandir najot ovozi eshtish umidida surunardi...

Urush hamon davom etardi ...

Harbiy kasalxonada hamshira uni ohista turtidi:

-Jamol, uxlayapsizmi? Alxasov, komandiringiz sizni so'rayapti.

"Komandir" degan so'zni eshitib, o'rnidan turib, "Labbay" degisi keldi. Hamshira uning ko'ragidan yana ohista bosdi.

Qayerga turyapsiz, qon ketishi mumkin - dedi hamshira. - Telefonni unga uzatdi. - Komandiringiz bilan gaplashishni istaysizmi?

Endi u kasalxonada ekanligini angladi, lekin biron uyqusi yo'q ediki, u janglarda qatnashmagan bo'lsin. Tushida unga dushman o'qlari hech tegmasdi. U o'ziga kelib so'radi:

-Qaysi komandir?

Hamshira jilmayib qo'ydi. Bu tabassumda mehr, sevgi, muhabbat bor edi. U samimiylik bilan javob berdi:

-Albatta, podpolkovnik Tohir Mammedov-da.

-Komandir...r...r...,- dadil ovoz bilan telefonni qulogʻiga oldi. - Labbay, komandir! Men tuzalib, tez orada jangga qaytaman.

Komandiring mehrli ovozi eshitildi:

-Alxasov, yaxshimisan?

Goʻyo unga dunyoni tuhfa qilishgan edi. Chunki komandir uni jang maydonidan, jasadlar orasida qidirayotgan edi. Endi bundan ortiq baxt boʻlmasdi.

-Rahmat, komandir, katta rahmat, - javob berdi u.

Podpolkovnik uning koʻnglini koʻtarib, xushxabar bergisi keldi.

-Jamol, sening ham qasosingni olib, dushmanning belini sindiramiz. Tez orada uninu oʻchiramiz.

Askar uzrli ohangda javob berdi:

-Afsuski, komandir! Men sizning oldingizda boʻlolmayapman, bu meni juda xafa qilyapti.

Komandir hazillashdi:

-Nega ekan, sen biz bilansan. Biz oyoqlaringni yoʻqotgan joyingdamiz. - Jiddiy ohangda davom etdi.

-Bolalar seni shahid deb oʻylashdi. Shuning uchun oyoqlaringni shu yerga koʻmdik. Keyin osmonga bir necha bor oʻq uzdik. Keyinroq ular menga kasalxonada ekanligingni aytishdi. Imkon boʻlishi bilan senga qoʻngʻiroq qilayapman.

U komandirining mayus ovozini yumshatmoqchi boʻldi.

-Unday narsa yoʻq, komandir! Shifokor oyoqlaringga protez qoʻyilsa, oyoqqa turishim mumkinligini aytadi. Oʻshanda agar lozim boʻlsa, men yana xizmatga borishga tayyorman.

Komandir unga tasalli berdi: -Alxasov, tezroq tuzalib ket. Inshaalloh, senga gʻalaba xabarini oʻzim yetkazaman.

Xayrlashishdi. Hamshira undan telefonni qaytarib olayotganda, soʻradi:

-Ha, komandiringiz nima deydi? U tabassum bilan javob berdi:

-Oyoqlarimni Gubadlida koʻmishipti. - Donishmandga

xos bir qiyofada hamshiraga qaradi. - Demak, men uzoq yashayman.

Hamshira ko'z yoshlarini yashirish uchun yuzini o'girdi. Jamol hech narsa bo'lmagandek ko'zlarini yumib, urush damlarimni xotirladi.

Xotiralari uni tinch qo'ymasdi. U o'zicha o'yladi: "Agar o'sha ajal o'qi bir daqiqa kechikganida edi, xandaqqa bir daqiqa avval kirishga ulgurganimda edi, lekin kechikdim. Ikki do'stim xandaqqa yashirinishga ulgurdi.

Arman minomyotdan otgan snaryad to'g'ri yonimga tushdi. Portlash to'lqini meni havoga uloqtirdi. Osmonda oyoqlarim kesilganini ko'rdim. Men faqat bir daqiqa kechikdim. Oh, bir daqiqa. Hayotimni, taqdirimni hal qilgan bir daqiqa.

Bir daqiqada shahid ham, faxriy ham, qahramon ham bo'ladi..." - bu haqda o'ylagisi kelmadi. - "Oh, bir daqiqa. Qanday qilib oldin bu onlarning qadriga yetmadim, afsus?!"

Hamshiraning mehrli ovozi eshitib ko'zini ochdi:

-Alxasov, muolaja vaqti keldi. - Yosh qiz uning lablari orasiga dori qo'ydi, keyin stakanni og'ziga olib kelib, bir qultum suv ichirdi.

Uning ahvolini yaxshi tushunardi. Hamshira ham o'tgan safargi suhbatdan qattiq larzaga kelgandi, lekin u buni bildirmadi. U ko'zlarini yumdi. Ko'z oldiga safdoshlarining suhbatini keldi. Kimdir uni turtib, qichqirardi.

-Jamol, ko'zingni och, och ko'zingni!

Boshqasi uni tinchlantirdi:

-Aliyev, o'zingni bos! Uning o'lganini ko'rmayapsanmi?! Uning chap oyog'i tizzadan to'rt barmog' yuqorida uzilgan. O'ng oyog'ining to'pig'i majaqlanib, suyaklari singan. - Chuqur xo'rsinib dedi: - Shahidimiz bittaga ko'paydi.

Jamol ularning suhbatini eshitib yotardi. Aliyev tinchlana olmadi. Ikki barmog'ini uning tomog'iga qo'yib, yurak urishini tekshirmoqchi bo'lganida, Alxasov pichirladi.

Askar xursand bo'lib baqirdi:

-U tirik, Jamol tirik! Ratsiyadan xabar bering...

U koʻzlarini ochdi. Unga palatada snaryadlar va oʻqlar uchayotgandek tuyuldi. Bir zum oʻzini yana urushda his qildi. Quloqlariga aralash tovushlar keldi. Kimdir tez yordam mashinasi jang maydoniga kelishi juda qiyin, dedi. Hushidan ayrilayozgan askarlardan biri xursand boʻlib dedi:

-Shu yerda tez yordam haydovchisi bor, ismi Ehtirom. Nima boʻlsa ham Jamolni oʻq ostidan olib chiqaraman, dedi.

Armanlar tinimsiz otishma qilardi. Keyinroq Ehtirom mashinani snaryadlar ostidan shunday tezlikda olib oʻtdiki, xuddi urush oʻrniga kino suratga olinayotgandek edi.

Nihoyat, Xonlik qishlogʻida koʻzini ochdi. Boshi ustida turgan Roman doktor dedi:

-Ollohgga ming qatla shukur! Onang seni joynamoz ustida dunyoga keltirganmi, Xodo degan bola ekansan. Seni koʻzingni ochmaysan deb oʻylagandik. Juda koʻp qon yoʻqotding.

Butun vujudi ogʻirdi. U zoʻr berib soʻradi:

-Qayerdaman?

Roman doktor quvnoq ovoz bilan javob berdi:

-Ishonchli qoʻllardasan, askar! Yaxshiyamki, snaryad parchalaridan biri venaga tushib qolib, qon ketishini toʻxtatibdi. Seni olib kelgan Ehtirom Faxri doktor bilan Bokuga olib boradi.

Yoʻlda Ehtiromdam otasiga qoʻngʻiroq qilish uchun telefon soʻradi.

-Dada, salom!

Otasi Ilgʻor bey Birinchi Qorabogʻ urushi qatnashchisi boʻlgan.

-Jamol, qayerdan gapiryapsan? Anchadan beri sendan xabar yoʻq, onang aqldan ozay dedi.

Jamol uni tinchlantirdi:

-Xavotir olmang! Men yaradorman, lekin hammasi yaxshi. Asosiysi, men salomatman. Hozir gospitalga olib ketishyapti.

Yunus O'g'uz

Urushning barcha tomonlarini ko'rgan Ilg'or bey o'g'lining ahvoli og'ir ekanini tushundi. Taskin berdi:

-Hammasi yaxshi bo'ladi. Asosiysi, ovozingni eshityapman...

Endi hammasi ortda qoldi. U ko'zlarini ochib shiftga qaradi. Shiftga bir jumla yozilgandek tuyuldi: "Shoshma, kechikma!". U yana o'yladi: "Eh, bir daqiqa kechikdim, bir daqiqa".

Urush esa davom etardi.

Bir necha kundan beri uyqu yo'q edi. Armanlar Murovtog'da go'yo ularning turgan joylarini yoddan bilgandek, boshlarini ko'targan zahoti snaryadlar otardilar.

Murov cho'qqisida ular tutgan pozitsiya juda muhim edi. Bu yerdan Kalbajarga yo'l o'tardi. Endi ular shu balandlikda turib qolishdi.

Bulutlar yo'l ko'rsatuvchilari, tosh-qoyalar xandaqlari bo'ldi. Ular boshqa joylardan, hatto uzoqdagi xarsanglar ortidan hujumga o'tmoqchi bo'lganlarida ham ustlariga snaryadlar yog'ilardi. Biroz xotirjam bo'lgach, tosh tagiga o'tirdi. Bu yer shamoldan ham, o'qdan ham pana edi. Shu payt uning qovoqlari yumilib ketdi.

Qayerdandir general Polat Hoshimovning qabri ko'rindi. General odatdagidek jilmayib turardi. Uning qabri yonida qora marmardan yasalgan yana boshqa bir qabr ham bor edi, lekin unda shahidning na ismi, na surati bor edi.

O'z- o'zdan so'radi: "Bu kimning qabri?" Javob topa olmas, ko'zlarini noma'lum bo'lgan qabr toshidan uzolmasdi. Shu payt Po'latning surati gapira boshladi:

-Bu qabr egasining kimligini bilmoqchimisan? - yigit qotib qoldi. Surat tilga kirdimi? Bu bo'lishi mumkin emas.

Beixtiyor lablari orasidan sado chiqdi:

- Nima, hali ertami, generalim?

General yana tabassum bilan javob berdi:

-Bu qabr egasi kimligini bilishga hali erta.

-Nega?

-Tez orada buni oʻzing bilib olasan. Vatan urushi boshlanganidan xabarim bor. Qorabogʻ ishɡʻoldan ozod qilinadi. Bu qabr vatan uchun fido boʻlganlardan birining soʻnggi manzili boʻlishi mumkin. Yalang oyoq qochishga tushgan goʻdaklar bugun tanklar ustida, askariy etiklarda Qorabogʻga qaytishmoqda...

Jabroil oʻq ovozi bilan koʻzini ochdi, lekin generalning jilmaygan chehrasi uning qarshisida turar, uzoqlashib ketmasdi. "Bu qanday sir boʻldi?" soʻradi oʻzidan.

U ham qochqin, asli Zangilonlik, ammo Sumgayitning Korat qishlogʻida tugʻilgandi.

Birdan xayolida bir nima chaqnadi.

- "Toʻxta, toʻxta! – Ichida gapira boshladi. -General nima dedi?

Bu qabr vatan yoʻlida jon bergan birining oʻrni boʻladi dedimi. Toʻxta, toʻxta! Nega oʻsha qabr meniki boʻlmasin, nega men shahid boʻlmayman?"

Yuragi hovliqib ura boshladi. Qaror qabul qilmoqchi boʻlganida, qayerdandir onasining ovozi eshitildi:

-Jabroil, oʻgʻlim!!!

U bir qarorga kelgan edi. Beixtiyor shunday dedi:

-Yurtim uchun jonim fido boʻlsin, mendan xavotir olmang!

Maxsus kuchlarning yengil qurollari unga yordam berishi mumkin edi. Nayza, kichik avtomat, toʻpponcha, qoʻl granatalari qoʻqqisdan hujum uchun eng yaxshi qurollar edi.

U qoʻli bilan ishora qilib, doʻsti Amilni yoniga chaqirdi. Amil uning oldiga erinibgina keldi. Qoya tabiiy xandaq boʻlgani uchun, Jabroil uzoqdagi irmoqni koʻrsatib:

-Amil, anavi irmoqni koʻryapsanmi?

Askar qoʻlini peshonasiga soyabon qilib javob berdi:

-Ha, ko'ryapman, nima edi?

Jabroil gapni uzoqdan boshladi.

-Qara, do'stim! Bu yerda bir yuz ellik nafar askarimiz shahid bo'lgan. Men boshqa hech kimning o'lishini xohlamayman. Men o'sha tor dovon orqali dushmanning orqasidan boraman. Ularning o't ochish nuqtasini yo'q qilish kerak va men buni qilaman.

Amil:

-Balki bo'linma bilan birga borarsan. - U keskin e'tiroz bildirdi:

-Yo'q, yo'q! Armanlar bu yerdan kimdir o'q otmayotganini ko'rsa, shubhalanadi. Shunday ekan, sen shu yerda qol. Bir soatdan keyin o'q ovozi eshitmasang, orqalaridan chiqqan bo'laman. Qani kel, xayrlashaylik.

Ular quchoqlashdi, lekin bu so'nggi vidolashuv deb o'ylamasdilar. Uni oxirigi quchoqlagan esa janozasida tanasiga burkangan uch rangli Ozarbayjon bayrog'i bo'ldi. U tor yo'lak bo'ylab oldinga ilgariladi.

Bir soat keyin dushmanning o'q ochish nuqtalari yo'q qilish, og'ir qurollarini zararsizlantirish kerak edi. Ikkita "F-5" qo'l granatasini tayyorlab, biroz yaqinlashdi.

Keyin u granatalarni navbatma-navbat, birini minomyot, birini to'p turgan tarafga uloqtirdi. To'satdan bo'lgan portlash natijasida o'lgan o'ldi, sachragan sachradi. Omon qolganlar talvasada qichqirhdilar:

-Turklar, turklar keldi!

Armanlar hamma joyda o'q otishni boshladi, ammo nishon sifatida hech kimni ko'ra olmasdilar. O'qlar tosh va qoyalarga tegib, hushtak tovushlarini chiqarardi.

Va birdan hammayoq jimlikka cho'kdi. Jabroil bundan unumli foydalanib, ularning ustiga yana ikkita magazinni bo'shatdi. Keyin to'pponchasini olib, omon qolganlarini ham oxirigi manzillariga jo'namqchi bo'ldi. Ammo dushmanning soni ko'p edi. Ularning o'qlari ham tugab bitgandi. Qo'rqqanlaridan qayerga bo'lsa o'tib tashlashgan

edi.

U xanjarni chiqarib: "Yo Alloh!" deb qichqirdi-da armanlar ichiga o'zini tashladi. Bu odam tinchlik zamonida ish izlab jimgina yurgan Jabroil emas edi go'yo. Uning oyoqlari, qo'llari, ayniqsa xanjarni ushlab turgan mushti avtomat kabi ishlardi.

Dushmanni o't kabi o'rardi. Ularning qurshovida ekanligini ham ko'rdi. Qarshisida ikki balang bo'yi arman zobiti turardi, lekin ko'zlari qonga botgan Jabroilga buning ahamiyati yo'q edi.

Zobitlardan biri qo'lini belidagi filofga yuborib, to'pponchasini chiqarmoqchi bo'ldi. Uning yolg'iz o'zi bularga tashlanishi ikkala askarni ham hayratda qoldirgab edi. - Shuncha askar orasidan o'tib, bu yerga qanday keldi?

Jabroil ikkalasining yuzlaridan bu savolni uqdi. U to'pponchasiga qo'l uzatayotgan zobitning qo'lini tutdi. Xanjar to'g'ri uning yuragiga sanchildi. Endi u butkul qurolsiz qolgan edi. U qo'lini ko'tarib, boshqa zobitni qilochkachlab urdi.

Zobit yiqilishi bilan uning ustiga sakrab chiqib, ikki qo'lini tomog'iga botirdi. Ko'p o'tmay, dushmanning oyoqlari pitirlashdan to'xtadi. Jabroil o'rnidan turmoqchi bo'lganida, orqasidan o'q uzildi.

O'girilib, o'q otilgan tarafga qaradi. Bu yarador dushman askari edi. Ulardan biri jarohatlangan holda bu yerga kelishga ulgurgandi. Jabroilning ko'kragiga tekkan o'q uni yerga yiqitdi, ammo so'nggi lahzada hayqira oldi.

-Hoy... generalim, kelyapman!

Ozarbayjon qo'shinlari dushman pozitsiyasiga kirganida, hech kim qolmagan edi. Yer arman jasadlariga to'la edi. Keyinchalik oddiy askar Jabroil Davlatzoda xanjar bilan o'ldirgan arman askari polkovnik, bo'g'ib o'ldirgani esa general ekani ma'lum bo'ldi...

G'oziy Iqbol Safarov tilidan Urush davom etardi...

*Bosgan yerni oddiy tuproq deb kechma, sen uni tani!
Bil, tuproqning ostida minglab kafansizlar yotganni!*

Mehmet Akif Ersoy

“1985 yilda Naxchivonda tug‘ilganman. Universitetni Ma‘muriy va bojxona ekspertizasi yo‘nalishi bo‘yicha qizil diplom bilan tamomlaganman. Sakkiz yil Bojxona qo‘mitasida turli lavozimlarda ishladim, keyin Kanadada magistraturada o‘qishni davom ettirishga qaror qildim...

Urush boshlanganda Bokuda edim. Pandemiya Kanadaga qaytishimni va ishimni davom ettirishimni kechiktirdi. Ammo urush boshlanishi bilanoq o‘z xohishim bilan urushga jo‘nadim. Fuzuliy, Xo‘javand, Hadrut, Lochin yo‘lagi, Shusha janglarida qatnashdim.

Shushaga kirish uchun 40–50 kilogrammli minomyotlar bilan qirq kilometr o‘rmon va tog‘ yo‘llarini bosib o‘tishimiz kerak edi. Kechasi harakatlanardik. Bizning eng katta ustunligimiz QO‘RQMASLIGIMIZda edi. Ishonch barcha janglarda asosiy qurolimiz bo‘lgan. Biz hamma narsaga tayyor edik.

Urush inson uchun qiyin sinovdir. Ko‘p safdoshlarimiz ko‘z o‘ngimizda shahid bo‘lardi. Armanilar o‘liklarining qorinlariga bombabog‘lab qo‘yishardi, biz ulargayaqinlashib harakat qilganda portlashi uchun. Biz dahshatga tushardik. Nima bo‘lsa ham, inson o‘z vatandoshining bunday ahvoliga qanday chidashi mumkin?

Biz yana xavf-xatar bo‘lsada, yaratganga tavakkal qilib, jang maydoniga qaytardik, yaradorlarimiz, shahidlarimizni ortda qoldira olmas edik. Men qo‘mondonlik shtabida edim. Olgan birinchi buyrug‘im quyidagicha bo‘ldi:

Askar hayotini himoya qiling! Ularning hayoti sizning hayotingizdan ustunroq boʻlsin! Generallarning oldingi jabhada jang qilayotganidan bilsa boʻlardiki, bu urushda boshqacha jang qilish mumkin emas edi.

Hamma bir-birini himoya qilardi. Shusha olingandan keyin u yerda qola olmadim. Jarohat olgandim...

Janglar tugagach, his-tuygʻularim bir-biri bilan aralashib ketgandi. Hech kim bilan gaplashmasdim. Menga shunaqa tuyulardiki, goʻyoki, tinimsiz yomgʻir yogʻayotgandek. Bu yomgʻirni va suyak-suyaklarimga qadar oʻtgan sovuqni umrim oxirigacha hech qachon unutmayman.

Toʻxtovsiz yomgʻir yogʻardi, biz sovuq havoda nam kiyim bilan uxlashimizga toʻgʻri kelardi. Olov ham yoqa olmasdik. Bundan keyingi hayotimni endi qanday yashayman?...

Men Qorabogʻda yashashni xohlayman. Bu joylar meni maftun etdi. Uning har qarich yerida xotiralarim bor. Bu yerlardan hayratlanmasdan iloj yoʻq.

Bu shablona oʻxshasa-da, haqiqatan ham, orqa frontning qoʻllab-quvvatlashi va muhabbati bizga kuch berdi. Doimiy ravishda xatlar va sovgʻalar kelardi. Kambagʻallar hatto soʻnggi pullarini sarflab, sovgʻa-salomlar olib kelganlarida koʻzimizga yosh toʻlardi. Fuzuliyning Ahmedbeyli qishlogʻidan boʻlgan Fikrat amakini yaxshi eslayman.

Harbiy qismlarga kelib, askarlarning soch-soqolini olib qoʻyardi. Qoʻlidagi bor pulni oilasiga berib, “Oʻzingiz tirikchilikni eplab turing, men askarlarga koʻproq kerakman”, deb keldi.

Men uni turli harbiy qismlarda koʻrdim. Bu fidoyilik Vatangamuhabbatedi. Biz Vatannisevamiz! Biz Ozarbayjonni sevamiz! Shuning uchun ham gʻalaba qozondik.

Shushaning ishgʻoldan ozod etilishi

Urush davom etardi...

Bunga butun dunyo guvoh boʻldi, xalq Shushaning ishgʻoldan xalos boʻlishiga ishonchi komil edi. Bu, ayniqsa,

Hadrut va Fuzuliy hududlari dushmanlardan tozalanganidan so'ng yaqqol namoyon bo'ldi.

Dunyoning aksariyat davlatlari "xristian birligi" nomi ostida urushni to'xtatib, armanlarni mag'lubiyatdan qutqarishni xohlardi. Oliy bosh qo'mondon arman qo'shinlarini bosib olingan hududlardan olib chiqish jadvali va vaqtini ta'sdiqladi. Asosiy masala Shushani ozod qilish edi.

Shtab ofitser va askarlariga Oliy Bosh Qo'mondonning: "Shushasiz ishimiz to'liq bitmaydi!" degan buyrug'ini yetkazish topshirildi. Aslida, buni hamma bilar edi, lekin bu buyruq amalda bajarilishi kerak edi.

Ofitserlar o'tirib, sabrsizlik bilan generaldan Shushani qanday olish kerakligi haqidagi buyruqni kutishardi. Hikmat Mirzayev bilan birga boshqa ofitserlar ham shunday ruh bilan yashardilarki, go'yo bu kunni butun umr kutgan va bu hodisa sodir bo'lish arafasida edi. Hammaning ko'zlarida qasos uchquni porlab turardi.

- Janob ofitserlar! "O'shakun" keldi. - General o'tirganlarga tushuntira boshladi. - O'n ming uch yuz sakson olti kun bizdan ajralgan ko'z gavhari Shushani ozod qilish fursati yetdi.

- Askarlar bir-biriga qaradi, ularning ko'zlarida, yuzlarida quvonch ufq urib turardi. - Unutmang, Shusha bizning g'urur, sharaf va nomus masalamiz. Siz amalga oshiradigan operatsiyangiz bilan nafaqat xalqimiz, balki jahon tarixida ham o'z imzoingizni qoldirasiz. Kelajak avlodlar sizning nomingizni faxr bilan tilga oladi.

Bu harakat "Tog'dagi to'y" operatsiyasiga eng izchil javob bo'la oladi. Shusha nomini hech qachon tilga olmasliklari uchun ularning boshiga "temir musht" tushirilishi kerak. Bu operatsiyani yengil qurollar bilan amalga oshiramiz.

Bundan tashqari ham yukingiz og'ir bo'ladi. Shuni ham hisobga olish kerakki, siz uzoq yo'l, Shushagacha bo'lgan yo'lni bosib o'tasiz. O'q-dorilarining cheklanganligini ham

inobatga oling.

Shunday qilib, biz "Bir otish – Bir maqsad" degan shior bilan kurashishimiz kerak, chunki bu "orqadaga oqish"ning eng toʻgʻri printsiptir ...

Generalni doim qiynayotgan bir masala bor edi: Shushani qanday qilib kamroq kuch va kam yoʻqotishlar bilan olish mumkin? U kunlar davomida bu haqda oʻylardi. Bu operatsiyada nimadir yetishmayotgandek edi. Ichida qandaydir boʻshliq bor edi.

Bu boʻshliq uni boʻgʻardi, Oʻzini qoyishga joy topolmas edi. Har kuni shahar xaritasiga qarar, nimanidir izlardi. Dushmanning shaharda kuchli mudofaa va koʻp sonli kuchlarga ega ekanligi maʼlum edi. Shunday qilib, uning uchun toʻrtta asosiy masala qolardi:

Orqaga oqish, favqulodda janglar olib borish, dushmanning taʼminot yoʻlini uzib qoʻyish, guruhlar bilan aloqani bir lahzaga ham yoʻqotmaslik.

Unga yoshi ulugʻ oqil bir kishi Shusha haqida juda muhim xabar bermoqchi ekanligini aytishganda, general avvaliga uni qabul qilmoqchi emas edi, chunki hozir urush taqdiri hal qilinayotgandi. Uning bunga vaqti ham yoʻq edi. Ammo ichida nimadir jiz etdi. Shusha haqidagi maʼlumotni faqat Shushaliklar berishi mumkin, deb oʻyladi. Shunday qilib u qorovuldan soʻradi:

-Bu oqil odamning ismi bormi yoki familiyasi bormi? Oʻzi Shushalikmi?

Qoʻriqchi darhol javob berdi:

-Ha, janob general! Uning ismi Nasriddin, sharifi Murod, oʻzi Shushalik qochqindir.

General uning gapini inkor qildi:

- Shushadan qochqin boʻlishi mumkin emas! Koʻchishga majbur boʻlgan boʻlsa bordir. Chaqir kirsin.

Navbatchi generalning unga aytgan raddiyasini tushundi:

-Maʼzur tuting, janob general! Bir daqiqa.

Otaxon ichkariga kirgach, general oʻrnidan turdi.

Yunus O'g'uz

Salomlashib o'tirishga ishora qilib ro'parasidagi joyni ko'rsatdi.

- Qani, oqsoqol, eshitaman! Navbatchi Shusha haqida jiddiy xabarlaringiz bor ekanligini aytdi.

Chol qo'llarini bir-biriga ishqaladi.

- Ha, Shushada siz izlayotgan joyni men bilaman, - dedi u.

General qiziqish bilan:

- Men Shushadan nima izlayapman ekan?

Nasriddin cho'ntagidan qog'oz chiqarib, unga uzatdi:

- Marhamat, generalim! Men buni Shushadan chiqqanimdan keyin chizganman. Har doim aytaman, yuz yil turar, bir kun yarar. Qarang, endi bu kerak bo'ldi.

U qog'ozni olib qaradi va unga qarab daf'atan hayron bo'ldi.

- Bu Shusha xaritasi. - Ko'zini notanish joy tortdi. - Nega bu joy bizning xaritamizda yo'q? Bu nima?

- Bu so'qmoq, generalim!

- Qanday so'qmoq?

- Tog' echkilari yaratgan so'qmoq yo'li. - Chuqur nafas olib, qo'shib qo'ydi. - Bu yo'lni Panohali xon davridan beri avlodlarimiz qo'riqlab keladi. Hozir buni aytish vaqti keldi.

Garchi bu so'qmoqni ba'zilar bilishsa-da, hech kim bu yo'ldan odam o'tishi mumkin deb o'ylamaydi, chunki bu o'lim bilan barobar. Lekin bizning askarlarimiz kechib o'ta olishadi. Ular biladilarki, tuproq uchun kurashmoqdalar.

General o'rnidan turib, seyfini ochdi. Aniqlik kiritish uchun u Shusha xaritasini ko'zdan kechirdi. Uning xaritasida so'qmoq yo'q edi. Chuqur nafas oldi. Endi u istagan narsasini topgan edi. Endi hamma toshlar joyiga tushdi.

U bu haqda ma'ruza qildi. Nasriddinni tekshirib ko'rishni ham unutmadi. Urushda hamma narsa bo'lishi mumkin...

...Yig'ilishda qarorgoh rahbari Kenan Seyidov so'zga chiqdi:

-Janob general! Bu jangda bizning ittifoqchimiz bor. -

Garchi gapirishga navbat bermasalar ham, yigʻilishdagilar unga qarashdi. General davom etdi.

-Bizning tabiiy ittifoqchilarimiz togʻlar, oʻrmonlar, daraxtlar, toshlar, bulutlardir, chunki bu yer bizniki. Bu joy bizni oʻttiz yildan beri kutmoqda.

Biz ularni sogʻinib yashayotganimizdek, ular ham bizni sogʻinishmoqda. Nima boʻlishidan qatʼiy nazar, shahid boʻlsak ham, gʻozi boʻlsak ham Shusha bilan qovushmogʻimiz kerak. Biz buni bajarishimiz shart.

Yigʻilishdagilarning koʻpchiligining koʻzlariga yosh keldi...

Ikkinchi noyabrda quruqlikdagi kuchlar yolgʻonchi manevrani boshladilar. Arman armiyasi bu manevrni kuzatib turardi. Darhol Shushakend va Dashalti tomon qoʻshin toʻplashga buyruq berildi.

Maxsus kuchlar Soloqchi aholi punktini ozod qildilar. Busiz ichkariga oqish mumkin boʻlmasdi. Orqa tomondan chuqur oquv boshlandi.

Maxsus kuchlar guruhlariga boʻlindilar. Endi xavfsizlik yoʻli boʻlgan Lochin yoʻlagini yopish kerak edi.

Quyuq oʻrmonlar orqali, sovuq havoda, suvda, uyqusiz, lekin charchamagan bir guruh goh tepaga koʻtarilib, goh vodiya tushib, koridordan bir necha kilometr uzoqlikda parallel ravishda harakatlanardi. Oldindan yuborilgan razvedka xodimi qaytib keldi.

- Komandir, -dedi u, - yoʻlakda yuzga yaqin armani bor. Ular postlarini toʻgʻridan-toʻgʻri yolak boylab qoʻyishgan. Nima qilamiz?

Gʻazanfar ismli qoʻmondon Iqbolga qarab javob berdi:

-Iqbol, bu buyruq, nima boʻlganda ham yoʻlakni yopish kerak! Boshqa ikki guruh bilan aloqada boʻling va bir vaqtning oʻzida armanilarni zararsizlantiramiz.

Ammo “nima qilish kerak?” degan savol uning fikrini chalkashtirib yubordi. Toʻsatdan goʻyo gʻoyibdan sas keldi. Nima qilish kerakligini koʻrsatdi. U shu zahoti praporshikni

chaqirib, ratsiyani qo'shdi va markazga murojaat qildi.

-Komandir, bu yerda vaziyat shunday. – U holatni tafsiloti bilan aytib berdi.

Narigi tarafdan ovoz keldi.

-Nima qilmoqchisan?

-Komandir, ruxsat berganingizda edi, men ochiq efirga chiqib, armanilarni qo'rqitib qo'ygan bo'lardim. Ular busiz ham allaqachon vahima va qo'rquv ichidalar. Ko'plari qochib, Lochin tarafga ketishmoqda.

Rozilik berildi. G'azanfar ratsiya bilan efirga chiqdi:

-O'ngdan oltmishta, sen esa chapdan yetmishta askar bilan bor. Men markazdan yuzta askar bilan kelyapman. Yigitlar, birorta arman to'dasi qamaldan chiqmasligiga ishonch hosil qiling. Xo'jali va Shusha qasosini olish yaqindir.

Armanlar jonli efirga kira olardilar. Shu bois, bunday buyruqni efirda eshitishi bilan ko'pchilik mashinalariga o'tirib qochdilar. Ba'zilari hatto og'ir qurollarini tashlab ketishdi. Qolgan bir necha guruhlar bor ediki, ular piyoda yo'lga tushdilar. Ular ham yo'lda maxsus kuchlar tomonidan to'xtatildi.

Lochin yo'lagi ustidan nazorat ana shunday amalga oshirildi. Arman armiyasining ta'minoti to'xtatildi.

Keyin guruhlarga buyruq keldi: Dashalti tomon ilgarilamoq. Yo'lda guruhlar qurshab olinishiga bir bahya qoldi. O'sha paytda dushman va guruhlar orasiga oq tuman to'pi kirib keldi. Hamma yerni quyuq tuman qopladi. Guruhlar qulay fursatdan foydalanib tuman ichida g'oyib bo'lishdi.

Bu Dashalti, bu kent bir ming besh yuz ellik uch metr balandlikda joylashgan. Dashalti ozod etilgach, Shusha har tomondan qamal qilindi.

Jami to'rt yuztagacha maxsus kuchlar SO'QMOQni topdilar.

... Ratsiyada mayor Huseynovning ovozi eshitildi:

-Yigitlar, shu yo'l bizni Shushaga, biz orzu qilgan Shushaga, yuragimizda olib yurgan Shushaga, ko'zimizni to'rt qilgan Shushaga olib boradi. Biz tushgan bu so'qmoq biz uchun qadrlı. Ammo bu oxirgi to'siq emas. Asosiy to'siq shaharda yashovchi arman jangchilaridir. Qarang, ular necha yillardan beri bu yerni murdorlab keladilar.

Toshlar va qoyalar sizga yo'l ko'rsatadi. Ular bu yerning haqiqiy egasi qaytib kelishini bilishardi. Charchashga o'rin yo'q. Qurollardan foydalaning. Kerak bo'lsa, qo'lingizni oyog'ingizga olib choping. Tushunarlimi?

Hech kim javob bermadi. Komandir nimaga ishora qilayotganini hamma bilardi, bu mayorning ishi, hech kimning charchashiga yo'l qo'ymaslik.

So'qmoqning xatarli yo'laklari hali oldinda edi. Maxsus maqsadli kuchlar yelkasida ellik kilogramm yuk, yuraklarida shu yukdan yuz karra og'irroq Shushani sog'inchi bilan chopib borayotgan tog' echkilarini izidan odimlab ketardilar.

Ularning barchasi qo'llarida jangovar pichoq bor edi. Ba'zida boshqa joy yo'qligi uchun pichoqni toshga tirab yuqorilardilar. Yoki toshlar orasida yoriq paydo bo'lishi bilan oldinda ketayotgan odam qo'lidagi pichoq bilan uni biroz chuqurroq qazib, orqadan kelayotganlarga pichirlardi:

-Bolalar, mening joyimga kelganingizda, o'ng tomonida yoriq bor, undan foydalanishingiz mumkin.

Garchi bu so'zlarni ratsiyada aytilganini hamma eshitgan bo'lsa-da, hech kim javob bermadi.

Endi asosiy vazifa yo'l boshiga yetib olish edi. Ehtimol, vatan bunday vaziyat ostida bo'lmaganida, bu jasur jangchilarning hech biri bu so'qmoqqa chiqishni xohlamagan bo'lardi. Vaholanki, hozir... Shushaning sehri ularning bellariga kamand o'rab, yuqoriga ohangrabodek tortayotgandek edi.

Ular mustaqil ravishda tog'u toshlardan oshib yuqoriga chiqishdi va hech kim qila olmagan ishni bajarishdi. Odamlarga ular tog'lar va osmonda osilib turgandek

vaziyatda tuyulardi. Shushadan otilgan kamon singari tebranardilar.

Bosh yordamchi Yashar pichoqni yoriqqa niqtab, nafasini rostladi. O'girilib orqasiga qarasa, yiqilib tushishi turgan gap edi. Yaxshiyamki, u pichoqni qo'lida mahkam ushlab turardi.

Safdoshlari, qon-qardoshlari qoyalarda chumolidek harakatlanishardi. Ular go'yo bu so'qmoqlarda yillar davomida tarbiyalangandek edi.

To'g'ri, ular tez-tez tog' mashg'ulotlarini o'tkazardi, ammo bunday yo'l hech qachon ularning mashg'ulotlariga kiritilmagan edi. Lekin ularni bunday qilishga nima majbur qildi? Balki birgina Shusha nomining o'zi ham shunday ishtiyoq bilan yo'lga chiqish uchun yetarli bo'lgandir.

Yashar ratsiya bilan komandirga aloqaga chiqdi:

-Janob mayor, sizga bir iltimosim bor.

Mayor ichida o'yladi jin ursin, hozir shuning fursatimi? Yaxshisi yo'lning oxiriga yetib olaylik, keyin nima so'rasang so'ra. Toshlar orasidan osilib yurish oson emas. - Lekin u bu gaplarni tilida aytmadi. Hamma o'lim va hayot chig'irig'i orasida edi. Ehtimol, u oilasining iltimosiga binoan biror narsa qilmoqchidir. Bunday holatlar hech bo'lganmi?

Jangga kirishishdan avval bunday ishlar ko'p bo'ladi. Ular nafaqat quroldosh, balki tezda orada do'st, aka-uka va oila a'zolardek bo'lib ketishadi. U past ovozda javob berdi:

- Gapir Huseynov, lekin qisqa qil.

- Ho'p bo'ladi, komandir. Bir istagim bor edi, uning ijobatini mendan darig' tutmaysiz deb umid qilaman.

Komandir chap qo'li bilan qoyaga tirmashgancha, toshning chetidan ushlab turdi va o'ng qo'lidagi pichoqni tirqishga sanchib so'ng, gapirdi.

- Huseynov, hozir shunday ahvoldamanki, Shushadan boshqa hech narsani o'ylay olmayman. Sen ham bir nima so'rayapsan.

Yordamchi ham bo'sh kelmadi:

-Janob komandir, - dedi u, - men ham Shusha hayoli bilanman.

Komandir kulib yuboray dedi-yu, lekin bunday joyda kulish yaramas edi. Astalik bilan dedi:

- Yashar, kel yaxshisi Shushaga yetib boraylik, armanlarni yer tishlataylik, keyin xohlaganingni soʻraysan.

U yana oʻjarlik bilan:

- Yoʻq, komandir! Temirni issigʻida bosish kerak. Nasib qilsa, Shushaga ham kirib, armanlarni ham magʻlub etamiz, ammo u payt bu iltimosning ortiq keragi boʻlmaydi.

Komandirning sabr kosasi toʻldi, chiday olmay oʻshqirdi.

- Huseynov, gapni qisqa qil! Agar mana shu jarlikdan yiqilsam, bu seni aybing bilan boʻladi, sen meni chalgʻityapsan.

Yordamchi askar bu masalani haqiqatdan ham chigallashtirib yuborayotganini endi tushundi. Shunday qilib, u qisqa javob berdi:

- Komandir, men shahid boʻlmasam, yarador boʻlsam ham, bayrogʻimizni Shushada tiklab, koʻtarishni Alloh menga nasib etsin!

Komandirning yuragi bir zum toʻxtab qolgandek boʻldi. U oʻyladi: ...Xudo, biz qanday xalqmiz-a? Shushada bayroq koʻtarishga ahd qiladi. Mayib boʻlsam ham mayli deydi. Bu kuch, bu joʻshqinlik qisqa vaqt ichida qayerdan keldi? Bizning ruhimizga singib borayotgan bu qudrat qayerdan keldi?" Komandir uni koʻnglini choʻktirmadi. Qisqa qilib javob berdi:

- Omin, Yashar, omin!

Ratsiya orqali kimdir hazil qildi:

- Yashar, yasha!

Nihoyat, qalʼa devorlari koʻrindi. Bu yoʻlning oxiri edi. Ozarbayjon askarlari bu azim qoyalar ustiga chiqib, ularga birdan hamla qilishlari armanlarning xayoliga ham kelmagandi. Ular bu yerda shunchalik ishonch bilan oʻrnashib olishgan edi-ki, hatto birorta qoʻriqchi ham

qo'yishmagandi.

Mayor Huseynov qism komandiriga hammani qal'a devorlari tagiga to'plashni buyurdi:

- Bo'lim komandirlari, mening oldinga kelinglar!

Darrov uning yoniga qo'mondonlar to'planishdi. U xaritani chiqarib, ustiga chiroqni yoritdi. Kim qaysi ko'chada bo'lishi kerakligini yana bir bor eslatdi.

- Birozdan keyin "Oquv" operatsiyasini boshlaymiz. - Bo'linma komandirlari jo'nab ketgach, markazga xabar berdi. - Janob general, biz so'qmoqning birinchi bosqichidan o'tdik. Biz "Oquv" operatsiyasini boshlash arafasidamiz.

Ratsiyaning narigi tomonidan general Mirzayevning ovozi keldi:

- Janob mayor, "Oquv" operatsiyasini boshlashingiz mumkin. Takrorlash – bilishning onasi ekanligini yana bir bor deyman. Ovozsiz ishlaymiz. Dushmanni doimiy vahima, hayajon va qo'rquvda saqlaymiz. Armanilarning ko'ziga biz hamma joyda ko'rinaylik, hatto biz bo'lmagan yerda ham. Qani, Alloh madadkor bo'lsin!

Maxsus kuchdagilarga yana yangi kush qo'shildi. Bir necha kundan beri bu og'ir yuklar ostida yurgan ular emasdek edi go'yo.

Ularning charchog'i chiqib ketgan edi, "Oquv" operatsiyasini boshlashdan avval barcha jangchilar egilib, qal'a devorlari ostidagi tosh va tuproqni o'pdilar, so'ng devorning eshikka o'xshagan tirqishidan shaharga sizib kirishdi.

Armanlar jonlarini ayab hatto vayronaga aylangan devorni ham ta'mirlamagandilar. Agar shunday qilgan taqdirda ham maxsus kuchlar devorga chiqib, shaharga kira olishardi va ular kirdilar...

Qizil bozor tarafidan toplardan otilgan snaryadlarning gumburlagan ovozi eshitildi, go'yo yer va osmon titrayotgandek edi. Bu Ozarbayjon armiyasining Shushadagi armanlarga so'nggi ogohlantirishi edi: "Cheking, keting!

Bu yerning asl egasi kelyapti!"

Arman armiyasi o'ziga ishonardi. Shaharda hech kim uxlamagan edi. Hamma jangga tayyor edi. Shushani bermasliklriga amin edilar. Qancha qo'shin kelsa ham befoyda, olib bilmaydi degan fikrda edilar.

Xon saroyi yonida ikki arman askari navbatda turgan edi, orada ko'rishib dardlashar, suhbatlashib sigaretni sigaretga ulardilar. Shushani bosib olinganidan keyin Xon saroyining faqatgina devorlarigina qolgandi.

Voqif maqbarasini ham buzib sotishdi, hatto Bulbul va Notavon haykallarini ham vayron qilishgan. Faylasuf Ahmad Bey og'a o'glining ota uyi yer bilan yakson qilingan edi. Masjidlarni qulatishti.

Bosqindan oldin har bir mahallada masjid bo'lgan. Bosqindan keyin faqat Yuqori Gavhar og'a masjidi qolgan edi. U Eron hukumati tomonidan tiklangan va Eron madaniyatining durdonasi sifatida tasvirlangandi.

Bir so'z bilan aytganda, Shushadagi turklarga tegishli bo'lgan hamma narsani olib tashlashga uringan armanilar bir narsani tushunmadilar: nega Shushani ozarbayjonlar bunchalik sevishadi? Yigirma sakkiz yil davomida armanlar bu shaharda bitta g'isht ham qo'ymadi.

Shahar ular uchun begona bo'lgani uchun Shushaning ruhini zabt eta olmadilar. Chunki bu shaharni ular qurmagan edilar. Umuman olganda, armanilar tarixida hech qanday shahar bunyod etmaganlar.

Yo tayyoriga ayyor edilar, yo Usmoniylar, Safaviylar, Sho'rolar shaharlar qurib berar, ular ulug'lashardi. Tarixning istehzosiga qarang: Ularning o'ziga xos davlati bor, lekin hech qachon shahar qurmagan. Shusha shulardan biri.

Xon saroyi hovlisida yana ikki arman askari uchrashdi. Arman darrov cho'ntagidan sigaret qutisini chiqarib, bir sigaret olib, lablariga qistirganicha, yoqdi. U qutini Vaxtangga uzatdi:

-Qani, Vaxtang, yana bitta chekamiz. Chekaverib o'pkam

chog'ga aylandi. Shunchalik ham cheksa bo'ladimi? Bu turklar yashashga ham qo'ymaydi. - Daf'atan otilgan to'plarning shovqiniga munosabat bildirdi. - Qara, o'zingni yo'qotmasliging kerak!

Qancha to'p otsangiz ham parvomiz yo'q, Shusha bo'linmas qal'a, uni egallay olmaysiz. O'shanda aqlingiz yo'q edi, shaharni bizga berdingiz.

Arman u uzatgan qutidan sigaret olib, lablari orasiga qo'ydi. Qo'lidan sigaretni olib, ustiga cho'g'ni yoqdi. Chuqur nafas olib, nafas chiqardi, so'ng so'radi:

- Xo'sh, Vaxtang, turklar Shushaga kelishi mumkinmi? Burnimizni tagida ekanlar, hatto Dashaltini ham egallashdi deyishyapti.

Vaxtang uni tinchlantirdi: - Xavotir olma! Shushaga turklar kelishi uchun "dux" bo'lishi kerak, ularda bu qaydan ham bo'lsin?

Shaharda qanchadan-qancha askar va texnikamiz bor. Bizni kim cho'ktira oladi? Bundan tashqari, komandir nima deganini eshitmadingizmi? - u biroz sukutdan keyin qo'shib qo'ydi.

- Komandir Pashinyanga juda ishonadi. Televizorga chiqib, turklarni ataylab Qorabog'ning ichiga chuqur tortyapmiz, keyin ularga hujum qilishimiz mumkinligini aytdi. Ana o'sha kun kelayapti.

Armen unga e'tiroz bildirdi:

- Agar Pashinyan yolg'on gapirsa-chi? Bunga qanday ishonishimiz mumkin? To'plar qulog'imizda gumburlaydi. Aytishlaricha, bu yerda oxirgi marta 1992-yilda to'plar gumburlagan ekan.

Shundan keyin yigirma sakkiz yil davomida Shusha atrofida snaryad ovozi eshitilmadi. Keyinchalik ular quyida bu shovqinlarni eshitdilar. Hammasi qanday tugaydi?

Vaxtang sigaretasini so'nggi bor tortib, etigi ostiga qo'yib, ezg'iladi.

Armen yana norozilik bildirdi:

- Bunday narsalarga e'tibor berma! Butun dunyo orqamizda turipti. Turklarning bu yerga kelishga g'ayrati bormi?

- Qo'ysan-chi Vaxtang! Aytishlaricha, PUAdan tashqari "ko'rinmas soya" askarlarini ham ixtiro qilibti ular. Hatto Amerikada ham bunday askarlar yo'q emish. Bir askarimiz ularni pastda ko'rib, o'q bilan ursang, yiqilib tushadi, dedi. Xuddi o'ldirdim deb o'ylaysan.

Hech qancha vaqt o'tmay u robotdek o'rnidan turib, o'q ochgancha ustimizga keladi. Biz turklar bilan jang qilmayapmiz...biz robotlar bilan kurashyapmiz. Keyin bu turk roboti xohlaganda g'oyib bo'ladi, ya'ni ko'rinmas holga keladi, deyishyapti.

Vaxtang uni masxara qildi:

- Ehhe, nima deyapsan, nima ko'rinmaydi? Agar shunday narsa bo'lganida, Fransiya buni bizga ancha oldin topshirgan bo'lardi, bunaqa narsalarni o'ylama. Ko'rinmas, sehrgarlar yo'q...

Vaxtangning gapi oxirga yetmadi. Xon saroyining vayron bo'lgan derazasida ikkita soya ko'rindi. Shu payt kumushrang yaltirab turgan ikkita pichoq osmonga ko'tarilib, ularning bo'g'ziga sanchdi. Ikkala arman askari ham bir-biriga hayron bo'lib qaragancha, xirillab yerga yiqildi.

Ular nima bo'layotganini hatto tushunishmasdi. Kelgan kishilar jimgina ularga yaqinlashib, bo'g'ziga tiqilib qolgan pichoqlarni chiqarib, hech narsa bo'lmagandek, yana soyalar ichida g'oyib bo'ldi.

To'rt yuz kishi maxsus maqsadli soyaga aylanib, Shusha ko'chalarida "Oquv" amaliyotini davom ettirardi.

Oxiri, armanlar ozarbayjon askarlari shaharda maxsus operatsiya o'tkazayotganini anglab yetdi, biroq ularning qayerdan kelganini hech kim tushunmasdi. Ular shaharga kiraverishda joylashgan post bo'limiga qo'ng'iroq qilib, turklar qayerdan kelib, qayerga ketganini so'rab, shaharning markaziga borishdi.

Post komandiri "Bu yerdan o'tmaganlar", dedi. Xo'sh, unda qayerdan o'tishdi? Bu jumboqli savol ostida armanlar paydar-pay o'q otishni boshladilar. Nima qora narsa ko'rsa, o'q otardilar. Otishma ovozi shaharni egallab oldi.

To'rt yuzta soya o'z ishini qilardi. Ular allaqachon to'pponcha bilan o'q otishi mumkin edi. Shaharda otishma ovozi kuchayishi ularning foydasiga bo'ldi. Mayor Huseynov navbatdagi buyrug'ini ratsiya orqali berdi.

-Bolalar, bu arman ko'ppaklari bizni hamma joyda qo'rquv va hayajon bilan qarshilaydi. Ularga bir-birini qirishiga imkon beraylik. Biz esa bir soat davomida "soya" ga aylanamiz. Ha, lochinlarim, Shushaning ozod bo'lishiga oz qoldi.

Birdaniga to'rt yuzta jangchi "soya"ga aylanib, ko'rinmas bo'lib qoldi. Shaharda otishma kuchaydi, armanlar talvasaga tushib qoldi. Ko'zlariga kim ko'rinsa, o't ochishardi.

Ular arman harbiy kiyimini kiyib, turklar ularga hujum qilishi mumkin, deb o'ylashgandi. Shunday qilib, ular hamma joyda otib, bir-birlarini o'ldirishdi. Dvigatellar ishga tushdi. Tanklar, BTRlar, BMPlar tezda shaharni tark etib, Xonkendi tomon yo'l oldilar. Bir necha soatdan keyin shahar huvillab qoldi, ammo haqiqiy jang hali oldinda edi.

"Turklarshaharda, qochinglar, jonlaringizni qutqaringlar" degan ovozlar tobora uzoqlashib borardi. Bu vaqtda shahar ko'chalarida yana "soya" jangchilar paydo bo'la boshladi.

Mayor Huseynov generalga hisobot berdi: - Janob general, "Oquv" amaliyoti tugadi. Shusha qo'limizda. Endi biz "Tozalash" operatsiyasiga o'tamiz.

General quloqlariga ishonmasdi. Uning ichida o'zi ham tushunmaydigan g'ala-g'ovur ko'tarilgandi. Hayajonlanib so'radi:

-Ovozingga qurbon bo'lay, mayor Huseynov! Hozir aytganlaringni yana takrorla. Quloqlarim quvonchdan karaxt bo'lib, yaxshi eshtolmay qoldim.

Mayor aytganlarini takrorladi:

Janob general, - u deyarli baqirib yubordi, "Shusha qo'limizda!" "Oquv" amaliyoti tugadi, endi "tozalash" operatsiyasiga o'tamiz ...

Xonkendida armanlar so'nggi kunlarni yashardi. Ozarbayjon armiyasi bu yerga kela olmasligiga, dunyo ruxsat bermasligiga amin edilar. Endi bu shaharda faqat armanlar yashaydi, deb ular o'zlarini xo'jayinlardek tutardilar. Sovet Ittifoqi davrida bu yerda o'n mingdan ortiq ozarbayjonlilar yashagan.

Saksoninchi yillarda boshlangan voqealardan so'ng, arman bo'lmaganlar Xonkendidanda zo'rlik bilan quvib chiqarildi, ba'zilari o'ldirildi, mol-mulki musodara qilindi. O'shanda dunyo ular tomonida edi.

Endi ular Shushadan tushayotgan askarlarni, o'liklarni, yaradorlarni ko'rib, bu ularning intihosi ekanini tushundilar. Bu safar ularning ko'chishi boshlandi. Shahardan to'g'ri Lochin yo'lagining oxirigacha mashinalar karvoni saf tortdi. Endi ularning ketish vaqti kelgandi. Ammo keymayotganlar ham bor edi.

Kasalxona yo'lagi yaradorlar va o'liklarga to'ldi. Fransiyaning "Figaro" gazetasi muxbiri ular orasida yurib, hayratini yashira olmadi.

Aytish mumkinki, olib kelinganlarning aksariyati yo o'ldirilgan yoki to'pponcha yoki pichoq zarbasidan yaralangan. U nima bo'layotganini tushunolmadi. Olib kelinganlarning hammasi Shushadan edi. Birinchi u Fransiya qo'ng'iroq qilib, bosh muharrir bilan suhbatlashdi:

-Qorabog'da g'alati voqealar sodir bo'lmoqda. Shusha shahrini eslaysizmi? Siz bu yerda bir marta bo'lgansiz.

Bosh muharrir uning so'zlarini tasdiqladi:

- Ha, go'zal joy, menga juda yoqgandi. Xo'sh, nima bo'ldi?

U voqeani aytib berishga harakat qildi:

- Shushadan bu yerga ko'plab yarador va o'lgan askarlar keltirildi. Ularning barchasi to'pponcha bilan otilgan yoki

pichoq bilan bo'g'izlangan.

Bosh muharrir qiziqish bildirdi:

- Shaharda urush ketyaptimi? - deb so'radi u.

- Yo'q, o'q ovozlari yo'q.

- Ular qayerdan keldi unda?

- Shushadan dedim-ku.

Bosh muharrir muxbirga topshiriq berdi:

- Tezda yaradorlardan, gapira oladiganlardan intervyu olib, yangiliklar blokini tayyorlab, tahririyatga yubor.

- Ho'p bo'ladi misyer!

Muxbir nihoyat yaradorlar orasida yurgan bir odamni topdi. Mikrofonni og'ziga olib borib so'radi:

- Gapira olasizmi?

Yengil yarador bo'lgan arman boshi bilan ishora berdi:

- Ha, bilaman.

- Unday bo'lsa, ayting-chi, Shushada nima bo'lyapti?

Askar og'riq va qo'rquvga to'la ko'zlarini muxbirning yuziga tikgancha javob berdi:

- Hamma joyda turklar bor. Shusha ko'chalarida yaradorlar va o'lganlar shunchalik ko'pki, bu yerdagilar chorak qismi ham emas.

U keyingi savolni berdi:

- Shusha hozir kimning qo'lida?

Askar yelka qisib:

-Bilmadim, bizda bo'lsa kerak deb o'ylayman.

Muxbir qo'lida ko'rsatib, yana so'radi:

-Unda bular qayerdan paydo bo'ldi?

-Bilmadim.

O'shanda bu yerga boshqa davlatlardan yuborilgan armanparast muxbirlar ham ularning atrofiga to'plangan edi.

Qiz unga quyidagi savolni berdi:

-Shushada dushmanni ko'rdingizmi? Sizni kim bu ahvolga tishirdi, kim bilan jang qildingiz?

Yarador askar xo'rsinib javob berdi:

- Shushada faqat soya koʻrdim. Yoʻq joydan toʻsatdan soyalar paydo boʻladi, pichoqni tomogʻimizga tortadi va keyin qorongʻilikka botadi. Biz hech narsa qila olmadik. Biz juda yaqin oʻq uzayotgandik, nishonga tegishini bilardik. Ammo oʻlgan yoki yiqilgan hech kim yoʻq edi. Biz ruhlar bilan kurashayotgandek edik goʻyo.

Kimdir orqadan savol berdi:

- Endi, hozir Shushada turklar oʻtirishibdimi?

Ular oʻgirilib, savol bergan odamga qarashdi. Ne koʻz bilan koʻrsinki, bir oz avval oʻsha rejim rahbari Araik Harutunyan kelib, ularning suhbatini tinglab, shu yerda toʻxtagan ekan. Jurnalistlar uni koʻrishi bilan yarador askar esdan chiqdi. Ular tezda unga mikrofonlarni tutib savol bera boshladilar.

- Shusha kimning qoʻlida?

Araik juda ishonchli javob berdi:

- Albatta bizni. Toʻgʻri, tunda otishma boʻldi, ammo biz diversantlarni zararsizlantirishga muvaffaq boʻldik. Endi Shusha toʻliq nazoratimizda.

Boshqa bir muxbir darhol soʻradi:

- Besh-oʻn nafar diversantlar guruhi shuncha askarni yaralab oʻldirishi mumkinmi? Shushada halok boʻlganlar va yaralanganlar soni bundan ham koʻpligini aytishmoqda.

“Rahbar” savoldan qochishga urindi.

- Hozir ularning barchasini tekshirishga harakat qilyapmiz. Tez orada Shushaga qoʻshimcha kuchlar yuboriladi.

“Le Monde” gazetasi muxbiri soʻradi:

- Askaringiz aytadiki, biz soyalar bilan jang qildik. Haqiqatan ham Ozarbayjonning “soya” askarlari bormi? Bu kasalxonaga olib kelinganlardan maʼlum boʻlishicha, qoʻl jangi boʻlgan.

Shushada jiddiy nimadir boʻlayotganini Arutunyan ham tushundi, lekin u yerda ozarbayjonlik askarni koʻrganini hech kim eslay olmadi.

U bu yerga kelishidan oldin bir necha kishidan soʻragan

edi. Hamma "soya" askarlar haqida gapirardi. Xonkendini ham g'ulg'ula bosgandi. Aholi allaqachon qochib ketayotgan edi. Endi ular Shushadagi "soya" masalasini eshitib, qochishlarini yanada tezlashtirdi.

Ozarbayjonga qarshi hech qanday provokatsiya o'z armiyasining oldinga siljishiga to'sqinlik qila olmadi, hatto "Iskandar" nomli ballistik raketa ham. U achchiq jilmayishdan to'xtamadi. Darhaqiqat, bu achchiq tabassum qo'ldan boy berilgan g'alla dalalari va vino zavodining alami edi. Uni bu askarlardan ko'ra ko'proq yo'qotgan millionlari qayg'uga solardi.

U qat'iy gapirdi:

- "Soya" askarlar yo'q, Shusha, takror aytaman, ular bizning nazoratimiz ostida. Bugun bo'lmasa, ertaga hammamiz birga boramiz. Vahima tarqatishning hojati yo'q. Endi urushdan ko'ra ko'proq axborot urushi bo'ladi...

Oltinchi noyabr edi.

Yomg'ir yog'adiganga o'xshardi. Ob-havo bulutli bo'lganligi sababli, PUA-larni ko'tarish kerak emas edi. Brigada komandiri polkovnik Zaur Zeynalov radio orqali general bilan bog'landi.

- Janob general, razvedka ma'lumotlariga ko'ra, Xonkendi tomondan Shushaga qarab juda ko'p tanklar va zirhli texnikalar harakatlangan. Shaharni himoya qilish qiyin bo'lsa-da, bu bizning sharafimizdir. Biz shahid bo'lamiz, lekin bir qadam ham ortga chekinmaymiz.

Mirzayev vaziyat jiddiy ekanini tushundi, ammo ortga burilish yo'q edi. Yigirma sakkiz yillik Shusha sog'inchi nihoyasiga yetayotgandi. Vatan urushi xalqning umidi va g'ururini tikladi.

- Janob polkovnik! - Nihoyat u gapirdi. Shushani himoya qilish kerak, dushmanni orqaga quvib solamiz. - U hali ham umid qilapdi. - Siz u yerda himoya qilayotganingizda biz Xonkendinga bu tarafdin kirganimizni ko'rdingiz. Biz dushmanni yer tishlatdik.

Armanilar endi Shushani ololmasliklarini, butunlay magʻlub boʻlganliklarini tushunadilar. Ular biror jangda gʻalaba qozonib, jangchilarning ruhini koʻtarishga harakat qilishdi. Tushunyapsizmi, janob polkovnik?!

Zeynalov darhol javob berdi:

- Ha, janob general.

- Juda yaxshi. Qal'ani qoʻriqlash uchun kimnidir tayinladingizmi?

- mayor Zaur Huseynovni.

- Juda yaxshi. Biz dushman kuchlarini chalgʻitish uchun manevr qilishga harakat qilamiz. Alloh madadkor boʻlsin!

Toʻrt yuzta maxsus kuchlar, juda qisqa vaqt ichida butun dunyoga mashhur boʻlgan toʻrt yuzta “soya” askarlar, toʻrt yuzta shahid boʻlishga shay mardlar, Vatan uchun sherdek jang qilishga tayyor boʻlgan toʻrt yuz nafar yigit, ona vatan uchun, bayroq uchun Shusha mudofaasiga tayyorgarlikni tugatdi.

Ularning koʻzlarida gʻurur bor edi. Ular qoʻrquv nimaligini bilmasdilar.

Toʻrt yuz kishi engil qurollar bilan qurollangan edi: bir nechta tankga qarshi granatalar, qoʻl granatalari, avtomat miltiqlar, toʻpponchalar, nayzalar - bu butun jangovar arsenal edi, ammo ular hatto quruq qoʻllari bilan boʻlsa ham dushmanga qarshi turishga tayyor edilar.

Yana toʻqson ikkinchi yilda boʻlgani kabi, Shushaga Xonkendidan raketa va snaryadlar otildi. Osmonda tosh-tuproq boʻlaklari oʻynab, yerga tushgach, gʻalati tovushlar chiqarib, sachrardi.

Bu safar jangchilar qal'a devorlari bilan himoyaladi. Qal'a devorlari ularni toshlar bilan ustini yopgandi. Bombardimon toʻxtagach, qal'a boshligʻi boshini koʻtarib, yoʻlga qaradi. Tanklar tepalikka gurillab chiqardi. Mayor praporshik Dadashni yoniga chaqirdi:

-Praporshik, - dedi u, - granatani uloqtirish kerak. Qaysi tankni ura olasan?

Dadash qo'lini qoshi ustiga qo'yib, bir ko'zini qisgancha gapirdi:

- Masofa 60–80 metrni tashkil qiladi. Qaysi birini ota-man, janob mayor?

Mayor granatomyotni olib, buyurdi:

- Uchta granatomyot - uchta nishon, bitta granata - bitta tank. Sen ikkinchisini ot, biz birinchi, uchinchi, to'rtinchi tanklarni otamiz. Tayyor bo'l! Yo Olloh!

Bir vaqtning o'zida otilgan snaryadlar va granatalar to'rtta tankni portlatib yubordi.

O'sha paytda shunday gumbrulashlar eshitildi-ki, go'yo dronlar ularning ustiga snaryadlarni tashlayotgandek edi. Armanlar sarosimaga tushdilar. Ular hech narsani tushunmay, orqaga chekinishdi. O'shanda qal'a tepasidan snayperlar ishga kirishdi. Bitta zarba - bitta nishon.

Tanklar yo'lni to'sib qo'ygani sababli, qolgan texnika orqaga chekindi, lekin uzoqqa bormadi. Yana Xonkendidan Shushaga raketa va snaryadlar ucha boshladi.

Qal'a devorlari askarlarni himoya qilgan bo'lsa-da, shahidlar va yaradorlar bor edi, lekin armanilar bundan nariga ko'tarilishga jur'at eta olmadilar. Ular hujumni davom ettirish uchun ertalab bo'lishini kutishardi.

Tun yarmi asta yorisha boshlayotgani. O'shanda qal'a boshlig'i bir guruh jangchilarga hech kimning xayoliga ham kelmagan buyruq berdi...

Bir guruh maxsus so'qmoq bo'ylab kelganidek pastga tushdi. Tun zulmati ularni yana "soya" askarga aylantirdi. Armanlar hatto sovuqda olov yoqmagan, shuning uchun hamma narsa yuqoridan kaftdek ko'rinardi. Arman askarlariga chekish ham taqiqlangandi.

"Soya" askarlari yana jim mushuk yurishi va sher yuragi bilan eng olis arman otryadi tomon harakatlanishdi. Ular hatto suhbatlarini ham eshitdilar.

Askarlardan biri arman tilini bilgani uchun ularning gaplarini tushundi, lekin endi bu yerda tarjima qilish

So'qmoq

o'rinsiz bo'lardi. Sukunat va to'satdan hujum dushmanni sarosimaga solishi, qo'rquvni keltirib chiqarishi va oxir-oqibat uni mag'lub etishi kerak edi.

Ularning suhbatidan dushmanning sillasi quriganini, jang qilishga ham ishtiyoqlari yo'qligini tushundilar. Kichkina hujum bilan ularni mag'lub qilish mumkin. Guruh ikki qismga bo'lindi.

Guruh hujum qiladigan yo'nalish barmoq ishoralari bilan ko'rsatildi. Birinchi guruh oxirgidan oldingi guruhga, ikkinchi guruh esa quyruq guruhiga hujum qiladi.

Shunday bo'ldi ham. Shu bilan birga, guruhlarning bir chetidan "soya" askarlar kirib, bir chetidan chiqib ketishdi. Ular shunchalik tez va favqulodda harakat qilishdiki, arman askarlari nima bo'layotganini ham tushunolmadi.

Pichoq bo'g'ziga tortilgandan keyingina umrlari poyoniga yetganini tushunishdi. Har ikki guruh arman askarlarini bir vaqtning o'zida tinchitdi. Atrof qonga to'lgan edi. "Soya" askarlar qorong'u parda ortida g'oyib bo'ldi.

Arman askarlaridan biri o'zining kichik ehtiyojini qondirish uchun butaning orqasiga o'tgandi. Qaytib qarasa, safdoshlari yerda yastanib yotardi.

Avvaliga ular uni masxara qilishyapti, deb o'yladi. Yana birini tepib so'kindi:

- Ey, ahmoq k... (onangni...) hazillashyapsanmi? Tur, uxlasang turklar kelib damingni beradi.

Qarasa, hech kim unga javob bermayapti. U egilib, askarning yoqasidan tutdi va uni ko'tarmoqchi bo'ldi. Birdan qo'llari ho'l bo'layotganini his qildi. Burniga yaqin olib, hidlagan edi qon hidi keldi.

U darhol avtomatidan o'q uzdi va baqirdi:

"Soya" askarlar, "soya" askarlar, joningiz aziz bo'lsa qochib qoling.

Bu uning oxirgi gapi edi. Osmonda aylanayotgan pichoq to'g'ri ko'kragiga tiqildi.

Arman askarlari orasida vahima paydo bo'ldi. "Soya" so'zi

askarlarni shu qadar qo'rqitib yubordiki, qayerdan tovush kelsa, o'q uzardi. Ular uzoqdan qora tuynukni ko'rishlari bilan avtomatlarning uchlarini o'sha tomonga qaratib, miltiqni oxirigacha bo'shatishardi.

Birozdan keyin hammasi qochishga tushdi. Kimdir Xonkendiga, kimdir Lochin yo'lagiga, yana kimdir tog'-o'rmonga chiqdi.

Texnikalarning boshqaruvchilari ham qolmadi. Arman askarlari qochar, jonlariga qasd qilar, o'lar va o'ldirishardi. Yo'l yaradorlar va jasadlarga to'ldi.

Ertalab Shusha yo'lida hech kim qolmadi. Irmoqdan tushgan "soya" askarlar bu vaqt o'liklarning ustidan odimlab Shushaga boradigan asfalt yo'lga chiqishdi. Otryad komandiri polkovnikga radio orqali xabar berdi.

- Janob brigada komandiri, pastda hech qanday xavf yo'q. Biz asfalt yo'lga chiqdik.

Ular bu xabarni eshitishi bilan qal'adan salyutlar otildi. Xonkendida turklar so'nggi arman askariga o'q uzyapti, deb o'ylashdi. Bu haqda darhol qo'mondonlikka xabar berildi.

Yettinchi noyabr kuni soat ikkiga kelib, shaharni yaxshilab tozalashdan so'ng, asosiy masalaga o'tildi. Bosh praporshnik mayor Huseynovni atrofida aylanib yurar, bir nima demoqchi bo'lsa ham, tiyilardi. Nihoyat mayor undan so'radi:

- Yashar, yaxshimisan? Atrofimda xuddi girdikapalakdek aylanib yuribsan. Gaping borga o'xshaydi. Bosh praporshnik yashirinch a tushuntirmoqchi bo'ldi:

- Janob mayor, so'qmoq.

Huseynov o'zini bilmaganday qilib so'radi:

- Nima so'qmoq?

- so'qmoq ham, bayroq ham, osmoq ham...

Mayor uning yelkasiga qoqib kuldi.

- Ha, so'qmoq bergan va'dani bajaraman, ya'ni bayroqni men osaman demoqchimisan?

- Hada...

Mayor rasmiy qiyofaga kirdi:

- Bosh praporshnik Yashar Huseynov! - U gʻoz turdi va toʻxtadi. - Komandirlikdan uch rangli bayrogʻimizni Shusha samosida baland koʻtarish sizga ishonib topshirildi.

Agar shu soatda, shu daqiqada unga dunyoning butun boyligini bersa ham, u buni qabul qilmasdi. Bu soat, shu lahzada uning oʻzi ham osmonga koʻtarilayorgan bayroqdek samoda uchib yurardi. U oʻng qoʻlini chest berib koʻtardi:

- Hoʻp boʻladi janob komandir, bu men uchun sharaf! -pichirlab qoʻshib qoʻydi. -Rahmat, komandir, soʻzimni yerda qoldirmadingiz. Allohga shukr!

Tozalash operatsiyasidan soʻng Shushaning eski mehmonxonasining toʻrtinchi qavatiga beshta snayper qoʻyildi. Bu yerdan shaharning har bir qismi kaftdek koʻrinar, har bir yoʻnalish kuzatilardi.

Yigit bayroqni oʻpdi-da, koʻkragiga mahkam bosib ijroiya hokimiyati binosi tomon chopdi. Oʻshanda yigirma sakkiz yildan soʻng Shushadan azon ovozi eshitildi: "Allohu akbar! Allohu Akbar!"

Arman bayrogʻi pastga uloqtirilganda yirtilib ketdi. Guyo, u bu yerning abadiy egasi boʻla olmasligini tushunilgandek! Ozarbayjon bayrogʻi yuksakka koʻtarilgach, askarlar davlat madhiyasini kuylay boshladilar.

"Ozarbayjon, Ozarbayjon!

Ey, qahramon avlodning shonli Vatani!

Biz sen uchun jon chekishga tayyormiz!

Biz siz uchun qon toʻkishga tayyormiz!

Uch rangli bayrogʻingla ma'sud yasha..."

Madhiya tugagach, kimdir "Bayoti-Sheroz" ustida Molla Panoh Voqifdan gʻazalini goʻzal ovozda kuylay boshladi:

Xurmor-xumoq boqmoq koʻz qoidasi,

Loladek qizarmoq yuz qoidasi,

Parishonlik zulfning oʻz qoidasi,

Na bodi-sabodan, na shonangdandir!

Yunus O'g'uz

8-noyabr kuni Oliy Bosh qo'mondon Ozarbayjon televideniyesi orqali xalqqa murojaat qildi:

Aziz Shusha, sen ozodsan!

Aziz Shusha, biz qaytdik...

SO'NGSO'Z.

SO'QMOQ tugadi, Ozarbayjon katta yo'lga chiqdi. Mamlakatni dunyoga tanitgan Buyuk YO'Lga. Qirq to'rt kunlik urush tugadi, ammo kurash davom etmoqda. Vatan urushi yigirma birinchi asrning yangi gibril urushiga asos soldi.

Bu urush gibril deb atalishining sababi, u besh komponentni (klassik urush, axborot, yangi texnologiya, tashqi siyosat va xalq kuchlari ittifoqi)ni birlashtiradi. Ozarbayjon Buyuk yo'lga kirishi bilan mintaqada yetakchi davlatga aylandi va bu davom etmoqda.

Vatan urushi, Shushaning ishg'oldan ozod etilishi xalqning ishonchini tikladi. Bu xalqning davlatga, uning armiyasiga ishonchini kuchaytirdi. Kuch esa birlikdadir.

Xonliklarning birortasi ham xalqni yagona millatga aylantira olmagan uchun yo'l solib, katta yo'lga tusha olmadi.

Panahali xonning xalqqa qilgan xizmati shundan iboratki, Shushani barpo etish asnosida bu shaharda yuzlab ziyolilar, shoirlar, sozandalar, so'z sohiblari, harbiylar tug'ildilar. Ularning ovozi, ilg'or g'oyalari dunyoga yoyildi.

Shushaning bosqinchilardan ozod etilishi xalqni birlashtirdi, ammo armanlarni ikkiga bo'ldi. Armanlar va ularning homiylarining barcha rejalari puchga chiqdi. Oradan ko'p o'tmay, Pashinyan vazirlar mahkamasiga iste'fo berdi.

Shusha millatning butun ruhini qaytardi, chunki tarqoq ruh yerni ham xalqni ham barbod qiladi.

Shusha SO'QMOQni Zafar yo'lga aylantirdi.

Endi so'qmoq yo'q. Nasriddin Murod yangi qurilgan Zafar yo'li bo'ylab mashinada Shushaga yo'l oldi, o'tmishni esladi, ko'zlarida yosh bilan atrofga alangladi. Bu so'qmoqni G'alaba yo'liga aylantirishda xalq vakili sifatida oz bo'lsada hissasi borligidan xursand edi. – "Endi o'lsam ham bo'laveradi".

SO'QMOQning Zafarli yo'li esa davom etmoqda...

Yunus O'g'uz

SO'QMOQ

(tarixiy roman)

**Shusha shahri barpo etilganligining 270 yilligi va
44 kunlik Vatan muhorabasiga bag'ishlanadi**

Muharrir:

A. Xudoyberdiyev

Texnik muharrir:

R. Temirov

Musahhih:

M. Tashxanova

Bosishga 2023-yil 28-oktyabrda ruxsat etildi.

Bichimi: 60x84 1/16. Bosma tabog'i: 16.5

Adadi: 200 nusxa. Buyurtma: 146

Nashriyot manzili:

«Renessans press» nashriyoti, Toshkent shahar,

Bobur ko'chasi, 73b-uy. Tel.: (99)910-34-53

«Renessans press» MCHJning matbaa

bo'limida chop etildi.